

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

OYBEK RASHIDOV

**O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO
MUNOSABATLAR VA
BAG‘RIKENGLIK**

*70220301 – Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)
mutaxassisligi magistrлари uchun o‘quv qo‘llanma*



Тошкент – 2022

UO'K 323.1(575.1)(075.8)

KBK 66.3(5O')ya73

R 31

Rashidov Oybek.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik [Matn]: o'quv qo'llanma / O.Rashidov. — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.- 200b.

UO'K 323.1(575.1)(075.8)

KBK 66.3(5O')ya73

Mas'ul muharrir:

Murtazaeva Rahbar Hamidovna – tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon Kenjaevich – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Hayitov Shodmon Axmadovich – tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mahmudjonovich – tarix fanlari doktori, professor

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlari hamda bu borasida olib borilayotgan keng islohotlar tahlili keltirilgan. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, irqi va dinidan qat'iy nazar o'zbek xalqini tashkil etishi hamda barcha millatlar hamjihatlikda respublika taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shayotganligi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratilgan.

В данном пособии представлен анализ исторических корней толерантности и межэтнических отношений в Узбекистане, а также масштабных реформ, проведенных в этой связи. Внимание уделяется аспектам, связанным с становлением узбекского народа независимо от национальности, расы или вероисповедания, проживающего в Узбекистане, а также тому факту, что все нации вносят свой вклад в гармоничное развитие Республики.

This handbook provides an analysis of the historical roots of tolerance and interethnic relations in Uzbekistan, as well as the extensive reforms carried out in this regard. Attention is paid to the aspects related to the establishment of the Uzbek people regardless of nationality, race or religion living in Uzbekistan, as well as the fact that all nations contribute to the development of the Republic in harmony.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2022 – yil 26 – dekabrda "587" – sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 587 - 14

ISBN 978-9943-8574-6-9

© Oybek Rashidov

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millatlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta‘minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, turli millat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Zero, yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti, tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

Millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglikning huquqiy asolari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy siyosatni muvofiqlashtiruvchi qonunlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan demokratik tamoyillariga tayanadi. Mazkur qo‘llanmada o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, uning tarixiy ildizlari hamda bugungi taraqqiyotda milliy masalaning o‘rni tahlil qilindi. Milliy jarayonlarning mohiyatini tushunish, yosh avlod tarbiyasiga oid ta’sirchan siyosatni ishlab chiqish, yoshlar orasida millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish metodlarini yaratish uchun millatlararo bag‘rikenglik masalasi benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyolik mutafakkirlar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur meroslarida hamda jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabilarning asarlarida Turkiston mintaqasida yashayotgan barcha xalqlar hamjihatlikda yashash lozimligi keltirilib, tolerantlik g‘oyalari ilgari surilgan.

Oliy o‘quv yurtlarida “Tarix” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan magistrilar uchun mo‘ljallangan ushbu o‘quv qo‘llanma

O'zbekistonda turli tarixiy davrda xalqlararo munosabatlar, bag'rikenglik, tolerantlik bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'lishga ko'maklashadi.

Har bir mavzu so'nggida talabalar va magistrLAR tomonidan o'zlashtirilish zarur bo'lgan tayanch tushunchalar berilgan bo'lib, ular yordamida o'qituvchi o'tilgan mavzuning tinglovchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini aniqlashi mumkin. Nazorat uchun berilgan interfaol metodlar hamda savol va topshiriqlar magistrLarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo'yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

1-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA TOLERANTLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Tolerantlik tushunchasi va uning mohiyati.
2. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining maqsad va vazifalari.
3. Tolerantlikning belgilari va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

1. Tolerantlik tushunchasi va uning mohiyati. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-ma’naviy hayotimizda tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlar qayta tiklanib, xalqimizdagi sharqona fazilatlar, ilg‘or va bunyodkor g‘oya, mafkura hamda ma’naviyat kundalik amaliy hayotimizga keng kirib keldi. Ular istiqlolni eng muhim vositalari sifatida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, komil inson va sog‘lom jamiyat yaratishning eng muhim omili sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tiklash, poklash va rivojlantirishga zaruriy imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa mustaqillikni yanada mustahkamlash, jamiyatni insonparvarlashtirish, modernizatsiyalash va erkinlashtirishga hamda jahondagi dinlararo o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, ijtimoiy hayotimizda ezgulik va poklanish bilan barobar tolerantlik, diniy-an‘anaviy va axloqiy bag‘rikenglik mustahkam o‘rin egallamoqda.

Tolerantlik – keng miqyosli tushuncha. U jamiyat hayotiga ta’sir qiluvchi inson sog‘ligidan tortib, axloq va qonuniylikkacha bo‘lgan jihatlarni qamrab oladi. Tolerantlik atamasini 1953 yilda ilmiy muomalaga kiritgan P.Madevarning fikricha, tolerantlik immunitetiga ega bo‘lgan sog‘lom organizmning yot jismlarga qarshi immun ta’sirining susayishi yoki yo‘qolishidir. Tolerantlilik (lot. - chidamoq) – a) O‘zgalar turmush tarziga, hatti-harakatiga, urf-odatlariga, his-tuyg‘ulariga nisbatan chidamlilik. b) Noqulay emotsional omillarga nisbatan chidamlilik (“Sotsiologik eksiklopedik lug‘at”, M., 1998, 370-

b.). Rossiya sotsiologik ensiklopediyasida ham tolerantlik atamasiga xuddi shunday ta'rif beriladi.

Tolerantlik qachon va qanday vaziyatlarda dunyo madaniyatiga kirib kelgan. Manbalarda ko'rsatilishicha:

Ispan tilida (Tolerancia) “fikir va g'oyalardan eng yaxshisini tan olish” deb, tarjima qilinsa;

Ingliz adabiyotlarida “toqatlilik, sabr va chidamlilik”;

Xitoy (kaun rong) manbalarida “boshqalarga nisbatan bag'rikeng munosabatda va kelishuvchan bo'lish”;

Arab tilida (tasam'ul) “kechirish, muloyimlik, rahmdillik, sabr-toqatlilik” deb ta'rif beriladi. Yuqoridagi ta'riflarni umumiy bir tizimga keltirsak, tolerantlik – lotincha “tolerantia” sabr – toqat, jamiyatdagi turfa madaniyatlik, turli fikrlilikning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to'g'ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabatdir.

Tolerantlik – o'zbek tili atamasi bilan izohlasak millatimiz har bir insonga xos bag'rikenglik odamlarga himmat va muruvvatli, mehr-oqibatli, samimiy, g'amxo'r va e'tiborli, sabr-qanoatli, kechirimli bo'lishini anglatadi. Keng ma'noda bag'rikenglik hamisha insonga xos eng oliy xulq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan, odamlarni bahamjihat yashashlariga ko'maklashish, odamlarda hayotga, orzu-maqсадlarining ijobat bo'lishiga ishonch hissini uyg'otish hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarini engib o'tishlarida kuch-qudrat, iroda, tetiklik tuyg'usini uyg'otish, umuminsoniy diniy va milliy qadriyatlarni saqlash, ularni poklash va mukammallashtirish bilan birga bu qadriyatlarning avloddan-avlodga vorislik qonuni asosida etkazishga xizmat qilmog'i lozim. Buning uchun yurt fuqarosi, ayniqsa, o'sib kelayotgan barkamol avlod xulq-odobida kuyunchaklik, yangilik yaratishga ishtiyoq, bunyodkorlik fazilatlari shakllanishi lozim. Bunda shaxslar bezovta qalbi, beorom tafakkuri, ezgulikka yo'naltirilgan shuur va shukuhi bilan xalqni olg'a boshlaydilar, millat ruhini uyg'otadilar, kuchiga kuch qo'shadilar. Yurtimiz fuqarosining kamoloti – yurt kamoloti, erkinligi va ma'naviy-axloqiy etukligi el, millat erkinligi va barqarorligidir. Bu esa har bir kishidan o'zligini anglash, haq-huquqini

tanish, atrofidagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yurt, millat, davlat, dunyo manfaatlari bilan uyg'un holda anglash, boshqalar ahvoli, faoliyati, hatti-harakati va insoniy munosabatlariga adolat, muruvvat va iltifot nuqtai nazaridan qarashini taqozo qiladi. Xalqimizning hayotbaxsh ma'naviy-axloqiy fazilatlari ijtimoiy hayotimizning ko'p sohalarida namoyon bo'lmoqda. Xalqimizning turmush tarziga xos muruvvat, sahovat, iltifot, himmat va bag'rikenglik, o'zbek xalqiga xos betakror, milliy qiyofa baxsh etmoqda. Bu fazilatlar o'z navbatida yurt barqarorligiga, tinchlik osoyishtalik, millatlararo totuvlik, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilmoqda. Yurt istiqboli va istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishga xizmat qiluvchi omillarga aylanmoqda.

Insoniyat ibtidosidan inson eng oliy qadriyat sifatida qadrlangan. Olloh taoloning eng oliy ne'mati ham insondir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "inson qadri uchun" shiori davlat siyosatining insonparvarligidan dalolat bermoqda. Inson kamoloti, salomatligi, uning mukammallikka erishuvi Sharqda qadimiy xalq og'zaki ijodiyoti, maqol va naqllarda, rivoyat va ertaklarda, ayniqsa, muqaddas kitoblarda, alloma, mutafakkir, tasavvuf ta'limoti, qarash va g'oyalarida alohida o'rin egallagan. Halollik, muloyimlik, saxovat, insonparvarlikka etaklaydi. Bu orzu umidlar mustaqillik sharoitida inson hayotining hamma jabhalarida o'zini ro'y-rost namoyon etmoqda.

Kishilarning hayotiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular o'z atroflarida nafaqat moddiy dunyoni, balki insoniy munosabatlar dunyosini ham yaratadilarki, bu munosabatlar ijtimoiy axloq tizimini tashkil etadi. Bu ahloq esa ma'lum milliy va madaniy hamjamiyatlar uchun harakterli bo'lgan urf-odatlar, an'analar, me'yorlar vositasida boshqariladi. Turli mamlakatlar aholilari, har bir alohida ijtimoiy guruh, qishloq va shahar aholisi - xullas barcha odamlar o'z qoidalari, urf-odatlar va an'analari dunyosida hayot kechiradilar. Bu dunyo o'ziga xos til, xulq-atvor, e'tiqod, estetik qarashlar tizimi, ijtimoiy institutlarda namoyon bo'ladi.

2. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining maqsad va vazifalari. O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi. YAshab turgan hududimiz umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hamda Buyuk ipak yo‘li kesishgan mintaqa bo‘lganligi bilan ko‘p xalqlar o‘tmishidan guvohlik beradi.

Fanning dolzarbligi shundan iboratki, talaba va magistrning O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fani bo‘yicha bilim va dunyoqarashini boyitish, ularda bag‘rikenglik va millatlararo do‘stlik g‘oyalarini uyg‘otish, fanning nazariy va amaliy xususiyatlari davlatimizda olib borilayotgan keng islohotlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Fanning ahamiyati. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fani yoshlarga xalqimizning o‘tmishini aks ettiruvchi qadimgi va bugungi tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi. Ushbu fan yoshlarni millatparvar, vatanparvar, bag‘rikent, tolerant, ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fani orqali davlat milliy siyosatining asoslarini talaba va magistrning tushuntirish, ularni bosh qonunimizda belgilangan O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millati, irqi va dinidan qat’iy nazar o‘zbek xalqini tashkil etishi hamda barcha millatlar hamjihatlikda yashashi lozimligi, barcha bir tanu, bir jon bo‘lib respublika taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi kabi ulug‘ g‘oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko‘maklashishdan iborat.

Fanning maqsadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqining tarixi juda qadim va katta davrni hamda juda keng geografik mintaqani, shuningdek, tub burilish, yuksalish va inqiroz bosqichlarini ham o‘z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqea va hodisalarga, turli xalqlar, har xil diniy va madaniy qatlam, g‘oyaviy dunyoqarash, falsafiy oqimlarga boy, jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy va navqiron o‘choqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining maqsadi ham tariximizni yoritish, jamiyat hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berish, talaba va magistrning tarixiy tafakkurini yuksaltirish,

millatlararo munosabatlar va tolerantlikning ilmiy-nazariy jihatlarini tushuntirishdan iborat.

Fanning vazifalari:

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlikning barcha jihatlarini ilmiy tahlil etish;

millatlararo munosabatlar va tolerantlikning davlat hamda jamiyat ravnaqidagi o‘rnini talabalarga tushuntirish;

talaba va magistrlarda millatlararo munosabatlar va tolerantlik haqidagi tushuncha va ko‘nikmalarni hosil qilish;

O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlikning ilmiy asoslarini o‘rganish;

tarixiy dunyoqarashni millatlararo munosabatlar va tolerantlik asosida rivojlantirish;

millatlararo munosabatlar va tolerantlikning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi hamda o‘zbek xalqning dunyoqarashini yuksaltirishdagi rolini tahlil etishdan iborat.

Har bir shaxs atrof muhitni individual idrok etishi tufayli u *autguruh* (bu o‘rinda mazkur shaxs mansub bo‘lmagan guruhni bildiradi) vakili mansub bo‘lgan madaniy muhit xususiyatlarini o‘zicha tushunadi. Jamiyatda ma’lum bir guruh markaziy hisoblanib, qolgan boshqa guruhlar esa unga nisbat berilgan qarash etnotsentrizm deb ataladi. Etnotsentrizm ayrim holatlarda shaxsning autguruh vakilining madaniy qadriyatlariga nisbatan dushmanona munosabatining sababchisiga aylanishi mumkin. Bunday qadriyatlarga biz, E.Teylorga ergashgan holda, bilimlar, e’tiqodlar, san’at, axloq, qonunlar, odatlarni kiritamiz.

Xalqimizga xos tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik o‘zining qadimiy ildizlari va tarixiga egadir. Bag‘rikenglikni anglash uchun uzoq moziyga nazar tashlash lozimdir. Ulug‘ Sohibqiron Amir Temur Turon xalqi haqida mushohada yuritganda uning ildizi chuqur, tarixi qadimiy, turk xalqining bosh tomiridir, degan bo‘lsa, XX asr ulug‘ adibi, buyuk shoirimiz G‘afur G‘ulom “O‘zbek xalqining tarixi Misr ehromlaridan ham qadimiydir”, - degan edi. Haqiqatdan, moziyga nazar tashlasak, inson mehnat orqali insoniyat rivojining ma’lum bosqichida odamning

insonlashuvi jarayoni muhim omillardan biri bo'lib, shu tariqa ma'naviy-axloqiy jarayon shakllana boshlagan. Turli bosqichlarni bosib o'tgan. Bu bosqichlardan o'tishda xalqimiz benazir go'zallik va falsafiy teranlik, ezgulik, odamiylik, ayniqsa, muruvvat, iltifot bilan sug'orilgan fazilat-xislatlar millatimizni ko'z-ko'z qiluvchi haqiqiy qudratini, o'ziga xos xususiyatlarini so'nmas mayog'iga aylangan. Moziy bulog'idan oziqlangan bag'rikenglik, muruvvat va saxovat yangicha mazmun-mohiyat, serqirra qiyofasi bilan bugungi hayotimizda bo'y ko'rsatmoqda. Ma'naviy uyg'onish cheksiz borliqning insoniyat ruhiyatida ifodalanishi hamda ijtimoiy hayotda o'zligini anglash aql-idrok bilan yaxshilikni-yomonlikdan, ezgulikni jaholatdan, adolatni-razillikdan, bag'rikenglikni xudbinlikdan, ogohlikni loqaydlikdan ajrata bilish kabilarni belgilaydi. Yurtimiz kelajagi buyuk jamiyat sari qadam tashlab, milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar sarchashmasidan bahramand bo'lgan mamlakatga aylanmoqda. Tolerantlik ham milliy qadriyatlarimiz ichida o'z mazmun-mohiyati, mavqei, insonlar hatti-harakati, faoliyati, fikr-dunyoqarashi va o'zaro munosabat madaniyatida ma'naviy-axloqiy ahamiyati yuksak qadriyat sifatida rivojlanmoqda. Har bir yurtdoshimiz bir-biriga daxldor, suyanch va tayanch ekanligini, birbirlariga rahnamo, hamdam va hamdard ekanliklarini chuqur anglab odamiylik, insonparvarlik, muruvvatpeshalik fazilatini hayot va sog'lom turmush tarziga xos ekanligini anglab, ijtimoiy hayot jabhalarida kishilarga himmat, muruvvat va saxovat qo'llarini uzatmoqdalar, insonlar bilan mavjud bo'lgan munosabat madaniyatga, hodisa, voqealar, boshqalar fikri-zikri, quvonch va tashvishlariga vijdon amiridan kelib chiqib, adolat, xaqiqat mezoniga suyanib ish tutmoqdalar. Bu bilan kishilar o'rtasida tinchlik-totuvlik, mexr-oqibat, poklik va halollik urug'ini sochmoqdalar. Kattalar o'rtasidagi bunday go'zal fazilatlar yoshlarimizga ibrat maktabi, hayot yo'lida yo'lchi yulduz bo'lmoqda. Bu fazilatlar orasida bag'rikenglik alohida o'rin tutmoqda. Chunki inson ushbu erkin va ozod jamiyatda yashar ekan, u hamma xaq-xuquqqa ega teng, ozod, fikr, faoliyat, xulq-odob, yashash, ijod qilish, dam olish, sog'ligini muhofaza qilish, iqtidor, salohiyatini namoyon qilish imkoniyatiga ega jamiyat fuqarosidir. Biror fuqaroning erki,

tengligi, jamiyatdagi mavqei poymol bo'lishiga qomusimiz yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga har bir yurt fuqarosi jamiyat a'zosi sifatida mavjud hayotiy imkoniyatlardan bahramand bo'lish xuquqiga ega bo'lmoqda. Ammo hayotda insonlar har xil jismoniy, moddiy, ijtimoiy, ma'naviy extiyoj va manfaatlarini to'la qonli qondirish holatidan maxrum bo'lishi mumkin. Bular qatoriga nogiron, sihatligi va ruhiy kasaliligi tufayli normal hayot baxtidan mahrum, moddiy jihatdan muxtoj, yolg'izligi tufayli qarovchisi yo'q, yordamga intiq yurtdoshlarimiz borligi sir emas. Xalqimiz milliy xususiyatlariga xos bo'lgan boqiy fazilatlardan bag'rikenglik, muruvvat, himmat, saxovatpeshalik, daxldorlik, oliyjanoblik, odamiylik, mexr-oqibat, g'amxo'rlikni aks ettiruvchi axloqiy qadriyatlar keng quloch yozib, ko'ngil, qalbi ma'naviy kemtik insonlarga baholi qudrat yordam qo'lini cho'zib, moddiy manfaat etkazadiganlarni har burchakda uchratish mumkin. Buning yorqin dalili yurtimizda mustaqillik sharofati bilan o'lmas, oliyjanob qadriyatga aylangan-har bir yilning inson manfaati va maqsadidan davlat ustuvor siyosati sifatida amaliyotda joriy etilayotgan maqsadli vazifalarni ado etishga yo'naltirishi dunyodagi biror mamlakatda mavjud emas. Bu yillarning maqsadi "Inson manfaatiga xizmat qilish" dan iboratdir.

3. Tolerantlikning belgilari va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Tolerantlikning yagona ilmiy ifodasini berishga intilishda kattagina qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklarning sababi "tolerantlik" so'zining turli bilim sohalarida - etika, psixologiya, siyosat, dinshunoslik, falsafa, tibbiyot va hokazolarda qo'llanib, shu sohalarga bog'liq holda talqin etilishidadir.

V.I.Dal lug'atida (4-jild) "tolerantlik" rahm-shafqat, marhamat yuzasidangina kimgadir yoki nimagadir chidam bilan qarash xususiyati, sifati deb talqin etiladi. Ko'pchilik zamonaviy lug'atlar bu talqinni deyarli takrorlaydi. "Tolerantlik" so'zi bilan ifodalanadigan sifatning zarurligi va ijobiy mohiyatini ochib beruvchi kengaytirilgan ta'rifni biz "Kratkaya filosofskaya ensiklopediya" (qisqacha falsafiy qomus)da o'qiymiz: "Tolerantlik boshqa turdagi qarashlar, urflar, odatlarga nisbatan murosasozlikdir. Tolerantlik turli xalqlar, millatlar va

dinlarning o‘ziga xosliklariga nisbatan zarurdir. U o‘z-o‘ziga ishonish belgisini, o‘z shaxsiy pozitsiyalarining mustahkamligiga ishonchni, hamda o‘zga nuqtai nazarlar bilan qiyoslanishga cho‘chimaydigan va ma’naviy raqobatdan qochmaydigan barcha uchun ochiq g‘oyaviy oqim belgisini ifodalaydi” (457-bet). “Murosasozlik” ma’nosining to‘liqroq ta’rifi, nazarimizda, A.A.Guseynov va I.S.Kon tahriri ostida chop etilgan etika bo‘yicha lug‘atda berilgan: “Murosasozlik boshqa kishilarning manfaatlari, e’tiqodlari, dinlari, odatlari va hatti-harakatlariga munosabatlarini bildiruvchi axloqiy sifatdir. O‘zaro bir-birini tushunish va turli xildagi manfaatlar va nuqtai nazarlarni hech qanday tazyiqsiz, asosan tushuntirish va ishontirish usullari bilan bir bitimga olib kelishga intilishda namoyon bo‘ladi...” (351-bet).

Falsafaga oid adabiyotlarda “tolerantlik” tushunchasining har xil turlari ko‘rsatiladi. Jumladan L.V.Skvorsov biron-bir davlatda muayyan tarixiy vaqtda ustunlik qiluvchi ijtimoiy ong hamda tarkib topgan tolerantlik turi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi. Quyidagi jadvalda, shu muallif ko‘rsatib bergan tolerantlik belgilariga asoslanib, tolerantlikning turlariga mos nomlar berishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy ong turlari	Tolerantlik turlari	Tolerantlik belgilari
Mifologik	“yashirin” tolerantlik	“tolerantlik hali konseptual jihatdan anglab etilmagan. Jamiyat falsafiy tafakkur spetsifikasiga murosasozlik bilan qaraydi, chunki u hozircha mifik ong obrazlarining buzilishiga olib kelmaydi, biroq pirovard natijada falsafani bosib qo‘yish tendensiyasi yuzaga keladi....”
Diniy	“paradoksal” tolerantlik	“Monoteizm, ya’ni absolyut e’tiqod tizimida tolerantlikning mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki u absolyutlikni emiradi, biroq diniy murosasizlikka asoslangan diniy urushlar pirovard natijada tolerantlikni yuzaga keltirdi...”

Sekulyar (din ta'siridan chiqqan)	“madaniy” tolerantlik	Sekulyar jamiyatda haqiqiy umuminsoniy axloqiy tamoyillar tan olinishi natijasida tolerantlik reallikka aylanadi. Bu asosda endi “o‘zga”ga nisbatan hurmat nazari bilan qarash, yashash tarzi, kasbiy faoliyat, madaniy an’analar keltirib chiqargan etnik va milliy o‘ziga xosliklar hamda ijtimoiy qarashlardagi farqlarni kabul qilish, imkoniyati mavjud. Bu o‘rinda endi tolerantlik yuksak ma’naviy va axloqiy madaniyat natijasidir.
Ilmiy-ijtimoiy	Ilmiy mentallik sohasidagi murosasozlik	“Ilm sohasidagi o‘zga fikrlarga murosasozlik masala hali tugallanmagan o‘rinda mumkindir. Inkori qilib bo‘lmaydigan isbotlarga asoslangan nazariy haqiqat tan olinmog‘i lozim. Ma’lum masalada pro et contra dalillari keltirilgan hollardagina raqib dalillarini baholashda murosasozlikka o‘rin beriladi” (L.V.Skvorsov, 61-bet).

“Sotsiomadaniy tolerantlik” bu boshqa kishilarga ularning etnik, milliy yoki madaniy mansubligidan qat’iy nazar, shaxsning murosasozlik munosabatini ifodalovchi ahloqiy sifatdir. Sotsiomadaniy tolerantlik xislati turli madaniy guruhlar yoki ular vakillarining o‘ziga xos jihatlariga nisbatan g‘oyat zarurdir. U shaxsning o‘ziga hamda o‘z pozitsiyalarining mustahkam ekaniga ishonchi belgisidir. U yana boshqa nuqtai nazarlar bilan qiyoslashdan qo‘rqmaydigan va ma’naviy raqobatdan qochmaydigan barcha uchun ochiq g‘oyaviy oqim belgisidir. U o‘zaro hurmat, hamfikrlilikka intilishda, turli xil manfaatlar va nuqtai nazarlarni hech qanday tazyiqsiz, asosan tushuntirish va ishontirish usullari bilan tushunish va muvofiqlashtirishga intilishda namoyon bo‘ladi.

“Tolerantlik” tushunchasining mohiyatini to‘laroq anglab etish uchun uning aksi bo‘lgan “Notolerantlik” (murosasizlik) ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Tolerantlikka berilgan ta’rifdan kelib chiqsak, notolerantlik u yoki bu ijtimoiy guruhning madaniy o‘ziga xosligiga, umuman boshqa ijtimoiy guruhlar yoki ularning alohida vakillariga nisbatan salbiy, *dushmanlarcha* munosabatni anglatadi.

“Dushmanlilik uchligi”ga kiruvchi eng kam ijtimoiylashgan, hamda shuning uchun tarixan eng dastlabki his-tuyg‘ulardan biri bu jahldir. Unga yuqori darajadagi g‘ayri ixtiyoriylik va past darajadagi nazorat xos bo‘lgani uchun, u agressiyaning o‘zining o‘ta zo‘ravonligi bilan ajralib turuvchi shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Boshqalardan ustunlik hissi esa nafrat, hurmatsizlik hissi yo‘naltirilgan ob’ektning haqiqiy xususiyatlariga diqqat-e’tiborning etishmasligidan kelib chiqadi. Bu his o‘z natijalariga ko‘ra jahl hissidan ancha havfliroqdir. Ko‘rsatib o‘tilgan dushmanlilik uchligi ichida nafrat eng sovuq hisdir. Nafratning xavfliligi shundaki, u jahl va hazar hislariga qaraganda ko‘proq barqarorlikka ega. Jahl tez ko‘tarilib, tez o‘tib ketishi bilan tavsiflanadi. Hazar qilish hissi diqqatning boshqa, yoqimliroq, narsaga qaratilishini taqozo etishi ham mumkin. Demak, uning o‘zi ham, u keltirib chiqargan hatti-harakatlar ham takrorlanishi mumkin. Taomilga ko‘ra “pok” va “nopok” marosimlar haqidagi tasavvurlardan kelib chiqqan eng qadimgi hisning tarixiy-madaniy qaytalanishlari hazar qilish hissida namoyon bo‘ladi. Masalan, Bayrutning o‘zaro nizo olib boradigan musulmon va xristian jamoalarining vakillari bir-birlarini “iflos” hisoblaydilar. Hazar qilish hissi kishini hazar qilinayotgan ob’ektdan o‘zini chetlatish yoki ushbu ob’ektning o‘zini chetlashtirishga da’vat etadi. Umumiy psixologiya nuqtai nazaridan bu his-tuyg‘uning yuzaga kelish sababi jismonan yoki ruhan chirigan yoki buzilgan narsa bilan aloqa qilish zarurati bilan bog‘liqdir. Jismonan nopoklik bilan bog‘liq buzuqlik hazar qilish hissining eng munosib ob’ektidir. Ijtimoiy hayotda esa o‘zi mansub bo‘lgan madaniy qadriyatlarni mujassam etgan kishi kontragentlardan biri sifatida namoyon bo‘lganda, jismoniy holatni ifodalovchi bu kategoriya insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham ko‘chishi mumkin.

Shunday qilib, “dushmanlilik uchligi”ni tashkil qiluvchi tushunchalarga zid bo‘lgan tushunchalar “tolerantlik” mohiyatini ifodalovchi kategoriyalarga kiradi.

Siyosiy tolerantlik. Hozirgi vaziyatda siyosiy tolerantlik tushunchasini aniqlab olish muhimdir. Siyosiy tolerantlik - o‘zgalarning fikrlari, e’tiqodlari, urf-odatlariga sabr-toqatli bo‘lish. Siyosiy tolerantlik - ijtimoiy hayotda faol qatnashuvchi, davlat ichida ham, davlatlar o‘rtasida ham tartibli, madaniy munosabatlar zarurligini anglaydigan barchaga nisbatan quyiladigan talab. Tolerantlik tamoyiliga og‘ishmay rioya etish-shaxslar, jamoat tashkilotlari partiyalar bilan davlat o‘rtasida natijali aloqalar o‘rnatishning birinchi sharti. Xoh tashkilotlar, partiyalar yoki davlatlar bo‘lsin, tomonlar o‘rtasida ixtilofga sabab bo‘luvchi keskin siyosiy muammolar xususida muzokaralar yuritish paytida sabr-toqatli, tolerantli bo‘lish qobiliyati alohida muhim ahamiyatga egadir. Bunday holatlarda tolerantlik aslo zaiflik emas, balki shunday qobiliyatni namoyon qiluvchi tomon uchun kuchli, ob‘ektiv jihatdan ijobiy va manfaatli fazilatdir. Tolerantlilik qobiliyati o‘zga tomonning barcha fikr-mulohazalari va dalil-isbotlarini tinglash, ularni puxta mushohada qilish, o‘zga tomonning nuqtai nazariga xolisona yondoshish, uning yondoshuvidagi zaif va kuchli jihatlarini aniqlash, so‘ngra shunga muvofiq ravishda o‘z nuqtai nazari va taktikasiga tuzatish kiritish imkonini beradi.

Irkchilik - ksenofobiya, diniy adovat, terrorizm, xar xil turdagi ekstremizmga faol qarshi turish tolerantlikka xos hususiyatdir, deb xulosa qilishadi tadqiqotchilar. Etnik tolerantlik ta’rifiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Etnik tolerantlikni o‘z madaniyatini ijobiy idrok etgan xolda o‘zga madaniyatga ijobiy munosabatning mavjudligi deb tushunmoq kerak. Buning ma’nosi shuki, etnik tolerantlik o‘z madaniyatidan voz kechib, o‘zga madaniyatga qo‘shilib ketish emas, balki o‘ziga xos etnoslararo integratsiyadir, bunda o‘z etnik madaniyatini ham, shuningdek mazkur guruh bilan aloqa qiladigan o‘zga guruhning etnik madaniyatiga ijobiy munosabat tushuniladi. Guruhlar idrok etishining o‘xshashligini ana shunday tushunish etnik

madaniyatlar qadriyat tengligi hamda bir madaniyatning ikkinchisidan afzal deb hisoblashiga yo‘l qo‘ymaslik taomiliga asoslangan bo‘ladi.

Murosa tushunchasi murosasizlik tushunchasining aksidir. Murosa - qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatida va turli manfaatlar, e‘tiqodlar, urf-odatlarni o‘zaro anglash va unga rozi bo‘lishga intilishda namoyon bo‘ladigan xarakter belgisidir. Murosa o‘zgalarni fikrini hurmat qilishni nazarda tutadi. Murosasizlik qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslikda, insonning o‘z tuyg‘ulari, tasavvurlari, e‘tiqodlari, urf-odatlariga mos kelmaydigan hamma narsaga e‘tiroz bildirish odatida ifodalanadi. Murosasiz kishi muqobil mulohazalar, fikrlar, e‘tiqodlar bilan hisoblashmaydi. Xarakter belgisi bo‘lmish murosasizlik odatda ma‘naviy tarbiyadagi kamchiliklarning natijasidir.

Mazmun nuqtai-nazaridan olganda esa "tolerantlik" tushunchasi bilan "notolerantlik" yoki "intolerantlik" tushunchasining munosabati o‘ziga xos hususiyatga egadir, chunki "tolerantlik" hamisha muayyan ob‘ekt (ob‘ektlarga) nisbatan kechinmalar, fikr-o‘ylar va harakatlarning birmuncha cheklanishi mavjudligini nazarda tutadi; bu cheklanishning ma‘nosi va yo‘nalishi esa mavhumligicha qolaveradi.

Holbuki yuqorida sanab o‘tilgan boshqa ijobiy tushunchalarning mazmunida aniq sharoitni hisobga olmay shunchaki ko‘rib chiqiladigan va hech qanday limitlarsiz qolaveradigan jarayonlar va nuqtai nazarlarning yo‘nalishiga asosiy urg‘u beriladi. "Tolerantlik"da esa cheklash, asosiy imperativ hisoblanadi, bunda o‘z psixologik faoliyatining emotsional, ratsional va amaliy-iroda sohalariga etarli ravishda ega bo‘lgan va o‘z kechinmalari va harakatlarining yo‘nalishini ham, mazmunini ham nazorat qila olish uchun sotsiumda amalga oshiriladigan sub‘ekt (sub‘ektlar) ning mavjudligini taqozo etadi. "Notolerantlik" esa, aksincha, tanqidiy-buzg‘unchilik harakatlarida to‘la erkinlikni nazarda tutadi, bu harakatlarning chuqurligi va davomiyligi (hech bo‘lmaganda ularning tashqi ko‘rinishlari) notolerant sub‘ekt (sub‘ektlar) tomonidan o‘zini o‘zi biron-bir tarzda cheklashlar nimaligini bilmaydi.

Tolerantlikning teskarisi murosasizlik, janjalbozlikdir. Garchi tolerantlik mojaroli vaziyatlarni hal qilmasa ham, ammo u murosaga

kelish yo'lini topishning eng muhim sharti bo'lib mojarolarni zo'ravonliksiz, tinch hal etish muhitini yaratishga ko'maklashadi. Dinlar, xalqlar, sinflarning o'zaro adovati va kelishmovchiligini bildiruvchi fanatizm notolerantlikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, tolerantlik tamoyili shaxslar o'rtasida, turli sivilizatsiyalarga ishlab jamiyatlar o'rtasida, erkaklar bilan ayollar o'rtasida, katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasida, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida va xoqazolar o'zaro hurmatni nazarda tutadi. Turli ziddiyatlar sharoitida tolerantlik - atrofdagilarga zarar etkazmagan holda o'zini-o'zi qaror toptirishdir. Tolerantlik xis-tuyg'ularni jilovlaydigan ongli sergak nuqtai nazardir. Tolerantlik shunday bir qadriyatki u o'zgalar bilan qarama-qarshi turishga emas, balki tinch-totuv yashashga, "o'zgalar"ni inkor qilishga emas, balki tan olishga, zo'ravonlikka itoatkorona sabr-toqat bilan qarashga emas, balki uni bartaraf etishga asoslanadi. Faol sabr-toqat – toqatsizlik, boshboshdoqlik va har qanday qilmishlarni kechirib yuborishning haddan tashqari hukmli shakllarini qabul qilmaslikdir.

Xullas, tolerantlikning mohiyatini har kim har hil tushunadi, ba'zilar uni asosan sabr-toqat deb tushunsa, boshqalar insoniyatning birligi, boshqalar huquqini hurmat qilish va boshqacha bo'lish huquqi deb tushunadi, yana boshqalar esa tolerantlikni jazavalarga, nomuayyanlik vaziyatiga, mojaro vaziyatiga chidamlilik deb tushunadilar.

Tolerantlikning mohiyatiga berilgan quyidagi ta'rif bizga ma'quldir: tolerantlik - bu har qanday jamiyat, har qanday ijtimoiy qatlam, har qanday fuqaro (uning jinsi, millati, yoshi, dini va irqidan qati nazar) ma'naviy, huquqiy, siyosiy madaniyati sifatidir. Tolerantlik turli shakllarga: ahloq, fe'l-atvor, ijtimoiy psixologiya, ongda aks etadigan shaxsiy, ijtimoiy shakllarga va qonunchilikda, siyosiy amaliyotda aks etadigan davlat shakliga egadir.


Biz o'rganayotgan predmetning ko'pdan-ko'p ta'riflarini ko'rib chiqib, o'z asarimizda tolerantlikni keng ma'noda - shaxsning ma'naviy normasi e'tiqodi, fe'l-atvor modeli sifatida (bunda og'ir-vazminliq murosaga kelishga tayyorlik nazarda tutiladi), shuningdek, turli ijtimoiy

xodisalarga, birinchi navbatda etnoslararo munosabatlarga shaxsiy yoki ijtimoiy javob shaklida ko‘rib chiqishi ma’qul deb hisoblaymiz.

1-Mavzu mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri –“**Klaster**” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

Tolerantlik, notolerant sub’ekt, mifologik, irkchilik, ksenofobiya, diniy adovat, terrorizm, ekstremizm, murossasizlik, janjalbozlik, toqatsizlik, boshboshdoqlik, etnoslararo munosabatlar.



Topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

-“Klaster” metodini o‘tkazish bosqichlarida asosan mavzuga oid tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

- Tayanch tushunchalar orqali mavzuga oid 5 ta aniq ma’lumot qayd etiladi.

- Ma’lumotlarning ishonchliligi va ahamiyatini ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan manbalar qayd etiladi.

- Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tolerantlik tushunchasi nima?
2. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Fanning boshqa tarixiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi haqida nima bilasiz?
4. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining dolzarbligi va ahamiyati?
5. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining ilmiy tadqiqot olib borishdagi roli?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 80 b.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
4. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
5. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

Asosiy adabiyotlar:

1. Каримова Э. Социомаданий толерантлик. “Ёшларда толерантликни юксалтириш - фуқаролик жамиятини қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий – амалий конференция материаллари. – Тошкент – Бухоро, 2007 йил 15-17 ноябрь. –Б. 18-21.
2. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. – Тошкент: Намкornashr, 2021. –Б.52-75.
3. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – Б.12-25.
4. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2007. – 183 б.
5. Муртазаева Р. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. –Ташкент: Узбекистан, 2010. –151с.
6. Муртазаева Р. Маҳалла – миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
7. Муртазаева Р. Маҳалла – фуқаролар ўзини ўзи бошқаруви институтининг ноёб намунаси. Илмий тўплам. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
8. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2019. –Б. 5-20.

Internet saytlari:

9. http://www.fnr.ru/b_tolerance.phtml
10. www.edu.uz.
11. www.ziyo.net.uz.
12. www.ec.edu.uz.

2-MAVZU: DAVLAT MILLIY SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI

Reja:

1. Davlat milliy siyosatining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalariga asoslanishi.
2. O‘zbekistonda tolerantlik shakllanishida din sohasidagi siyosatning ahamiyati.

1.Davlat milliy siyosatining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalariga asoslanishi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha soxalarida bo‘lganidek, ma’naviy yo‘nalishdagi yangilanish va buyuk o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Asosiy qonunimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining juda ko‘p moddalarda bag‘rikenglik tamoyillari aks etgan. Jumladan, 22-moddada “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi” deyilgan. Shuningdek, bosh qomusimizning 25-moddada har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi, 29-moddada har kimning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi, 32-moddada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, 34-moddada fuqarolarning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish huquqiga ega ekanliklari, 36-moddada har bir shaxs mulkdor bo‘lishiga haqli ekanligi, 40-moddada har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi, 41-moddada har kimning bilim olish huquqiga ega ekanligi hamda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ham alohida moddalarda ko‘rsatilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, konstitutsiyamizda ota-bobolarimiz hayotida qancha-qancha asrlar davomida shakllangan buyuk qadriyatlar o‘z aksini topgan. Shu bilan birga bosh qonunimizda mamlakatimiz fuqarolarining burch va huquqlari, vazifalari, ular uchun yaratilgan kafolatlar to‘la o‘rin olgan. Asosiy qonun davlatni va shu davlatda yashayotgan har bir fuqaroni himoya qiladigan oliy darajadagi hujjatdir.

Unda insonparvarlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalari aks etgan. Konstitutsiyani o'qir ekanmiz, unda o'zbek xalqining turmush tarzida necha asrlar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlari, an'analari va urf odatlariga muhim e'tibor qaratilganini ko'ramiz.

Bag'rikenglik haqida gapirar ekanmiz, Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" deyilgan. Buning amaliyotda o'z aksini topganligini mamalkatimizda yashovchi yuzdan ortiq xalq va millat bir-birlari bilan inoq, birodar bo'lib yashayotganligidan ham ko'rsa bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qator moddalarda inson qadri va uning manfaatlari hamma narsadan ustun ekanligi, bag'rikenglik g'oyalari vatanparvarlik tuyg'ulari mustahkamlangan. Unda har bir millatdoshimizning ona zaminimizni sajdagoh kabi muqaddasligini anglashi, uni ko'z qorachig'iday asrash, xududiy butunligini, chegaralarimizning mustahkam bo'lishini ta'minlash, ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish muqaddas burch ekanligi keltirilgan.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquq hamda erkinliklarining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Er to'g'risidagi, Mulkchilik to'g'risidagi, Tadbirkorlik to'g'risida, Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi, Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risidagi, Davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi hamda boshqa qonun va huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Ushbu qonun hujjatlari xalqaro hujjatlar me'yorlarini to'liq e'tirof etgan holda qabul qilingan va ular talablarga javob beradi. SHaxslarning ijtimoiy – huquq va erkinliklari ma'lum sharoitda davlatdan muayyan moddiy yordam olish imkonini beradigan insonning yoki davlat fuqarosining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklaridir.

Ijtimoiy ta'minot olish huquqi – shaxsning konstitutsiyaviy huquqlaridan biridir. Konstitutsiyaning 39-moddasiga muvofiq “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas”,- deb ta’kidlangan.

Davlatimizning insonparvarligi va bag‘rikengligiga birinchi navbatda mazkur 2022 yilning “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nomlanishiga qarab baho berish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kunda olib borayotgan ijtimoiy siyosati juda to‘g‘ri ekanligini boshqa davlatlar ham tan olmoqdalar. “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risida”gi qonunga asosan insonlarning ijtimoiy ta'minot olish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquq kafolati yanada mustahkamlandi.

Respublikamizda ijtimoiy yordam olishning turlari juda ham ko‘p, bular jumladan, har bir tug‘ilgan bola uchun beriladigan mukofot (suyunchi) puli, ayollarning homiladorlik va tug‘ishdan so‘nggi ta'tili uchun to‘lovlar, bolalikdan nogironlik uchun beriladigan nafaqalar, qariganda yoki boquvchisini yo‘qotganda beriladigan nafaqalar va boshqa holatlarda beriladigan ijtimoiy ta'minotlar hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minot – ijtimoiy himoya va qo‘llab - quvvatlashga muhtoj fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlashning davlat tizimidir. Davlatimiz o‘zining imkoniyatlariga mos hajmda o‘z fuqarolarining ma'lum darajadagi turmush darajasini ta'minlash, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishini o‘z zimmasiga oladi.

Davlatimizning ijtimoiy vazifasi shunda ko‘rinadiki, u shaxsning ijtimoiy himoyalanganligini, jamiyatning barcha a'zolarini, ularning moddiy ne'matlar ishlab chiqarishda bevosita ishtirokidani qat'iy nazar, normal yashash sharoiti bilan ta'minlaydi.

Quyidagilar davlat ijtimoiy siyosatining asosiy omillariga kiradi:

- ijtimoiy kam ta'minlangan guruhlariga ijtimoiy ne'matlarni adresli taqsimlash;

- ijtimoiy ehtiyojlar (sog‘liqni saqlash, ta’lim, qurilish va boshqa) uchun kerakli byudjet mablag‘larini ajratish;
- xayriya faoliyatini rag‘batlantirish va fuqarolarning ijtimoiy himoyalangan qatlamlari uchun zarur sharoit va imtiyozlar yaratish.

Shunday qilib, respublikamizda fuqarolarning ijtimoiy ta’minlanishini, himoyalashini amalga oshiruvchi organ va idoralarimiz ish olib bormoqdalar, davlatimiz tomonidan konstitutsiyaviy huquqni ijtimoiy himoyaga tadbiq etish uchun sharoitlar yaratilgan.

Insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari uning yashashini ta’minlashga, turmush tarzini yaxshilashga, sog‘ligini tiklashga, bilimini oshirishga, ma’naviy va madaniy ehtiyojini qondirishga qaratilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari yig‘indisidir va bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi va kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy siyosati davlat va uning idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlar sohasidagi qarashlarini, asosiy tamoyillari, ustivor yo‘nalishlari va vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Davlat milliy siyosati millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, turli millat va elat vakillarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlashning umumiy dasturini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

- Davlat milliy siyosati O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elat vakillarining intilishlarini mamlakatning birligi va yaxlitligini saqlash manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishi, ularni har tomonlama hamkorligini mustahkamlash, milliy madaniyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ishlarning asoslarini belgilaydi;

- Davlat milliy siyosati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ huquqiy aktlar, umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar, xalqaro huquqiy shartnomalarda belgilangan huquq va erkinliklar va majburiyatlarni amalga oshirish, mamlakatda yashovchi millat va elat vakillarining huquq va erkinliklarini ta’minlaydi. Shuningdek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish insonparvar

demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy fuqaroviy jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biri ekanligini, millatlararo totuvlik mamlakat va mintaqa davlatlari ijtimoiy va milliy xavfsizligi, barqarorligini mustahkamlash, izchil taraqqiyotini ta'minlash hamda ular o'rtasidagi integratsiya jarayonining yanada chuqurlashuvida muhim ahamiyat kasb etishini, hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada oshirishini e'tirof etadi.

- O'zbekiston Respublikasining davlat milliy siyosati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro huquqiy hujjatlar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga asoslanadi;

- Mazkur davlat milliy siyosati barcha darajadagi davlat boshqaruvi qonun chiqaruvchi va ijroiya idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi muammo va tahdidlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi va amaliy echim topadi.

O'zbekiston milliy siyosatining tamoyillari:

1. Yaratuvchanlik qudratiga ega milliy mansubligidan qat'iy nazar fuqarolarning tengligini ta'minlash, ijtimoiy hayotda teng huquqli ishtirokini kafolatlashga asoslanadi;

2. O'zbekiston milliy siyosatining "Ko'p millatlilik – O'zbekistonning boyligi" degan g'oyaga asoslanadi;

3. Millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish;

4. Har bir millat iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishdan iborat bo'ladi.

2.O'zbekistonda tolerantlik shakllanishida din sohasidagi siyosatning ahamiyati. O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz o'z tarixining o'tmishi mobaynida 4 ta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardushtiylik, budda, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirgan. Turli bosqinchiliklarni (greklar, arablar, mo'g'ullar va ruslar) ko'rgan, hammasiga sabr-toqat qilgan, o'zga millat vakillarini qabul qilib, birgalikda yashagan. Bugungi kunda mamlakatimizda turli etiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida murosa va hurmat

oʻrnatilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Koʻp konfessiyalikning real ijtimoiy holat ekanligi va uning kelajakda ham saqlanib qolishini hisobga olgan holda diniy bagʻrikenglik uchun toʻla sharoitlar yaratilmoqda.

Diniy bagʻrikenglik gʻoyasi bu turli dinlarga eʼtiqod qiluvchi fuqarolardan tashkil topgan jamiyatlarda ruy berayotgan oʻzaro urush va ijtimoiy tengsizliklar hamda zoʻravonlikka barham berishi maqsadida yuzaga kelgan achchiq tarixiy tajriba maxsulidir. Agar biz oʻzimizning dinimiz qanchalik toʻgʻri ekanligiga va unga boshqalarni eʼtiqod qilishga majbur etsak, biz eng avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barkarorlikka, millatlararo totuvlikka, qolaversa, dinlararo munosabatlarga salbiy taʼsir koʻrsatishimiz mumkin. Bagʻrikenglik oʻz eʼtiqodi va dinidan voz kechish kerak, degan maʼnoni bildirmaydi. Aksincha har qancha gʻayritabiiy boʻlmasin unga eʼtiqod qiluvchi insonlar qadr-qimmatini hurmat qilish va mustaqil fikr yuritish huquqini bildiradi.

Diniy bagʻrikenglik muhitini hozirgi Oʻzbekistondagi mavjud 16 ta konfessiyalarning oʻzaro munosabatlarida ham koʻrish mumkin. Ayniqsa, islom va xristian dinlari oʻrtasida bagʻrikenglik tamoyili asosiga qurilgan aloqalarga birinchi prezidentimiz I.Karimov aloxida toʻxtalib “Musulmonlar va xristianlarning Oʻzbekiston zaminida birgalikda hamnafas boʻlib yashashi, diniy – maʼnaviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bagʻrikenglikning eng yaxshi namunasi deb xisoblanishiga arzigulikdir” deb taʼrif bergan edi.

Oʻzbekiston hukumati turli millat va dinlarga mansub mamlakat fuqarolari uchun oʻz eʼtiqodlarini amalga oshirish borasida zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga diniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, jamiyatimizda dinlar va ular millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga va ular oʻrtasidagi doʻstlikni rivojlanishga alohida eʼtibor qaratib kelmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga eʼtiqod qilish yoki hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yul qoʻyilmaydi” deb qatʼiy belgilab quyilgan.

Diniy tolerantlik har bir fuqaroning konstitutsion huquqi bo'lib, ko'p millatli davlatimizda yashab, mehnat qilayotgan 130 dan ortiq millatning tili, dini, irqi va millatidan qat'iy nazar ularga qonunlar talablari asosida diniy erkinlik berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy holat tolerantlik talablari bilan uzviy mujassamlashib ketganligini, bu mujassamlilik istiqlool davrida shakllanib, rivojlanib kelayotgan yangicha tafakkur bilan bevosita bog'liqligini har bir fuqaro va yoshning tafakkuriga etkazish barcha muallim, murabbiy va ziyolilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sobiq mustabid tuzum davrida dinsiz, xudosiz jamiyat qurish g'oyalarini ilgari surilishi oqibatida bir tomonlama, chala, kemtik tafakkur shakllantirildi. Natijada shaxs tafakkuri uchun eng dolzarb bo'lgan diniy va ruhiy olamdan batamom mahrum etilgan dinga ham, yaratuvchi Ollohga ham e'tiqodsiz jamiyat baro etilishi ko'zda tutildi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak unda turli dinlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar to'qnashuvlar bo'lib o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Ming afsus bilan shuni ta'kidlash lozimki, bizning har turli mintaqalarda diniy adovatlarga asoslangan qonli to'qnashuvlar davom etmoqda. Bu jarayon ko'pgina siyosatshunoslar tomonidan Sharq va G'arb kurashi yoki "Islom taraqqiyoti" bilan Xristian olami o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholanmoqda. Shu fikrlarga qisman qo'shilgan holda yana shuni ham aytish lozimki hozirda bo'layotgan urushlarning aksariyati rivojlangan davlatlarning arzon yoki tekin xom ashyoga ega bo'lish uchun qilayotgan hatti-harakatlar natijasidir. Misol uchun Amerika Qo'shma Shtatlarining demokratiya taqchilligi niqobi ostida Iroqqa qilgan harbiy harakatlari zahirida neftga egalik qilish siyosati yotibdi desak xato bulmaydi. AQSH ning Iroq hududida olib borgan harbiy urushlari natijasida ko'plab begunoh insonlar halok bo'ldi. Ularning aksariyati tinch aholi vakillari hisoblanadi. Bundan tashqari 2022-yil Rossiyaning Ukraina suverinetetini buzib, uning hududida harbiy harakatlarning olib borayotganligini ham hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Rossiyaning Ukrainaga hujumi tufayli begunoh insonlar ayniqsa, bolalar vafot etmoqda.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki haqiqiy islom boshqa dinlarning rivojiga va ularga nisbatan doimo bag'rikenglik asosida munosabatda bo'lib kelgan. Islom dini doimiy ravishda terrorizmni qoralab kelgan. Chunki islom dininig asosi bo'lgan Kur'onda insonga jon ato etish va uni qaytarib olish faqat xudoning ishi ekanligi e'tirof etilgan. Islom dinida birovning hayotiga qasd qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Bu tamoyil faqatgina islom dinidagina emas, balki dunyodagi barcha dinlarga xosdir. Lekin shunga qaramay er sayyorasining turli burchaklarida din niqobi ostida yirik to'qnashuvlar, xalqaro terrozimning faollashuvi, diniy ekstremizm, narkotik moddalar bilan savdo-sotiq qilish hollari kuchayayotganini kuzatishimiz mumkin. Bular insoniyat kelajagi uchun jiddiy xavf-xatar tug'dirmoqda. Uchinchi ming yillik boshi millatlararo, konfessiyalararo nizolarni, turli xil madaniyatlar, xalqlar va davlatlar o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarni echish yullarini topishni taqazo etmoqda. Bizningcha diniy, madaniy, siyosiy, harbiy va boshqa ziddiyatni faqatgina o'zaro kelishuvlar hamda muzokaralar yuli bilan bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Chunki zo'ravonlik, zulm, adolatsizlik, qarama-qarshilik va urushni keltirib chiqaradi.

Tayanch so'z va iboralar: millatlararo munosabatlar, konfessiyalararo nizolar, "Islom taraqqiyoti", vijdon erkinligi, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, islom, xristianlik, harbiy to'qnashuvlar.

2-Mavzu mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri – "**Konseptual jadval**" interfaol usulidan foydalaniladi.

Mavzu mashg'uloti uchun topshiriqlar:

1. Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning O'zbekiston Respublikasi milliy siyosatida ustivorlik kasb etishining sabab va omillari, muammoning echimi hamda xulosasi
2. O'zbekistonda tolerantlik shakllanishida din sohasidagi siyosatning sabab va omillari, muammoning echimi hamda xulosasi

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning echimi	Xulosa
1.Millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglikning O‘zbekiston Respublikasi milliy siyosatida ustivorlik kasb etishining sabab va omillari, muammoning echimi hamda xulosasi 2.O‘zbekistonda tolerantlik shakllanishida din sohasidagi siyosatning sabab va omillari, muammoning echimi hamda xulosasi			

Topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi.
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi(1-ustun).
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi.
- Muammoning echimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
- Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun).

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida bag'rikenglik tamoyillari aks etgan?
2. O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat haqida nima bilasiz?
3. Diniy bag'rikenglik g'oyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Dinni niqob qilib urush olib borayotganlarning asl maqsadlari haqida qanday fikrdasiz?
5. AQSHning demokratiya taqchillgi niqobi ostida Iroqqa qilgan harbiy harakatlariga qanday qaraysiz?
6. Rossiya Federatsiyasining Ukraina Respublikasiga qarshi olib borayotgan harbiy harakatlari to'g'risida fikr yuriting?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 80 b.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
4. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
5. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
6. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

7. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
8. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
9. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

10. Қаршиев Б. Диний бағрикенглик – ижтимоий тараққиёт гарови. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2010.
11. Ражабов М., Дўсмуратов Ж. Ёшлар тафаккурига миллий ва диний толерантлик талабларини сингдиришнинг объектив, субъектив томонлари. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2010.
13. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019.
12. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2007. – 183 б.
13. Муртазаева Р. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. –Ташкент: Узбекистан, 2010. –151с.
14. Муртазаева Р. Маҳалла – миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
15. Муртазаева Р. Маҳалла – фуқаролар ўзини ўзи бошқаруви институтининг ноёб намунаси. Илмий тўплам. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.

Internet saytlari:

16. www.ziyo.net.uz.

17. www.ec.edu.uz.

3-MAVZU: BAG‘RIKENGLIK – FUQAROLIK JAMIYATINING DARAJASI VA QADRIYATI

Reja:

1. Xalqaro tolerantlik – insoniyat taraqqiyotining ezgu maqsadlari va demokratik qadriyatlar timsoli.
2. Bag‘rikenglik shakllanishida fuqarolik jamiyatining darajasi va qadriyati.

1. Xalqaro tolerantlik – insoniyat taraqqiyotining ezgu maqsadlari va demokratik qadriyatlar timsoli. Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomining Preambulasida tolerantlikka quyidagicha ta’riflab berilgan: “...tolerantlikni ifoda etish va birgalikda tinch-totuv, yaxshi qo‘shnichilikda yashash”. Bu erda ushbu tushuncha nafaqat ijtimoiy faol ma’noda berilgan, balki ijtimoiy munosabatlar tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv sharti sifatida qaraladi. Bu esa o‘zi bilan o‘zi hamda insonlar dunyosi bilan totuvlikda yashay olishni bildiradi. Ya’ni mikro va makro muhit garmoniyasi ta’minlanadi. Munosabatlar garmoniyasi sub’ektlar tomonidan bir-birini hurmat qilishni bildiradi. “American Heritage Dictionary” lug‘atida: “Tolerantlik – boshqa odamlarning harakatlari va e’tiqodlarini hurmat qilish va amaliy jihatdan tan olish yoki tan olishga qobiliyatdir”, - degan ma’noni bildiradi deyilgan. Moskvada 1998-yilda chop etilgan “Xorijiy so‘zlar va iboralar lug‘ati”da tolerantlik “o‘zgalar fikriga, e’tiqodiga, xulqiga bag‘rikeng bo‘lish”, deb talqin etiladi. Maltiyalik tadqiqotchi Kennet Ueyn esa o‘zining “Ta’lim va tolerantlik” nomli maqolasida “tolerantlik nafaqat boshqa odamlarning e’tiqodi va harakatlarini tan olishlik va hurmat qilishlik, balki o‘sha bizdan farq qiladigan “boshqa odamlar”ning o‘zlarini tan olish va hurmat qilishi demakdir. Ushbu “boshqa odamlar”

deb alohida individuumlar va shaxslar ular mansub bo'lgan etnik guruhlar vakillari sifatida tan olinadi", degan xulosaga keladi. Bu xulosa ayniqsa, ko'pmillatli davlat uchun dolzarbdir, chunki tan olmaslikning ob'ekti bo'lib ko'pincha alohida kichik etnoslar vakillari yoki butun bir etnoslar tushuniladi.

Hozirgi kunda bag'rikenglik muammosi butun dunyoda dolzarb muammo sifatida topilib, tegishli xalqaro tashkilotlarda muhokama qilinmoqda. Chunonchi, YUNESKO bag'rikenglikni shakllantirish yo'lida muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Uning Parijdagi qarorgohida 1993-yili bag'rikenglik bo'linmasi tuzilgan. Oradan ikki yil o'tib (1995 yil 16 noyabrda) YUNESKO Bosh Konferensiyasi "Declaration of princip leson tolerance"ni tasdiqladi. Bu hujjatni 185 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston ham imzoladi. Deklaratsiya milliy, etnik, diniy va til guruhlariga nisbatan zo'ravonlik, yotsirash va kamsitishning yalpi avj olishiga qarshilik ko'rsatishi lozim. Bu hujjatni milliy va xalqaro darajalardagi ekstremistik-terrorchilik omilining oldini olish, uni bartaraf etish va tugatishning g'oyaviy-uslubiy asosi deb hisoblash mumkin. O'sha paytdan beri 16 noyabr kunini har yili xalqaro bag'rikenglik yili sifatida nishonlanishi odat tusiga kirib qoldi. Shu kuni butun dunyoda sabr-toqat va hamjihatlikni targ'ib qilishga bag'ishlangan qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Bag'rikenglik xalqlar o'rtasida murosaga kelish yo'lini topish, mojarolarni bartaraf etishning muhim sharti ekanligini endi ko'pchilik olim va davlat arboblari ham tan olmoqdalar. Shu o'rinda YUNESKO ning Bosh direktori lavozimida ishlagan F.Mayorning quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir: "Xo'sh, bag'rikenglik nima? Bu – yon berish emas, beparvolik emas. Bu – boshqalarni bilish va tushunish demakdir. Bu – boshqalarni o'zaro hurmat qilish demakdir. Bu – hamjihatlik orqali o'zaro hurmat demakdir... Bag'rikenglik nima? Bir xillik emas, balki birlashish demakdir. Biz zo'ravonlikka qarshimiz, xilma-xillik tarafdorimiz, biz kuch ishlatish va bo'ysundirishga qarshimiz, qizg'in munozaralar tarafdorimiz".

Shunday qilib, bag'rikenglik tamoyili shaxslar, turli sivilizatsiyalarga mansub jamiyatlar, erkaklar va ayollar, katta

yoshdagilar va bolalar, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmatni bildiradi. Turli nizolar sharoitida bag'rikenglik – atrofdagilarga zarar etkazmagan holda o'zini qaror toptirishdir. Bag'rikenglik – insoniy his-hayajonni jilovlaydigan, ongli va sergak nuqtai nazardir. Hozirgi dunyo globallashuv, o'zaro bog'liqlik va integratsiya, ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishi, ijtimoiy hayot faoliyati shakllarining tobora bir xillashuvi, keng miqyosli migratsiya va urbanizatsiya sharoitida yashab turibdi.

XX asrda Millatlar Ligasi tashkil etilib, mustamlaka mamlakatlar aholisi, kam sonli millatlar, etnik guruhlar farovonligi, rivojlanishi borasida g'amxo'rlik qilish, yordam berish alohida vazifa sifatida qo'yilgan edi. 1920-yilda bu xalqaro tashkilot maxsus konvensiya qabul qilib, qullik, odam sotish va shaxsni xo'rlashni qonuniy yo'l bilan ta'qiqlab qo'ydi. Endi xalqaro maydonda demokratik kuchlar hamkorligi, hamjihatligi uchun sharoit yaratildi, qonuniy asos vujudga keldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilib, qator hujjatlar, xalqaro qonunlar qabul qilingach (1945-yil) esa, xalqaro huquq aktlari, normativlari millatlar, elatlar hayotida muhim o'rin tuta boshladi. Davlatlar mazkur normativlarga rioya qilishga majbur bo'ldilar. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti qabul qilgan Xartiyada (1948) ko'rsatilgan inson huquqlari, erkinliklarining ta'minlanishini nazorat qilish amalda o'zini namoyon eta boshladi. Mazkur Xartiyada (55-modda) millatlarning katta yoki kichikligidan qat'iy nazar teng huquqliligi, o'z taqdirini o'zi belgilashi alohida ko'rsatilgan. SHuningdek, ushbu hujjatda xalqaro hamjamiyat tomonidan shaxslar, millatlarning iqtisodiy, ijtimoiy muammolarining hal etilishi, sog'liqni saqlash, fuqarolar farovonligini oshirishga shart-sharoitlar yaratilishi lozimligi qayd qilingan. Xalqaro maydonda madaniyat, maorif, tibbiyot sohasida hamkorlikni tashkil etish vazifasi belgilab olindi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimiga o'ttiz beshdan ortiq turli yirik muassasa va dasturlar hamda o'n etti maxsus ixtisoslashgan muassasalar kiradi. Ular quyidagilar:

1. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT);

2. Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO);
3. Xalqaro Elektr aloqasi tashkiloti (XET);
4. Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti (JSST);
5. Jahon Metrologiya tashkiloti (JMT);
6. Jahon Pochta tashkiloti (JPT);
7. Xalqaro Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (XFAT);
8. Jahon Savdo tashkiloti (JST);
9. Jahon Intelektual mulk tashkiloti (JIMT);
10. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO);
11. Xalqaro Valyuta fondi (XVF);
12. Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB);
13. Xalqaro Sanoat taraqqiyoti tashkiloti (XSTT);
14. Xalqaro Dengiz tashkiloti (XDT);
15. Xalqaro Atom energiyasi tashkiloti (MAGATE);
16. BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF);
17. BMT ning Aholi qatlamlari tashkiloti (YUNFPA) va hokazo.

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh assamblyasi sessiyasida "Inson Huquqlari Xalqaro Deklaratsiyasi" qabul qilindi va bag'rikenglik asosiy tamoyil deb ko'rsatilib, inson huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash zarurligi alohida qayd etildi, buning huquqiy normalari ishlab chiqildi. 1960-yilda BMT Bosh assamblyasi XV sessiyasida "Mustamlakchilikni tugatish to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilinib, milliy mustaqillik, ozodlik uchun kurashga ijobiy ta'sir qildi.

Xalqaro huquqning umue'tirof etilgan me'yorlarida axborot olish erkinligi insonning asosiy huquqi sifatida tan olinadi. Mamlakatimizda bunday huquq O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida"gi Qonuni bilan kafolatlanadi. SHu nuqtai nazardan yuqordagi qonun hujjatlarida mamlakatlarning axborot olishdagi teng huquqliligi, ya'ni har bir insonning hech bir cheklov va to'siqlarsiz axborotga ega bo'lishining qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratilganligini ham e'tiborga olish zarur. Xususan, 1978 yili YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarining tinchlik va xalqlari o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlash,

inson huquqlarini rivojlantirish, shuningdek, irqchilik, ayirmachilik va urushga da'vat etishga qarshi kurashishga oid asosiy tamoyillar to'g'risida" gi Deklaratsiyasida quyidagilar belgilab qo'yiladi "... teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik hamda madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish asosida barcha davlatlar, xususan, turli ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga ega davlatlar o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama axborot almashinuvining qo'llab-quvvatlanishi va rivojlanishi muhimdir".

O'zbekiston ham mustaqillikka erishgach, mazkur sohada xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga sodiqligini e'lon qildi. 1992 yil 26 fevralda Xelsinki YAkunlovchi aktiga imzo chekish marosimida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov so'zga chiqib, "Men xalq va hukumat nomidan huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lida ichki bunyodkorlik vazifalarini ro'yobga chiqarishning asosiy kafolati bo'lmish, fuqarolar va millatlararo inoqlikni, fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinlikni saqlab qolamiz va har tomonlama mustahkamlaymiz, deb aytaman va bunga qat'iy kafolat beraman", – deb ta'kidlagan edi.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan paytda er kurrasining turli mintaqalarida zo'ravonlik haddan oshib, xalqaro terrorizm kuchayganligi ham kuzatildi. Hozirgi paytda ko'pincha etnik, diniy, mafkuraviy tafovutlar ekstremistik fe'l-atvor shakllari uchun bahona bo'lmoqda. O'z g'arazli maqsadlarini ko'zlovchi muayyan siyosiy kuchlarning g'alamisliklari esa vaziyatni tobora keskinlashtirmoqda. Ekstremizmning kuchayishi esa tinchlikka, insoniyatning barqaror va xavf-xatarsiz rivojlanishiga tahlika soluvchi yangi xavf-xatarlar orasida oldingi o'rinlardan biriga chiqib oldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti e'lon qilgan g'oyalar, oliy maqsadlar va tamoyillar bilan siyosiy-milliy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish maqsadida zo'ravonlikning yashovchanligini ko'rsatuvchi haqiqiy jarayonlar orasida katta tafovut borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Insoniyat jamiyat tinch hayotiga va xalqaro barqarorlikka tahlika solayotgan global xavf-xatarlar orasida tadqiqotchilar, avvalo, quyidagilarni ko'rsatib o'tmoqdalar:

- etnik-milliy mojarolar;
- ozchilikka nisbatan kamsituvchanlik;

- ayniqsa qochoqlar va migrantlarga qarshi ksenofobiya harakatlari;
- irqchilik tashkilotlari va mafkuralari hamda irqiy jabr-zulm harakatlari;
- diniy ekstremizm;
- fikr erkinligi va ifodalash erkinligini talab qiluvchi ziyolilarga, boshqa shaxslarga qarshi zo‘ravonlik va quvg‘inlar;
- ayrim jamoat guruhlarini jinoyatchilik, ishsizlik, sog‘liqni saqlashning yomonligi kabi ijtimoiy illatlarning aybdori deb hisoblaydigan siyosiy harakat va mafkuralar tomonidan o‘tkazilayotgan adovatchilik siyosati;
- himoyasiz guruhlarini marginalizatsiyalash va jamiyatdan badarg‘a qilishda yoki mazkur guruhlariga qarshi kamsitish va zo‘ravonlikda namoyon bo‘ladigan murosasizlik (nobag‘rikenglik).

Murosasizlik hozirgi dunyoning eng katta global muammolaridan biriga aylandi. Buning mohiyati ayrim kishilar va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni inkor qilish va bostirishdan iborat. Jamoaviy, institutsional va hatto davlat nuqtai nazari darajasiga ko‘tarilgan murosasizlik demokratiya tamoyillarini qo‘poradi hamda insonning shaxsiy va jamoaviy huquqlari buzilishiga olib boradi.

2000-yil 13-15 sentyabrda Toshkentda o‘tgan dinlararo mulokot YUNESKO kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikni muhokama qildi. Unda 40 ga yaqin davlatdan 80 dan ortiq turli din va konfessiyaga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdi. Kongressdan so‘ng 18 sentyabrda Buxoro shahrida “Tasavvuf va dinlararo muloqot” mavzusida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda “tasavvuf”ga bag‘rikenglikni targ‘ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi islom dinining noyob, o‘ziga xos ko‘rinishi, degan ta’rif berildi. SHuningdek, 2001-yil sentyabrda Toshkentda o‘tgan Osiyo - Tinch okeani mintaqasi YUNESKO “Bag‘rikenglik tarmog‘i”ning ikkinchi yig‘ilishida bag‘rikenglik tamoyillari o‘zbek xalqining urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlandi.

2018-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parij shahridagi YUNESKO bosh qarorgohida ushbu tashkilot Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashdi. YUNESKO Bosh direktori

O‘zbekiston Prezidentining ushbu tashkilot shafeligida tinchlik va bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish, eksterimizning oldini olish maqsadida Samarqand shahrida Mirzo Ulug‘bek gomidagi xalqaro institut tashkil etish, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti huzurida Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha mintaqaviy markaz hamda Samarqanddagi Turizmxalqaro universitetida YUNESKO kafedrasini tuzish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatladi. O‘zbekistonda Markaziy Osiyo yosh olimlari mintaqaviy forumini hamda 2019-yilda Toshkentda “Axborot texnologiyalari madaniy merosni asrash xizmatida” mavzuida Osiyo forumini o‘tkazish to‘g‘risida kelishuvga erishildi. Uchrashuv so‘ngida Shavkat Mirziyoev va Odri Azule O‘zbekiston bilan YUNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021 yilgacha hamkorlik dasturini imzoladilar.

1995 – 2015-yillarda YUNESKO Bosh direktorlarining O‘zbekistonga tashriflari

№	YUNESKO Bosh direktorlari	Toshrif vaqti
1	Federiko Mayor	1995 yil 25 – 26 avgust
2	Federiko Mayor	1998 yil 5 – 8 noyabr
3	Koichiro Matsuura	2000 yil 13 – 15 sentyabr
4	Koichiro Matsuura	2006 yil 7 – 10 sentyabr
5	Irina Bokova	2013 yil 24 – 28 avgust
6	Odri Azule	2019 yil 26 – 28 avgust

Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO) tomonidan Toshkentning islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishi munosabati bilan 2007-yil 14-15 avgustda Toshkent va Samarqand shaharlarida “O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi” mavzuida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada ham mamlakatimizning jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo‘lidagi yutuqlari yana bir bor e’tirof etildi. SHuningdek, 2014-yilning 15-16 may kunlari Samarqand shahrida “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Bugungi kunda ham mamlakatimiz boy tarixiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ'ib etish, islomning ma'rifiy g'oyalarini yoyish hamda diniy bag'rikenglikni qaror toptirish va mustahkamlashda butun dunyoga o'rnak bo'lmoqda.

Bag'rikenglikning qarama-qarshi tushunchasi "mutaassiblik"dir. Umumiy ma'noda "mutaassiblik" – bu bir g'oyaning to'g'riligiga qattiq ishonish va undan o'zgaralarini keskin rad etishni anglatadi. Mazkur fenomenning xavfli jihati shundaki, u borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va hatto terrorizmga aylanadi.

Terrorizm butun dunyoda tinchlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy g'ov, to'siqdir. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o'zini ochiq namoyon etayotgan hatarli voqeliklardan biri, turli shiorlar bilan niqoblangan terrorizm mintaqalar va mamlakatlar hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng qo'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etayotgan ushbu illatga qarshi kurash butun dunyo uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo bo'yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir yil mobaynida butun er yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida xaloq bo'lganlarning soni bir necha o'n mingni tashkil etishi terrorizmning tinchlik va hotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Bunday jarayonlarning dunyo xalqlari va ularning turmush tarzi uchun bezarar kechishini ta'minlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bir qancha qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilingan. Ular bir tomondan, davlatlar va ularda yashovchi aholining ma'lum bir kuchlar manfaatlariga bo'ysundirilgan noxolis axborot ta'siriga tushib qolishidan himoyalashga xizmat qilsa, boshqa tomondan xalqaro axborot almashinuvida dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro hurmat munosabatlarining qonuniy asoslarini yaratib beradi.

2. Bag'rikenglik shakllanishida fuqarolik jamiyatining darajasi va qadriyati. O'zbekistonda hukukiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo munosabatlarning takomillashuvi muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki, bugungi

kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilmoqda. Ular o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi, mamlakatda tinchlik, barqarorlik jamiyat taraqqiyotini ta‘minlaydi. Tolerantlik, bag‘rikenglik munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etilishi mumkin. Shu sababli inson huquq va erkinliklari, o‘zligini anglashi va namoyon qilishini ta‘minlash dunyoviy demokratik davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. SHunday ekan, dunyoviy davlatni o‘z ideali tarkibiga asos qilib, qabul qilmaydigan ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar davlat hokimiyatiga erishish uchun bo‘ladigan demokratik, ko‘ppartiyaviy raqobatda qatnashish huquqiga ega bo‘lmasligi kerak. Aks holda, insonparvarlik tamoyili buzilishi uchun “qonuniy” yo‘l saqlanib qolgan bo‘ladi. Bunday vaziyatning yorqin misoli sifatida Jazoirda yuzaga kelgan fojiali voqelikni ko‘rsatish mumkin.

Demokratik huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi. Xalqaro andozalarga javob beradigan va milliy o‘zligimizni aks ettiradigan konstitutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston inson huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e‘tirof etilgan ko‘plab xalqaro deklaratsiya, konvensiya va hujjatlarga qo‘shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me‘yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar ham mavjud. Chunki, qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish juda qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklari, demokratiyaning qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘layotganini ta‘kidlash zarur. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish – O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi sifatida amalga oshirilmoqda.

Millatlar haqidagi nazariyalarda din, u bilan bog‘liq dunyoqarash elementlari: diniy e‘tiqod, diniy aqidaparastlik, diniy fanatizm, diniy tolerantlik va diniy chidamsizlik (neterpimost) xususiyatlarining

millatlar shakllanishi va taraqqiyoti hamda iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojidagi o'rni haqida fundamental ta'limotlar mavjud. Taniqli G'arb faylasuflari, sotsiologlari O. Kant, E. Dyurkgeym, V. Dilte, M. Veber ijtimoiy-falsafiy qarashlarida G'arbiy Evropa jamiyatlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, ularda diniy dunyoqarashning ijobiy va salbiy ta'sirlari, din fenomeni va sotsial taraqqiyot masalalari konkret tarixiy konflikt va muammolar, vaziyatlar nuqtai nazaridan yoritilgan. Din tarixi, falsafasi, sotsiologiyasiga oid barcha asarlarni, ulardagi fikrlarni tahlil qilib turib shunday xulosaga kelish mumkinki, ular ham o'zining ma'lum vujudga kelish sababi, shakllanish bosqichi va bir qancha vaziyatlarda sinalib aprobatsiyadan o'tish vaqti, turli diniy e'tiqod hukm surgan jamiyatlar uchun tadbiq etilishi mumkin bo'lgan ilmiy haqiqatlari bor. Shunday haqiqatlardan biri jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyoti jamiyat kishilarining dinga bo'lgan munosabati, diniy dunyoqarashidagi diniy tolerantlik, diniy aqidaparastlik, diniy bilimlari darajasiga bog'liqligidir.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng dunyoda rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish hamda fuqarolik jamiyati hamda dunyoviy, demokratik adolatli huquqiy davlatni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ydi. SHundan kelib chiqib, hozirgi zamon sivilizatsiyasiga xos siyosiy faoliyat va uyushuvning o'zimizga mos tizimlari, yangi siyosiy institutlar va texnologiyalar, jamiyat siyosiy hayotida qatnashishning asosiy shakllari (ikki palatali parlament, demokratik saylovlar, referendumlar, umumxalq muhokamalari) yaratildi. Bu borada jahonda ishlab chiqilgan, rivojlangan demokratik davlatlarga xos bo'lgan ko'ppartiyaviylik tizimi, nodavlat tashkilotlarning faolligi va jamiyat hayotida har tomonlama qatnashishi mamlakatimizning o'ziga xos vaziyatiga mos ravishda ro'yobga chiqmoqda.

Yaqin o'tmishda xususiy mulk taqiqlangan va oqibatda iqtisodiy faoliyat erkinligi yo'q qilingan edi. Inson faoliyati va mohiyati yaxlitligi nuqtai nazaridan iqtisodiy erksizlik boshqa sohalardagi erkinliklarning ham shakllanishiga to'siq bo'ldi. Shuning uchun ham, yaqin o'tmishda e'lon qilingan erkinliklar ko'p jihatdan ro'yobga chiqmay dekloratsiya shaklida qolib ketdi. Shu sababli respublikalar mustaqillikka intildi va

oqibatda istiqloлга erishdi. Davlatimiz mustaqilligi millatimizning eng yuksak ne'mati va milliy erkinligimizning asosidir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurishda o'tish davri qiyinchiliklarini mumkin qadar kamaytirish, turli ijtimoiy illatlar, adolatsizliklarning oldini olish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekiston boshqa davlatlar kabi fuqarolik jamiyati qurishda insoniyat avval bosib o'tmagan, yangi yo'ldan bormoqda. Bu yo'lda totalitar tuzum davridagidan farqli ravishda inson faolligi, erkinligi, tashabbusi va ijodkor kuchini rivojlantirish asosida fuqarolik jamiyati qurilishi mo'ljallanmoqda.

Davlat, jamiyat va inson munosabatlari avval mustabid tizim davrida aksilgumanistik, ya'ni insonni kamsituvchi shaklda qaralar edi. Inson davlat va jamiyatning zaif bir bo'g'ini sifatida qaralib, inson manfaatlari davlat va jamiyat manfaatlari amalga oshishi uchun qurbon qilinishi mumkin edi. Ijtimoiy guruhlar manfaatlari ham davlat manfaatlari amalga oshishi uchun qurbon qilinardi. Ya'ni, davlatda mustabid, nodemokratik jamiyat shakllangan edi. Endilikda, mustaqil mamlakatga aylangan O'zbekiston demokratik, gumanistik jamiyat qurilishi yo'lidan bormoqda. Bu borada jamiyatning barqaror rivojlanishi asosida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular tub, sifatiy o'zgarishlarning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida din sohasidagi siyosat qonuniylik, demokratiya, dunyoviylik va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillari asosida olib borilmoqda. Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda dinning davlatdan ajratilgani, vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlangani hamda diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari ifodalangan.

Diniy ekstremizm konfessiyalararo munosabatlardagi muammolar asosida paydo bo'lmasligi uchun insonlarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar tenghuquqliligi qonuniy ravishda kafolatlanganligi katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi asosida ushbu tenghuquqlilik ta'minlangan.

Konfessiyalararo munosabatlarda inson erkinligini ta'minlash

uchun vijdon erkinligi va tolerantlik tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyatida har bir inson istagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Bu inson ruhiy erkinligining hal qiluvchi tamoyili va ajralmas xususiyatidir. SHu sababli fuqarolik jamiyatini quruvchi barcha davlatlarda vijdon erkinligi tamoyili Konstitutsiya darajasida kafolatlangan. O'zbekiston Konstitutsiyasi 31-moddasiga binoan "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi". O'zbekiston Respublikasida bunday kafolatlarning ta'minlangani mustaqil mamlakatimizda dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan. Jahon huquqshunoslik fani tajribasi asosida qabul qilingan bu qoida davlatimizda milliy va diniy asosda nizo paydo bo'lishining oldini olish uchun xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir.

Mamlakatimizda fuqarolarning o'z diniy huquqlarini amalga oshirishlari uchun yaratilgan sharoitlarni diniy tashkilotlar misolida ham ko'rish mumkin. Hozirda respublikamizda 16 konfessiyaga mansub valillarining diniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda 2 mingdan ortiq machit va 180 ta cherkov, sinagoga, kostyol va boshqa diniy faoliyat yuritish muassasalari mavjud. Mustaqillik sharofati tufayli ularning faoliyati tom ma'noda tiklandi va rivoj topmoqda. Diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha bilim beriladigan Toshkent islom universitetining 1999-yildan faoliyat ko'rsata boshlashi esa bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan bo'ldi. 2003-yili bakalavrlar va 2005-yili magistrnlarning birinchi guruhlari bu universitetni tamomladilar. SHuningdek, Buxoro shahrida Mir Arab madrasasida talabalarga islom ilmi chuqur o'rgatilmoqda.

Bundan tashqari fuqarolarga islom dinining ezgu mohiyatini tushuntirish maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan

ko‘plam jurnal va gazetalar hamda respublika televideniyasi orqali ko‘rsatuvlar muntazam berib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ko‘plab qadimgi diniy-madaniy obidalar tiklandi, ta‘mirlandi, qayta qurildi, yangi yodgorlik majmualari yaratildi. Buyuk mutafakkirlarimizning yubileylari mamlakatimiz va jahon miqyosida keng nishonlandi. Mamlakatimizda yashaydigan barcha konfessiyalarning diniy bayramlari nishonlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ro‘za va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e‘lon qilindi. Davlat tomonidan haj safariga borish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratildi.

2007-yil yanvarda Islom Konferensiyasi Tashkiloti tarkibidagi muassasalardan biri – Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkentning Islom madaniyati poytaxti deb e‘tirof etilishi mustaqil davlatimiz din sohasida olib borayotgan izchil siyosatining yorqin natijalaridan biri bo‘ldi.

Jamiyat barqarorligiga to‘siq bo‘luvchi diniy ekstremizm illatidan tashqari yana biri terrorizmdir. Bu hodisaga davlatimiz o‘zining ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti davomida ham duch keldi. 1999-yilning 16-fevral kuni terrorchilar Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovga suyiqasd uyushtirmoqchi bo‘ldilar. Shu kuni Toshkent shahrining Ichki ishlar idorasi binosi, Nodirabegim kinoteatri, Vazirlar Mahkamasi binosi, O‘zbekiston Milliy bankida katta portlash sodir etildi. Bu terroristik harakatlarda 10 nafar tinch aholi halok bo‘ldi va 15 nafar kishi turli darajadagi jarahatlar olgan. 2005 yil 13 may kuni Andijonda “Akromiylar” degan terrorchi guruh shu erdagi harbiy qismga hujum qiladi. Keyin ular hibsda saqlanayotgan maxbuslarni ozod qilib, saflarini ko‘paytiradilar. Hokimiyat va praxtura binolarini egallaydilar hamda ba’zi davlat xizmatchilarini shafqatsizlarcha jazolaydilar. Shu paytda Bobur maydoniga yig‘ilgan tinch aholini ular qo‘zg‘olon ko‘tarishga da‘vat etadilar. O‘zbekiston hukumati terrorchilar bilan muzokaralar olib boradi. Biroq, terrorchilar hukumat shartlariga ko‘nmasdan og‘ir shartlarni qo‘yadi. O‘zbekiston hukumati mamlakat xavfsizligini saqlash borasida ular bilan olib borgan

operatsiya natijasida ko‘plab terrorchilar yo‘q qilinadi. Ammo bu jarayonda begunoh insonlar ham halok bo‘ladi.

Bunday terroristik faoliyat boshqa tinch respublikalarda ham sodir bo‘layotganligini ko‘rish mumkin. Ba‘zan mamlakatimiz fuqarolari, yurtdoshlarimiz ham shunday terrorchilik tashkilotlarida va harakatlarda ishtirok etayotgani ayanchli holdir. Jumladan, Suriyadagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan, adashib ketib qolgan yurtdoshlarimiz kechirim so‘rab yurtimizga qaytmoqdalar. Urush maydonlaridan ko‘plab ayollar va bolalar “Mehr-3 operatsiyasi” orqali yurtimizga qaytarildi.

Islom dini millionlab kishilarning dunyoqarashi mazmunini tashkil etgan holda ma‘naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishda beqiyos ahamiyatga egadir. Diniy ekstremizm va terrorizm g‘oyalari ta‘siriga berilgan kimsalar har qancha urinmasinlar muborak islom dini, xalqimizning kelajakka bo‘lgan ishonchi, e‘tiqodini, tinchligimizni oyoqosti qilolmaydilar hamda o‘zbek xalqini o‘zi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo‘lidan qaytara olmaydilar. Zero, xalqimiz islom dinidan o‘zlarining qabih siyosiy maqsadlari yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lgan buzg‘unchi kuchlarning asl maqsadini anglab etdi va mamlakatimizda olib borilayotgan vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik va demokratiyaga asoslangan dunyoviy davlat qurish siyosatini to‘la qo‘llab-quvvatlamoda.

Tayanch so‘z va iboralar: BMT, YUNESKO, YUNISEF, YUIKTAD, ISESCO, rezolyusiya, simpozium, irqchilik, ayirmachilik, mutaassiblik, qullik, odam savdosi, shaxsni xo‘rlash, jinoyatchilik, ishsizlik, murosasizlik (nobag‘rikenglik), fenomen, vijdon erkinligi, islom dini, dekloratsiya, milliy, etnik, yotsirash, kamsitish, ekstremistik-terrorchilik, diniy aqidaparastlik, diniy fanatizm, diniy tolerantlik, diniy chidamsizlik, referendum, siyosin institutlar, siyosiy partiyalar, ko‘ppartiyaviylik, globallashuv, integratsiya, migratsiya, urbanizatsiya, konvensiya, xalqaro huquq aktlari, normativlar, xartiya.

3-Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Venn diagrammasi”** interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg'uloti uchun topshiriqlar:

1. Xalqaro tashkilotlarning jahon mamlakatlarida tolerantlik va millatlararo munosabatlarni qaror toptirishidagi sa'y-harakatlarini tahlil qilish

1)* YUNESKO 2)* YUNISEF 3)* ISISKO

2. O'zbekistonda turli millatlar o'rtasidagi hamjihatlikni va bag'rikenglikni ta'minlashda davlat, jamiyat va inson munosabatlarini qiyosiy o'rganish

1)* davlat 2)* jamiyat 3)* inson

“Venn diagrammasi” orqali umumiy belgilar qiyosiy tahlil qilinadi. Masalaning o'zaro bog'liqligini xulosalash uchun yuqoridagi tushunchalar tanlandi.



A)*

B)*

Ma'ruza mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak.
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo'lib, masala mohiyati unga yaqin bo'lgan tushuncha va ma'lumotlar orqali o'zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilganidan so'ng, ularni bog'lovchi xususiyatlarni A)* va B)* qatorda to'ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Birlashgan millatlar tashkilotining tolerantlik borasida olib borayotgan ishlari haqida fikr yuriting?

2. Millatlararo bag‘rikenglikni ta‘minlashda xalqaro tashkilotlarning o‘rni va roli qanday?
3. Bag‘rikenglikning qarama-qarshi tushunchasi haqida nima bilasiz?
4. Butun dunyoda tinchlikni ta‘minlash yo‘lidagi asosiy g‘ov bo‘lib kelayotgan illatlarni bilasizmi?
5. Toshkentning Islom madaniyati poytaxti deb e‘tirof etilishi haqida so‘zlab bering?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 80 b.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
4. Мирзиёев Ш. Нияти улуг‘ халқнинг иши ҳам улуг‘, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

14. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. – Тошкент: Намкornashr, 2021. – Б.206-225.
15. Мадаева Ш. Миллий тараққиётда диний толерантлик омили. “Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни куриш омили” мавзусидаги Республика илмий-

- назарий конференция материаллари. – Тошкент, Бухоро. 2007. 15-17 ноябрь. – Б. 165-168.
16. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко – демографический аспект. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
 17. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – Б. 28-58.
 18. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2007. – 183 б.
 19. Муртазаева Р. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 2010. – 151 с.
 20. Муртазаева Р. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX – в начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. Учебное пособие для магистров. – Германия: Lambert, 2015.
 21. Муртазаева Р. Маҳалла – миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
 22. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu Matbuot-konsart, 2009.
 23. Каримов Б. Толерантлик шаклланишида фуқаролик жамиятини қуриш ва дин соҳасидаги сиёсатнинг аҳамияти. “Ёшларда толерантликни юксалтириш - фуқаролик жамиятини қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий – амалий конференция материаллари. – Тошкент – Бухоро, 2007 йил 15-17 ноябрь. – Б. 202-206.

4-MAVZU: O‘ZBEK MENTALITETIDA ETNOTOLERANTLIK XUSUSIYATI – MILLATLARARO TOTUVLIKNING GAROVI

Reja:

1. Mentalitet tushunchasi va uning o‘ziga xosligi.
2. O‘zbek mentalitetida tolerantlik xususiyati.
3. Etnik tolerantlikni shakllantirish – millatlararo mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf qilishning eng to‘g‘ri yo‘li.

1. Mentalitet tushunchasi va uning o‘ziga xosligi. Mentalitet - bu millatning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xolati bo‘lib, u o‘zida xalqning etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy yashash shart-sharoitlarining uzoq hamda barqaror ta’sirini aks ettiradi.

Mentalitet turlariga: individual mentalitet, ijtimoiy guruh tabaqalar mentaliteti va etnos, millat mentaliteti kiradi. O‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi: xalqimiz tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida turli moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratib, o‘ziga xos sivilizatsiyalarga asos solganlar.

Tabiat va jamiyatdagi barcha o‘zgarish, jarayonlar birinchi navbatda inson fe’l-atvori, ruhiyati, mentalitetida o‘z ta’sirini qoldiradi. Mentalitetdagi o‘zgarishlar esa o‘z navbatida hatto ijtimoiy hayot qiyofasini ham o‘zgartirib yuborishga qodir ekanligi ayon bo‘lmoqda. Globallashuv asri bo‘lmish XXI asrda bu hol tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy dunyo hozirgi kunda umumiy ahloq muayyan mazmundagi ma’naviy qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash jabhasiga qadam qo‘ydi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat mahsulotlari, informatsion va mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish omillari orqali keng ko‘lamlarda siyosat yurgizmoqda. SHuningdek, o‘z xalqi tabiati, fe’l-atvori, mentalitet o‘ziga xosliklarini muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ular hayotining barcha jabhalariga izchil tarzda singidirishga intilmoqda. Jamiyat hayotida umumiy etiket, fe’l-atvor, mentalitet izchil ravishda tarkib topa boshlab, siyosiy, iqtisodiy va informatsion xarakterdagi globallashuv jarayonlari mentalitet, ruhiy

o'ziga xoslik, fe'l-atvorning me'yor darajasiga kelishiga turtki bermoqda.

Bir tomondan dunyo xalqlari mentalitetlarining me'yorlashuv jarayoni muayyan ijobiy jihatlarni ifoda etsa, ikkinchi tomondan esa ma'lum salbiy natijalarni ham namoyon etadi. Xususan, bu holat xalqning milliy o'zlik xususiyatlaridan chekinish, madaniyatning vorisiylik an'analari, milliy xarakter butunligiga putur etkazadi.

SHunday qilib, XX asrning 20-yillarining oxirida gumanitar fanda "mentalete" fenomenining bo'lajak tadqiqotlari uchun poydevor yaratilgan. Shunga ahamiyat berish kerakki, L.Levi-Bryueidan boshlab "mentallik" kategoriyasi qandaydir ijtimoiy birlashma yoki etnik umumiylik tafakkur shakllarining xususiyatlariga ta'rif berish uchungina emas, balki uning aniq tarixiy davr ichidagi o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish uchun ishlatib kelingan. Ibtidoiy davr mentalligining masalalarini P.Radin, B.Malinovskiy, K.Levi-Stross o'rganib chiqqan. Boshqa davrlarning inson mentalligini o'rganish bilan "Annallar" fransuz tarix maktabining asoschilari va izdoshlari, hamda boshqa ilmiy oqimlarning vakillari shug'ullangan.

O'zbekiston jamiyatshunosligiga kelib to'xtasak, o'zbeklar mentalitetining muammosi ko'proq darajada faylasuflar, sotsiolog va psixologlarning tadqiqot ob'ekti bo'ldi. Bu yo'nalishda M.Bekmurodov jiddiy ish olib bormoqda. Uning ilmiy ishlarida "mentalitet" falsafiy kategoriyasining jihatlari har tomonlama yoritilgan. M.Bekmurodovning ma'lumotlariga ko'ra ba'zi chet el tadqiqotchilari (B.Appelbaum, G.Grachyov) mentalitetni mafkura bilan bog'laydilar va uni siyosiy boshqarishning qulay usuli deb hisoblaydilar. Boshqa olimlar esa (A.Panarin, I.Panarin) mentalitet xalqning diniy-ma'naviy holatining asl mahsuloti deb tasdiqlaydilar. Shuningdek, mentalitet – bu millatlarning milliy-urf odatlari majmuasi degan tushuncha ham mavjud.

2.O'zbek mentalitetida tolerantlik xususiyati. 2022-yilga kelib er yuzida 8 milliardga yaqin aholi istiqomad qilayotgan bo'lsa, O'zbekiston hududida 36 million aholi istiqomat qiladi va ular 130 dan ortiq millat va elat vakillaridir. Har bir xalqning mentaliteti bilan o'zgarishlar ro'y beradi va unga o'zaro munosabatlar ta'sir etadi. Shu

jumladan, o'zbek xalqining mentalitetiga XX asrda 70 yil hukmronlik qilgan sovet tuzumi o'zining ta'sirini o'tkazishga urindi. O'zbek xalqi bu jarayonlarda o'zlikni asrash, milliy birlik, ma'naviy hamda ahloqiy yaxlitlikni saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko'rsata oldi. Milliy birlikni muhofaza etish zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyoli, hunarmand, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi. Bu holat o'z navbatida quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;
2. Xalqimiz ma'naviyatining yorqin ifodasi bo'lgan urf-odat, qadriyat, an'ana, rasm-rusumlar tizimi saqlab qolindi;
3. O'tmish madaniyatimizning o'lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, vahshiylarcha talon-tarojlarga qaramay, turli tadbirlarni qo'llash orqali asrab-avaylanib, kelajak avlodga etkazildi;
4. Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay saqlashga erishildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, millat ma'naviyatiga yot bo'lgan ahloqiy qadriyatlar, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzluksiz tazyiqlarga qaramay, xalqimiz o'zining bag'rikenglik, saxovatpeshalik, mehmondo'stlik, sabr-bardoshlilik singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'naviy poydevorlariga jiddiy putur etkazmaslik uchun olib borgan goh oshkora, goh xufiyona kurashida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va sertomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;
2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turg'un mazmundagi urf-odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljallarida shahar ruhi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqei kasb etib kelganligi;

3. Xalqimizning o‘z milliy madaniyati, tili, san’ati, adabiyotiga bo‘lgan muhabbati, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an’ana va marosimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma’naviy qiyosiy sifatida yondosha bilganligi;

4. Islom dini bilan xalq an’anaviy madaniyatining uyg‘unlashuvi, ta’kibdagi din bilan mazlum xalqning ozodlik va mustahkam hayot tarzini saqlab qolishga amal qilib kelganligi;

5. O‘zbek xalqining chidamliligi, sabr-bardoshi, bag‘rikengligi, g‘animlarni beixtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samimiyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay qalbi va hokazo omillar xalqimizning ma’naviy, etnik hamda ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi o‘tmishdan meros bo‘lib o‘tgan barcha holatlarga yangicha ko‘z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummilliy ma’naviy yangilanishlarni boshlash imkoniyatini berdi.

Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi ma’naviy sog‘lomlashtirish, milliy butunlikni ta’minlash, ma’naviy yaxlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Bugungi kun mantiqi xalqimiz fe‘l-atvori, mentaliteta o‘zgarishlariga jiddiy e’tibor qaratishga undadi.

O‘zbekistan Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Tafakkur” jurnali va “Fidokor gazetasidagi bergan intervyularida, shuningdek, “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati” tashabbusi guruhi bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqida xalqimiz mentalitetini jiddiy o‘zgartirish borasida dastur konsepsiyasini o‘rtaga qo‘ygan. Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy va iqtisodiy muloqotlar doiralarida o‘z so‘zini ayta boshlagan mamlakatimiz uchun tarafdorlar bilan bir paytda, holis tashqi va ichki siyosatimizda va bunyodkor sa’y-harakatlarimizda hasadgo‘ylar ham ko‘p ekanligi nafaqat davlatning mustaqilligi, balki, jamiyatimiz, har birimizning jipsililigimiz kuchi - dolzarb masalaga aylandi. SHu boisdan ham xalqimiz tabiatidagi ishonuvchanlik, soddadillik, ochiq qo‘ngillik fazilatlarini ijobiy hol sifatida qayd etish bilan birga, tashqi xavf-xatarlar xuruji kuchaygan murakkab shart-sharoitlarda mazkur xususiyatlarning amaliy o‘rni xususida jiddiy o‘ylab ko‘rishga da’vat

etadi. Tashqi tazyiqlar va ichki xavf-xatarlarga “soddadillik bilan, yuzaki tushunchalar” bilan na qarshi tura olish va na kurasha olish mumkin emasligini alohida ta’kidlangan.

Millat mentalitetini o‘zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda asosan ikki yo‘nalishda amaliy faoliyatlarni tashkil etish lozim:

1. An’anaviy azaliy an’analarimiz, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlari, tili, dini, ruhiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanishi;

2. Umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatib berdi.

Ma’lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruhiyat omillari fe’l-atvor, xarakter tizimida o‘zak jihatlar hisoblanib, barcha o‘zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzini takomillashuvida esa ma’naviy-ma’rifiy omillar muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchi jihatdan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy-texnikaviy, madaniy uyg‘unlashuv miqyoslarining muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondoshuvlarni tarkib topayotganligidan darak beradi. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizatsiyalar turli xalqlar ma’naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlar va intilishlarining uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Bugungi o‘zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarning ustuvorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur?

O‘zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe’l-atvori tizimida miya faoliyati, sa’y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog‘da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivoj topishini taqozo etmoqda. SHuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida sub’ektlar - insonlar rolining benihoya oshib borish jarayoni kuzatilmoqda.

Ana shu munosabat bilan mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistensialistik hamda

ratsionalistik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati masalasini ilgari surgan. Ma'lumki, pragmatizm - harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadi sa'y-harakatlari, faoliyatlari unga mehnatiga muvofiq naf, foyda keltirishini ifoda etadi. G'arb kishisi tabiatan individualist bo'lib, manfaat omili uning barcha xarakterlarini faollashtiradi, faol shaxs sa'y-harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda izlash yo'llaridan ko'ra, o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob doirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib qo'yuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotta undab, mushohada asosida ish tutish, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor itisodiyoti hamma narsaga ongli yondoshuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Me'yorsiz ravishdagi bag'rikenglik, hotamtoylik, saxovatpeshalik, agar lozim bo'lsa serchiqimlilik, hisobsiz sarf-harajat qilishga moyillik singari holatlar shu yo'nalishdagi odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta-sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib boradi. Bu esa ekzistensialistik, ya'ni hayotga bugungi kun talablaridan kelib chiqib, hushyorlik va oqilona yondashuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvorlariga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensiya xolatida, ya'ni yashashga ma'sul va yashayotgan shaxs sifatida muntazam his etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas, ko'proq boshqalarni kuzatish, kuzatayotganda ham ongli, tizimiy emas, betartib qayd etib yurishga moyilmiz. Ekzistensialistik yondashish insonni ongli, hushyor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy anglash va his etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondoshuv insonda o'zini-o'zi doimiy tarzda yangilab borish, tashqi shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, o'zini-o'zi muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvga ehtiyoj sezish xususiyatlarini tarkib toptiradi. Ekzistensialistik yondashish kishini konformizm, ya'ni hamma narsaga ko'nib ketaverishdan, ortiqcha qanoat, befarqlik va loqaydliklarga berilishdan xalos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuqtai-nazari,

e'tiqodiga qat'iy va barqaror bo'lishlikka da'vat etadi. Ekzistensializm o'z so'zi, ishi va taqdiri uchun ma'sullik hissini ham tarkib toptiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur g'oya ulug' ajdodimiz al-Moturidiyning "Har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini o'zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta'minlovchi kuch" degan so'zlari orqali har bir hayotiy vaziyatda oqilona me'yor, murosaviy muvozanatni ta'minlay bilish lozimligini ta'kidlaganlar.

3. Bag'rikenglikni tarbiyalash, etnik tolerantlikni shakllantirish-millatlararo mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf qilishning eng to'g'ri yo'li. Har bir millat yaratganning mu'jizasidir. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Alloh insoni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'p millatli (polietnik) va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Globallashuv davridagi jarayonlar monoetnik davlatlar kamayishiga olib kelmoqda. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra, davlat aholisi 5 foizini boshqa titul bo'lmagan millatlar tashkil etsa, u monoetnik davlat hisoblanadi. Migratsion jarayonlar avj olayotgan hozirgi zamonda deyarli monoetnik davlatlar qolmagan.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar vakillari manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, xalqaro maydondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'likdir. Xalqimizning "Qo'shning tinch - sen tinch" degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Bugun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik,

barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq, istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani mustaqil O'zbekiston rivojida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo'l bilan echish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko'p millatli xalqi ongida "O'zbekiston - yagona Vatan" degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

Qaerdaki millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab etilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq - tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar

keltirish mumkin. Birgina fashizm g‘oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko‘ra ko‘proq kulfat, ofat-balolar yog‘dirib, oxir-oqibatda o‘zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g‘oyalarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g‘oyasiga qarshi “salib yurishi” uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni hushyor tortishi lozim.

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda fuqarolarimiz qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tilimizga sog‘lom munosabatni qaror toptirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish zarur.

Ayrim millatlar vakillarini jismonan qirib tashlashga qaratilgan etnotsid siyosati ko‘plab fojialarni keltirib chiqargani ma’lum. Millatni o‘tkinchi tarixiy hodisa sifatida baholash, yirik millatlar zamirida yangi xalqni shakllantirish yo‘lidagi urinishlar esa ayrim yirik davlatlarning parchalanib ketishiga olib keldi. O‘zlarini demokratiyaning yalovbardorlari deb bilayotgan ba’zi bir davlatlarda fuqaroviy mansublikni urg‘ulash, iqtisodiy farovonlikni ta’minlash orqali etnoslarni qorishtirib yuborishga qaratilgan harakatlar samara bermayotgani bunday milliy siyosat modellarining ham istiqboli yo‘qligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi milliy siyosat modellari ko‘p millatlilikni salbiy xodisa sifatida baholashning natijasidir. Bundan farqli ravishda, o‘zbek milliy siyosat modeli uni yaratuvchilik qudratiga ega omil sifatida tan olish, milliy mansubligidan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta’minlash, ijtimoiy hayotdagi teng huquqli ishtirokini kafolatlashga asoslanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: pragmatistik, ekzistensialistik, ratsionalistik, bag‘rikenglik, hotamtoylik, saxovatpeshalik, serchiqimlilik, qanoat, befarqlik, ko‘p millatli (polietnik) va bir millatli (monoetnik).

4-Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“BBB”** uslubi orqali mustahkamlash.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman

--	--	--

Mavzuni “BBB” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Mavzuni mustahkamlash uchun talabalardan qanday ma’lumotlarga ega bo‘lganliklari so‘raladi.
2. Talabalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar inkor etilmasligi lozim.
3. So‘nggi bosqichda talabalardan qanday ma’lumotlarni bilish istagida ekanliklari so‘raladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mentalitet tushunchasi nima?
2. Mentalitet turlariga nimalar kiradi?
3. Xalqimiz xarakteridagi pragmatistik, ekzistensialistik hamda ratsionalistik xususiyatlar haqida fikr yuritish?
4. Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siqlarni sanang?
5. Mafkuraviy immunitet deganda nimani tushunasiz?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 80 b.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз кеажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. 440 бет.

5. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — 592 б.
6. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2018. — 508 б.
7. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2019. — 400 б.
8. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари. 4-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2020. — 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

9. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. — Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. — Б.62-79.
10. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р.Ҳ. Узбекистан многонациональный: историко — демографический аспект. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
11. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. — Тошкент: Университет, 2007. — 183 б.
12. Муртазаева Р. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. —Ташкент: Узбекистан, 2010. —151с.
13. Муртазаева Р. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX — в начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. Учебное пособие для магистров. — Германия: Lambert, 2015.
14. Муртазаева Р.Ҳ. Маҳалла — миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. — Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
15. www.edu.uz.
16. www.ziyo.net.uz.
17. www.ec.edu.uz.

5-MAVZU: SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA BAG'RIKENGLIK MASALASI

Reja:

- 1.O'rta Osiyolik mutafakkirlar asarlarida bag'rikenglik masalasi.
- 2.G'arb mutafakkirlari dunyoqarashida bag'rikenglik g'oyalarining aks ettirilishi.

1.O'rta Osiyolik mutafakkirlar asarlarida bag'rikenglik masalasi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida davlatlararo munosabatlar, ayniqsa, xalqlararo muomalaga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun o'zga davlatlar, mintaqalar va xalqlar yashaydigan hududlarga yuboriladigan elchilar, savdogarlar, sayyohlar safarga chiqish oldidan, o'zlari yo'l olayotgan el, xalq va mamlakatning tili, dini, madaniyati va tarixi haqida mukammal ma'lumotlar yig'ib, ularni o'qib o'rganganlar.

Hozirgi zamon fanlari asosini yaratgan Turon zaminining buyuk allomalari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar o'zlarining asarlarida ellararo, xallararo, davlatlararo tinchlik hamda insoniylik g'oyalari ilgari surganligi g'arb olimlari tomonidan ham e'tirof etilgan. Xususan, bu borada, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayxon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali ibn Sinoning "Ahloq fani", "Oila xo'jaligi" asarlarida komil inson bo'lib etishishda ilm, ma'rifat, tolerantlik, bag'rikenglik, tarbiyaning o'rni benihoya katta bo'lganligini ta'qidlaganlar. Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko'ra, tolerantlikning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, odamlarning o'zaro birlashish ehtiyojlaridan hamda tashki xavf xurujlaridan birgalikda xalos bo'lish zarurati tufayli vujudga kelgan. Shuningdek, Beruniy sabr-toqat va bag'rikenglik xususiyatlari

xalqlarning yashovchanligini ta'minlashda tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida qayd etadi.

Sharqning mashhur faylasufi Abu Nasr Forobiy shunday yozadi "Ba'zilar odamlar o'rtasida tabiiy yoki ihtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar etkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mobodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda murosaga keladilar deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar. Agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos xayvoniy aqidalardan biri mana shu noto'g'ri tasavvur va aldamchi aqidadir".

Forobiyning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ihtiyoriy ravishda birgalashib, hamkorlikda yashashlari zarurligini, ana shunda o'zaro nizolar tugashini uqtiradi. Yoki yana: "Ba'zilar o'ylashicha, odamlar orasidagi bog'lanish vositalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiylikiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos bo'lgan mana shunday xususiyatlarga ega". Bu bilan Forobiy insonlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, sabr-toqatli bo'lishi zaruratini ta'kidlaydi.

Jamoa kishilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida jihatlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, bu xususda turli-tuman o'ziga xoslik va silsila yasovchi nuqtai nazarlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ularni Forobiy xaqli ravishda quyidagi guruhlariga ajratadi:

- kishilar o'rtasida bag'rikenglik, sabr-bardoshlilik fazilatlarini qarindoshlik yoki qon yaqinligi tufayli namoyon bo'ladi va bunday yaqin hamjihatlik mustahkam turmush ham-ohangligi va yaqdolligini yuzaga keltiradi;

- kishilarning o'zaro bog'liqligi zahirida muayyan qabila-urug'larga tegishlilik yotadi, bu esa katta miqdordagi kishilar guruhi o'rtasida fikr yaqdolligini tashkil etishi **mumkin**;

- kishilar islom aqidalaridagi muhim talab - imondan keyin yoziluvchi, ammo imondan qadri-qimmatini past **bo'lmagan** lafzni o'rtaga

qo'yishib, ahd, qasam asosidagi o'zaro ittifoq negizida bir-birlari bilan bog'lanadilar. Bu bog'lanish o'zaro sabr va bag'rikenglik fazilatlariga yo'l ochadi;

- kishilar o'rtasidagi o'zaro yaqin aloqalar, o'zaro sabr-toqat, bag'rikenglik, urf-odat, an'analar, fe'l-atvor birligi, saviyalar tengligi, didlar o'xshashligi, xarakter yaqinligi hamda tilning umumiyligi tufayli ham yuzaga keladi;

- kishilarni o'zaro bog'lovchi yana bir muhim vosita - ularning tug'ilib o'sgan yurtlari, yashash joylarining umumiyligi xodisasidir. Xavf umumiy bo'lganda, hamyurtlik xodisasi uni bartaraf etish uchun yaqindillikni ta'minlaydi va muhim ijtimoiy-ma'naviy omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni vaqtda tolerantlikni ifodalovchi xususiyatlarga odamlarning hammasi ham ongli ravishda bo'ysunavermaydi, balki ularning bir qismi ko'pchilikka tahdidan, masala mohiyatini etarli xis etmasdan turib ham amal qilaveradilar. Chunki, bu ruhiy holat o'zbek xalqi xarakterida o'ziga xos inersion tabiat kasb etib qolgan.

Qomumiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973 yilda Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ilgan. "Beruniy" degan nisba (tug'ilgan joy yoki kasbga qarab beriladigan taxallus) manbalarda quyidagicha keltiriladi. Odatda "biruniy" yoki, to'g'rirog'i "beruniy" so'zini "shahar tashqarisida yashovchi kishi" deb izohlanadi. Bu so'zni, birinchi bo'lib, Movarounnahrlik alloma Abdulkarim as Samoniy (1165 yilda vafot etgan) o'zining mashhur "Kitob al ansob" ("Nasabnoma") nomli asarida keltirib o'tgan. Beruniy "Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tomomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Beruniy "Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" asarida turli xalqlar: qadimgi yunonlar, eroniylar, sug'dlar, xorazmlik xarronlar (yulduzga topinuvchilar), koptlar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va nihoyat musulmonlarning "eralarini" bayonini keltirdi. Shuningdek, asarda "soxta payg'ambarlar", ya'ni muxlislari

bo'lmaganidan yo'q bo'lib ketgan yoki o'sha davrda juda kam sonli tarafdorlarga ega bo'lgan din yo mazhablar haqida ham ma'lumotlar berildi. Beruniy shu xalqlarning kalendarlari bilan bir qatorda, ularning bayramlari, xotira kunlarini, ma'lum kunda ro'y beradigan metrologik hodisalarni ham sanab o'tadi.

O'zbek xalqiga xos ajoyib fazilat sabr - toqatdir. Bir tilagan narsaning bo'lmay qoluviga yoki bir ishning amalga oshmay koluviga qarshi turib, uni bo'ldirish uchun chidamoqqa sabr deyiladi. Mufakkirlarimiz insonlar bilan munosabatda yoki qo'shnilar bilan aloqalarda sabrli, toqatli bo'lishga da'vat etganlar. Sabrli kishi hayotning achchiq – chuchugiga bardosh beradi, topganiga qanoat qilib yashaydi. Sabr – toqat qanchalik og'ir bo'lmasin keyinroq shodlik keltiradi. Xalqimiz “Sabrning tagi – sariq oltin”, deb bejiz aytmagan. Toqatlilik, bardoshlik, vazminlik kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan kishilar aslo xor – zor bo'lmaydilar. Buyuk mutafakkir A.Navoiyning “Mahbub ul - qulub” asarida berilgan quyidagi satrlar ibratga loyiqdir. “Sabr achchiq, ammo foyda beruvchi, u qattiq ammo ziyon – zahmatlarni daf etuvchi, sabr - shodliklar kalitidir – bandlarni echuvchidir. Sabr – o'rtoqdir, suhbat zerikarli, ammo maqsadga olib boruvchi, sabr ulfatdir, uzoqni ko'zlagan, ammo oxirida istakka etkazuvchidir. Sabr ulovdir – sekin yuradigan, ammo manzilga eltuvchidir. Sabr tuyadir, og'ir qadam, lekin bekatga olib boruvchidir. Sabr – nasihatgo'y, achitib gapiradigan, kishi tabiati undan ozor chekadi, lekin amal qilgan oxirda murodga etadi. Sabr – tabib, badxo'r dori, bemor undan azob tortadi, ammo so'ngida sog'likka erishadi”.

O'zbekiston XXI asrga dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan teng ovozga, o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lgan holda qadam qo'ydi. Yangi asrda jonajon Vatanimiz yanada ravnaq topishi, dunyoning eng ilg'or mamlakatlari safidan munosib joy olishi muqarrardir. Chunki, bizning ajdodlarimiz barcha davrlarda ham jahon tamaddunini ilgarilama harakatlanishida eng katta hissa qo'shib kelganlar, fan va madaniyatning turli sohalarida o'chmas iz qoldirganlar.

Ana shunday ajdodlarimizdan biri, shubhasiz, temuriylar xonadonining munosib vaqili bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburdir.

U temuriylar sulolasiga yangi kuch berib, tarix sahnasida boburiylar nomi bilan yana bir necha asr turishiga zamin tayyorladi. Boburiylar tarixi nafaqat O'zbekistonda balki, dunyo miqyosida ham barcha davrlarda keng o'rganilgan va o'rganilmoqda. Ayniqsa, mustaqillik davrida bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

“Zahiriddin Muhammad Bobur, Hindistonga kelgach, hind madaniy hayotida yangilanish ro'y berdi, me'morchilik, san'at va adabiyot o'zga bir mazmunga ega bo'ldi”, - deb katta baho bergan edi Javaharlal Neru. Darhaqiqat, Boburning Hindiston tarixi va madaniyatida o'chmas iz qoldirdi, hind va Hindiston xalqi oldida uning xizmatlari beqiyos. Bugunda nafaqat Hindiston, balki dunyo ahli Bobur yaratib ketgan ilmiy, badiiy merosdan bahramand bo'ldi. Bobur ijodi va faoliyati biz uchun bitmas-tuganmas meros va harakat dasturidir. Chunki Bobur Hindistonda buyuk imperiyagina yaratib qolmay, balki boshqaruv sohasida ham ancha ibratli ishlarni amalga oshirgandir. Ayniqsa, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida amalga oshirgan ishlari tahsinga sazovor ishlardir. Bobur barcha istilochilar kabi Hindistonni talagan emas, balki unda buyuk davlat qurib, yashagani borgan. Shu sababli Bobur, keyinchalik uning avlodlari tomonidan Hindistonda yashayotgan turli irq, millat va din vaqillariga hayrixohlik, g'amxo'rlik ko'rsatildi. Buning natijasi o'laroq, boburiylar sulolasi bu polietnik va turli diniy e'tiqodli jamoalar yashovchi o'lkada uzoq davryashadilar, hind xalqining sevimli farzandiga aylandilar.

Zahridin Muhammad Boburning millatlararo va dinlararo totuvlikni saqlash yo'lida amalga oshirgan ishlari milliy g'oyamizning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalariga to'la mos kelibgina qolmasdan, balki mazkur mavzularni o'qitishda amaliy yordam beradi. Boburning bag'rikenglik g'oyalari o'zining ilmiy asoslanganligi va yashovchanligini yana bir karra isbotlaganligini ko'rsatadi.

2.G'arb mutafakkirlari dunyoqarashida bag'rikenglik g'oyalarining aks ettirilishi. Qadimiy madaniyat makoni bo'lgan Markaziy Osiyoning qulay geografik joylashuvi, tabiati, iqlimi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning avvalroq boshlanishini

ta'minladi va Sharq bilan G'arb, Mesopotamiya, Eron, Misr, keyinchalik Yunoniston va Rimni, Xitoy va Hindistonni bilan bog'lovchi turli xalqlar madaniyatining chatishtiruvini ta'minlovchi halqa vazifasini o'tadi. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, qadimgi davrlardan boshlab hozirgi kunga qadar G'arb va Sharq, Shimol va Janubda hamda u erdagi millatlar va ellatlar o'zaro munosabalar, bordi-keldi va hattoki qirg'inbarot urushlar davomida ham bir-birlaridan o'rganganlar. Jumladan, salibchilar ovqatlanish oldidan qo'l yuvishni Yaqin Sharqdan o'rgangan bo'lsalar, ispan konkistadorlari bir qator madaniy o'simliklar va sabzavotlar o'stirishni hamda tamaki chekib sarxush bo'lishni Amerikaning tub joy axolisidan o'rganishgan. Markaziy Osiyoni egallagan arablar o'zlarinikidan ancha yuqori bo'lgan madaniy hayotga, ilm-fan va hunarmandchilikka duch kelganlar.

G'arb olimlari Sharqning boy ilmiy merosini katta qiziqish bilan o'rganlar. Bu o'zlashtirish XVI-XVII asrlarga kelib o'zining yuqori bosqichiga chiqdi. Bu albatta Buyuk geografik kashfiyotlar, diniy reformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq edi. Ispaniyada salkam sakkiz asr davom etgan arablar hukmronligi, yarim orolda SHarq madaniyati, ilm-fan, falsafa, badiiy adabiyotning rivojlanishini, xalifalikni tashkil etgan boshqa xalqlar, ayniqsa Movarounnahr, Eron madaniyatining arablar tomonidan o'zlashtirilishi, Ispaniyada esa yanada takomillashtirilishi Evropa xalqlari, ayniqsa Ispaniya bilan chegaradosh mamlakatlar uchun izsiz kechmadi. Ayniqsa, G'arb mamlakatlari xalqlari madaniyati shakllanishi va rivojiga turtki bo'ldi.

Akademik N.I.Konrad "G'arb va Sharq" asarida Markaziy Osiyoda shakllangan madaniyat haqida quyidagi adolatli so'zlarni yozadi: "Musulmon dunyosiga, dastaval IX – X asrlardagi O'rta Osiyo musulmon dunyosiga murojaat etaylik. Bizga ma'lumki, bu asrlarda u erlarda o'sha davr uchun oliy darajada bo'lgan ilm-fan, falsafa va ma'rifat mavjud bo'lgan. Yana ma'lumki, al-Farobiy, ibn Sino (Avitsena), al-Xorazmiy va al-Beruniy va bu taraqqiyotning boshqa buyuk zamondoshlari qadim davr falsafa va ilmiy merosini o'zlashtirib, o'sha davrdagi ilmiy va falsafiy tafakkur yo'nalishini yaratdilar. Ular tarixiy taqdirlari bilan bog'liq bo'lgan buyuk qadimiy

sivilizatsiyalarning manbalariga suyandilar... O'rta Osiyo qadim davrlardayoq umuminsoniyat sivilizatsiyalarining chorrahasi bo'lgan va o'zi ham ana shu sivilizatsiya markazini biri bo'lgan.

G'arbiy Evropada o'rta asrlarda xristian dini hukmron mafkura va dunyoqarashga aylangan edi. Katolik cherkovining piri deb e'lon qilingan Foma Akviniskiyning fikricha, dunyoning mavjudligi xudoga bog'liq edi. U xudoning mavjudligini narsalarning mavjudligidan kelitrib chiqarishga harakat qiladi. Bu borada Foma Akvinskiy Arastu falsafasidan, uning mazmun va shaklning o'zaro munosabati haqidagi ta'limotidan ustalik bilan foydalanadi. Katolik cherkovi yangilikka intilgan olimlar, ziyolilar qolaversa diniy ta'limotning asosini tushungan begunoh insonlarni inkvizitsiya sudi orqali qattiq jazoladi.

XIV-XVI asrlar G'arbiy Evropada Uyg'onish davri hisoblanadi. Bu davrda dastlab, Italiyada so'ngra Evropaning boshqa mamlakatlarida feodalizm bag'rida kapitalistik ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojiga olib keldi. XVII asrda yashab ijod qilgan uyg'onish davri vakili J.Lokk (1632-1704 yillar) liberalizmning g'oyaviy siyosiy doktrinasini yaratar ekan, cherkovning kuchli senzurasida bag'rikenglik to'g'risidagi o'z fikrlarini yozdi. Uning asarlarida bag'rikenglik tushunchasi qat'iy cheklangan diniy chegaralar doirasida bo'lsa ham, uni mustaqil tushuncha sifatida ifodalab berdi. Uning "Diniy sabr-toqat to'g'risida maktub" asari (1685-1686 yillar) jamiyatdagi bag'rikenglik sohasini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi. Bu asarda fuqarolarga diniy ibodatlarda erkinlik berish huquqi, diniy jamoalarning teng huquqliligi, cherkovni davlatdan ajratish to'g'risidagi g'oyalar bayon etilgan edi.

Fransuz mutafakkiri Volter (1694-1778 yillar) bag'rikenglik g'oyasining taniqli tarafdori edi. Aslida, bag'rikenglik nazariyasining mohiyatini ifodalaydigan aforizmga aylanib qolgan quyidagi fikrni Volter aytgan deb hisoblaydilar. "Men sizning fikringizga qo'shilmayman, lekin sizning o'z fikringizni aytish huquqingizni himoya qilish uchun jonimni fido qilaman".

XIX asrda yashab o'tgan ingliz olimi Jon Styuart Mill (1806-1873) bag'rikenglik va xilma-xillikni bir-biridan ajralmas deb hisoblab, o'zining "Ozodlik to'g'risida"gi ishida xilma-xillikni "buyuk qadriyat"

deb e'lon qildi. V.Losanoning ta'kidlashicha, "Notolerantlik insoniyatni halokatga olib boradi, shu sababli hozir notolerantlik muammosi xalqaro ahamiyatga ega bo'lib qoldi. YUz yilliklar va hatto ming yilliklar davomida vujudga kelgan buyuk sivilizatsiyalar, deb ta'kidlaydi so'ngra u, chamasi, yaqin kelajakda yo'q bo'lib ketmaydi, deb o'ylayman. SHu sababli turli insoniy hamjamiyatlar o'z oralaridagi tafovutlarga qaramay, birgalikda yashamoqlari kerak. Modomiki shunday ekan, birmuncha rivojlangan sivilizatsiyalar o'z tamoyillari, o'z qadriyatlari birdan-bir to'g'ri ekanligiga ishonch bilan boshqa rivojlanib borayotgan sivilizatsiyalar ustidan hukmronlik qilishga behuda o'rinmasinlar, bir-biridan ustun bo'lgan sivilizatsiyalar yo'q. Muayyan mamlakatda tug'ilib o'sgan kishilar uchun maqbul bo'lgan bir sivilizatsiyaning tamoyillari, qadriyatlari va dini mavjud bo'lib, u qolgan butun insoniyat uchun majburiy emas".

XX asrda g'arbda katta urush o'chog'ini yoqqan millatchilik, fashizm bosh ko'taradi. Fashizm so'zi – lotincha fascis so'zidan olingan bo'lib, qadimgi Rimdagi hokimiyat timsoli bo'lgan sekira atrofidagi hivichlar bog'lamini bildiradi. Fashizm nemis natsizmidan farqli o'laroq Benito Mussolini (1883–1945) diktaturasi davridagi Italiya fashizmini anglatish uchun qo'llanildi. Keng ma'noda fashizm deb Italiya fashizmi, nemis natsizmi va ularga yaqin bo'lgan hukmronlik va mafkura shakllari tushuniladi.

Italiya fashizmi va nemis fashizmi birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda maydonga keldi. Ularning kelib chiqishiga ko'pgina sabablar bo'lib, ular orasida, jumladan Versal sulh shartnomasi shartlari va urushlar oralig'idagi iqtisodiy tangliklar ham bor. Bugun o'tmishga nazar tashlansa, fashistlar rejimini nega bunchalik ko'p odamlar qo'llab-quvvatlaganini tushunish qiyin. Biroq ko'pchilik uchun jahon urushlari oralig'ida fashizm boshqacharoq ko'ringan edi. Iqtisodiy va siyosiy hayotda xaos hukm surardi. Germaniya va Italiyada demokratik hukumatlar kuchsiz edilar. Tartib o'rnatishga zarurar tug'ildi. Kuchli va qat'iy rahbarlar hamma muammolarni hal qilishi kerak edi. Xuddi shu tarzda sog'lom va hayotiy ideolizm umumiy inqioz holatiga barham berishi kerak edi. Angliya va Fransiya mustamlakalarga

ega edi. Fashizm g'oyasi tarafdorlari urushdan keyin kamsitilgan mamlakatlarning endi navbati keldi deb hisobladi. Ashaddiy millatchilik, samarali va avtoritar ko'pchilik nazarida boshi berk ko'chadan chiqish yo'li bo'lib ko'rindi. Boshida fashistlar milliy o'zini hurmat qilish tuyg'usi qayta tiklash va muayyan ijtimoiy farovonlikka muvaffaq bo'ldilar. "Tartib" o'rnatildi, biroq uni o'rnatishda qat'iy, ko'pincha qonli usullardan foydalanildi.

Fashizimga turli nuqtai nazardan qarash mumkin. Fashistlar nuqtai nazarida, u milliy tanglikdan chiqishning eng qulay yo'li. Liberallar nuqtai nazarida, fashizm totalitar siyosat va varvarlar davriga qaytishni – axloqiy regressni bildirar edi. Marksistik nuqtai nazardan, fashizm-kapitalizm inqilobini yuzaki hal qilish – omonat turgan kapitalistik institutlarini kuch va zo'rlik yordamida barqarorlashga urinishdir. Konservativ nuqtai nazarida esa, fashizm tanazzulning radikal ifodasi – odamlarning adolatli hokimiyatga bo'lgan ishonchi va haqiqiy birlik tuyg'usi yo'qolgani tufayli, ular yolg'on payg'ambarlarni izlay boshlaydilar.

G'arbda liberalizm deganda tolerantlik (bag'rikenglik)ni tushuntiruvchi siyosiy nazariya ham mavjud. Terminalogik jihatdan liberalizmni liberallikdan, ya'ni sabr-toqatlilik va huquqiy erkinlikni mantiqiy, axloqiy afzal bilishdan aniq farqlashimish kerak. SHuni ta'kidlash lozimki, "liberalizm" termini ko'pincha ozodlikni asosiy qadriyat, ma'rifatli shaxsiy manfaatni esa asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida talqin qiluvchi siyosiy-iqtisodiy nazariyalarni ta'riflash uchun qo'llaniladi. Shu bilan bir vaqtda, bu nazariyalar davlatga mustaqil ishtirokchilarning faoliyat sohalarini himoya qilish vazifalarini. Ya'ni oldindan aytish mumkin bo'lgan ratsional harakatlarga yo'l ochadigan tinchlik va tartibni ta'minlash, siyosiy barqarorlik va mulkka egalik huquqini ta'minlashni yuklaydi. "Liberalizm" so'zining – davlatning zulmga va o'zboshimchalikka asoslarga harakatlarini emas, balki inson erkinliklarining garovi bo'lishi lozim.

Tayanch so'z va iboralar: Toqatlilik, bardoshlik, vazminlik, bag'rikenglik, irq, millat, din, hayrixohlik, g'amxo'rlik salibchilar,

senzura, katolik cherkovi, fashizm, liberalizm, konservatizm, kommunizm, totalitarizm, natsizm, millatchilik, o‘zboshimchalik, sivilizatsiya, diktatura,

5-Maruza mashg‘ulotdayangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Insert”** interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A	M	—	?

Mashg‘ulotuchun topshiriqlar

SHarq va G‘arb mutaffakkirlari asarlarida bag‘rikenglik masalalari:

- ◆ Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko‘ra, tolerantlikning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan.
- ◆ Buyuk mutafakkir A.Navoiyning “Mahbub ul - qulub” asarida “Sabr achchiq, ammo foyda beruvchi, u qattiq ammo ziyon – zahmatlarni daf etuvchi, sabr - shodliklar kalitidir – bandlarni echuvchidir deb keltirilgan. amirlik tobora Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylanib borayotgan edi.
- ◆ Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga kelgach, hind madaniy hayotida yangilanish ro‘y berdi.
- ◆ V.Losanoning ta’kidlashicha, “Notolerantlik insoniyatni halokatga olib boradi.
- ◆ G‘arbiy Evropada o‘rta asrlarda xristian dini hukmron mafkura va dunyoqarashga aylangan edi.

- ◆ Katolik cherkovining piri deb e'lon qilingan Foma Akviniskiyning fikricha, dunyoning mavjudligi xudoga bog'liq edi.
- ◆ Fashistlar nuqtai nazarida, fashizm milliy tanglikdan chiqishning eng qulay yo'li edi.

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri "Insert" interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak
- YUqorida berilgan matn jiddiy o'qiladi
- Maxsus belgilar yordamida ("A"- tanish ma'lumot; "M"- yangi ma'lumot; "?"- bu ma'lumot men uchun tushunarsiz) munosabat bildiriladi
- Maxsus belgilar orqali o'z bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi
- "A"- tanish ma'lumot bo'lsa, qaysi manbadan qachon o'rganilganligi qayd etiladi
- "M"- yangi ma'lumot, "?"- bu ma'lumot men uchun tushunarsiz" bo'lsa, fikrlarga munosabat o'rganilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Abu Ali ibn Sino o'zining qaysi asarida komil inson bo'lib etishishda ilm, ma'rifat, tolerantlik, bag'rikenglik, tarbiyaning o'rni muhim ekanligini ko'rsatib o'tgan?
2. Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko'ra, tolerantlikning vujudga kelishi qaysi omillar bilan uzviy bog'lanadi?
3. Fashizmning vujudga kelishidagi omillarni sanang?
4. Nemis natsizmining mafkurasi nimalardan iborat bo'lgan?
5. Liberalizm deganda nimani tushunasiz?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 80 b.

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. // Халқ сўзи, 2017 йил 25 январь.
3. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 295-304 бетлар.
4. Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Фармони. 2017 йил 19 май. ПФ – 5046 сон.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997. –Б.416.
2. Гунар Скирбекк, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. – Тошкент: “Шарқ”, 2002. –Б.216-235, 290-291, 559-611.
3. Фалсафа. Ўқув қўлланма. Э.Ю.Юсуповнинг умумий таҳрири остида.– Тошкент: “Шарқ”,1999. –Б.125-137.
1. Гофуров Б. Бобурнинг бағрикенгликка оид ғоялари. “Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент,Бухоро. 2007.15-17 ноябрь. –Б.127-128.
2. Раҳмонова М. Фитратнинг етим болалар тарбияси ҳақида. “Ёшлар салоҳияти ва инсон капитали: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Бухоро, 2021. –Б.28-31.
3. Ўтанова З. Ўзбекистонда кучли фуқаролик жамитни барпо этишда миллатлараро муносабатлардаги объектив ва субъектив

омилларнинг роли. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2010.–Б.133-136.

4. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2007. – 183 б.
5. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. –Ташкент: Узбекистан, 2010. –151с.

Internet saytlari:

6. www.edu.uz.
7. www.ziyo.net.uz.
8. www.ec.edu.uz.

6-MAVZU: O‘LKA MILLIY TARAQQIYPARVAR ZIYOLILARNING DINIY VA MILLIY BAG‘RIKENGLIGI

Reja:

1. Milliy taraqqiyparvar ziyolilarning ma’naviyat, din va ta’limda tub o‘zgartirishlarga qaratilgan g‘oyalari.
2. Jadidlar ijodida bag‘rikenglik masalasining yoritilishi.
3. Milliy ziyolilarning bolsheviklar tomonidan qatag‘on etilishi.

1. Milliy taraqqiyparvar ziyolilarning ma’naviyat, din va ta’limda tub o‘zgartirishlarga qaratilgan g‘oyalari. XX asrning 20-yillari boshida yangi tashkil etilayotgan sovet maktablari bilan birgalikda jadid maktablarida ta’lim olayotgan yoshlar ko‘pchilikni tashkil etgan. Bolsheviklar jadid va rus-tuzem maktablarining faoliyatiga ham taqiq qo‘yishni boshlaganlar. Jadid maktablari faoliyatining asosida Turkiston o‘lkasini qoloqlikdan chiqarish va xalqni ma’rifatli qilish maqsad qilib qo‘yilgan edi. Biroq jadid maktablarida dars bergan ma’rifatparvarlar sinfiy manfaatdan kelib chiqib, asosan boyvachchalarni mulla qilish bilan mashg‘ul bo‘lganligi ta’kidlangan.

Jadid maktablari va ularda faoliyat yuritgan mudarrislarining shiori “boy bo‘lish va boy bo‘lish uchun o‘qib ilm olish” bo‘lganligi, juda gummanizm hislari qo‘zib ketganda kambag‘allarning bolalaridan burjuaziyaga ziyoli malaylar, uddaburon prikazchiklar tayyorlashni maqsad qilganligi kabi soxta omillar sovet mafkurachilari tomonidan targ‘ib qilindi.

Jadidlar maktab va maorifni yangilash hamda unga yangi ruh kiritish yo‘lida jiddiy kurashgan edilar. Jadidchilik harakatining otasi Ismoilbek Gasparali ta’limni isloh etishda millatning rag‘bati va himoyasi kerak ekanligi hamda kuchli g‘oya atrofida birlashish lozimligini ta’kidlab shunday degan edi: “Bularning hammasi uchun, bir so‘z bilan aytganda, g‘oya, hayotbaxsh g‘oya kerak. Xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealarning tag zaminida u yoki bu g‘oya yotadi. Islom g‘oyalari bir hovuch arablarning atrofiga yarim dunyoni omon-omon birlashtirdi. Moskva atrofiga birlashuv g‘oyasi ulug‘ Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g‘oyasi fransuzlarni sarbaland qildi... Aksincha, g‘oyasizlik, maqsadsizlik millatni zaif qiladi, uyquga, turg‘unlikka sudraydi. Tarix necha martalab aqli-iste’dodiga guvoh bo‘lgan SHarq xalqlari nega bunday zalolatga botdi? Necha-necha yuz millionli xitoylar, hindlar so‘ngi ming yil davomida o‘zlarini hech narsada ko‘rsata olmasdan qo‘shni xalqlar ta’siriga tushib qoldilar. Sababi – g‘oyasizlik, turg‘unlik”.

Bolsheviklar diniy ulamolar, eski maktab o‘qituvchilari va mudarris domlalariga qarshi g‘oyaviy kurash boshlab, kuchli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib bordilar. Ularni obro‘sizlantirish, soxta ayblar bilan ayblash va sovet huquq-tartibot organlarining kuchli bosimlari muttasil davom etdi. Bolsheviklar yangi maktabning foydasini xalq ommasiga tushuntirish uchun keng kampaniya o‘tkazish zarur deb hisobladilar. Faqat tashviqot yurgizish bilan ish bitmasligi, balki yangi maktablarning eski maktablardan ortiq bo‘lganini, unda o‘qiydigan bolalarning qay holda turmushga tayyorlanishlarini misol bilan ko‘rsatish kerakligi uqtirilgan. Bolsheviklar diniy ulamolarning xalq ko‘zidagi e’tiborini yo‘qotish uchun bu kampaniyani oshkora qilish kerak deb topdilar. Eki maktab ta’limini isloh qilish va diniy ulamolarga

qarshi kurashishning asosiy sababi sifatida bolsheviklar quyidagi fikrni keltiradilar. “Ulamolar sho‘ro maktablariga qarshi urush ochishga, uni diniy maktabga aylantirishga hamda ushbu maktablarda to‘la ravishda xo‘jayinlik qilishlari uchun urush boshlashga tayyorlanmoqdalar”.

Kommunistik partiya milliy ziyolilar tomonidan targ‘ib qilinayotgan g‘oyalarga qarshi sovet mafkurasiga xizmat qiladigan “qizil o‘qituvchilar” tayyorlashga e‘tiborni kuchaytirgan. Bolsheviklar mamlakatdagi ziyolilarni ikki guruhga: milliy ziyolilar va sovet ziyolilariga ajratganlar. Sovet ziyolilari oldida aynan qaysi guruhga o‘tishni bilmay o‘tirgan ziyolilarni o‘zlari tomonga og‘dirish vazifa qilib qo‘yilgan. Bolsheviklar birinchi guruhdagi milliy ziyolilarga eski domlalar, mullalar, ulamolarni kiritganlar. Ikkinchi guruh sho‘ro ziyolilariga esa, sovet g‘oyalari bilan qurollangan eski ziyolilarni tanqid qiluvchilar kiritilgan. Sovet ziyolilari hatto “Oktyabr mevalari” deb ham nomlangan. Bolsheviklar O‘zbekistonda ziyolilarning 98 foizini sovet ziyolisi va qolgan 2 foizini “eski domlalar”, “diniy xurofotchilar” deb hisoblanganlar.

Milliy ziyolilarga maktab va madrasalarda ta‘lim-tarbiya berish ishlari bolsheviklar tomonidan taqiqlab qo‘yilgach, ularning aksariyati ishsiz qolgan. Masalan, Munavvar Qori 1928-yili yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalashda ayblanib, maktab o‘qituvchiligidan haydalgan. Uning o‘zi yozishicha uyda ishsiz o‘tirib, har kuni 9 – 10 soatlab qo‘lqop va paypoq tikkan. 1927-yili O‘zbekistonda kommunistik partiya maorif sohasida mafkuraviy ishlarga e‘tiborni kuchaytirdi. Ayniqsa, ziyolilarni hukumat va boshqa ishlarga tortish masalasi dolzarb qilib qo‘yildi. SHu o‘rinda milliy kadrlar ko‘plab ziyoli o‘qituvchilar mafkura masalasida ishdan bo‘shatilayotganini keskin tanqid qilganlar: “Toshkentda 1926 yil avgust oylarida 50 ga yaqin o‘qituvchilar “bizning mafkuramizdan chet” deb ishdan bo‘shatilib yuborilgan. Mafkura jihatdan bizdan chetda deb ishdan chetlashtirish katta xato va katta tushunmovchilikdir. Toshkentda 25 nafar o‘qituvchilar chetlashtirilgan vaqtda 17 ta maktab o‘qituvchisiz qolgan”.

Bolsheviklar oldida turgan muhim vazifa ziyolilarning katta qismini o‘zlarining saflariga tortish va sovet qurilishi ishlariga jalb qilish

bo'lgan. Ziyolilarning ba'zilar bolsheviklarning yo'lidan bormasligini ular yaxshi bilganlar. Biroq, bolsheviklar ikki o'rtada qolgan betaraf ziyolilarni yo'qsullar mafkurasi bilan tarbiyalash uchun kurashganlar. Ta'lim masalasi mafkura maydonidagi kurash bilan bog'liqligi, eski maktab o'quvchilaridan qizil o'qituvchilarning madaniyroq ekanligi targ'ib qilingan.

Jadidlar ijodida bag'rikenglik g'oyalari o'z davriga hamohang tarzda bayon qilingan bo'lib, bunda ta'lim sohasiga alohida urg'u beriladi. Ular birinchi navbatda halqning savodini chiqarish va jahon andozasi darajasida bo'lishini amalga oshirishga kirishdilar. Jadidlar yoshlarni o'qitish uchun Germaniya, Fransiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarga yuborish rejalari bilan o'rtaga chiqdilar. Masalan, bunday takliflar M.Behbudiyning "Ehtiyoji millat" (1909) va CHo'lponning "Do'xtir Muhammadiyor" (1915) singari maqolalarida bayon etildi.

2. Jadidlar ijodida bag'rikenglik masalasining yoritilishi. O'zbekistonda sovet boshqaruvi davrida yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunoslar, san'atkorlar, olimlar va boshqa ziyolilar o'zlarining ijodlari orqali proletariat mafkurasiga xizmat qilishlari belgilangan. Proletariat mafkurasi negizida asrlar davomida yaratilgan milliy meros tamomila o'z o'rnini sotsialistik madaniyatga bo'shatib berishni ko'zda tutar edi. Sovet davrida o'tmishda yaratilgan va o'zbek xalqining ma'naviy xazinasiga aylangan nodir asarlarni o'rganish eski davrga qaytish sifatida qaralib, ularning mualliflari esa eski ziyolilar yoki yot fikrlovchilar deb ataldi.

Bolsheviklar tomonidan jadid adabiyoti feodalizm qoldig'i sifatida baholandi. Jadidlar maktablarida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jabhalarda kurashuvchilar tayyorlab chiqarishda, ushbu adabiyotning o'rni katta bo'lganligi keltirilgan. "Madrassa adabiyoti"ning mavqeini olish va unga zarba berish maqsadi bo'lgan "jadidlar adabiyoti" Oktyabr inqilobi arafasida har jihatdan o'zini o'nglab olganligi qayd etiladi. Shuningdek, jadid adabiyoti chuqur ma'noli asarlar maydonga chiqara olmaganligi, milliy sarmoyadorlarning mafkuralarini tarqatishga katta tashviqotchi bo'lib ishlaganligi hamda mazmun va shakl jihatdan usmonli va tatar

adabiyotining izidan ketishga uringanligi ta'kidlangan. Bu paytda Ahmad Donish, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilarning asarlari yoshlar tomonidan keng o'qib o'rganilar edi.

Ahmad Donish asarlari orqali insonlarni bag'rikeng bo'lishga, inoqlikka, insofli bo'lishga, o'z yaqinlarini e'zozlashga chaqiradi. Jumladan, mutafakkir "Nikoh odoblarining bayoni. Uylanishning shartlari hamda qaynana va kelin haqida" deb nomlangan asarida oilaviy bag'rikenglikning qirralarini yaqqol ochib bergan bo'lib, shunday fikrlarni bayon qiladi: "Nikohning o'zi bir sunnat bo'lsa ham, u o'z ichiga yana bir necha sunnatlarni oladi. Masalan, xotinlarning badfe'lligiga sabr qilish, ularning rejadan tashqari ishlarini ko'tarish, ularga ochiq yuzli, yumshoq so'zli bo'lish, nafaqalariga mo'ljilik qilish, dindagi zarur bo'lgan narsalarni o'rgatish va bulardan boshqa yana bir qancha sunnatlar bordir.

Ahmad Donish erkaklarni oilada bag'rikeng bo'lishga, ya'ni, sabrli va ochiq chehrali bo'lishga, xotinlarning erkaliklarini ko'tarish va ehtiyojlarini qondirishda kengfe'llik qilishga undamoqda. Shuningdek, xotinlarni nohaq urishga yoki taloq qilishga shariat yo'l bermasligini ham uqtirib o'tmoqda. Hayotda ba'zi bir notanti yigitlarning onasining hurmatini joyiga qo'ygani holda, xotinining ham inson, ayol, qolaversa, bolalarining onasi ekanligini unutib, xo'rlagan holatlarining beixtiyor guvohi bo'lib qolamiz. Donish haqiqiy erkak, mard inson onasiga ham, xotiniga ham adolatli munosabatda bo'lishi, birini ko'kka ko'tarib, ikkinchisini erga urmasligi lozimligini yuqoridagi fikrlari bilan uqtirmoqchi bo'layapti.

Anbar Otin "Qarolar falsafasi" asarida jadidchilik feminizmining, jadid ziyoli ayollari ilgari surgan feministik g'oyalarning asosiy xususiyatlarini shunday ifodalaydi: "Ul zamonda ayollar har qancha husn va latofat ila ozod yururlar va alarg'a hech kishi ola ko'z ila yomon nazar solmas..."- deydi. Anbar Otin ijodida adolat tushunchasi alohida o'rin tutadi. Anbar Otin adolat tushunchasining eng avvalo umumbashariylik va umumjahoniylik tabiatini ochib berishga harakat qiladi. Bu o'rinda u qadriyatlarni qayta baholash yo'lidan boradi: shu

paytgacha ijobiy ma'noda ishlatib kelingan "oq" va salbiy xususiyatlar tajassumi bo'lgan "qora" so'zlari o'rin almashadi, natijada muayyan ma'noda ranglar dialektikasi vujudga keladi, oqlar va qoralar tengligi g'oyasi ilgari suriladi. Oq tanli mustamlakachilarning qora qilmishlariyu, qora tanli mustamlaka ahlining botiniy oqligi, ularning ichki - xulqiy go'zalligi esa axloqiy fazilatlarda ekani ta'kidlanadi: "Aksar Janub va SHarq xalqlari monandi Arab, Eron, Afg'on, Seylon, Hind va Kashmir xalqlari qaro yuz, oq ko'ngul xaloyiq erurlar, - deb yozadi Anbar Otin. Ul xaloyiq aslzoda oq tanlar kabi andom, a'zoyi badan, qo'l oyoq, til, ko'z va aql-xush, g'ayrat quvvat va tafakkurga molikdurlar". Mazkur parchada barcha insonlarning irqi, millatidan qat'i nazar, ular teng xuquqli bo'lishi kerakligi va bunga ularning azaliy haqqi borligi aytilsa, quyida mehnatkash, mazlum qora tanlilar birovlarining mehnati evaziga kun kechirayotgan, zo'ravonlik yo'li bilan boylik orttirayotgan oq tanli mustamlakachilardan har tomonlama ustun va yuksak axloqiy fazilatlar egalari ekani ta'kidlanadi.

Ma'rifatparvar shoira Dilshod Barnoning insonparvarligi ham millat doirasida cheklanib qolmaydi. U millat tushunchasini inson tushunchasining bir qismi deb biladi. O'z millati erkini o'zga millatlar erkidan ustun qo'yish, o'zga millatlar hisobiga erkin bo'lish singari holatlar Dilshod Barnoning hayotiy tamoyillariga yot. Uning nazdida Turkistonning barcha jabrdiyda xalqlari va millatlari ozod yashashi, teng xuquqli, ijtimoiy adolat qonunlari asosida turmush kechirishi, boshqa millatlarni kamsitish, diniy yoki irqiy nuqtai nazardan odamni yaxshiyomonga ajratish mutlaqo mumkin emas. Ayniqsa, kichik millat vaqillariga shafqat bilan qarash, iloji bo'lsa, ularga yordam qo'lini cho'zish lozim, axir, ular ham Xudoning bandasi, shu aziz Vatanning farzandlari. Ular dini boshqa bo'lgani uchun aybdor emaslar. Shu jihatdan shoira *«Juhud»* radifli g'azali alohida diqqatga sazovor. Unda diniy bag'rikenglik axloqiy tamoyil tarzida ilgari suriladi va yahudiylarning boshqa millatlar tomonidan kamsitilishini, qaysi mamlakatda yashamasinlar, elka qisib yurishlarini, ayniqsa Turkistonda ularga nisbatan har xil cheklovlarning qo'llanishini qalamga olar ekan, ularni shoira axloqsizlik sifatida baholaydi. U yahudiylar

ham boshqa millatlar bilan teng xuquqli bo'lib yashashga haqlari borligini ta'kidlaydi, masalaga insof, adolat va insonparvarlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari nuqtai nazaridan yondashishga chaqiradi.

Keltirilgan nomlar, misollar va fikrlardan jadid shoiralari millatni uyg'otishda, inson erkini ulug'lashda, insonlarni bag'rikenglik g'oyalariga amal qilgan holda xayot kechirishda, xotin-qizlarning teng huquqligi borasida erkak ziyolilaridan qolishmaganliklari ayon bo'lib turibdi. Lekin bu jadid ayollar tomonidan millat tarbiyasidek, buyuk bir umummilliy masalaga yondashuvning bir jihatini tashqil etadi.

Jadidchilikning yirik namoyandalaridan biri Abdurauf Fitratning "Najot yo'li" asari keng qirrali asar bo'lib, unda ijtimoiy xayotning turli sohalariga oid masalalar ko'tarilgan. Asarning "Turli vazifalar" nomli bo'limida olimning diniy bag'rikenglik masalalariga yondashuvi o'z aksini topgan. Fitrat insonlar o'rtasida "Umumiy birodarlik" ning zaruriyati haqida fikr bildirib, unga erishish yo'lini islom dini asosida ko'rsatib bergan. Jumladan, olim bu borada quyidagicha e'tirof etadi: "Hech shubxa yo'qki, odamlar qaysi din, qaysi mazxab, qaysi qavm, qaysi millatda bo'lmasinlar, bir otaning farzandlari, bir jinsning avlodlari, boshqacha qilib aytsak, bir-birlariga birodardirlar! Shunday ekan, bir-birlariga shart qo'ymay, muxabbat va shafkatli bo'lishlari kerak, ya'ni o'rtalarida "umumiy birodarlik"ni barpo etishlari kerak".

Umumiy birodarlik inson kamolotining natijasi bo'lganligi uchun tadrijiy qonunga, ya'ni asta-sekin, bosqichma-bosqich (evolyusion) rivojlanishga bo'ysunadi. Fitrat, halqlar o'rtasida umumiy birodarlikni birdaniga tashqil qilmokchi bo'lgan odam xato qiladi va harakati bexuda ketadi, deydi. Olim, bu saodat binosini birdaniga ko'rib bo'lmasligini ta'kidlaydi va bunda islom dini vosita ekanligini eslatadi. Jumladan, "SHuning uchun islom dini belgilagan yo'l bashariyatni tadrijan (ya'ni, darajam-daraja) umumiy birodarlikka noil qiladi. Islom dini har bir odamdan komil iymon va yaxshi amallarni talab qiladi". Fitratning fikricha, komil iymon va yaxshi amallar orqali umumiy birodarlikka zamin xosil bo'ladi, kishilar xatti-harakatlarining yo'nalishi tayin bo'ladi, ana shu yo'nalishdan chetga chiqilmasa bashariyat umumiy saodatga etadi. Olimning Qur'on oyatlari va Hadis ilmiga tayanib

“umumiy birodarlik”ka erishishning bosqichlarini quyidagicha ko‘rsatadi:

- 1) komil iymon;
- 2) yaxshi amallar;
- 3) nafsni do‘st tutib, ximoya qilmok;
- 4) ota-onaga, xotinlarga, qo‘ni-qo‘shni va qarindosh-urug‘larga muxabbatli bo‘lmoq;
- 5) bir mamlakat axli bir-birlari bilan va boshqa halqlar bilan o‘rtada birodarlikni o‘rnatib, bir-birlarini hech ranjitmaslik;
- 6) diniy birodarlik;
- 7) umumiy birodarlik.

Fitrat, diniy birodarlikda Qur‘on hukmiga muvofiq barcha axli islom millatidan, rangidan qat‘iy nazar, bir-birlariga do‘stu mehribon bo‘lishlari lozim, deb uqtiradi. Fitrat, shu tariqa islom dini umumbashariy saodat yo‘lini tayin qilganligini, agar butun dunyoning donolari harakat qilsalar ham, bundan yaxshiroq yo‘l topa olmasliklarini, islom dini insoniyatning saodat yo‘li va umumiy birodarlik yo‘nalishini mana shunday go‘zal etib tayinlaganligini e‘tirof etadi.

Fitrat ijodi bolsheviklar tomonidan ikki davrga: inqilobgacha va undan keyingi davrga bo‘linib tahlil qilinadi. Bolsheviklar tomonidan Fitratning inqilobgacha yozilgan “Munozara” (1908-yil, Istambul), “Rahbari najod” va “Oila” (1915/1916-yillarda Boku shahrida chop etilgan) asarlari din va shariat masalalarini o‘z ichiga olganligi hamda turkparastlik g‘oyalarini ilgari surganligi ta’kidlanadi. Turkparastlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi eski yozuvchilar va ularning asarlari sifatida bolsheviklar Fitratning “Hind istilochilari”, “Abulfayzxon”, “Arslon” dramalarini, Cho‘lponning “Yorqinoy” pesasi, A.Qodiriyning romanlari va maqolalarini ko‘rsatib o‘tadilar. “Chig‘atoy gurungi” faoliyat yuritgan vaqtda Fitrat tomonidan “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” nomli pesalar yozilgan. Bolsheviklar tomonidan mazkur pesalar matbuotda e‘lon qilinishiga ruxsat berilmagan va ularni proletar “tanqidchilar” chig‘atoychilik ruhi bilan sug‘orilganligini ta’kidlaganlar. Yuqorida ko‘rsatilgan asarlar Fitrat ijodining ikkinchi davri sifatida ko‘rsatilib, proletar adabiyotga zid deb topilgan.

3. Milliy ziyolilarning bolsheviklar tomonidan qatag'on etilishi.

Bag'rikenglik, erkinlik va barcha xalqlarga nisbatan do'stona munosabat jadidlarning siyosiy faolligi yuqori bosqichga ko'tarilishining bosh omili edi. Bu ayniqsa Turkiston muxtoriyati g'oyasida yaqqol namoyon bo'ldi. Muxtoriyat jahon tajribasida sinovdan o'tgan umuminsoniy g'oyalarga asoslangan milliy davlat qurish yo'lidagi ilk urinish edi. O'zbekistonda 70 yildan ortiq vaqt (1917-1991-yillar) mobaynida bolsheviklarning mustamlakachilik boshqaruvi natijasida qator jinoyatlar sodir etildi. Dastlaki katta jinoyat Turkiston Muxtoriyatini tugatish borasidagi bosqinchilik urushi hisoblanadi. 1918-yil 19-26 yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulotda IV s'ezdida bolsheviklar Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirdi. Ushbu s'ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S'ezd bolsheviklar fraksiyasining Turkiston Muxtoriyati to'g'risidagi rezolyusiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyusiyada Turkiston qonuniy hukumati munofiqlarcha "qoraguruhchilar to'dasi" deb ataldi. Turkiston Muxtoriyatining markazi Qo'qon shahriga bolsheviklarning bosqinchilik yurishi sodir bo'ldi. Natijada qurolsiz va begunoh insonlar qizil armiya hamda "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan beshavqat qurolli drujinalar tomonidan qirib tashlandi.

Bolsheviklar jinoyatlari avvalo o'lkadagi boyliklarni talashda namoyon bo'ldi. 1920-yilning sentyabr oyida M.V.Frunze boshchiligidagi qizil armiya qismlari Sayid Olimxon xazinasini Markazga jo'natadi. Tilla tangalar va qimmatbaho toshlarning bir qismini o'marganligi uchun M.V. Frunze 1920-yil kuzida Moskvada ma'lum muddat uy qamog'ida ushlab turilgan va "o'rtoq Frunze ishi" ochilgan. Bolsheviklar tomonidan Buxoro amirligi xazinasini Markazga jo'natish, qizil armiya sonini oshirish, amir zamonida faoliyat ko'rsatgan yirik zamindorlar mol-mulkini musodara qilish va ularni jazolash hamda RSFSR o'rtasida harbiy-siyosiy shartnoma tuzilishi mustamlakachilik xususiyatini o'zida ifodaladi.

Sovet hoktmiyatining navbatdagi jinoyati jadidchilik harakatini mamlakatda cheklash yoki uning ko'rinishlarini tag-tomiri bilan

qo‘porib tashlashda namoyon bo‘ldi. Jadidchilik g‘oyalari o‘rniga bolshivizmni o‘rnatishga bo‘lgan harakat esa shovinizm ko‘rishida amalga oshirildi. Shovinizm – boshqa millatlarning hayoti manfaatlarini yolg‘iz o‘z millatining manfaati uchun qurbon qilishga aytiladi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida O‘zbekistonda mavjud tuzumga muxolifatda turganlar va unga qarshilik bildirganlar ta‘qib ostiga olindi. Ayni shu paytda “o‘n sakkizlar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” kabi siyosiy ishlar to‘qib chiqarildi. Bolsheviklar milliy siyosatida 1925–1931-yillar mavjud tuzumning kirdikorlarini fosh etgan mahalliy kadrlarni boshqaruvdan tozalash va ularni qatag‘on qilinishidagi dastlabki bosqich bo‘ldi. Bu paytda boshqaruv tizimida ayniqsa maorif, sud-huquq sohasida faoliyat olib borayotgan mahalliy kadrlarga keng huquq bermaslik va ularning o‘rnini evropa millatiga mansub xodimlar bilan almashtirish bo‘ldi.

O‘zbekiston SSRning 30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti sovet zo‘ravonlik tuzumining mustahkamlanishi, shaxsga sig‘inish avjga chiqqan sharoitga to‘g‘ri keldi. Partiya hayotning butun ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-madaniy sohalarini boshqarishni o‘z qo‘liga oldi. Rahbar xodimlarga shubha bilan qarash, “xalq dushmanlarini” aniqlash va hibsga olish, turli “muxolifat” guruhlarini fosh qilish kuchaydi. Bu xususida kommunistik partiya saflarini “tozalash” ishlariga boshchilik qilgan bolshevik Petersning “Partiya ikkiyuzlamachilikka chidab tura olmaydi” nomli nutqida keltirib o‘tilgan. Ba‘zi hollarda sodir etmagan aybini tan oldirish usuli sifatida soxta guvohlardan foydalanildi. Milliy rahbarlarga “o‘z xatolarini keng tanqid qilishni istamagan”, “xatolarini partiyadan bekitgan”, “partiyadan sir tutgan narsalari bor”, “partiyaga qarshi alohida planlari bor” kabi asossiz ayblar qo‘yildi.

Qatag‘onlik siyosatining shavqatsiz davri, ya‘ni katta to‘lqini 1937-1938-yillarda sodir etilgan bo‘lib, bu unitilmas jinoyat tarixiy adabiyotlarda “katta terror” yoki “Stalin ta‘qiblari” deb yuritiladi.

1936-yil sentyabrda VKP(b) Markaziy Komiteti siyosiy byurosining “Aksilinqilobchi trotskiychi-zinovevchi elementlarga munosabat to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Buxarin va uning

maslakdoshlari birin-ketin hibsga olina boshlandi. 1937-yildan boshlab Stalin ichki ishlar xodimlarining siyosiy mahbuslarga nisbatan jismoniy qiynoq vositalarini qo'llanishiga Markazqo'm nomidan rasmiy ruxsatnoma berdi. Hibsga olingan partiya a'zolari, davlat arboblari ko'z ko'rib quloq eshitmagan qiynoqlar azobi ostida har qanday gunohni zimmasiga olishga, nafaqat safdoshlari, balkim oila a'zolari, hatto o'zlariga ham tuhmat qilishga tayyor edilar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tergov materiallarida, arxiv xatlari va operativ hujjatlarda beistisno bir dalilga ro'baro' kelinadi – OGPU xodimlari Buxoro Xalq Jumhuriyati rahbarlari, sobiq jadidlar, milliy arboblari, taniqli yozuvchi va olimlar ishtirok etgan yig'in, ziyofat, "gap"larning hammasini ularning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganmay, "maxfiy", "yashirin", "xufiya" deb aytgan. Fitrat rahbarlik qilgan guruhga Abdulla Qodiriy, G'ozi YUnusov, G'ulom Zafariy, Cho'lpon, Jalol Ikromiy (Tojikistondan), Buyuk Karimov, Mukamil Burxonov, Hikmat Ne'matov va boshqa (34 yozuvchi, shoir va olim) larning nomlari keltirilgan. Bolsheviklar tomonidan bu ziyolilar uyushmasi terrorchilik guruhi deb atalgan.

Stalincha qatag'onlik kelajak avlod tarbiyachilari bo'lgan maorif sohasi vakillarini ham chetlab o'tmagan. 1933 yilda boshlangan o'qituvchilar o'rtasidagi qatag'onlar ham turli uydirmalar ostida olib borilgan bo'lib, ular o'zbek xalqini "ilg'or rus madaniyati" dan ajratib qo'yishda urinish, yoshlarni millatchilik og'usi bilan zaharlashda ayblandilar. Bolsheviklar milliy ziyolilarni qatag'on qilish bilan birga ularning sha'niga turli-tuman bo'htonlar yog'dirdilar. Ayniqsa, maorif sohasi vakillari, milliy kadrlar matbuotda keskin tanqid qilindi: "O'zbekiston Maorif xalq komissarligida qo'poruvchilik ishlari amalga oshirib kelgan burjua millatchi fashistlar o'z xo'jayinlarining topshiriqlarini bajarib o'zbek va boshqa maktablarda rus tilini o'qitishni buzdilar. Bu xoinlar maktablarda rus tilini o'qitishni, yoshlarni kommunizm ruhida tarbiyalash, kadrlarni bolshevikcha chiniqtirishda, kommunizm qurish uchun nazariy va amaliy qurol bo'lgan Marks-Engels-Lenin-Stalin ta'limotlarini o'zlashtirishda, ko'p millatli ulug' SSSR xalqlari o'rtasidagi birodarlik va do'stlik aloqasini tag'in

mustahkamlashda katta qurol ekanini tushunib, bu sohada qo‘llaridan kelgan zararkunandalikni qildilar”.

Bu davrga kelib ittifoqdosh respublikalar singari O‘zbekiston ham siyosiy qatag‘onning eng yuqori bosqichi – mudhish fojealarni boshidan kechirdi. Respublika jamiyatning hamma tabaqalariga yoyilgan hibsga olish to‘lqini ostida qoldi. Davlat arboblari, olimlar, muhandislar, shoiru yozuvchilar, maorifchilar, san‘atkorlar, jurnalistlar, hattoki ishchi va dehqonlar ham ta‘qib ostiga olindi va qatag‘on qilindi. O‘zbekistonda 1937-1939-yillarning o‘zida 41000 nafar shaxs qamalgan, ulardan 37000 nafari jazoga hukm qilingan, 6920 nafar kishi otib tashlangan. Xususan, millatning jonkuyar ziyolilari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO‘lpon, Abdulla Qodiriylar otib tashlandi. “Millatchi” va “xalq dushmani” kabi soxta “tamg‘a” bosilgan partiya va davlat rahbarlari Fayzulla Xo‘jaev, Akmal Ikromov, Sulton Segizboev va boshqalar “Stalin ta‘qib”larining begunoh qurboni bo‘ldilar.

Markaz mutasaddilari, mafkurachiligi rahnamoligida XX asrning 50-yillari boshlarida O‘zbekistonda boshlanib ketgan ilg‘or ziyolilar, ilm-fan, adabiyot, san‘at, ma‘rifat nomoyandalarini quvg‘in va ta‘qib qilishlar, ular ijodidan kir izlash va ayb topishga urinishlar, shubhasiz, respublika ma‘naviy hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmadi.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining ichki turmasi va boshqa qamoqxonalarda mahbuslar jismoniy jazolarga mahkum qilindilar. Mahbuslarning ko‘plari bu holatdan chiqish va qutulishning yagona yo‘li o‘z joniga qasd qilish deb bildilar. Ayrimlari esa qilmagan jinoyatlarini bo‘yniga olishga majbur bo‘ldilar. Ha, qatag‘on davr ijrochilari o‘z yumushlarini o‘ta puxta bajarishgan. Butun e‘tibor sovet rejimining qatag‘on siyosatiga xizmat qilgani ular tayyorlagan har bir hujjatdan ham ko‘rinib turibdi. Ma‘lumotlar qayta-qayta ko‘chirilib, bot-bot tekshirilib, so‘ng jamlangan. Balki, dastlabki tergov hujjatlari yo‘q qilingandir. Balki, hibsdagi shaxs allaqachon jismonan bartaraf etilib, bu qog‘ozlar shunchaki to‘plangandir. Bunday qalbaki hollar NKVD faoliyatida ko‘p bor uchraydi. Aytishlaricha, ayrim to‘xtovsiz so‘roqlarga, ustma-ust qiynoqlarga bardosh bera olmaganlar “42-xona” da bandalikni bajo keltirishgan. Ammo ularga nisbatan qo‘zg‘atilgan

jinoiy ish harakatda bo‘lgan. Allaqachon vafot etgan mahbusni keyinchalik nomiga sud qilishib, “otib” yuborishgan. Yoki bo‘lmasa, butunlay begona shaxsni boshqa ism-sharifda o‘limga mahkum etishgan. Xullas, qatag‘onning qonli tegirmoni shunday jumboqki, uni bugungi kunda ham ochib tashlash va fosh etish amrimahol bo‘lsa kerak.

O‘zbekiston Respublikasi istiqbolga erishganidan so‘ng qatag‘on qilinganlarning ko‘pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning pok nomlari qayta tiklandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-mayda e‘lon qilingan farmoyishi va shu yilning 22-iyulida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qarorida sovet tuzumi davrida qatag‘on qurbonlari bo‘lgan minglab fidoyi insonlar, shahid ketgan ziyolilar xotirasi abadiylashtirildi. Shuningdek, begunoh qurbon bo‘lgan vatandoshlarimizning nomlarini xotirlash va ruhlarini shod etish maqsadida 2000-yil 12 mayda “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui va keyinchalik muzey ochildi. Bu kabi xayrli ishlar ona-Vatan istiqboli uchun mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtning asl farzandlariga nisbatan cheksiz hurmat va iftixor tuyg‘usini ifodalaydi.

Tayanch so‘z va iboralar: Ahmad Donish, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Akmal Ikromov, Sulton Segizboev, Arabiston, Eron, Afg‘oniston, Seylon, Hindiston, Kashmir, “Aksilinqilobchi trotskiychi-zinovevchi elementlar”, “Stalin ta‘qiblari”, jadidchilik, ziyolilar, yot fikrlovchilar, millatchilik, kengfe‘llik, umumbashariylik, “umumiy birodarlik”, “ilg‘or rus madaniyati”, “xalq dushmani”, “Shahidlar xotirasi”.

6-Ma‘ruza mashg‘ulotdayangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“T - chizma”** interfaol usulidan foydalaniladi.

+		-
+		-
+	84	-
+		-
+		-

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. sovet ta'limining joriy qilinishi: +ijobiy, -salbiy
2. Fayzulla Xo'jaev davlat va siyosat arbobi: +ijobiy, -salbiy
3. Akmal Ikromovning faoliyati: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

“T – sxema” o'tkazish bosqichlarini qo'yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri **“T – sxema”** interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim.
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak.
- **“T – sxema”** interfaol usuli masala mohiyatini to'liq tushunib olishga asoslangan bo'lib, bunda mavzu oid bo'lgan tushuncha, ma'lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Abdurauf Fitratning “Najot yo'li” asarida diniy bag'rikenglik haqida qanday fikrlar olg'a surilgan?
2. Anbar Otinning “Qarolar falsafasi” asarida xalqlararo do'stlik, birodarlik haqida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
3. O'zbekiston SSRning 30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti sovet zo'ravonlik tuzumining mustahkamlanishi hamda shaxsga sig'inishning avjga chiqqani haqida nima bilasiz?
4. O'zbekistonda sovet boshqaruvi davridagi partiya saflarini tozalash siyosati haqida nima bilasiz?
5. Stalin ta'qiblarining begunoh qurboni bo'lgan milliy ziyolilar haqida fikr yuriting?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 80 b.

2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
5. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
6. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
7. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

8. Adeeb Khalid. The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998. – 355 p.
9. Adeeb Khalid. Making Uzbekistan. Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. – London.: Cornell University press, 2015. – 415 p.
10. Абдурауф Фитрат. “Оила ёки оила бошқариш тартиблари” Тошкент: “Маънавият”, 2000 йил. 106-бет.
11. Аҳмад Дониш. Наводир ул вақое. Тошкент, 1964. 150 –175 бетлар.
12. Муҳаммаджонова Л. Бағрикенглик Анбар Отин ва Дилшоди Барно ижодида. “Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, Бухоро. 2007.15-17 ноябрь. –Б.93-95.
13. Раҳмонова М. Аҳмад Дониш бағрикенглик ҳусусида. “Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, Бухоро. 2007.15-17 ноябрь.
14. Қаюмов Л. Инқилоб ва ижод. – Тошкент: “ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти”, 1964. –Б.13.

15. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспарали: (Таништириш йўлидаги бир тажриба). – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 1992. – Б.26.
16. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). – Тошкент: “Шарқ”, 2001. – Б.16–17.
17. Нурматова Н., Аҳмедова Н. Фитрат ижодида толерантлик ғояси. “Ёшларда толерантликни юксалтириш – фуқаролик жаиятни қуриш омили” мавзусидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, Бухоро. 2007.15-17 ноябрь. –Б.117-119.

7-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA KO‘PMILLATLIKNING SHAKLLANISHI VA BAG‘RIKENGLIK (XIX ASRNING 2-YARMI – XX ASR MISOLIDA)

Reja:

1. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bosqini va o‘lka hududiga xalqlarning ko‘chib kelishi.
2. Sovetlar hukmronligi davrida ko‘p millatlilikning shakllanishi. Turkiston ASSRda sovet milliy siyosati.
3. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida milliy masala.

1. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bosqini va o‘lka hududiga xalqlarning ko‘chib kelishi. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyodagi uchta xonlikni egallash maqsadida mustamlakachilik urushini olib borgan. Natijada Qo‘qon xonligi tugatilgan bo‘lsa, Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan protektorat joriy qilingan. 1867-yili Turkiston general gubernatorligi tashkil etilganidan keyin rus aholisining bir qismi mustamlaka hududiga ko‘chib kelishi boshlagan. Mustamlaka ma‘muriyatining ko‘rsatmasiga binoan hamda o‘zboshimchalik bilan ham Turkistonga ko‘chib kelish boshlangan. Kelganlar uchun bundan avval rus qal‘alari va istehkomlari tevaragiga dastlabki kelib o‘rnashganlar uchun beriladigan soliq sohasidagi va boshqa imtiyozlar

saqlanib qolganligi bunday ko'chib kelishni rag'batlantirgan. Xo'jalik vayrongarchiliklari, tez-tez bo'lib turadigan hosilsizliklar va pomeshchiklar zulmi davom etishi, ularni Turkiston tomon etaklar edi. Ular asosan Astraxan, Voronej, Samara, Xarkov va Orenburg guberniyalaridan ko'chib kelgan ruslar, ukrainlar va qisman nemislar edi. Garchi bunday ko'chishlarning aksariyati dehqonlarning o'z tashabbusi bilan ro'y bersada, mustamlaka ma'murlari ularni joylashtirishga, er bilan ta'minlashga va xo'jaliklarini tiklab olishga har tomonlama ko'maklashar edi.

1881-yilning o'rtalariga qadar Kaufmanning takliflariga binoan Rossiyadan ko'chib keluvchilar (Astraxan va Saratov guberniyalarining dehqonlari) afzalroq deb topilgan hamda Talas, Chu vodiylaridagi qirg'iz erlarini, Ettisuvni va Dasht o'lkasining boshqa tumanlarini o'z ichiga olgan ikkinchi yo'nalish bo'yicha joylashtirilmay, ayni vaqtda birinchi yo'nalish bo'yicha, jumladan er, suv munosabatlari busiz ham murakkab bo'lgan Toshkent vohasiga ham ko'pgina kelgindilar joylashtirilgan. Vaholanki, bu vohaning bir qimiga ancha avval qambag'allashgan qozoqlar joylashib olgan edi. Rossiyadan ko'chib kelganlarni Mirzacho'lning sug'oriladigan tumanlariga, Farg'ona vodiysi shaharlariga ham joylashtirdilar. Shunday qilib, imperiyaning xalqlarni ko'chirish siyosati va amaliyotidagi ikkinchi va rasmiy birinchi bosqich 1867-1881-yillarni o'z ichiga oldi.

SHundan keyingi davrda metropoliyadan Turkiston o'lsiga ko'chib keluvchilar, ayniqsa, o'z tashabbusi bilan ixtiyoriy ko'chib keluvchilar oqimi ko'paygan. Xitoydan uyg'urlar va dunganlarning, Turkiyadan armanlarning (Kaspiyorti viloyatiga) stixiyali qochib kelishi kupaygach, imperiya hukumati mustamlakalarda jiddiy chigalliklarga yo'l qo'ymaslik uchun ko'chib kelishga oid barcha ishlarni tartibga solish choralarini ko'rishga majbur bo'ladi. Buning natijasi ularoq Rossiya imperatori 1881-yil 10-iyulda "Dehqonlarning bo'sh hukumat erlariga ko'chib borishi to'g'risida muvaqqat qoidalar"ni tasdiqladi.

Turkistondagi ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar hamda 1881 va 1886-yillardagi ko'chib kelish qoidalari o'rtasida katta tafovutlar borligi rus aholisining mazkur mustamlaka hududiga ko'chib kelib

joylashishidagi butun ishda sifat o'zgarishlarini belgilab berganligi sababli 1881-yilning iyulidan 1886-yilning iyunigacha o'tgan davrni Turkiston general-gubernatorligiga ko'chib kelish jarayonining yangi bosqichi deb hisoblash mumkin. Oradan uch yil o'tgach, Rossiya imperiyasi qishloqlaridagi ersiz va kam erli dehqonlar ulushini qiskartish hamda yangi mustamlakalarda rossiyalik savdogarlar va ishbilarmonlarni ko'paytirish ehtiyojlarini, jumladan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol mushkullashganlashni e'tiborga olib, imperiya ma'muriyati 1889-yil 13-iyunda "Qishloq abivatellari va ishchilarining podsholikka qarashli erlarga ixtiyoriy ko'chishi va mazkur tabaqalarga mansub bo'lgan va avvalgi vaqtlarda ko'chib borgan shaxslarni ular qatoriga qo'shish tartibi haqida"gi qonunni chiqaradi.

Endilikda ko'chishda xristian bo'lmaganlardan tashqari barchaning o'lkaga ko'chishi uchun muhim chegaralar qo'yilmaganligi sababli, ko'chib keluvchilar oqimining ko'payishi uchun yo'l ochib qo'yildi hamda Turkiston o'lkasi va butun Markaziy Osiyo tub aholisining ijtimoiy ahvoli yanada ko'proq mushkullashib boradigan sharoit vujudga keladi. Ma'lumotlarga qaraganda 1889-1891-illarning o'zida Turkistonga 28911 oila yoki 100 mingdan ko'proq kishi ko'chib keladi. SHundan keyingi yillarda Volga bo'yi va Rossiyaning boshqa bir qator g'allakor mintaqalarida hosilsizlik ro'y berib, ocharchilik boshlanganlash sababli ko'chib keluvchilar soni yanadi ko'paydi. Suuning oqibatida, Sirdaryo viloyatida tub joy aholisining erlari ko'chib keluvchilarga tez-tez olib berilgandan keyin, 1892-yilga kelib bo'sh erlar deyarli qolmaydi. Shu bois 1892-yilning mart oyida Rossiya imperiyasi hukumati joylarda ko'chish hujjatlarini berishni to'xtatish to'g'risida farmoyish chiqaradi. Ammo bu hujjat ham o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimini to'xtata olmaydi. Buning ustiga, hatto 1896-yilda imperiyaning Ichki ishlar vazirligi huzurida ko'chish masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'lim (1907 yildan Boshqarma) tuzilishi ham Turkistonni, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarini o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchi rossiyaliklardan xalos etmadi. 1896-yilning o'zida Turkistonga ko'chib kelgan 178400 kishining 38.1% o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan qambag'al shaxslar edi.

Ko'chib kelganlarning aksariyati shaharlarda o'rtnashib oladi. Chunonchi, 1907-yilda Farg'ona vodiysida sharqiy slavyan millatlariga mansub 24346 kishi bo'lsa, shundan 14712, ya'ni guruh tarkibining salkam $\frac{2}{3}$ qismi shaharlarda yashar edi. Markaz xalqlarning vakillaridan eng ko'pi Ettisuv va Sirdaryo viloyatlariga ko'chib keladi. 1913 yilning oxirlarida Sirdaryo viloyatidash ruslarning soni 116861 kishiga etadi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarida sharqiy slavyan diasporasining shakllanishi birmuncha boshqacharoq kechadi. Bu joylarda asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan aholi guruhlari kelib o'rtnashdi. Chunonchi, temir yo'l qurilishi bir qancha rus shahar manzilgohlari (Chorjo'y, yangi Buxoro kabilar) vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Agar Buxoro amirligida 12 mingga yaqin rus fuqarosi bo'lsa, 1917-yilga kelib harbiy xizmatchilarni hisobga olmaganda, ularning soni 50 ming kishiga etadi.

Buxoro-Rossiya o'rtasidagi keyingi imzolangan kelishuvlarga asosan, Buxoro amirligida yangi shaharlarni tashkil qilish va rus axolisini joylashtirish ko'zda tutiladi. Xususan, 1888-yil 23-iyunda Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi hukumati o'rtasida imzolangan bitimga muvofiq, Yangi Buxoro (Kogon), Chorjuy, Kerki, 1892-yilda Termiz shaxarlari, 1905-yilda Saroy kishloklarida rus axolisini ko'chirish va ularni joylashtirish boshlanadi. 1892-yilda Pattakesarax (Termiz shaxri yaqinida) rus harbiy istehkomlari qurilgan. Sharkiy Buxoro xududida mahalliy axoli siyrak joylashgan bo'lib, bu hududda Rossiyaga qarshilik ko'rsatuvchi muhim harbiy strategik qalalar aholi markazlari yoki mustahkam siyosiy mamuriy boshqaruv tizimi yo'q edi. Yangi Buxorodan Termizgacha bo'lgan hududdagi bepoyon cheksiz cho'l hududlari nazoratsiz va qarovsiz holda bo'lib, ulardan Buxoro amirligi o'zining iqtisodiy manfaatlari yulida foydalana olmaganligi sababli, yangi rus shaxarlari qurila boshlangan. Dastlab, 1888-yilda Yangi Buxoro (Kogon) shahri qurilib, aholising aksaryatini ruslar tashkil kilgan. Bu shahar aholisi haqidagi ilk malumotlarni, rus tadkikotchisi T.P.Shubinskiyning ocherkidan bilib olishimiz mumkin. Uning malumotiga ko'ra, Yangi Buxoro aholisining soni dastlab 1000 dan oshiqroq bo'lgan. 1895-yilga kelib esa, shahar aholisining soni 1500

kishidan oshgan. Shaharda qurilish ishlarida ishtirok etish uchun 1892-yilda 27 ta mahalliy millat vakillari ham ishga olingan. Bu davrda Yangi Buxoro shahrida 345 rus, 50 polyak, 30 nemis, 10 grek, 40 gruzin va osetin, 155 arman, 115 tatar va boshkirlar, 345 yaxudiy, 345 eroniy va 845 maxalliy o'zbek va tojiklar istiqomat qilishgan.

XIX asrning 2-yarmida o'lkamiz xududida juda katta ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz berdi. Chor Rossiyasi O'rta Osiyo hududidagi mustaqil davlatlarni birin-ketin bosib oldi. Bu o'zgarishlardan Xiva xonligi ham chetda qolmadi. Xonlikning 1873-yilning 12-avgustida Gandimën qishlog'ida Xiva xoni Sayid Muxammad Rahim Bahodurxon va Rossiyaning xonlikka bostirib kirgan qo'shin ko'mondoni Turkiston general-gubernatori general-adyutant fon Kaufman tomonidan sulx bitimi imzolanadi. Sulh shartlari Kaufman tomonidan tayyorlagan bo'lib, unga ko'ra butun hokimiyat to'laligicha Rossiya mustamlakachilari izmiga o'tadi. Uning birinchi bandida: "Sayid Muhammad Rahim Bahodurxon o'zini butun Rossiya imperatorligining itoatkor xizmatkori deb biladi. U boshqa xonliklar bilan hech qanday do'stlik munosabatlari qilishdan va ular bilan savdo va boshqa har qanday shartnomalar tuzishdan voz kechadi va Rossiyaning O'rta Osiyodagi Oliy darajadagi hokimiyati ijozatisiz ularga qarshi hech qanday harbiy harakatlar qilmaydi", – deyilishining o'zi buning dalilidir.

Gandimiyon sulx bitimining imzolanishi bilan Xiva xonligi Chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakalari safidan joy oldi. Mustamlaka holatidagi Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimi bo'ylab uning Darg'an otadan Orol dengiziga quyilish joyiga qadar taxminan 360 km.ga cho'zilib ketgan mintaqadan iborat bo'lib, uni sharqda Buxoro xonligidan Qizilqum dashti, g'arb va janubda Zakaspiy viloyatidan Qoraqum ajratib turadi. Shartnomaga asosan, Amudaryo Xiva xonligi bilan Rossiya oraligida chegara qilib olindi.

Amudaryo o'ng tomonidagi butun erlari aholisi va fuqarolarining u erlardagi barcha mulklari bilan istilochilar ixtiyoriga o'tib ketdi. Shu bilan Xiva xonligi amalda Amudaryodan erkin foydalanish huquqidan ham mahrum bo'ldi. Xonlikning katta hududi - Amduraëning o'ng qirg'oq va Orol bo'yidagi erlari Rossiya imperiyasi tarkibiga o'tgandan

keyin bu erda yashayotgan aholi Rossiya tobeligiga o'tdi. Shu bilan birga ko'pgina qism aholi Amudaryoning chap qirg'og'iga Xiva xonligi saqlab qolgan hududga ko'chib o'tishi xonlikdagi iqtisodiy ahvol qiyinlashib, soliqlar ko'payib ketgandan so'ng ko'pgina turkman urug'lari va qoraqalpoqlar Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib joylashgani va Rossiya hukumati fuqaroligiga o'tish to'g'risidagi murojaatlari arxiv hujjatlarida ko'plab uchraydi. Shundan so'ng Xiva xonligi xududiga ruslar, kazaklar, nemis memonitlari, tatar kabi Rossiya fuqaroligidagi millatlar xam joylashtirilganlar. Xiva xonligida qoraqalpoqlar 19 ming 995 nafar bo'lib, ular Shumanay, Qo'ng'iro't va Xo'jayli hududlarida ixcham holatda yashaganlar. Ularni xonlikning boshqa hududlarida alohida guruxlardan iborat holda ham uchratish mumkin.

Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor Grotentelman 1884-yil 2-aprelda 1316-raqamli xat bilan Xiva xonligi hududida chap qirg'oqda yashayotgan qoraqalpoqlar o'ng qirg'oqqa rus fuqaroligiga o'tish uchun murojaat qilganliklarini va ularning soni 1500 o'tov yoki undan ham ko'p bo'lishi mumkinligini e'zib, bunga Xiva xoni qarshi bo'layotgani va o'ng qirg'oqqa o'tgan qoraqalpoklarni chap qirg'oqqa qaytarilishini talab qilayotgani keltirilgan. Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor Grotentelman Nukusga kelgach, rus fuqaroligiga o'tuvchilar soni 1500 xonadondan oshishi mumkinligi haqida ma'lumot olgan. SHulardan CHimboyga allaqachon 300 xonadon ko'chib o'tganligini aniqlagan. Umuman xonlik xududidan o'ng qirg'oq Amudaryo bo'limiga 600 xonadondan ortiq qoraqalpoqlar o'tganini ta'kidlab, Xiva xoni bunda Kegeyli volosti boshlig'i Ernazarni aybdor deb bilayotganligi haqida Amudaryo bo'limi boshlig'i Turkiston general-gubernatoriga ma'lumot bergan. Amudaryodan o'tgan qoraqalpoqlarni qaytarish baribir ancha qiyinchilik tug'dirgan. 1886-yil 25 aprelda Xiva xonining Amudaryo bo'limi boshlig'iga yozgan xatida ham o'ng qirg'oqqa o'tgan qoraqalpoqlarni xonlik hududiga qaytarish to'g'risidagi talablari bu muammoning ancha uzoq cho'zilganligidan darak beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligi hududida qoraqalpok aholisining o'z yashash joylarini almashtirib

turishlari muntazamlik kasb etgan. Bu esa xonlikdagi aholi migratsiyasi va demografik holatini o'rganishni ancha murakkablashtiradi.

2. Sovetlar hukmronligi davrida ko'p millatlilikning shakllanishi. Turkiston ASSRda sovet milliy siyosati. XX asrning 20-yillarida dunyoda imperialistik davlatlar o'rtasida kurash keskinlashgan bir davrda bolsheviklar uchun xomashyoga boy Turkiston mintaqasi juda zarur edi. Buning uchun sovet Rossiyasi ushbu o'lkada mustahkam o'rnatib olishga intilib, sobiq Rossiya imperiyasi kabi mustamlakachilik siyosatini yangi shaklda yuritdi. Bu to'g'ri jadidchilik harakati taniqli namoyandasi Munavvar Qori Abdurashidxonov shunday degan edi: "Inqilob bizga hech narsa bermadi, hammasi chorizm davridagi kabi avvalgidek, faqat bayroq o'zgardi. Ishsizlik bayrog'i ostida o'lkaga ko'chirish davom etmoqda".

Dastlab bolsheviklar tomonidan sovet boshqaruviga mahalliy millat vakillarini yaqinlashtirmasdan, ularning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qaraldi. Chunki, Markazdan yuborilgan kadrlar davlat apparatining asosiy bo'g'inlarini egallab, mahalliy xodimlarni boshqaruvdan chetga surib qo'ygan edi. Bolsheviklar boshqaruvda Turkiston general-gubernatori Kuropatkinning "Mahalliy kishilarga to'la huquq berib bo'lmaydi" degan ko'rsatmasiga asoslanib ish ko'rdilar.

1918-yilning 30-aprelida tashkil topgan Turkiston ASSR hukumati tarkibida Milliy ishlar bo'yicha xalq komissarligi tuzildi va unga Toshxo'ja Ashurxo'jaev komissar etib tayinlandi. Shu yilning 18 iyunida Milliy ishlar xalq komissarligi Markaziy Komitetining 10 kishidan iborat quyidagi a'zolari tasdiqlandi: 1. Yusupov; 2. Bulyaboev; 3. Nagaybekov; 4. Sharofiddinov; 5. Axunov; 6. Jo'raboev; 7. Ostonboev; 8. Klevleev; 9. Ibragimov; 10. Kosenko. Shuningdek, ushbu sanada Milliy ishlar xalq komissarligining viloyatlar va uezdlarda bo'limlari tuzildi. 1919 yilda Turkiston komissiyasi huzurida o'zbek, qirg'iz, turkman, ukrain va boshqalardan iborat 10 ta milliy bo'lim o'z faoliyatini boshladi. Shu bilan birgalikda 1919-yil mart oyida II O'lk partiya konferensiyasida RKP (b) ning milliy ishlar bo'yicha maxsus byurosi tuzildi. Milliy ishlar bo'yicha byuro partiya komitetlarining siyosiy vazifalarini bajaruvchi yordamchi tashkilot sifatida faoliyat

yuritdi. Bunday holatdagi boshqaruv tizimi nafaqat Turkistonda, balki bolsheviklar rahbarligida boshqa milliy respublikalarda ham joriy etilgan. Turkiston ASSR milliy ishlar byurosining evropalik aholi uchun kichik milliy bo‘limlari eron-ozarbayjon, chex, serb, ukrain, yahudiy, arman, polyak, mahalliy-yahudiy, kavkaz-ozarbayjon va boshqalardan iborat bo‘lgan. Shu asnoda ular mintaqada kamchilikni tashkil etgan evropalik aholi va ko‘pchilik bo‘lgan tub xalqlarning milliy siyosiy yo‘nalishini belgilab berdi.

Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1918 yilda Turkiston ASSRning Sirdaryo viloyatida 1.773.000, Amudaryo viloyatida 252.000, Farg‘onada 2.175.000, Samarqand viloyatida 1.200.000, Turkman viloyatida 464.000, Ettisuv viloyatida 1.281.000 aholi istiqomat qilgan. Umumiy hisobda Turkiston ASSRda aholining soni 7.145.000 ni tashkil etgan. SHu davrga tegishli ba’zi hisobot materiallarida Turkiston ASSRda istiqomat qiluvchi aholining milliy tarkibi asosan turkiy xalqlarga mansub millatlardan iboratligi, undan keyingi o‘rinda nasl-nasab jihatidan tojiklar va forslar, uchinchi o‘rinda ruslar va ulardan so‘ng dungan, xitoy, qalmiq va boshqa xalqlar istiqomat qilishi qayd etilgan.

Turkiston ASSR tuzilganida davlat tili masalasi hal qilinmasdan ish yuritish rus tilida olib borildi. Milliy rahbar kadrlarning sa’y-harakatlari natijasida 1918-yil iyunda Turkiston ASSR hududida o‘zbek (turkiy) tiliga davlat tili maqomi berildi. 1918-yil 20-avgustda Turkiston MIKning “turkiy tili va uning bosh lahjasi to‘g‘risida”gi dekretiga muvofiq mazkur davlat tili rus tili bilan teng deb belgilandi. Bu haqida 1918 yilda Turkiston MIK va XKS tomonidan imzolangan “Barcha sovet muassasalariga mahalliy tilni joriy etish to‘g‘risida”gi dekretida ham turkiy tili respublika aholisining milliy tili sifatida e’tirof etildi. Biroq turkiy tiliga davlat tili maqomi berilgan bo‘lsa-da, mahalliy lashtirish jarayoni boshlanguniga qadar amalda ish yuritish rus tilida olib borildi. Bu davrda Milliy ishlar xalq komissarligi xodimlari zimmasiga rus tilida yozilgan buyruqlar, farmonlar, qarorlar va boshqa topshiriqlar matnini mahalliy tillarga tarjima qilish vazifasi yuklatilgan.

Turkiston ASSRda turkiy tili va uning imlo masalalari ziyolilarimiz tomonidan “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasida muntazam yoritib borilgan. Turkistonda turkiy tilining imlo qoidasi masalasi birinchi marotaba Ettisuvda chiqqan “Ko‘mak” gazetasida ko‘tarilgan. Toshkentda tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” tomonidan chop etilgan “Bitim yo‘llari” nomli risola ham turkiy tili va uning imlo qoidalariga bag‘ishlangan. Bundan ko‘rinadiki, “Chig‘atoy gurungi”ning vazifalaridan biri ona tili hisoblangan turkiy tilining sofligini saqlash va takomillashtirishdan iborat bo‘lgan. Chunki bu paytda turkiy tiliga rus tili va boshqa evropa tillariga mansub so‘zlar kirib kelayotgan edi.

Davlat idoralarida ish yuritish rus tilida olib borilayotgan bo‘lsa-da, 1919 yildan e‘tiboran hukumat mahalliy tillarda gazeta chiqarishga ruxsat berdi. Jumladan, 1919-yil 4-avgustda Andijonda Milliy ishlar xalq komissarligi qarori bilan mahalliy tilda gazeta chop etila boshlandi. Hatto, shu yili Farg‘onada yashovchi ukrainlar ham o‘z tilida gazeta nashr etish uchun ijozat olishga muvaffaq bo‘lgan.

1919-yil sentyabrida Turkiston Kommunistik partiyasining favqulodda chaqirilgan IV s‘ezdi aynan milliy masalaga bag‘ishlangan. S‘ezdda Turar Risqulov sovet milliy siyosatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar haqida keskin fikr bildirib, milliy manfaatlarni himoya qilib chiqadi. “Xalq hokimiyati bo‘lishi uchun mehnatkashlar va boshqa ezilgan xalqni inqilobiy rivojlanish jarayoniga jalb qilishning maxsus usullari kerak. Ularning eng ilg‘or ishtirokchilarini sovet boshqaruviga qo‘shish zarur. Biroq uning uchun chekka o‘lkalarning ma‘lum mustaqilligi kerak. Ya‘ni mahalliy maktab, sud, ma‘muriyat, boshqaruv organlari, siyosiy va ma‘rifiy tashkilotlarni tuzish hamda ularga ona tilida ijtimoiy-siyosiy faoliyatning barcha sohalarida to‘liq foydalanishning kafolatini berish lozim”.

Bolsheviklar milliy siyosatida Turkiston mintaqasidagi ta‘lim tizimida rus tilining o‘rni belgilab berildi. 1921-yil qabul qilingan rezolyusiyada Turkiston ASSR aholisining o‘rta ma‘lumot olishi tartibi keltirilgan. Bunga binoan barcha volostlar, ovullar va aholi yashaydigan punktlarda bir bosqichli uch yillik qayta tayyorlov kurslarini o‘z ichiga olgan maktablar ochilgan. Ushbu maktablarda mahalliy tillar bilan

birgalikda rus tilida ta'lim berilishi shart qilib qo'yildi. SHuningdek, rus tilini bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni qo'shimcha mashg'ulotlarga jalb qilish va hatto, yotoqxona bilan ta'minlanishi ham belgilangan.

RKP(b) MK Turkiston byurosi Markazning g'oyaviy-siyosiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida partiya saflarini muntazam ravishda "yot unsurlar"dan tozalab turdi, milliy rahbar xodimlarning "g'oyaviy sofliги"ni nazorat qildi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Markaz Turkistonga muntazam ravishda "tajribali bolsheviklar" ni yuborib turdi. Faqat 1921-yilda RKP(b) MK Turkiston byurosi ixtiyoriga Markazdan 354 nafar kommunistlarni emissarlar sifatida yubordi. Ular Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida mas'ul lavozimlarda ishladilar. Markaz chinovniklari Turkiston xalqlarining shart-sharoitlari, urf-odatları va xususiyatlarini bilmagan holda zo'ravonlik bilan hokimiyat organlarida hukmronlik qildilar. Ular mahalliy aholining haq-huquqini mensimay ularning manfaatlariga qarshi siyosat yuritdilar.

Turkiston ASSRda daslab davlat boshqaruvidagi kadrlarning aksariyati evropa millatiga mansub bo'lganligi uchun ish yuritish va hujjatchilik tizimi asosan rus tilida olib borildi. Davlat muassasalarida ish yuritish rus tilida olib borilishi mahalliy aholi uchun qiyinchiliklar tug'dirgan. Bu masalada davlat apparatiga bir qator shikoyatlar kelib tushgan. Hatto ijro uchun tegishli joylarga jo'natilgan muhim hujjatlar mahalliy kadrlarga tushunarsiz bo'lganligi sababli orqaga qaytarilib yuborilgan. Buning oldini olish maqsadida bolsheviklar tomonidan davlat idoralarini mahalliy aholiga yaqinlashtirish rejasi hisoblangan "mahalliyashtirish" siyosati hayotga tatbiq etildi.

Bu davrda sovet mafkurasiga xizmat qiladigan milliy kadrlar tayyorlash masalasi bo'yicha Markaz tomonidan vazifalar qat'iy belgilab qo'yilgan. Xususan, bolsheviklar etakchisi I.V.Stalin bu haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Vazifa shundan iboratki, Turkistonni namunali, hammaga o'rnak bo'ladigan respublikaga, sharqni inqiloblashtirishning etakchi postiga aylantirish lozim. Aynan shuning uchun barcha e'tiborni Turkistonga qaratish, ya'ni ommaning madaniy darajasini ko'tarish hamda sovet apparatini milliyashtirish zarur. Ushbu

vazifani qanday bo‘lmasin bajarishimiz kerak, lekin qurbonliklar bizni to‘xtatmasligi lozim”.

Davlat idoralarini mahalliyashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida 1923-yilning 15-avgustida Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi huzurida Markaziy mahalliyashtirish komissiyasi tuzilgan. Ushbu komissiyaning joylarda hududiy bo‘limlari ham tashkil qilingan. Mazkur komissiyalarning vazifalari davlat idoralarida yozilgan qarorlar, farmonlar, buyruqlar va topshiriqlarning rus tili bilan mahalliy tillarda bir xilda yozilishini hamda turli muassasalarda erli xodimlarning ish bilan ta‘minlanishini nazorat qilish bo‘lgan. Arxiv hujjatlari va davriy matbuotda keltirilgan ma‘lumotlar shuni tasdiqlaydiki, davlat idoralarini mahalliyashtirish komissiyalarining zimmasiga yuklatilgan vazifalar nihoyatda og‘ir bo‘lgan. Buning sababi rusiyzabon xodimlarning mahalliyashtirish siyosatiga qarshi bo‘lganligi bilan bog‘liq edi. Davlat idoralarini mahalliyashtirish yuzasidan qabul qilingan bir qator qarorlarda mahalliy millatga mansub ishchilar turli muassasalarda tajribachi sifatida joylashtirilishi va amaliyot o‘tab bo‘lgach o‘sha joyda doimiy shtatga qabul qilinishi lozim edi. Biroq evropa millatiga mansub rahbarlar tajribachilarga qo‘pol muomalada bo‘lishi, maosh to‘lamasligi, kamsitishi hamda ularni o‘zlari bilan teng ko‘rmasligi komissiyaning faoliyatiga ochiqdan-ochiq to‘sqinlik hisoblanardi.

1923-yil 6-iyulda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasida umumdavlat tili – Oktyabr inqilobining rus tilisidir deb ta‘kidlandi. Biroq O‘rta Osiyo sovet respublikalari sanalgan Turkiston ASSR, BXSR va XXSR Konstitutsiyalarining birortasida davlat tili to‘g‘risida hech narsa deyilmadi. Davlat idoralarini mahalliyashtirish xususida bir qator qarorlar qabul qilingach, ushbu respublikalarda ish yuritish tili sifatida rus tili bilan parallel ravishda mahalliy tillarga ham ruxsat berildi.

3.Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasida milliy masala. Bolsheviklar tez orada Buxoroda amirlik boshqaruvini tugatish va uning hududida sovet hokimiyatini barpo etishga kirishdilar. “Buxoro operatsiyasi” nomi bilan tarixga kirgan mazkur harbiy harakat Moskva va Toshkentda ishlab chiqilgan

puxta reja asosida qizil armiya tomonidan amalga oshirildi. Rejaga ko'ra, 1920-yilning 28-avgust kuni Eski Chorjo'yda amirlik tuzumiga qarshi inqilob boshlanib, tez fursatda butun Buxoroni qamrab oldi. Chorjo'y inqilobiy qo'mitasi oldindan kelishilganidek, o'sha kuniyoq sovet hukumatiga yordam so'rab murojaat qildi. Bolsheviklarning tegishli ko'rsatmasiga ko'ra qizil armiya qo'shinlari Buxoro xalqiga yordam niqobi ostida suveren Buxoro amirligi hududiga bostirib kirdi. Turkiston fronti qo'mondoni M.V. Frunze buyrug'i bilan Eski Buxoro samolyotlardan bombardimon qilindi, to'plar va bronepoezdlardan turib qattiq o'qqa tutildi. Buxoroning so'nggi amiri Said Olimxon (1881–1944) bu qonli urush haqida o'zining xotiralarida shunday deydi: “Bu urush asnosida dushman, taxminan, Buxoroning yarmini to'p va pulemyotdan o'qqa tutib, ko'p talafot etkazdi. Ular o'n bitta tayyora bilan Buxoro shahri ustiga havoda parvoz etib, bomba yog'dirdilar”. 1920-yil 2-sentyabr kuni Amir Olimxon begunoh aholining qonini to'kmaslik va aziz qadamjolar vayron etilishining oldini olish maqsadida poytaxtni tark etdi. Natijada mamlakatda amirlik tuzumi ag'darildi va hokimiyat bolsheviklar ta'siridagi yosh buxoroliklar qo'liga o'tdi. Boshqaruv Muvaqqat hukumatga o'tgan dastlabki kundanoq yordam berish bahonasida 150 nafar bolshevik rahbarlik ilinjida Buxoroga etib keldi.

“Buxoroda mustaqil demokratik davlat tuzishga ko'maklashish” niqobi ostida hamda qizil askarlar quroli yordamida zo'rlik bilan amalga oshirilgan “inqilob”ni saqlab qolish bahonasida bolsheviklar bu erda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni Rossiya manfaatlari yo'liga burishga harakat qildilar. Ushbu vazifani bajarish maqsadida Turkkomissiya 1920-yil 10-sentyabrdagi qaroriga binoan V.Kuybishev RSFSR hukumati, shuningdek RKP (b) MKning Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi vakili sifatida yuborildi. 1920-yil 14-sentyabrda Eski Buxoroda BKP MQ, Markaziy Inqilobiy Qo'mita va Xalq Nozirlar Sho'rosining birlashgan majlisida V.Kuybishev BXSR hukumatining boshlig'i F. Xo'jaevga o'zining ishonch yorlig'ini topshirdi. U ishonch yorlig'ini topshirish paytida “RSFSRning asosiy talabi Buxoro davlati mustaqilligini hurmat qilish,

barcha rus fuqarolari va tashkilotlarini ham Buxoro mustaqilligini hurmat qilishga undashdan iborat” ekanligini qayd etdi. Mamlakat mustaqilligi xususidagi ushbu masala 1921-yilda qabul qilingan BXSR Konstitutsiyasining 3-moddasida quyidagicha ko‘rsatilgan edi: “Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati o‘zining bugungi sarhad (chegaralik) lari ichida birlashgan bo‘linmayturg‘on irkay (mustaqil) davlat deb taniladir.

1920-yil 6-oktyabrda Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi ish boshladi va unda 1960 nafar delegat qatnashgan. Qurultoy Buxoroni Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) deb e‘lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bolsheviklar BXSR tuzilganligining dastlabki kunlaridanoq mustamlakachilik siyosatini namoyon qildilar. Ular tomonidan amirlik xazinasini Markazga jo‘natish, qizil armiya sonini oshirish, amir zamonida faoliyat ko‘rsatgan yirik zamindorlar mol-mulkini musodara qilish va ularni jazolash hamda RSFSR o‘rtasida harbiy-siyosiy shartnoma tuzilishi xususida harakat olib bordilar.

BXSRning davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatish uchun Markazning ruxsati lozimligining belgilanishi mamlakat ichki ishlarini qattiq nazoratga olinganligini anglatardi. 1920-yilning 12-noyabrida Buxoro jumhuriyatidagi RSFSR vakili V. Kuybishev tomonidan 10-nomerli buyruq yuborildi. Bunda RSFSR vakolatida qayd qilinmasdan Buxoro hukumatiga yoki partiya muassasalariga kirib ishlagan kishilar dezertir hisoblanib, maxsus qonunlar bo‘yicha hukmga tortilishi belgilandi. SHuningdek, RSFSR vakolatida qayd qilinmasdan Buxoroda turuvchi shaxslar ham boshqa mamlakatga turib, RSFSR vakolatidan bosh tortuvchilar jumlasidan hisoblanib, hukmga tortilishi qayd qilindi.

1920-yilning oktyabr - noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o‘rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o‘rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. 1920 yilning noyabrida ikki o‘rtada tuzilgan shartnomaning 2-moddasida BXSRning ichki mustaqilligi qisman cheklangan edi: “Shu erlardagizavod va fabrikalar butun asbob va anjomlari bilan butunlay Buxoro sho‘rolar jumhuriyatining xususiy mulki bo‘lib o‘tadi. Lekin, pochta va telegraflar, temiryo‘llar bu moddaga dohil emas. Chunki bu

masala umumittifoq mahdasida ochiq ravishda qaralsa va hal qilinsa kerak”. Mazkur shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo‘shinlari turishini “qonuniy” asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to‘g‘ridan – to‘g‘ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

BXSRning maydoni 1924-yilgi chegaralanishga qadar 182193 km² bo‘lib, 1 km² maydonda istiqomat qiluvchi aholining soni o‘rtacha 8,4 nafarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich Turkiston Respublikasidan* qariyb 2 ½ marta kam edi. Buxoro sovet respublikasida 1924-yil boshidagi ma’lumotlarga ko‘ra aholining soni 1.531.015 nafarni tashkil etgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining milliy tarkibi ham o‘ziga xos. Chunki bu erda o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar va qozoqlardan tashqari forslar, arablar, buxoro yahudiylari va boshqa xalqlar istiqomat qilib kelishgan. Toshkentda 1926 yili chop etilgan kitobda Buxoroda istiqomat qiluvchi mahalliy aholining milliy tarkibi uch guruhga bo‘linadi: 1) turkiy xalqlar – 978.000 atrofida (63,9 foiz), bular o‘zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg‘izlar (oxirgi ikkitasi kamsonli hisoblangan); 2) eroniylar – tojiklar va uncha katta bo‘lmagan forslar hamda afg‘onlar bo‘lib, bular 484.000 atrofida (31,6foiz); 3) semitlar – arablar va Buxoro yahudiylari hisoblanib, ular 54.000 (3,5foiz)ni tashkil etgan. SHu bilan birgalikda respublikaning bir necha shaharlarida rus fuqaroligidagi aholi (12 000 kishi yoki 0,8foiz) ham istiqomat qilgan. Ularning aksariyati temiryo‘l bekatlari atrofida joylashgan edi. Umumiy tarkibdagi qolgan xalqlar 3000 kishi (0,2foiz) bo‘lib, uning yarmini armanlar tashkil etgan.

Buxoro respublikasida istiqomat qiluvchi xalqlarning ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil qilib, ular 778.000 (50,7foiz) kishidan iborat bo‘lgan. Buxoro vohasining shimoli-g‘arbiy chegarasidagi o‘zbeklar va qozoqlar o‘rtasidagi hududda qoraqalpoqlar (2100 kishi atrofida) yashagan.

Buxoro amirligi mavjud bo‘lgan davrda mahalliy aholi turkiy va forsiy tilda so‘zlashar edi. Amirlikning davlat boshqaruvida ish yuritishi asosan forsiy tilda bo‘lgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi

vassaliga aylanganligi sababli amir nomidan Turkiston general-gubernatoriga yozilgan maktublar forsiydan tashqari qisman rus tilida ham bitilgan. Buxoro amirligi qo'shbegisining Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi nomiga va mahalliy beklklarga yuborilgan nomalari asosan forsiyda yozilgan.

BXSR tashkil topishi bilan mamlakatning davlat tili masalasi muhim bo'lib turdi. 1921-yil 11-martda Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi o'zbek (turkiy) tilini mamlakat hududida davlat tili deb e'lon qildi. Bu haqida hukumatning rasmiy matbuotida ham ma'lumotlar keltirilgan. "Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatida aksariyat ommaning til urug'i turk bo'lganligidan ularning tili hukumat tili qilib qabul qilindi. Bugun Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining hukumat tili asosi turkcha bo'lgan chig'atoycha so'zlaydir". Afsuski, Buxoroda o'zbek tili hukumat tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda rasmiy hujjatlar rus tilida yuritildi. Shu davr matbuotida keltirilgan ba'zi materiallarda davlat organlari va muassasalarda yig'ilishlar rus tilida olib borilganligi, hukumat tili turk tili deb ko'p ta'kidlanayotgan bo'lsa-da, amalda bunga rioya qilinmayotganligi ta'kidlab o'tilgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida har bir inson o'z ona tilida ta'lim olishi lozimligi belgilangan: "Har millatning maktablarda o'z tillarida tahsil olishga va o'z ona tillarida ta'lim beriladigan maktablar ochishga haqlari bo'lganligini e'tirof etadi". Biroq mazkur konstitutsiyada o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'рни qonuniy e'tirof etilmadi.

BXSR hukumati 1920-yil oxirlarida maorif nazorati qaramog'ida turli tillardagi adabiyotlar mavjud bo'lgan davlat kutubxonasini tashkil qilish choralarini ko'radi. 1921-yilning yoziga kelib Buxorodagi eng katta kutubxona Minorai Kalon yonidagi binolardan birida Abu Ali ibn Sino nomi bilan ochiladi. Bu markaziy kutubxona bo'lib, unda o'zbek, tatar, turk, tojik, arab, rus, yahudiy tillarda ko'p jildli kitoblar jamlangan.

BXSR tashkil topgach, uning chin ma'nodagi mustaqilligini ta'minlash uchun partiya va hukumat organlarini "milliylashtirish" maqsadida bir qator ziyolilar tomonidan yashirin tashkilotlar va ularning shu'balari tuzildi. 1920-yil noyabrida Munavvar Qorining Buxoroga

borishi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Maorif nozirligida vaqf bo'limi mudiri vazifasida faoliyat boshlashi bilan tashkilot markazi Toshkentdan Buxoroga ko'chadi. 1920-yil dekabr oyida Buxoro shahriga Zaki Validiyning kelishi bilan tashkilot o'z faoliyatini kengaytiradi, uning a'zolari Buxoro respublikasi doirasidan chiqib, butun Turkiston tuprog'i bo'yicha harakat qiladilar. Validiy Buxoroda yashar ekan, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan siyosiy partiyalar tashkil qilish, ularning dasturi va rejasini tuzish bilan astoydil shug'ullandi.

BXSR hukumati va uning rahbari Fayzulla Xo'jaev tomonidan respublika hududidagi boshqaruv ishlariga mumkin qadar mahalliy millat vakillarini jalb qilishga harakat qilindi. F.Xo'jaev turkman, qozoq va tojik xalqlari vakillarining qurultoylarida "davlat tuzilishimizni erlilashtirishimizga jumhuriyatimizda yashovchi mayda millat va qabilalarning huquqlarini qozonmog'imizga to'g'ri kelur", deb ta'kidlagan. Shuningdek, uning fikricha, BXSRda dohiliya (ichki), adliya va boshqa nozirliklarda, ijroqo'm idoralarida kurer, darbon, doimiy mirzolar, xo'jalik bo'limi mudirlari, kichik mirzolar, daftardorlar kabilar mahalliy aholi vakillari o'zbek, turkman, tojik va qirg'iz kabilardan bo'lishi kerak edi.

BXSR Oliy tribunali "Idoralarni mahalliyashtirish komissiyasi"ning 426-raqamli topshirig'i ijrosini ta'minlash hamda mahkamada faoliyat olib borayotgan xodimlar milliy tarkibi haqida hisobot topshiradi. Bunda Buxoro Oliy tribunalining markazdagi ishchilaridan 18 nafari buxorolik, ya'ni erlik xalq vakillari, 15 nafari tatar, 7 nafari rus, 1 nafari evropa millatiga mansub bo'lgan. Viloyatlardagi sayyor tiribunallarda esa 34 nafar erlik xalq, 7 nafar tatar, 3 nafar rus millatiga mansub xodimlar faoliyat olib borganligi qayd etilgan. Oliy tribunalning hibsonasi ma'muriyati 4 nafardan iborat bo'lib, 3 nafari tatar bo'lib, tabib evropalik bo'lgan. Oliy tribunal markazidagi xodimlarini mahalliy millat vakillariga almashtirish to'g'risidagi topshiriqqa javoban mahkama raisi shunday javob qaytargan: "Rus taftishchilarini hozirgi vaqtda erlik taftishchilar bilan almashtirib bo'lmaydi. Sababi tribunalga keladigan ishlar aksariyati

ruscha bo‘lganligi uchun ushbu vazifani erlik xodimlar bajara olmaydilar”. Viloyatlarda faoliyat olib borayotgan sayyor tribunallarda mahalliy millat vakillari ko‘pchilikni tashkil etganligini, hatto ba’zilarida faqat erlik xodimlar ishlaganini ham ko‘rish mumkin. Masalan, Sharqiy Buxoro tribunali 10 nafardan iborat bo‘lib, 8 nafar xodim buxorolik, SHahrisabz tribunalida 9 nafar odamdan 6 nafari erlik, Vobkent sayyor tribunalida 6 nafar xodimdan 4 nafari buxorolik, Baxovuddin sayyor tribunalida 8 nafar odamdan 5 nafari erlik, Nurota sayyor tiribunalida 6 nafar xodimning barchasi mahalliy xodimlar bo‘lgan.

1920-yil 27 – 30 aprelda Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyi Xiva xonligining tugatilganligini va mamlakatni Xorazm Xalq Sovet Respublikasi deb e‘lon qildi. Qurultoyda XXSRning vaqtinchalik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiya kirish, 13 bob, 37 moddadan iborat bo‘lgan. Shuningdek, ushbu qurultoyda XXSRning birinchi hukumati tarkibi tasdiqlandi. YAngi hukumatning milliy tarkibi ham millatlarning o‘lkadagi siyosiy jarayondagi o‘rnini bildiradi. 15 nafar hukumat a’zosidan 9 nafari o‘zbeklardan, 5 nafari turkmanlardan bo‘lib, bir nafari esa tatar millatiga mansub edi. SHu yilning may oyida Xorazm Kommunistik partiyasining birinchi konferensiyasi bo‘lib o‘tgan paytda XKPning 600 nafar a’zosi va 22 yacheykadan iborat bo‘lgan.

1920-yilda tashkil qilingan 16 ta sovet maktabining 2 tasi qozoq va qoraqalpoq va 3 tasi turkman maktablari edi. Maktablarda mashg‘ulotlar har bir xalqning o‘z ona tilisida olib borilishi belgilandi. Shu paytdan boshlab, Xivadagi siyosiy boshqarmalar, kommunistik partiya va qizil armiyahamda sovet hokimiyatining barcha tizimida maxsus topshiriqlar rus tili bilan birgalikda o‘zbek va turkman tillarida ham olib borildi. 1923-yilga kelib Xorazm Xalq Sovet Respublikasida tashkil etilgan 35 ta sovet maktablarida tahsil olgan 1500 o‘quvchining 80 foizini o‘zbeklar, 15 foizini qirg‘izlar, 2,5 foizini turkmanlar va boshqa millatlar tashkil etgan.

XXSR milliy tarkibining katta qismi turkiy millatlardan iborat edi. Jumladan, birinchi o‘rinda o‘zbeklar – 79,5 foiz, ikkinchi o‘rinda

turkmanlar – 14,5 foiz, keyingi o‘rinda qozoqlar (qirg‘iz-qozoq) – 4,3 foiz va qolganlari qoraqalpoqlar va tatarlar, eroniylar – 1419 nafar bo‘lib, Xorazm aholisining 0,3 foizini va boshqalar tashkil etgan.

1921 yil 15 maydan 23 maygacha bo‘lib o‘tgan Butunxorazm xalq vakillarining II qurultoyida qatnashgan jami 329 delegatning 152 nafari o‘zbeklar, 56 nafari turkmanlar, 12 nafari qozoqlar, 6 nafari qoraqalpoqlar, 12 nafari tatarlar, 4 nafari ruslar, 1 nafari tojik edi. Hatto, bir nafar tatar ayoli – Xayrulbanot Saydasheva ham qurultoy delegati qilib saylangan. Ayni shu paytda Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti va Nozirlar Sho‘rosi tarkibi 44 nafar o‘zbek, 16nafari turkman, 3 nafar qozoq, 2 nafar qoraqalpolardan iborat bo‘lgan.

Mazkur qurultoyda XXSR MIK qoshida etti kishidan iborat maxsus turkman bo‘limi tashkil etildi. Unga Mulla O‘roz Xo‘jamammedov

rahbar bo‘ldi. Ushbu bo‘limning asosiy vazifasi turkmanlar yashaydigan erlardagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, milliy, madaniy masalalarni, urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va uni yaxshilash, mehnatkash

xalq faolligini oshirish, ular yashaydigan hududlarda dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish, hunarmandchilikni taraqqiy ettirish hamda ularning madaniyatini oshirish deb belgilandi.

Bolsheviklar XXSRning mustaqilligini cheklash va Markaz ta’sirida tutib turish maqsadida boshqaruvda kadrlar almashinuvini amalga oshirib, boshqa sovet respublikalaridan “tajribali” mutaxassislarni yuborib turdilar. XXSRning mahalliy rahbar kadrlaridan Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov, Nazir Sholikorov, Otamaxsumovun Muhammadrahimov, Menglixo‘ja Ibniyaminov, Mulla Bekjon Raxmonov, Muhammadjon Abdalov, K.Nurullaevlar milliy manfaatlarni himoya qilib, respublikaning mustaqil siyosat yuritishi uchun kurashdilar.

1921-yil sentyabr oyida XXSR MIK majlisi chaqirilib “o‘z vazifasini bajarolmagan va ishni chalkashtirilganligi uchun” degan ayb bilan Xorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining raisi Muhammadrahim Olloberganov ishdan olinib, uning o‘rniga Otamaxsumovun

Muhammadrahimov qo'yildi. U XXSR MIKga rahbar bo'lgach, boshqaruv apparatini mahalliyalashtirishga kirishdi. Jumladan, o'zbek harbiylaridan Mirkomil Mirsharipovni harbiy nozir, Mixail Voloshinning o'rniga o'zbek harbiysi Hasan Ermatovni dohiliya noziri, tatar millatiga mansub Hofiz Ziyovutdinov o'rniga o'zbek ziyolilaridan etishib chiqqan Jumamurodovni maorif noziri qilib tayinladi. SHuningdek, Otamaxsumov Muhammadrahimov hukumat ishlariga ishtirokiyuna firqasi (kommunistik partiya) a'zolarining rahbarlik qilishiga chek qo'yishga harakat qilib shunday degan edi: "Bir mamlakatda ishtirokiyuna firqa Markaziy Komiteti va hukumat Markaziy Ijroiya Komitetidan iborat ikki rahbar hukumat bo'lishi mumkin emas".

XXSR ning bunday mustaqil siyosat yuritayotganligi bolsheviklarni navbatdagi davlat to'ntarishi uyushtirishiga undadi. Shuning uchun 1921-yilning oktyabr oyi oxirlarida RSFSR MIK va XKS tomonidan XXSRda "lenincha milliy siyosat"ning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida A.A. Ioffe boshchiligida favqulodda komissiya yuborildi. Ushbu komissiya Xorazmda amalga oshirilayotgan ishlarni bekor qilishga harakat qildi. Bunga javoban Xorazm MIK raisi Otamaxsumov Muhammadrahimov milliy manfaatlarni himoya qilib, RSFSR vakillari oldiga ultimatum qo'ydi. Bunda komissiya respublika ichki ishlariga aralashadigan bo'lsa, "24 soat ichida Xorazmni tashlab chiqib ketishi shart" edi. Keyinchalik sovet tarixiy adabiyotlarida Otamaxsumov Muhammadrahimov va uning hamfikrlari panturkizm va panislomizmga, sovet hokimiyatiga qarshi bo'lgan Anvar Posho, Munavvar Qori va Zaki Validiy rahbarligidagi "Musulmonlarning milliy birlashuvi" tashkiloti a'zosi sifatida tanqid qilindi.

Markazdan yuborilgan bolsheviklar Otamaxsum Muhammadrahimov boshchiligidagi hukumatni kambag'al dehqonlarga qarshi siyosat yuritganlikda ayblagan. Jumladan, Butunxorazm xalq vakillarining III qurultoyida kambag'al dehqonlarning erdan foydalanishi masalasi keng muhokama qilinganida yuqoridagi hukumat xususida shunday asossiz fikrlar bildirilgan: "Inqilobdan so'ng, ayniqsa mart oyidagi to'ntarishdan so'ng, xon va uning qarindoshlarining

milliylashtirilganerlari qizil askarlar tomonidan ersiz dehqonlarga hech qanday tekshirishsiz berilgan edi. Shu er olganlar bilan bir qatordakambag'allar ham er olganlar. Biroq Ota-Maxsum hukumati yordamida erning bir qismi yana xon qarindoshlariga o'tib ketgan. SHuning uchun davlat jamg'armasidan berilgan barcha erlarni qayta ko'rib chiqish maqsadida dehqonchilik nazorati huzurida ijtimoiy komissiya tuzish zarur".

XXSRda markaziy idoralarda faoliyat yuritgan milliy kadrlar mumkin qadar bolsheviklar ta'siridan xoli bo'lishga va mustaqil siyosat yuritishga harakat qilganlar. Bu haqida Xorazm Kompartiyasi MK tomonidan 1922 yilning 31 martida RKP (b)ning XI s'ezdi munosabati bilan yuborilgan tabriknomada quyidagilar qayd etilgan: "Xorazmda kommunistik partiya bo'lgani bilan u juda kuchsiz. Birinchidan, bizda tajribali rahbarlar yo'q, ikkinchidan, dehqonlar juda qoloq va johil. Shuning uchun Sovet Rossiyadagidek kommunistik partiya mamlakatni boshqarishda rahbarlik qilmaydi. Xorazm hukumatida esa, kommunist bo'lmagan elementlar ko'pchilikni tashkil qiladi".

1923-yil aprel oyida bo'lib o'tgan RKP(b)ning XII s'ezdida Buxoro va Xorazm Respublikalarida turkman va qirg'izlarga qarshi yo'naltirilgan o'zbek shovinizmi haqida gapirilgan. Biroq bu paytda Buxoroda ham, Xorazmda ham boshqa xalqlarga qarshi qaratilgan o'zbek shovinizmi bo'lmagan. Markaz va bolsheviklar milliy siyosatining bosh maqsadi turkiy xalqlarning bir butunligiga zarba berish va ular o'rtasida adovat uyg'otish edi. Bu jarayon milliy-hududiy chegaralanish arafasida yanada avj oldirildi.

1923-yil 18–20-oktyabrda Butunxorazm xalq vakillarining IV qurultoyida respublikaning yangi Konstitutsiyasi tasdiqlandi. Ushbu Konstitutsiya 5 ta bo'lim, 12 ta bob va 46 ta moddadan tashkil topgan. Yangi Konstitutsiya mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlarni hisobga olib, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi o'zining yangi, sotsialistik rivojlanish davriga kirdi deb baholadi va davlat nomini shu kundan boshlab, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi deb belgiladi.

XXSRda milliy munosabatlarni tartibga solish maqsadida Xorazm MIK huzurida milliy ishlar bo'yicha bo'lim tuzilgan edi. Bo'limning faoliyati 1923-yili yangi qabul qilingan Konstitutsiyaning 2-bo'limi 5-bobining 16-20-moddalarida o'zining qonuniy tasdig'ini topgan. Jumladan, ushbu Konstitutsiyaning 18-moddasida shunday deyilgan: "Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti huzuridagi milliy ishlar bo'yicha bo'lim respublikadagi kamsonli millatlardan iborat mehnatkashlarning huquqini himoya qilish maqsadida uchta bo'lim: turkman bo'limi 9 nafar kishidan, qirg'iz-qozoq bo'limi 5 nafar kishidan, qoraqalpoq bo'limi 3 nafar kishidan iborat bo'ladi".

Ushbu Konstitutsiyaga binoan millatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va ularning milliy talablarini qondirish maqsadida Xorazm MIK huzurida avval turkman shu'basi, keyinroq qozoq va qoraqalpoq shu'balari tashkil qilindi. Turkman bo'limining raisi qilib Bayramov va qozoq bo'limining raisi qilib Tagan Abdullaevlar tayinlangan.

1923-yildan Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ham mahalliy lashtirish masalasiga zamonning muhim vazifasi sifatida qaralgan hamda bu borada Turkiston ASSR va BXSrd olib borilayotgan ishlar o'rganilgan. Turkiston ASSR MIK va XKS tomonidan chiqarilgan 130 va 124-qarorlar XXSRda ham amalda bo'ldi.

1923-yil 2-sentyabrda Xorazm MIK huzurida tuzilgan Davlat idoralarini mahalliy lashtirish komissiyasi tashabbusi bilan mahalliy kadrlarni tayyorlash ishlariga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan. Jumladan, XXSR dagi mahalliy millatga mansub yoshlarning O'rta Osiyo davlat universitetida (SAGU) o'qishi uchun respublika tomonidan mablag' ajratilgan. Shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun o'quv kurslarini tashkil etish masalalari muhokama qilingan.

XXSRning turli muassasalarida kadrlarni mahalliy lashtirish borasida ma'lum ishlar amalga oshirildi. Ishchi-dehqon inspeksiyasi nozirligi tarkibida mahalliy kadrlarning salmog'i quyidagicha bo'ldi. Mazkur muassasaning markaziy apparatida 1923-yil oktyabr holatiga ko'ra bosh nozirlik 3 nafar kishidan (1 nafari o'zbek, 1 nafari qirg'iz, 1 nafari tatar), nozir esa kommunistik partiya a'zosi bo'lgan. Reviziya qilish bo'limi nazoratchisi 2 nafar tatar, viloyatlardagi vakil 3 nafar

o'zbek va 1 nafar tatar, apparatdagi texnik kotib o'zbek, muxbir o'zbek (ayol), hisob bo'limi xodimi o'zbek, xo'jalik ishlarida 2 nafar o'zbek ishlagan. Xodimlar umumiy hisobda jami 14 nafar, shundan 9 nafari o'zbek, 4 nafari tatar va 1 nafari qirg'iz bo'lgan.

Ishchi-dehqon inspeksiyasi noziri o'rinbosari Gerasenkovning hisobotida keltirilishicha, 1923-yili markaziy apparatga ikki nafar evropa millatiga mansub inspektor Vays va SHanilov ishga qabul qilingan. Ularga ish yuritish tizimida tajribaga ega va rus tilida yozuv mashinkasida yoza oladigan xodim sifatida ta'rif berilgan. Shuningdek, markaziy apparatdagi ish yuritish o'zbek va rus tillarida parallel ravishda olib borilayotganligi qayd etilgan. Bundan tashqari ushbu hisobotda ish yuritish tizimida ba'zi muammolar borligi ham keltiriladi. Bu ish yurituvchi xodimlarning o'z ishini yaxshi bilmasligi bilan bog'liq bo'lgan. Natijada markaziy apparatda 2 nafar tatar va 1 nafar o'zbek ishdan bo'shatilgani va shtatni to'ldirish uchun tezda tajribali, rus va o'zbek tilini biladigan kotib kerakligi takidlanadi.

1924-yil 18-noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIKlari o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy Komiteti (F. Xo'jaev rais)ga topshirdilar. Shu tariqa, O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkiston ASSR kabi BXSР va XXSR ham tugatildi va ularning hududi yangi tashkil etilgan respublikalarning tarkibiga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, BXSР va XXSR hukumatlari kommunistik partiya ta'sirida bo'lsa-da, respublikada millatlararo munosabatlar, milliy til, boshqaruvni mahalliyashtirish masalasida bir qator natijalar qayd etilgan. Xususan, O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi mazkur sovet respublikalarida davlat idoralarini mahalliyashtirish borasida amalga oshirilgan muhim ishlar xususida quyidagilarni keltirib o'tgan. Davlat idoralarini mahalliyashtirish jarayonida Turkiston ASSR, BXSР va XXSRda sud organlarining tuzilishi to'g'risidagi Nizom, Jinoiy-Protsessual, Er va Fuqarolik-Protsessual kodekslarining rus tilidan mahalliy (o'zbek, qirg'iz, turkman) tillargatarjima qilinib, nashr etilganligini alohida qayd etgan.

Tayanch so‘z va iboralar: dohiliya (ichki), adliya, kurer, darbon, doimiy mirzolar, kichik mirzolar, daftardorlar, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Boboovun Salimov, Nazir Sholikorov, Otamaxsumovun Muhammadraximov, Menglixo‘ja Ibniyaminov, Mulla Bekjon Raxmonov, Muhammadjon Abdalov, RSFSR, Turkiston ASSR, BXSr, XXSR, SAGU, RKP(b), eron-ozarbayjon, chex, serb, ukrain, arman, polyak, ruslar, o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, forslar, arablar, buxoro yahudiylari.

7-Ma’ruza mashg‘ulot uchun yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Pochta”** usulini amalga oshirish.

1. Bir nechta (mavzuga mos) konvert olib uning ustiga eng zarur bo‘lgan asosiy yozuvlarni yozib qo‘yadi va ularni stol ustiga ko‘zga ko‘rinarli qilib joylashtiriladi.

Masalan:

“Turkistonga ruslarning ko‘chirish siyosati”,

“Turkistonda sovet hokimiyatining milliy siyosati”,

“Xorazm Xalq Sovet Respublikasida milliy masala“

“Bolsheviklar tomonidan Buxoro amirligining egallanishi va aholining milliy tarkibi” deb yoziladi.

2. Endi bu rejalarga mos fikr va atamalar yozilgan qog‘ozchalar tarqatiladi.

3. Qaysi fikr yoki atama konvertlardagi rejalarga mos kelsa o‘sha konvertga solinadi.

4. Savollarga aniq javob topib konvertga joylashtirilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Turkiston o‘lkasiga ko‘chib kelganlarning aksariyati qaysi hududda joylashganlar?
2. Xiva xonligi hududida yashagan qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqsodiy hayoti hayoti haqida fikr yuriting?
3. Buxoro amirligi hududida ko‘chib kelib o‘rnashgan rus fuqarolari asosan nima mashg‘ulot bilan band bo‘lganlar?

4. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, davlat boshqaruvda mahalliy aholining ishtiroki qanday bo'ldi?
5. BXSР VA XXSRda sovet hokimiyatining milliy siyosati haqida nimalarni bilasiz?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.
3. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
4. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

1. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – С.163.
2. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Хотиралар. (Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи). Нашрга тайёрловчи М. Абдурахмонов. – Т.: Истиқлол нури, 2014. – Б.331-338.
3. Саипова К. Д. Социально-экономическое и политическое положение европейской части национальных меньшинств на территории ТАССР // Вестник развития науки и образования. – Москва, 2013. № 1. – С.23-24.

4. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918–1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. –Москва.: РОССПЭН,2005.–С. 574.
5. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шахид кетганлар. – Т.:Шарқ,2001.– Б.14.
6. Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917-1941 йиллар). – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2012. – Б.75.
7. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар. Ҳужжат ва материаллар. Хотиралар. Иккинчи китоб. Масъул муҳаррир Н.Каримов. – Тошкент: О’қитувчи, 2010. –Б.179-180.
8. Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Урганч,1993.– Б.31-46.
9. Коммунистические партии Туркестана, Бухары и Хорезма в период национально – государственного размежевания в Средней Азии. –Т.,1959. – С.28-41.
10. История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. – Москва.:Наука, 1971.– С.156.
11. Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть II.Хорезм. Изд Комиссии по районированию Средней Азии. –Ташкент: 1926 г. –Стр 90-91.
12. Полвонов Н. Хоразм Халқ Совет Республикасидаги миллатлараро муносабатлар тарихидан // “Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон” мавзусидаги илмий – амалий анжуман материаллари.– Т., 2003. – Б.148.
13. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т., 2012.– Б.485.
14. Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924 йиллар). – Тошкент: “Abu matbuot –konsalt” 2012.–Б.55-102.
15. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги давлат идораларининг маҳаллийлаштириш сиёсати (1917–1933 йй.). – Тошкент: Muharrir,2020. –Б.22-89.

8 – MAVZU: MILLIY MASALAGA OID SOVET NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Reja:

1. Sovet milliy siyosati nazariyasining hayotdan ajralganligi.
2. Milliy kadrlar masalasi va sovet boshqaruvi strukturasidagi davlat idoralarini mahalliyashtirish (o'zbeklashtirish) siyosati.

1. Sovet milliy siyosati nazariyasining hayotdan ajralganligi.

1917-yilning 25-oktyabr sanasida bolsheviklar Muvaqqat hukumatni ag'darish maqsadida Petrogradga qurolli qo'zg'olon boshlab, hokimiyatni egalladilar. Bu sovet tarixshunosligida "Ulug' Oktyabr Sotsialistik inqilobi" nomi bilan ataldi. Inqilob markazi boshqaruvda proletariat diktaturasi o'rnatilganligini va davlatning yangi shakli – Sovet sotsialistik davlatini yaratganligini e'lon qildi. Davlatni idora qilish esa Ishchi, dehqon va soldat deputatlari sovetlarining zimmasiga yuklatildi. Bu haqida V.I.Lenin shunday degan edi: "...bu sovetlarning tashkil qilinishi bilan, ulug', yangi va jahon inqilobi tarixida misli ko'rilmagan bir narsa tuzilyapti..." (Lenin V.I. To'la asarlar to'plami. 35 - tom. (1917-yil oktyabr – 1918-yil mart). – Toshkent: O'zbekiston, 1978.–B.262). Bolsheviklar etakchisimazkur sovetlarni xalq tomonidan mustaqil ravishda tuzilgan demokratik boshqaruv tizimisifatida keltirib, mamlakatlarning hech birida unga teng keladigani yo'q deb atagan.

Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet boshqaruvi oldida turgan eng murakkab va og'riqli muammolardan biri milliy masala hisoblanardi. Ulkan sovet davlati aholisining 57 foizi rus bo'lmagan millatlardan iborat edi. Bolsheviklar tomonidan mazkur millatlarni Rossiya ta'sirida saqlash uchun to'ntarishning dastlabki kunlaridanoq bu haqda huquqiy hujjat, ya'ni "Rossiya xalqlarining huquqlari deklaratsiyasi" e'lon qilindi. Bunda Rossiya o'lkasidagi millatlar masalasida quyidagilar belgilandi: 1. Rossiya xalqlarining tengligi va suverenligi. 2. Rossiya xalqlarining ajralib chiqish va mustaqil davlatni barpo etishgacha bo'lgan o'z taqdirini o'zi erkin belgilash huquqi. 3. Har qanday milliy, milliy-diniy imtiyozlar hamda cheklanishlarning man etilishi belgilandi.

Ushbu deklaratsiyaning nazariy asosida milliy zulm va milliy

tengsizlikka barham berish, mustamlaka va qaram mamlakatlarning ezilgan xalqlarini imperializm zulmidan ozod qilish, barcha kishilarga, ular qaysi irq va qaysi millatga mansub bo‘lishlaridan qat’iy nazar, chinakam ozodlik va tenglik berish, barcha xalqlar o‘rtasida do‘stona hamkorlik hamda o‘zaro yordamni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish xususida balandparvozlik bilan yozilgan.

Sovet hokimiyati sobiq mustamlaka o‘lkalarni Rossiyaga to‘la bo‘ysundirish uchun Markazning har qanday qaror va dekretlarini tatbiq qilish va bajarilishini ta‘minlash siyosatini yuritdi. Bu esa o‘z navbatida mustamlakachilik tuzumi o‘zgarmasdan davom etishini anglatar edi. Shu maqsadda bolsheviklar mazkur o‘lkalarda o‘zining siyosiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida quyidagi qat’iy talabni ilgari surdilar: “Rossiyadan erkinlik va istiqlol tilagida bo‘lgan millatlar “sotsializm” dasturini qabul qilishi hamda har mamlakat boshqaruvini ishchi-dehqon vakillari sovetlari degan hukumatga topshirishlari shart” qilib qo‘yildi. Buning nazariy asosida esa, “Mazlum va mazlum bo‘lmagan xalqlar mehnatkash ommalarining hamkorlik tartiboti (rejimi)ni o‘rnatishning yagona usuli bu – kapitalizmni tugatish va sovet tuzumini o‘rnatishdir” deb belgilandi.

Bolsheviklar tomonidan sovet hokimiyatining milliy siyosati buyuk rus mustamlakachiligining imperialistik “tuzumli” siyosatidan keskin ajralib turishi ta’kidlangan. Biroq bu qizil shiorlarga burkangan mustamlakachilikning yangicha usuli edi. Xorijda yashagan muhojir vatandoshlardan biri mustamlakachilikning imperiya va sovetlar davrini solishtirib quyidagicha keltiradi: “1916-yilda general Kuropatkin: “Turkistonliklar o‘z mahalliy va milliy manfaatlarini rusiya va buyuk rus xalqining manfaatlari bilan bir qatorda qo‘ya olmaslar. Rusiya eng avval ruslar uchun...” degan edi. Kuropatkinning bu so‘zlarini Moskva bolsheviklari “qizil bo‘yoq”ga bo‘yab, tubandagicha so‘ylaydilar: “Siz o‘z mahalliy va milliy manfaatlaringizni inqilob markazi ya’ni Rusiya manfaati bilan bir tekislikda qo‘ya olmaysiz. Rus inqilobchi proletariatining manfaatlari hammadan oldinda...” (SHovinizm to‘g‘risida // “Yaş Türkistan”. 1930 yil yanvar. № 1.–B.2-3. Nashrga tayyorlovchi Ayaz Tahir. 1-cild (1-13 sayilar). – Istanbul. 1997).

Millat fidoyilari tomonidan Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzilganida “millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi” sovetlar uchun yot tushunchaga aylandi. Turkiston Muxtoriyati vahshiylik bilan qonga botirildi. Bu sovet hokimiyati milliy siyosatida “hech kim va hech qachon o‘zboshimchalik bilan sovet andozasisiz davlat barpo etolmaydi” degan maqsadni ko‘zda tutardi. Turkiston Muxtoriyati sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi va boshqaruvda mahalliy rahbarlarning jalb etilmasligi natijasida milliy masalada chigal vaziyat yuzaga keldi.

O‘lkaning tub aholisi va ularning siyosiy yo‘lboshchilari uchun bolsheviklarning hukumat tuzilmalari xatti-harakatlarida milliy mentalitetga yot bo‘lgan davlatchilikni joriy qilish uchun oshkora intilishini yaqqol ko‘rgach, milliy masalani tinch yo‘l bilan hal etish imkoniyati tugadi.

Sovet hokimiyati Turkiston Muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, Turkiston hududida o‘ziga xos sovet namunasidagi avtonomiyani tashkil etishga kirishdi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – Turkistonning kelajakda mustaqil, suveren davlat bo‘lib, alohida ajralib chiqib ketishiga yo‘l bermaslik edi. Ana shu maqsadda I.V.Stalinning P.A. Kobozev nomiga yuborilgan telegrammasida o‘sha paytning muhim vazifasi ko‘rsatib o‘tildi. Bunda “sovet hokimiyatining navbatdagi vazifasi avtonomiyani inkor etish emas, balki e‘tirof qilishdir. Faqat bu avtonomiyani joylarda sovetlar negizida tuzish zarurligi” ta’kidlangan edi.

1918-yil 20-aprel kuni Toshkentda Turkiston Sovetlarining V s‘ezdi ochildi. Nihoyat, 30 aprel kuni s‘ezd RSFSR tarkibida Turkiston Sovet Avtonom Respublikasini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi va “Turkiston Sovet Respublikasi to‘g‘risida Nizom”ni tasdiqladi. Turkiston Sovet Avtonom Respublikasining tuzilishi sovet tarixshunosligida milliy masalaning hal qilinishidagi dastlabki g‘alaba, deb baholandi.

Turkiston Sovetlarining VI s‘ezdida (1918-yil 5 – 14-oktyabr) RSFSR Konstitutsiyasi asosida “Turkiston ASSR Konstitutsiyasi” qabul qilindi. Konstitutsiyada mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishlari, temir yo‘l, bojxona, savdo, sanoat va moliya masalalari

Federal hukumat ixtiyorida qoldirilganligi alohida ta'kidlandi, ya'ni davlat boshqaruvining barcha tarmoqlari qonuniy ravishda Markazga bo'ysundirildi. Bu "avtonomiya" tabiatan milliy muxtoriyat bo'lmay, balki hududiy bir avtonomiya edi. Buning ustiga, ushbu "muxtoriyat" samaralaridan birinchi galda o'lkadagi evropalik aholining asosan proletar qismi foydalandi.

1919-yil sentyabrida Turkiston Kommunistik partiyasining favqulodda chaqirilgan IV s'ezdida Turar Risqulov sovet milliy siyosatining Turkistonda yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida keskin fikr bildirgan edi: "Turkistondagi proletar inqilob ajoyib jihatlari bilan birga katta xatolarga ham yo'l qo'ydi. Bunga asosiy inqilobchi – namoyandalarning mahalliy aholi turmushi va shart-sharoitlari bilan tanish bo'lmaganligi sabab edi. Shu bois olib borilgan siyosatning normal xarakterga ega emasligi, keyinchalik qayd etilgan hatolarga sabab bo'ldi. Sovet hokimiyatining inqilobga qarshi bo'lgan kuchlar bilan kurashishi uning ushbu hududda sovet tuzumining qurilishiga katta zarar etkazdi. Qo'qon muxtoriyatining barbod qilinishi hamda Buxorodagi voqealar musulmonlar uchun sovet hukumatining salbiy jihatlari fosh qildi. Ushbu voqealarda siyosiy rahbarlar bir qator tuzatib bo'lmay xatolarga yo'l qo'yishdi. Natijada ular tinch yashayotgan musulmon aholiga fojialar keltirdi, yangi frontlar, masalan, Farg'ona frontining paydo bo'lishiga olib keldi".

Ta'kidlash joizki, Turkiston o'lkasi boshqaruvining dastlabki yillarida Markazdan kelgan rahbarlar mahalliy kadrlarga ishonmaslik siyosatini yuritib keldilar. Erli aholi, uning ko'zga ko'ringan namoyandalari, ayniqsa, milliy ziyolilarga xusumat bilan qaraldi. Tub erlik xodimlar, jumladan, yuqori lavozimlardagi arboblarning faoliyati qattiq nazorat qilindi.

1919-yil 12-fevralda RSFSR Milliy ishlar xalq komissari I.V. Stalin Turkiston sovetlariga va partiya tashkilotlariga murojaat qilib, mahalliy millat vakillarini davlat qurilishiga tortish zarurligini ko'rsatib o'tdi. Shu paytgacha Turkiston sovet hukumati tarkibiga birorta mahalliy millat vakillari kiritilmagan bo'lib, bu holat Turkistonda sovet

hokimiyati o'rnatilgandan keyin tubjoy aholidan milliy rahbar xodimlar olinmaganligini anglatadi.

RKP (b) ning VIII s'ezdi ketayotgan kunlarda Toshkentda Turkiston Kompartiyasining II konferensiyasi va respublika Sovetlarining Favqulodda VII s'ezdi bo'lib o'tdi. Turkiston Kompartiyasining II konferensiyasi (1919-yil 13 – 31-mart) qarorlariga asoslanib mahalliy mehnatkashlarni sovet hokimiyati organlariga tortish choralari belgilab berildi. Yerli aholi orasida ishlarni kuchaytirish uchun konferensiya Turkiston Kompartiyasining O'lka komiteti huzurida Musulmonlar byurosi (Musbyuro) tuzishga qaror qildi. 1919-yil aprelida O'lka komiteti kommunistik g'oyalarni erli aholi orasida tashviqot qilishni, ular orasida partiyaviy ish olib borishni tashkil etish hamda bu ishlarga rahbarlik qilish uchun Turkiston Kommunistik partiyasining O'lka komiteti huzuridagi yordamchi organ sifatida tuzilgan Musbyuro to'g'risidagi Nizomni tasdiqladi. Turkiston Kompartiyasining O'lka komiteti huzuridagi Musulmonlar byurosi (Musbyuro) tarkibiga mahalliy kadrlardan A. Muhiddinov, N. Xo'jaev, T. Risqulov, Yu. Aliev va Yu. Ibrohimovlar kiritildilar.

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda milliy respublikalardagi boshqaruv tizimiga erli kadrlarning jalb etilmaganligi va mahalliy tillarda ish yuritilmaganligi sababli qator muammolar yuzaga keldi. Buning oldini olish maqsadida bolsheviklar tomonidan davlat idoralarini mahalliy aholiga yaqinlashtirish rejasi hisoblangan "mahalliyashtirish" siyosati hayotga tadbiq etildi. Sovet mafkurasiga xizmat qiladigan mahalliy kadrlarga ehtiyoj tug'ilganligi sababli tub aholidan kommunistlar tayyorlash va ularga o'z ona tilisida ta'lim olishi hamda ish yuritishiga ruxsat berilishi lozim bo'ldi.

RKP (b)ning X va XII s'ezdlarida sovet milliy siyosatidagi davlat idoralarini mahalliyashtirishning nazariy asoslari keltirib o'tilgan. 1921 yil martida RKP (b) X s'ezdining milliy masalaga doir qarorida davlat qurilishining hamma sohalarida millatlar va irqalar teng huquqli ekanliklarini, ularning erkin rivojlanishini ta'minlash kerakligi ta'kidlangan. Biroq bolsheviklar partiyasining s'ezdida bildirilgan bunday adolatli fikrlar hayotda o'z ifodasini butunlay teskari

topdi. Bolsheviklarning o'zi milliy masalada ikki yoqlama siyosat yuritib, asosan Markaz manfaatlarini himoya qilishdi.

RKP (b) X s'ezdining milliy masala to'g'risidagi qarorida hokimiyat va boshqaruv organlarida milliy vakillikni kengaytirish, diniy marosimlarni bajarish uchun nisbatan qulay sharoit yaratish, milliy kamsitishning ekstremistik shakllariga qarshi kurashni avj oldirish haqida ko'rsatma berildi. Ayni vaqtda sovet hokimiyatining siyosiy mavqeini yaxshilash va partiyaning milliy chekka o'lkalardagi keng mehnatkashlar ommasi o'rtasida obro'-e'tibor qozonishi maqsadida s'ezd Rossiya imperiyasi davrida ezilgan xalqlarning "asriy iqtisodiy va madaniy qoloqligini tugatish va ularning taraqqiy qilgan xalqlar yordamida haqiqiy tenglikni, mustamlakachilik sarqitlari" to'liq barham topishiga erishish vazifasini ilgari surdi. SHuningdek, s'ezd Rossiya tarkibida bo'lgan 30 million atrofidagi turkiy aholi hisoblangan Ozarbayjon, Turkistonning katta qismi, Tatariston, Boshqirdiston, Buxoro, Xiva, Dog'iston va boshqa hududlarda yashovchi kam sonli millatlarni sovet qurilishiga tortish masalasini muhokama qilgan.

Bu davrda bolsheviklar tomonidan milliy siyosatda keng ko'lamli va yangi g'oyalarni o'zida ifodalagan taktika ilgari surildi. Bolsheviklar etakchisi V.Lenin milliy respublikalarning ixtiyoriy ravishda sovet davlati tarkibida bo'lishi haqida dunyo jamoatchiligini ishontirishga urinmoqda edi. SHuning uchun bolsheviklar milliy masala bo'yicha "qizil gvardiyachilarga xos hujum" siyosatidan voz kechib, qisman kelishuv va yon berishlar yo'lini tutdi. Ammo, bolsheviklarning strategik milliy dasturida o'zgarishlar yuz bermadi. Markaziy hokimiyat avvalgidek kommunistik imperiya qurish yo'lini tutgandi. Uning ijtimoiy-siyosiy maqsadini amalga oshirish uchun barcha ma'muriy kuchlar safarbar qilindi. Sovet davlati rahbarlarining asosiy tashvishi bu milliy respublikalarni RSFSR ga bog'lab qo'yish va shu bilan birgalikda ularni yangi Rossiyaga anneksiyasiz qo'shib olishdan iborat edi. SHuning uchun Lenin to'g'ridan-to'g'ri hujum qilish usulidan voz kechdi. 1921-yil oktyabr oyida u bu masala bo'yicha "to'g'ridan-to'g'ri hujum qilish natija bermadi, endi aylanib o'tish orqali qamal qilish yo'lini tutamiz" deb aytgan ed.

1923-yil iyun oyida RKP(b) XII s'ezdida asosiy e'tibor milliy masalaga qaratildi. Sovet mafkurasini mahalliy aholi ongiga singdirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bolsheviklar ish yuritish tili va kadrlar masalasidagi taktikada biroz o'zgarish yasadilar. Bunda mahalliy millat vakillaridan bolsheviklarni tayyorlash va ular qo'li bilan mamlakatni boshqarish nazarda tutilgan edi. SHuningdek, s'ezd qarorida milliy respublikalarda marksistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi to'garaklarni tashkil etish, markaziy komitet oldida mahalliy ishchilardan partiyaning instruktorlik bo'limini tuzish, partiyaning tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, joylardagi sovet mafkurasiga xizmat qiluvchi universitetlarni ochish, har bir xalqning ona tilida adabiyotlar chop ettirish va ish yuritishni mahalliy tillarda olib borish keltirib o'tilgan.

Mazkur s'ezdda I.V.Stalin tomonidan so'zlangan "Partiya va davlat qurilishida milliy momentlar" mavzusidagi tezislarda belgilab qo'yilgan milliy chekka o'lkalar aholisini kamsitishga, tahqirlashga, milliy tili, dini, urf-odati, qadriyatlari, milliy o'zligidan mahrum qilishga asoslangan aldamchi "haqiqiy milliy tengsizlikni yo'q qilish – milliy zulm va mustamlaka qulligining barcha qoldiqlariga g'ayrat va sabot bilan kurashish" davri boshlanganligi qayd etilgan.

RKP(b) XII s'ezdi sovet idoralarini milliylashtirish hamda madaniy qurilish masalalarini partiya milliy siyosatining asosiy masalalari qatoriga kiritdi. SHu nuqtai nazardan O'rta Osiyo respublikalarida sovet idoralarini mahalliylashtirish va madaniy qurilish masalalari muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat idoralarini mahalliylashtirish siyosatining nazariy asosida keltirilishicha, proletariat hokimiyati rus dehqonlariga qadrdon bo'lganidek, milliy dehqonlar uchun ham qadrdon bo'lishi zarur edi. Milliy dehqonlarga ham sovet hokimiyati qadrdon bo'lishi uchun ularning maktablari, sud va boshqa hokimiyat organlari mahalliy aholi tilida olib borilishi lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, davlat idoralarida mahalliy aholining fe'lini, odatlarini, turmushini yaxshi bilgan milliy kadrlarni tayyorlash zarurligi e'tirof qilingan.

2. Milliy kadrlar masalasi va davlat idoralarini mahalliylashtirish (o'zbeklashtirish) siyosati. 1923-yil 8-iyunda Butunittifoq MIK

Prezidiumi tomonidan qabul qilingan 50-raqamli qarorga ko'ra Sovet Ittifoqi tarkibidagi milliy respublikalarda davlat boshqaruvini rus va mahalliy tillarda olib borishga ruxsat berildi. SHu asnoda Markaz barcha sovet davlati tarkibida bo'lgan milliy respublikalarda davlat idoralarining mahalliyashtirilishini qonunan kafolatladi.

XX asrning 20-yillarida Turkiston mintaqasida bolsheviklar tomonidan tatbiq etilgan mahalliyashtirish siyosati bu –davlat qurilishi ishlariga mahalliy millat kishilarini keng jalb qilishhamda ish yuritishda rus tili bilan parallel ravishda boshqa mahalliy tillarda olib borishning joriy qilinishi edi. “Mahalliyashtirish” tushunchasi arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallarida turli nomlar bilan keltiriladi. Masalan, “erlilashtirish”, “tubjoylashtirish”, “musulmonlashtirish”, “milliyashtirish” va “o'zbeklashtirish” iboralari mahalliyashtirish so'zi bilan aynan bir ma'noda qo'llanilgan. 1925-1929-yillarda O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston ASSRda mahalliyashtirish “tojiklashtirish” deb ham nomlandi. Bu haqida 1927-yil 16– 24 noyabrda Samarqandda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyasining III s'ezdida “Davlat apparatini milliyashtirish va erli millat ishchilarini ishlab chiqarishga jalb qilish to'g'risida”gi qarorda ko'rsatib o'tilgan. SHuningdek, Sovet Ittifoqi tarkibidagi boshqa milliy respublikalarda ham bu jarayon Turkiston o'lkasidagidek olib borildi. Masalan, Ukrainada davlat idoralarini “ukrainlashtirish”, Yakutiya ASSRda “yoqutlashtirish”, Tatariston ASSRda “tatarlashtirish” va boshqa hududlarda ham o'zining mahalliy nomi bilan, umumiy nomda esa “mahalliyashtirish” deb atalgan.

1923-yil yanvaridan Turkiston ASSR hukumati barcha rasmiy ishlarni mahalliy ya'ni o'zbek, qirg'iz va turkman tillarda olib borishga ruxsat berdi. Hukumat rahbarlaridan biri Sultonbek Xo'janov esa butun komissarliklarda hujjatli ishlarning mahalliy tillarda olib borilishini nazorat qildi. Ayni shu paytda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi uezdlardagi barcha muassasalarda hujjat ishlarini mahalliy tillarda olib borgan kishilarning maoshini oshirish haqida qaror qabul qilgan.

Turkiston ASSR hukumati tomonidan davlat idoralarini mahalliyLashtirish ishini samarali tashkil etish borasida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. 1923-yilning 5-yanvarida Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 3-raqamli va 29-avgustdagi 130-raqamli hamda shu yilning 15 avgustida Turkiston XKSning qabul qilgan 124-sonli qarorlari shular jumlasidandir. SHuningdek, respublikada ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishni boshlashva boshqaruvda mahalliy kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida 1923-yilning 15-avgustida "Markaziy mahalliyLashtirish komissiyasi" deb nomlangan maxsus komissiya ta'sis etildi. Xuddi shunday komissiyalar Turkiston mintaqasining sovet respublikalari hisoblangan BXSr va XXSRda ham tashkil etilgan.

Davlat idoralarini mahalliyLashtirish komissiyasi vazifa va vakolatlariga ish yuritishni mahalliy tillarda olib borishni nazorat qilish, boshqaruvga erlik aholini jalb qilish, ularning manfaatlarini himoya qilish, huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini ishlab chiqish hamda tajribachilarni tayyorlab ularni turli muassasalarda ish bilan ta'minlash ham kiritildi. Ammo, milliy respublikalarda mahalliyLashtirish ishlarining olib borilishi evropa millatiga mansub xodimlar tomonidan yaxshi qabul qilinmadi. Ular muassasalarda mahalliy aholiga mansub kishilarning ishlashiga ochiqdan-ochiq qarshi ekanliklarini namoyon qildilar. Bu haqida Turkiston ASSR mahalliyLashtirish komissiyasining bir yillik hisobotida qayd etilgan: "Tabiiyki, idoralarni erlilash-tirish masalasiga mustamlakachilik ruhi bilan sug'orilgan va idora ustalini o'zining qonun haqqi deb sanagan ba'zi bir ovro'polik afandilarning zo'r to'siq bo'lib chiqishlari avvaldan sezilgan edi. Bunday unsurlar bilan kurashib erlilashtirish masalasini jonlantirish mazkur idoradagi mas'ul ishchilarning asosiy vijdonli vazifalaridir. Natijada yuqoridagi to'siqchilar bilan yolg'iz erlilashtirish komissiyasining o'zigina kurashib keladi".

1923-yilning 12-dekabrida RSFSR Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti Turkiston mintaqasidagi sovet respublikalarida ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishni tezlashtirish bo'yicha qaror chiqardi. Mazkur qarorda qisqa muddatdamintaqadagi

Turkiston ASSR, BXSr va XXSR hududidagi barcha davlat organlarida ish yuritishni parallel ravishda mahalliy tillarda olib borish hamda erli aholini faol ravishda sovet qurilishiga jalb qilishni kuchaytirish lozimligi belgilandi. Biroq mazkur qarorda davlat idoralarini mahalliyalashtirishga o'tish muddatlari, qoidalar va tartiblari ko'rsatilmadi.

O'zbekiston SSRning tashkil etilishi arafasida Inqilobiy qo'mita (Revkom) tomonidan 1924-yilning 31-dekabrida volost va uezdlarda (istisnosiz barcha tashkilotlarda) ish yuritishni faqat o'zbek tilida yuritish to'g'risidagi 48-raqamli qaror qabul qilindi. Bunda sobiq Turkiston ASSR MIKning 1923-yil 29-avgustdagi 130-sonli qarori o'z kuchida qolganli ta'kidlangan. Shuningdek, mahalliyalashtirish komissiyasiqayta tashkil etilib, O'zbekiston Inqilobiy Qo'mitasi huzuridagi "Davlat apparatini mahalliyalashtirish komissiyasi" deb nomlangan.

Sergo Orjonikidze 1927-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan VKP(b)ning XV qurultoyida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi Sho'ro hokimiyati boshqaruv apparatining 61,9 foizini ruslar, faqat 24,7 foizini erli millat vakillari tashkil etganligini tan olib aytishga majbur bo'lgan edi. Buning tasdig'i sifatida O'zbeklashtirish komissiyasining 1927 yil hisobotida keltirilgan barcha komissarliklar va boshqarmalarda faoliyat yuritayotgan xodimlar ichida mahalliy kadrlar salmog'iga to'xtalish joizdir. Jumladan, O'zSSR Markaziy hisobot boshqarmasida 80 nafar umumiy xodim bo'lib, shundan 1 nafar mahalliy evrey (yahudiy) o'zbek tilida ish yuritgan. O'zSSR Moliya xalq komissarligi markaziy apparatida 207 nafar xodimdan 22 nafari o'zbek bo'lib, o'zbeklashtirish 10,6 foizni tashkil etishi, ish yuritish esa 100 foiz rus tilida olib borilayotganligi qayd etilgan. O'zSSR Ichki va tashqi savdo xalq komissarligida 52 nafar xodimdan 2 nafari o'zbek bo'lib, ulardan biri komissar, ikkinchisi kollegiya a'zosi hisoblangan. O'zbekiston Ijtimoiy ta'minot xalq komissarligida 13 nafar xodimdan 3 nafari mahalliy kadrlar bo'lib, ular komissar, komissar noibi va tarjimon bo'lgan. O'zbekiston adliya xalq komissarligi markaziy apparatida shtat bo'yicha 37 nafar xodimdan 6 nafari o'zbek bo'lib, mahalliy kadrlarning salmog'i 16 foizni tashkil etgan. YUqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan

ko‘rinadiki, markaziy boshqaruv organlarida mahalliy kadrlar birinchi va ikkinchi rahbar lovozimini egallagan bo‘lsa-da, shtat tarkibida mahalliy xodimlarning salmog‘i juda past bo‘lgan.

Markaziy o‘zbeklashtirish komissiyasiga evropa millatiga mansub kadrlar ustidan ham e‘tirozlar kelib tushgan. Bu erda so‘z O‘zbekiston SSR Ishchi-dehqon xalq komissarligida tarjimonlik vazifasida ishlagan va noma‘lum sabablar bilan ishdan olingan Azamatovning o‘rniga qo‘yilgan Guze haqida keltiriladi. Guze mazkur komissarlikka tarjimonlik lavozimiga kelmasdan bir yarim oy muqaddam O‘zbekiston SSR MIK tashkilot shu‘basiga 15 kunlik sinov sharti bilan tarjimonlik vazifasiga qo‘yilgan. Lekin 15 kunlik sinov natijasida o‘zbek tilini yaxshi bilmaganligi sababli tarjimonlik vazifasiga munosib topilmasdan ishdan bo‘shatilib yuborilgan. Biroq u tez orada O‘zbekiston SSR Ishchi-dehqon xalq komissarligida faoliyatini boshlagan. Guze markaziy idoralar tomonidan mahalliy muassasalarga yuboriladigan topshiriqlar va qo‘llanmalarning ikki tildagi o‘zbekcha qismini o‘zbek tilida yo‘q so‘zlar bilan yozib, imlo qoidalariga amal qilmagan. Bu haqida xabar topgan O‘zbeklashtirish komissiyasi mazkur komissarlikka tarjimonning mas‘uliyatli vazifa ekanligini va Azamatovni komissiya bilan kelishmasdan xizmatdan bo‘shatganligi sababini tushuntirishni so‘ragan. O‘zbekiston SSRdagi barcha muassasalarda mahalliy kadrlarni lavozimidan bo‘shatish paytida 1926-yilning 14-martdagi Markaziy o‘zbeklashtirish komissiyasining yo‘riqnomasiga amal qilishi belgilangan edi. Bunda “agarda erlik ishchi ba’zi sabablar bilan ishdan bo‘shatilishi yoki uning o‘rni qisqartiriladigan bo‘lsa mahalliy lashtirish komissiyasi bilan muvofiqlashtirilsin” deb ko‘rsatilgan edi. Afsuski, O‘zbekiston SSR Ishchi-dehqon xalq komissarligi bunga amal qilmadi va mahalliy kadrlarning manfaatini himoya qilish o‘rniga layoqatsiz xodimni ishga qabul qilgan. Ta’kidlab o‘tish joizki, davlat idoralarini mahalliy lashtirish jarayoni ketayotgan bo‘lsa-da, rusiyzabon kadrlarga hech qanday to‘siq qo‘yilmagan.

1928-yil 31-mayda Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) tomonidan Butunittifoq Kommunistlar (bolsheviklar) partiyasi Markaziy Komitetiga yuborilgan O‘zbekistondagi siyosiy kayfiyat

to'g'risida ma'lumotlar berilgan "O'zbek intelligensiyasi orasida shovinizmning rivojlanishi va o'sishi haqidagi agenturaning hujjatli ma'lumotlari" nomli hisobotda mahalliyashtirish, pano'zbekizm, antisovet targ'iboti va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Bunda milliy manfaatlarni himoya qilib chiqqan vatanparvarlarning mahalliyashtirish siyosatining bir yoqlama olib borilayotganligi haqidagi fikrlari keltirilgan. Jumladan, Munavvar Qori Abdurashidxonov: "Evropaliklarning o'zlari mahalliyashtirish g'oyasini o'zlari inkor qilishadi: mahalliy xodimlarni lavozimlarga tayinlashadi, lekin "mos emas" deb ularni tez haydashadi, milliy kadrlarni tayyorlashmaydi. Bilimli insonlar "ideologiya" sababli chetlashtiriladi, ruslarga esa hech qanaqa to'siq qo'yishmaydi".

Ushbu hisobot materiallarida mahalliyashtirish masalasiga milliy matbuotning munosabati ham o'rganilgan. Jumladan, "Mushtum" jurnalida keltirilgan maqolada shunday deyilgan: "O'zbek davlat kinosida bor-yo'g'i 1ta qorovul o'zbek. Garchi mahalliyashtirish favqulodda masala bo'lsa ham lekin unga intilsang millatchilik aybini olasan...". 1928-yili Toshkent okrugining sovet apparati va sanoatni o'zbeklashtirish masalasi bo'yicha 2-o'lka konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda sovet davlati qurilishiga mehnatkashlarni jalb qilish borasida mahalliy millat vakillaridan proletar kadrlar tayyorlash va ularning sovet jamoatchilik tashkilotlarida mahalliy aholi manfaatlariga xizmat qilishiga erishilgani ta'kidlandi. Bular bilan bir qatorda partiya konferensiyasida sanoat va sovet idoralarini mahalliyashtirish bo'yicha amaliy ishlarda ayrim kamchiliklar borligi ham ta'kidlangan. Jumladan, a) sovet apparatiga mahalliy millat ishchilarini jalb qilish etarli emasligi; b) mahalliy aholi orasida ko'p ishsizlik mavjudligi sharoitida mahalliy ishsizlarning rejali hisobi olib borilmaganligi; v) sovet apparati va sanoatida xizmat qiladigan mahalliy aholi va ularning manfaatlariga xizmat qiluvchi ishchilar malakasini oshirish masalasiga ayrim tashkilot hamda muassasalar rahbarlari tomonidan etarli e'tibor qaratilmaganligi; g) mahalliy aholi orasida malakali mutaxassis ishchi kadrlar (agronom, vrach, injener, yurist konsultantlar) mavjud emasligi hamda malakali ishchi kadrlar juda kamligi ko'rsatib o'tilgan. Bundan ko'rinadiki,

davlat idoralarini mahalliyashtirish va ish yuritishni o'zbek tilida olib borish ishlari puxta tashkil qilinmagan. Bunga mas'ul bo'lgan mutassaddi rahbarlar ham ishga panja orasidan qaraganligini arxiv hujjatlari misolida ko'rish mumkin.

Mahalliyashtirish ishlari etarlicha nazorat qilinmaganligi va ba'zi evropa millatiga mansub rahbarlarning e'tiborsizligini oqlash maqsadida Rossiya kommunistlar partiyasi O'rta Osiyo byurosining boshlig'i Zelenskiy shunday degan edi: "Ko'p o'rtoqlar mahalliyashtirish deganda butun idora ishlarini erli xalqqa topshirish deb, yoki ularning hukumat apparatida miqdoriga munosib suratda qatnashishlari deb anglaydilar. Bu usulda ma'no berish milliy shovinizm ko'rinishidan boshqa narsa emas. Mahalliyashtirish hukumat apparatini erli xalq manfaatiga yaqinlashtirishdan boshqa narsa emas. Bu yaqinlashtirishga ruslar tomonidan erli xalq tilini o'rganish yo'li bilan ham erishish mumkin". Demak, sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan milliy siyosatida yangi hisoblangan davlat idoralarini mahalliyashtirish masalasi ham bolsheviklar foydasiga xizmat qilishi belgilangan edi.

1928-yil 11-dekabrda SSSR MIK IV sessiyasi yig'ilishida Sh.Eliava O'zbekiston SSRda faoliyat yuritayotgan mahalliy kadrlar faoliyatiga ishonchsizlik bildirib, chetdan rusiyzabon kadrlarni olib kelishni kun tartibiga qo'yadi. Uning so'ziga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida ishchi proletariati yo'q. O'zbekistonda proletariat – bu juda noaniq kategoriya... U erda malakali ishchilar yo'q. Agar u erda shunday ishchilarning bo'lishini istasak chetdan rus va ukrainlardan ko'proq kadrlarni olib borishimiz kerak" deydi. O'zbekiston SSRda davlat idoralarini mahalliyashtirning uch yillik rejasi asosida erli millatga mansub kadrlar tayyorlanayotgan bu paytda yuqoridagi taklif mantiqsiz ko'rinaradi. Ammo, ilgorigidek Rossiya, Ukraina va boshqa sovet respublikalaridan O'zbekiston SSRga "tajribali" kadrlar muntazam jo'natilib turildi.

Bu haqda xorijda yashagan muhojir turkistonliklar tomonidan nashr etilgan "Yaş Türkistan" jurnalida quyidagi ma'lumot keltiriladi: "Er ishlari xalq komissarligi Rossiya va Ukrainaning yuksak maktablaridan 170 talaba bilan mahda (shartnoma – O.R.) tuzdi. Bu

talabalar maktablarini bitirgach, O'zbekistonga uzoq muddat ishlash uchun kelajaklar... Bu yil mahda qilingan talabalarning ta'minoti uchun 120 ming so'm berilgan. Ta'minot kishi boshiga oyiga 50 so'm bilan 120 so'm orasida ta'min etilgan...". Maqola muallifi o'z so'zini shunday tugatadi: "Mana Turkistonda sovet hokimiyatining erlilashtirish siyosati!".

"Yash Turkistan" jurnalining deyarli barcha sonlarida O'zbekiston SSRda milliy kadrlar tayyorlanishi borasida maktab va dorilfununlarning tutgan o'rni ham o'rganilib borilgan. Jumladan, O'zbekiston Kommunistik partiyasi a'zosi Rajab o'g'lining qurultoyda so'zlagan fikri keltiriladi: "O'rta Osiyo dorilfununi o'quvchilarining milliy tarkibi qanoatlanarlik emas. Dorilfunundagi 4-5 ming talabaning 7 ½ qismi, ya'ni 300 – 375 tasi erlilarga to'g'ri keladi. 3 yillik sinov kurslarida ovro'poliklar yuzdan 81 nafarni tashkil etadilar. Sinov texnikumlarida 1928 yili ovro'poliklar yuzdan 65 nafar edi. Bu yil esa yuzdan 71 ga chiqib qoldi..." Darhaqiqat, mahalliyashtirish juda muhim masala sifatida qaralib turilgan bo'lsa-da, ta'lim tizimiga bunga etarli e'tibor berilmadi. Asosan evropa millatiga mansub kadrlar tayyorlanib, milliy kadrlar etishtirish salmog'i tushib ketdi. Davlat boshqaruvi uchun evropalik kadrlar nafaqat bu erda, balki boshqa sovet respublikalarida ham tayyorlandi.

O'rta Osiyo dorilfununi Ziroat fakultetidagi 950 talaba orasidan 50 nafarga yaqini mahalliy millat vakillari bo'lgan. Bu ham so'nggi uch yil ichida O'rta Osiyo dorilfununining mahalliyashtirish uchun olib borgan og'ir kurashlari natijasidagina yuzaga chiqqan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston SSRda bolsheviklar mahalliyashtirishda ikki tomonlama siyosat yuritgan. Ilgarigidek chetdan evropa millatiga mansub kadrlar kelishining davom etishi, mahalliy xodimlarga ishonmaslik va ularga qo'yilgan to'siqlarni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi.

Davlat idoralarini mahalliyashtirish jarayoni olib borilayotgan paytda mahalliy millat vakillaridan ayol kadrlar tayyorlash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Mahalliy ayollarni sovet qurilishiga jalb qilish masalasi ham muhim hisoblanib, ulardan quruvchi, to'quvchi, tikuvchi, oshpaz, suvchi, nashriyot xodimi, mashinist, temiryo'l xodimi, transport,

aloqa xizmati xodimi, tibbiyot mehnatida, ya'ni hamshira, tozalovchi hamdaqishloq xo'jaligida ishchi xodimlar tayyorlangan. 1925 yil 1 oktyabrda mahalliy ayol ishchilar 1572 nafar bo'lgan bo'lsa 1927 yil 1 aprelda 2604 nafarga etgan. Bu paytda respublikadagi barcha ayol ishchilar soni 29532 nafar bo'lganini hisobiga mahalliy ishchilar 8,8 foiz (2604)ni tashkil etgan. Toshkent shahrida joylashgan "O'rtoq" fabrikasidagi ayol ishchilar ichida mahalliy ayollar 1928 yili 1 oktyabr holatida 3,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1929 yil 1 iyuldagi ma'lumotga ko'ra 4,2 foizga o'sgan.

1929-yil 17-fevral – 2-martda Samarqandda Kommunistik partiyaning IV s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda partiya saflarida ijtimoiy jihatdan yot, suqilib kirib olgan va buzuv elementlardan tozalashga keng tayyorgarlik ishlarini avj oldirib yuborish tavsiya etildi. Shu asnoda O'zbekiston SSRda boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlarida "tozalash" boshlandi.

O'zbekiston SSRning 30-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti sovet zo'ravonlik tuzumining mustahkamlanishi, shaxsga sig'inish avjga chiqqan sharoitga to'g'ri keldi. Partiya hayotning butun ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy-madaniy sohalarini boshqarishni o'z qo'liga oldi. Rahbar xodimlarga shubha bilan qarash, "xalq dushmanlarini" aniqlash va hibsga olish, turli "muxolifat" guruhlarini fosh qilish kuchaydi. 1929-yilda o'tkazilgan "tozalash" natijasida O'zbekiston Kompartiyasi a'zolarining 25,6 foizi firqadan chiqarildi. Mazkur "tozalash"da partiya a'zolarining "aksilinqilobiy tashkilotlar" bilan aloqasi tekshirilishi bahonasida ko'plab mahalliy kadrlarga bo'hton toshlari yog'dirildi. Ba'zi mahalliy kadrlar esa bolsheviklarning zo'ravonligi natijasida bu holatdan talvasaga tushib, partiya oldida sodir etmagan "ayblarini" tan olishga o'tdilar. Kommunistik partiya saflarini "tozalash" ishlariga boshchilik qilgan bolshevik Petersning "Partiya ikkiyuzlamachilikka chidab tura olmaydi" nomli nutqida Yoqubov ismli shaxs uning oldiga kelib maslahat so'raganini keltirib shunday deydi: "Yoqubov meni oldimga kelib yaqinda tozalashdan o'taman, men partiya a'zosi bo'lganim holda "aksilinqilobiy" tashkilotga a'zo bo'lib kelgandim. Shularni tozalash oldida ochib berishim lozimmi deb so'radi. Men unga

bu tashkilotga qanday qatnashganingizni xarakterlab o‘z xatolaringizni tanqid qiling dedim”. Ba’zi hollarda sodir etmagan aybini tan oldirish usuli sifatida soxta guvohlardan foydalanildi. Sovet matbuoti esa bunday holatlarni bo‘rttirib ko‘rsatishga o‘tib, millatning ilg‘or qatlamiga “xalq dushmani” sifatida siyosiy tus berdi. Milliy rahbarlarga “o‘z xatolarini keng tanqid qilishni istamagan”, “xatolarini partiyadan bekitgan”, “partiyadan sir tutgan narsalari bor”, “partiyaga qarshi alohida planlari bor” kabi asossiz ayblar qo‘yildi.

Mahalliy kadrlar orasida sovet tuzumiga muxolif bo‘lib, milliy haq-huquqlarni qaytarib olish uchun kurashgan yashirin siyosiy tashkilot a’zolari ko‘pchilikni tashkil etgan. 1930-yilda “aksilinqilobiy tashkilotlar”ning tugatilganligiga bag‘ishlangan yig‘ilishda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov shunday deydi: “Bu aksilinqilobiy tashkilotning boshliqlaridan Munavvar Qori aytadi: “Bizning maqsadimiz sho‘rolar hokimiyatini O‘zbekistonda yiqitish edi. Mayli sho‘rolar hokimiyati yana 5–6 yil davom etsin, bu oraliqda biz o‘z kuchlarimizni tayyorlaymiz, keyin esa bir harbiy to‘qnashuv bo‘lajak va biz ham hokimiyatni o‘z qo‘limizga olajakmiz...”

Bolsheviklar milliy siyosatida 1925–1931-yillar mavjud tuzumning kirdikorlarini fosh etgan mahalliy kadrlarni boshqaruvdan tozalash va ularni qatag‘on qilinishidagi dastlabki bosqich bo‘ldi. Bu paytda boshqaruv tizimida ayniqsa maorif, sud-huquq sohasida faoliyat olib borayotgan mahalliy kadrlarga keng huquq bermaslik va ularning o‘rnini evropa millatiga mansub xodimlar bilan almashtirish eng muhim hisoblandi.

O‘zbekiston Kompartiya tomonidan “aksilinqilobiy kuchlar”, “teskarichilar” nomlari bilan soxta o‘ylab topilgan “18 lar guruhi”, “qosimovchilik”, “inog‘omovchilik”, “badriddinovchilik” kabi “antipartiyaviy guruhlar” nafaqat O‘zbekistonda, balki O‘rta Osiyoning boshqa sovet respublikalari: Turkmanistonda – “otakurovchilik”, “nepesovchilik”, Qirg‘izistonda – “abdurahmonovchilik”, Tojikistonda – “xo‘jaboevchilik” va “maqsumovchilik” nomlari bilan qayd etildi.

Ta'lim sohasini "sinfiy dushmandan" tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi. Masalan, VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi 1933-yil 27-martda o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qiladi va uning dastlabki natijalari shu yilning 25-aprelida bo'lib o'tgan O'rta Osiyo bo'yicha partiyaning madaniy sohaga bag'ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bu "tozalash" natijasida birgina Qoraqalpog'iston bo'yicha mavjud 700 o'qituvchidan faqat 120 tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topildi.

O'zbekistonda sovet boshqaruvi tizimida davlat idoralarini mahalliyashtirish siyosati 3 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1923 – 1927-yillarni o'z ichiga olib, bunda asosan ish yuritishni mahalliy tillarga o'tkazishga harakat qilish bilan tavsiflanadi. Boshqaruvda milliy kadrlar tayyorlash va ularni turli muassasalarga munosib tarzda joylashtirish e'tibordan chetda qoldirildi. Mazkur bosqichda davlat idoralariga mahalliy kadrlarni jalb qilish va ish yuritishning o'zbek tilida olib borilishi yuzasidan dekretlar, qarorlar, yo'riqnomalarning qabul qilinishi hamda qurultoy va konferensiyalarning ko'rsatmalaribo'lishiga qaramay mahalliyashtirish masalasi bir joyda to'xtab qolgan. Mahalliyashtirish komissiyasining hisobotlarida ushbu masala yuzasidan jiddiy muammolar borligi, joylarga yuborilgan tajribachilar kamsitilayotganligi, ularga ish o'rgatilmaganligi, hatto evropa millatiga mansub rahbar xodimlar mazkur komissiya qaroriga qarshi chiqayotganligi qayd etilgan. SHuni ham aytib o'tish kerakki komissiya bir siyosiy organ bo'lib, bir kishini o'zicha muassasalarda ishga joylashtira olmagan. Mahalliyashtirish komissiyasiga ish so'rab keladigan kishilarning aksariyati ijtimoiy jihatdan qiynalgan ishchi, dehqonlar bo'lgan. Bu to'g'rida kommunistik partiyaning XII s'ezdida shunday qaror qilingan: "O'rta Osiyo xalqlarining madaniyatidan orqada qolganlarini nazarda tutib, ular orasidan bilimli, zararsiz va partiyaga sadoqat bilan xizmat qiladigan ziyolilarni har qanday yo'llar bilan to'plab, sovet mahkamalariga jalb qilinsin".

Ikkinchi, 1928 – 1930-yillardagi yangi bosqichda ishlar ilgaridek nazariy yo'l bilan bormasdan, balki amaliy yo'lga o'ta boshladi. Bu

davrda sohada ma'lum ishlar amalga oshirilib, ba'zi muammolar bartaraf etilgan. 1928-yil 18-fevralda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining "Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida" 20-raqamli qo'shma qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda davlat boshqaruvining barcha jabhalarida ish yuritishni o'zbek va rus tillarda parallel ravishda olib borish, evropa millatiga mansub xodimlarning o'zbek tilini o'rganishi uchun to'garaklar ochish hamda mahalliy aholidan ishchi kadrlarni tayyorlash kabi muhim masalalar yana bir bor ta'kidlab o'tildi.

Yangi bosqichda ba'zi sohada mahalliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat idoralarida tajribachi sifatida amaliyot o'tayotgan mahalliy kadrlarga munosabat o'zgardi. Ularni kamsitish, munosib bo'lmagan ishlarga ro'baro' qilish, mehnatiga haq to'lash va ularni orqaga qaytarib yuborishlarning oldini oladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimi ishlab chiqildi. Xususan, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining ba'zi moddalariga qo'shimchalar kiritildi. Unga ko'ra muassasalar rahbarlari bo'lgan rusiyzabon xodimlarning mahalliy ishchilarga nisbatan har qanday qarshiliklariga jazo choralari kuchaytirildi.

Uchinchi, 1931–1933-yillar yakuniy bosqichda O'zbekiston respublikasi hududidagi barcha muassasalarda mahalliyalashtirish ishlarining tugallanishi belgilandi. O'zbekistonda SSRda davlat idoralarini mahalliyalashtirish siyosati bolsheviklar tomonidan belgilab berilgan va ma'lum chegara doirasida amalga oshirildi. 1931-yil 11 dekabrda SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumining "O'zbekiston SSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida"gi qaroriga binoan qisqa muddatda davlat idoralarini mahalliyalashtirish va ish yuritishni o'zbek tiliga o'tkazish ishini yakunlash lozimligi ta'kidlandi. Ushbu qaror asosida 1932 yilning 5 yanvarida O'zbekiston SSR Kompartiyasi MK respublikada davlat idoralarini o'zbeklashtirish ishlarini to'xtatish to'g'risida 127-raqamli qarorni qabul qildi. Yuqorida ta'kidlangan qarorlar asosida 1933-yilning 1-aprelidan boshlab, O'zbekiston SSRda mahalliyalashtirish ishlari to'xtatildi.

Barcha sovet respublikalari singari O‘zbekiston SSRda mahalliy lashtirish siyosati to‘xtatilishining asosiy omillaridan biri bolsheviklar etakchisi I.V.Stalinning g‘ayriilmiy nazariyasi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bunga ko‘ra sovet jamiyati taraqqiy etib, rivojlangan sari milliy tillar va madaniyatlar asta-sekin yaqinlashib, qo‘shilib ketishi belgilandi. Keyinchalik ular o‘rnida yagona til va yagona millat tashkil topadi, degan “nazariya” o‘rtaga tashlandi. Bu “nazariya” Stalinning 1929-yil mart oyida yozgan “Milliy masala va leninizm” degan asarida o‘rtaga qo‘yilgan edi. Milliy tillarning qo‘shilib ketishi va yagona sotsialistik millatni tashkil etish xususidagi g‘ayriilmiy nazariya kommunistik partiyaning diqqat markazida bo‘ldi. SHu tariqa millatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va qo‘shib yuborish rejasi tufaylibarcha milliy respublikalarda davlat idoralarini mahalliy lashtirish ishlari to‘xtatildi. Natijada davlat boshqaruv tizimida milliy tillar mavqei pasayib, rus tilining o‘rni mustahkamlandi. O‘zbekistonda davlat idoralarini mahalliy lashtirishning to‘xtatilishi sovetlashtirish va ruslashtirish jarayonining kuchayishiga keng yo‘l ochdi.

Xullas, ko‘p sonli millatlarni o‘zida birlashtirgan yirik sovet davlati o‘z ta’sirida bo‘lgan o‘lkalarda boshqaruvni mustahkamlash va uzluksiz ijro mexanizmini ta’minlash maqsadida vaqtincha bo‘lsa-da davlat idoralarini mahalliy lashtirish tizimini hayotga tatbiq etdi. Chunki, bolsheviklar chekka o‘lkalarda sovet mafkurasiga xizmat qiladigan mahalliy kadrlarga ehtiyoj mavjudligi zarurati bilan hisoblashishga majbur edi. SHuning uchun mahalliy kadrlardan milliy kommunistlar tayyorlash va ularga o‘z ona tilisida ta’lim olishi va ish yuritishiga ruxsat berildi.

Tayanch so‘z va iboralar: Anneksiya, sovetlar, tajribachilar, mahalliy lashtirish, milliy lashtirish, “tubjoylashtirish”, musulmonlashtirish, erlilashtirish, o‘zbeklashtirish, “aksilinqilobiy kuchlar”, “teskarichilar”, “18 lar guruhi”, “qosimovchilik”, “inog‘omovchilik”, “badriddinovchilik”, “antipartiyaviy guruhlar”, “otakurovchilik”, “nepesovchilik”, “abdurahmonovchilik”, “xo‘jaboevchilik”, “maqsumovchilik”.

8-Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Qarorlar shajarasi**”uslubi orqali mustahkamlash.

“Qarorlar shajarasi” metodi					
Muammo: <i>O‘zbekistonda sovet boshqaruvi davrida mahalliy lashtirish siyosatida kadrlar ishtirokini o‘ziga xos xususiyatlarini qanday baholaysiz ?</i>					
1-qaror variantlari Mahalliy kadrlar		2-qaror variantlari Mahalliy kommunistlar		3-qaror variantlari Markazdan yuboril-gan va evropa millatiga mansub kadrlar	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kam-chiligi
Qaror					

Mavzuni “Qarorlar shajarasi” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Guruh ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi.

2. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan qaror yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkonini yaratadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bolsheviklar milliy siyosatining buyuk rus mustamlakachiligi imperialistik tuzumidan farqli jihati mavjudmi?
2. Turkiston Kommunistik partiyasining favqulodda chaqirilgan IV s'ezdida Turar Risqulov sovet milliy siyosatining Turkistonda yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida qanday fikr bildirgan?
3. RKP (b) X s'ezdida milliy masala to'g'risida qanday qaror qabul qilingan?
4. Sovet boshqaruvi strukturasidagi davlat idoralarini mahalliyashtirish siyosati deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbekistonda davlat idoralarini mahalliyashtirish siyosatining natijalari qanday yakun topdi?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adeeb Khalid. Making Uzbekistan. Nation, Empire and Revolution in the Early USSR. – London.: Cornell University press, 2015.– Pp.166-178.
2. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: Миллий-демократик давлатчилик қуриш тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000.–Б. 151-152.
3. Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917-1924 йиллар). – Тошкент: Abu matbuot- konsalt, 2007. – Б.22.
4. Юсупов Э., Туленов Ж., Гафуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар. – Тошкент: Фан,1990.– Б.102.

5. Турдыев М., Голованов А. Политическое противоборство по национальному вопросу в Туркестане (1917 – 1920 гг.) / Муस्ताқил Ўзбекистон ва миллатлараро муносабатлардаги барқарорлик мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.,1995.– С.136.
6. Мусбюро Р.К.П.(б) в Туркестане. 2 и3 Туркестанские Краевые конференции Р.К.П. 1919–1920г.г. – Т.:Туркестанское Государственное Издательство, 1922.–С 57.
7. Ўзбекистон ССР тарихи. Улуғ октябрь социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). III том. – Тошкент: Фан, 1971.–Б. 193.
8. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Том 2. 1917 – 1922. – Москва: Издательство политической литературы,1983.–С.368-369.
9. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости.Научный редактор Р.Я. Раджапова – Т.: Шарк.,2000.–С.382-383.
10. ЦК РКП (б) – ВКП (б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918 – 1933 гг. Сборник документов. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П. Кошелева, Л.А. Роговая. – Москва.: РОССПЭН, 2005.–С. 117-118.
11. Ўзбекистонда XX асрнинг 20-30 йилларидаги сиёсий ва ижтимоий жараёнлар. (Архив ҳужжатлари ва бошқа материаллар асосида). Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Қ.К.Ражабов. – Тошкент: Navro'z, 2014.–Б.236.
12. Борисенок Е.Ю. Концепции «украинизации» и их реализация в национальной политике в государствах восточноевропейского региона (1918 – 1941 гг.). Диссертация на соискание ученой степени доктора исторический наук. – М.,2015. – С.163.<http://www.inslav.ru/sobytiya/zashhity-dissertaczij/2181-2015-borisenok>.

13. Чеботарева В.Г. Национальная политика Российской Федерации 1925 – 1938 гг. – Москва, 2008. – С.258, 262, 376-381, 670-672.
14. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасида маҳаллийлаштириш сиёсати (1917 – 1933 йй.). Монография. Тошкент: “Muharrir”, 2020. –Б. 92-156.
15. Jo'raev N, Karimov Sh, O'zbekiston tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. Ikkinchi kitob. – T.: Sharq, 2011. – B.350.
16. Мустафа Шоқай. Шығармаларының толық жинағы. 12 томдық. Т. IX. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2014. –Б.350-358.

9-MAVZU: AHOLI RO‘YXATGA OLISH KAMPANIYALARI. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARIDA ISTIQOMAT QILGAN O‘ZBEKLARNING IJTIMOIIY- IQTISODIY TURMUSHI

Reja:

1. Sovet davrida aholi ro‘yxatga olish kampaniyalari va O‘zbekiston aholisini milliy tarkibi.
2. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi.
3. Markaziy Osiyo respublikalarida istiqomat qilgan o‘zbeklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi.

1.Sovet davri aholi ro‘yxatga olish kampaniyalari va O‘zbekiston aholisini milliy tarkibi. Sobiq Ittifoqda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish tadbirlarida mamlakat aholisining soni, ularning hududlar bo‘yicha joylashishi, jinsi, yoshi, millati, savodxonlik darajasi, faoliyat turlari, kasblar va sohalar bo‘yicha taqsimoti, ichki va tashqi migratsion o‘zgarishlar, demografik o‘sish dinamikasi kabi o‘nlab yo‘nalishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayd etilganligi muhim va ahamiyatlidir. Ushbu ma’lumotlarning tahlil qilinishi asosida Sobiq Ittifoqi hududida istiqomat qilgan o‘zbeklar soni xususida, demografik o‘zgarishlar, tarqalish geografiyasi va faoliyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Turkistonda chor mustamlakasi davrida ya'ni 1897-yilda ham aholi ro'yxatdan o'tkazilgan. Biroq o'tkazilgan aholi ro'yxati yakunlari O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston aholisi haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Bolsheviklar O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazib, sovet respublikalarini tuzgandan so'ng aholi ro'yxatdan o'tkazish masalasi o'rta tashlandi. 1926-yili O'zbekiston SSRda o'tkazilgan aholi ro'yxati natijasida respublikamiz aholisining umumiy soni, jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, savodlilik darajasi, millati, elati, tili, migratsion aloqasi, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik manbai haqida mufassal ma'lumot to'plandi.

1926-yilgi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, O'zbekiston SSRda yashayotgan aholining milliy tarkibi to'g'risida gap ketganda, bu erning tub erli aholisi sifatida o'zbeklar bilan birgalikda O'rta Osiyo yahudiylari, eroniylar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qipchoqlar, qirg'izlar, quramalar, sartqalmiqlar, tojiklar, turkmanlar, turklar, Samarqand va Farg'ona turklari, uyg'urlar, yag'nobliklar kabi millatlarga mansub aholi ro'yxatga olingan. 1926-yilga kelib O'zbekiston aholisi 1913-yilga nisbatan 6,7 foizga o'sgani holda 294 ming kishiga ko'paygan.

Yana bir holatni alohida ta'kidlash kerakki, 1926-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati sovetlar tomonidan o'tkazilgan aholi ro'yxatlarinig birinchisi edi. Ro'yxat natijalari to'liq ishlab chiqilmagan va ayrim xato-kamchiliklardan holi emas edi. Ro'yxat o'tkazilgandan so'ng, O'zbekistonda 91 ta millat vakillari yashayotganligi aniqlangan. Respublikada eng ko'p sonli millat vakillari o'zbeklar bo'lib, ular 3 475 340 nafardan iborat bo'lgan. Son jihatidan ikkinchi o'rinda tojik millati vakillari turib, ularning soni 967 728 nafarni tashkil qilgan. Keyingi o'rinlarda ruslar 246 521 nafar, kazaklar 106 980 nafar, qirg'izlar 90 743 nafardan iborat bo'lgan. Ro'yxat jarayonida O'zbekiston SSR hududida 50 078 nafar qurama, 32 784 nafar qipchoqlar ro'yxatga olingan.

Bundan tashqari 1937, 1939, 1959 va 1970-yillarda Butunittifoq aholi ro'yxati o'tkazilgan. 1937-yili o'tkazilgan ro'yxatda kamchiliklarga yo'l qo'yilgani tufayli uning yakuni e'lon qilinmagan. Har bir tarixiy voqea va tabiiy hodisaning o'z mezonini va mazmuni

bo'lganidek, aholi ro'yxati demografik jarayonning mezoni hisoblanadi: unda aholi tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar o'z ifodasini topadi, aholi haqida to'liq va mukammal ma'lumotlar to'planadi. Bu fikrning tasdiqini aholi ro'yxati materiallari tahlilida ko'rish mumkin. Masalan, 1926 va 1939-yillarda o'tkazilgan ikki aholi ro'yxati o'rtasida O'zbekiston SSR aholisi 37,4 foizga ko'paygan va o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,45 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1939 – 1959-yillardagi aholi ro'yxati o'rtasida aholi soni 26,1 foizga ko'paygan va o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,15 foizga tushib qolgan. Agar ikkinchi jahon urushi yillarida nemislar bosib olgan hududlardan aholisi ko'plab O'zbekistonga ko'chib kelgani hisobga olinsa, tabiiy ko'payish sur'ati juda pasayib ketganligi ma'lum bo'ladi.

Yuqorida tarixan Markaziy Osiyoda soni jihat katta ulushga ega bo'lgan o'zbeklar O'zbekistondan tashqari Tojikistonning Xo'jand, Qo'rg'ontepa, Turkmanistonning Chorjo'y, Toshovuz viloyatlarida, Qirg'izistonning O'sh, Jalolobod, Botkent kabi shahar va viloyatlarida, Qozog'istonning Turkiston, Sayram, Yassi, Chimkent kabi hududlarida keng tarqalgan va zich bo'lib istiqomat qilishadi. Bu hududlarda uzoq asrlardan buyon yashab kelayotgan o'zbeklar asosan su'niy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va bog'dorchilik, shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib, o'troq turmush tarzi asosida yashashgan o'ziga xos turmush tarziga, ijtimoiy munosabatlarga, madaniy va ilmiy qarashlarga egadir. O'zbekiston Milliy Arxivi fondlarida saqlanayotgan sovet davrida aholini ro'yxatgan olish bilan bog'liq hujjatlarda butun Ittifoqda va Markaziy Osiyo respublikalaridagi o'zbeklar soni aniq raqamlarda berilganligi yuqoridagi bo'limlarda tahlil etildi.

Markaziy Osiyo davlatlari hisoblangan Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston davlatlari 1924-1991-yillar oralig'ida yagona davlat doirasida ittifoqdosh respublikalar sifatida tarixiy davrni o'z boshidan o'tkazdi. Bu davrda mintaqadagi o'zbek millati vakillari yagona davlat doirasida, yagona hudud, yagona qonunchilik, yagona ijtimoiy tuzum vakili sifatida umriguzaronlik qildi. Davlatlararo chegaralarning mavjud emasligi, bir davlatdan ikkinchi

davlat hududiga kirib-chiqish va bordi-keldilarning osonligi bu millat vakillarining o‘zaro aloqalarida keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Boshqacha aytganimizda yagona vatan doirasida yashab qavm-qarindoshlik, quda-andachilik, og‘a-inilik munosabatlarini insoniylik tamoyillari asosida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Sobiq Ittifoq davrida Tojikistonda o‘zbeklar ko‘p va zich bo‘lib istiqomat qiladigan respublikalardan biri edi. Qolaversa, milliy urf-odat va an‘analari, ma‘naviy va dunyoviy qarashlari mushtarak bo‘lgan o‘zbek va tojik millati vakillari Tojikistonning yangi tarixini birga yozishdek ma‘suliyatni 70 yillik davr mobaynida birga amalga oshirishdi. Tojikiston aholisi demografik o‘sish va aholini ko‘chirish siyosati samarasi natijasida bir necha barobarga ko‘paydi. Qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasida amalga oshirilgan islohotlar Tojikistonda yangi kasb, soha va tarmoqlarlarining kirib kelishiga turtki bo‘ldi. Ijtimoiy turmush sharoitining ko‘tarilishi va iqtisodiy hayotning izga tushishi natijasida Tojikistonda aholi soni muntazam yuqorilab bordi va bular Tojikiston o‘zbeklarining hayotidagi o‘zgarishlarda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralishdan so‘ng, Tojikiston ASSR 1924-yil 27-oktyabrda O‘zbekiston SSR tarkibidagi muxtor respublika sifatida kiritilib, Tojikiston ASSR asosan Buxoro amirligining janubiy-sharqiy hududlarini o‘z ichiga olgan. Amirlik aholisining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil qilsada, davlat hujjatlari fors-tojik tilida yuritilgan, bu esa bu hududda istiqomat qiladigan xalqning ikki tilni yaxshi o‘zlashtirishiga muhim turtki bo‘lib xizmat qilgan. Bu muhim jihatni o‘z vaqtida anglagan “Markaz” aholini tiliga qarab ajratishga oid siyosatni amalga oshirishning muhim asosisifatida ko‘rgan.

O‘zbekiston Milliy arxivining fondi “Rayonlashtirishga oid turli materiallar” nomli arxiv hujjatlarida ayniqsa, Tojikiston ASSRning ma‘muriy bo‘linishi masalasini jiddiy ravishda ko‘rib chiqish lozimligi belgilangani ayon bo‘ladi. Tojikiston ASSR aholisi 1925-1926-yillarda 779407 kishini tashkil etib, mamlakat aholisi yillar mobaynida o‘rtacha 1 foizdan ko‘payib borgan. Jumladan, 1926-1927-yillarda 7794 taga

ko'payib, 787201 kishini, 1927-1928-yillarda 7872 taga ko'payib, 795073 kishini, 1928-1929 yillarda 7950 taga ko'payib, 803023 kishini, 1929-1930 yillarda 8030 taga ko'payib, 811053 kishini, 1930-1931 yillarda 8111taga ko'payib, 819164 kishini tashkil etganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan.

Aholining etnik qatlami o'nga yaqin millatlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ichida o'zbeklar son jihatdan salmog'i qo'pligi bilan ajralib turgan. Ular Tojikistonning Tog'li Badaxshon va G'arm hududidan tashqari barcha viloyatlarida ko'p sonli bo'lib istiqomat qilgan va keng hududlar bo'ylab tarqalgan. 1925-1926-yillarda o'zbeklar Hisor viloyatida 52600 kishini, Qo'lob viloyatida 39229 kishini, Usturshona viloyatida 20340 kishini, Qo'rg'ontepa viloyatida 19100 kishini, Panjikentda 6548 kishini, jami esa 139.817 kishi bo'lib umumiy aholiga nisbatan 17,7 foizini tashkil etgan.

Barcha hududlarda ularning soni tojiklardan keyingi ikkinchi o'rinda turib aholi soniga sezilarli ta'sir o'tkazgan. Tojikistonda istiqomat qiladigan qora-qirg'izlar, qirg'iz-qozoqlar, turklar, afg'onlar, turkmanlar va arablarning jami soni 24659 kishini tashkil etgan bo'lsa, birgina Hisor viloyatidagi o'zbeklar soni ulardan ikki yarim barobardan ortiq bo'lgan. Bundan tashqari Qo'lob viloyatidagi o'zbeklarning soni ham ulardan 14570 taga ko'p bo'lgan.

Hisor, Qo'lob, Qo'rg'ontepa, Usturshona, Panjikent viloyatlarida istiqomat qilgan o'zbeklarning asl vatanlari shu hududlar bo'lib, ular azal-azaldan shu o'lkalarda tubjoy millat tojiklar bilan yonma-yon istiqomat qilib, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilikning ko'plab sohalarida faoliyat yurtib kelishgan. O'zbeklar Dag'ona-Ko'shk, Qo'rg'ontepa, Bosmali, Chorbog' kentlari aholisining 100 foizini, Regar, Shulum, Saroy Qamish, Bekbo'li, Shaxriston kentlarining 90 foizdan ortig'ini, Kobadiyon kenti aholisining 73.7 foizini, CHimqo'rg'on kenti aholisining 60.7 foizini, Bakari va Oq-Suv kenti aholisining 40 foizdan ortig'ini, Avtorubsk volostining 32.4 foiz aholisini, Toda, Dala, O'ratepa kenti aholisining 20 foizdan ortig'ini, Farob, Sari-Cpashm, Ko'li So'fiyon kenti aholisining 16 foizdan ortig'ini, Roati kentida esa 8.2 foiz aholini tashkil etishgan.

Markaziy Osiyo mintaqasining Janubiy-Gʻarbiy qismida joylashgan Turkmaniston Respublikasi oʻzbeklar koʻpchilik boʻlib istiqomat qilayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Oʻzbeklarning Turkmaniston bilan bogʻliq tarixlari uzoq oʻtmishga borib taqalib, Buxoro amirligi va Xiva xonligining uzoq asrlik tarixi bilan ham chambarchas bogʻliq. Oʻzbeklar soni jihatdan ushbu mamlakatda Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston va Qirgʻizistondan keyingi oʻrinda turib, mamlakat aholisining 9,4 foizni, baʼzi manbalarda esa 9,8 foizni tashkil etishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar uchraydi. Shu sababli mazkur tadqiqotimizda Turkmanistonda istiqomat qilgan oʻzbek millati vakillarining bir asrlik tarixini, ularning ushbu mamlakat hududlari boʻylab joylashuvi, tarqalish jarayoni, yillar davomida ular soni bilan bogʻliq oʻsish va oʻzgarishlar dinamikasini, shugʻullangan mashgʻulotlari kabi mavjud tarixiy manbalar asosida tahlil qilish maqsadi koʻzlangan.

Turkmaniston Respublikasi polietnik mamlakat boʻlib, unda 53 ga yaqin millat, elat va etnik guruh vakillari istiqomat qilib kelganlar. Oʻzbeklar asosan hozirgi Turkmanistonning Sharqiy va Shimoliy-Sharqiy hududlarida, hamda Amudaryo oqimi boʻylab joylashgan erlarda istiqomat qilishadi. Aniqrogʻi, Sharqiy Turkmanistonning Lebop viloyati, Chorjoʻy va Kerki hududlari, shuningdek, Shimoliy-Sharqiy Turkmanistonning Toshovuz viloyati hududiga kiruvchi Toshovuz va Koʻhna Urganch shahri hamda unga tutash boʻlgan dehqonchilik vohalarida zich boʻlib yashashgan. Bu hududlarda oʻzbeklar salmogʻi yuqoriligining asosiy omili, azaldan oʻzbeklarga aloqador etnik guruhlarining ushbu erlarda yashashi va oʻzbeklar kasb-korining asosini dehqonchilik tashkil etishi bilan izohlanadi. Qolaversa, bu hududlar Buxoro amirligi va Xiva xonligi erlariga kirishi ham tarixiy haqiqatdir.

1897-yildagi aholini roʻyxatga olishga oid hujjatlarda hozirgi Turkmanistonning hududida Ashxobod, Krasnavodsk, Marv, Tajan uездlari Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti viloyati tarkibiga kirgan. Ushbu roʻyxatda Kaspiyorti viloyatidagi aholi roʻyxati maʼlumotnomalarida turkmanlarning va boshqa millatlarning soni koʻrsatilgan holda oʻzbeklar soni haqida negadir maʼlumotlar

uchramaydi. Bu Turkmaniston hududiga kiruvchi Kaspiyorti viloyati uездlarida o‘zbeklar yashamagan, degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Chunki o‘zbeklar asosan zich bo‘lib istiqomat qiladigan hududlar Chorjo‘y va Karki Buxoro amirligi tarkibida, Toshovuz va Ko‘hna Urganch esa Xiva xonligi tarkibiga kirgan. 1897-yilgi aholini ro‘yxatga olish tadbirlari esa bu hududlarda amalga oshirilmagan.

2. O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi. 1920 yil boshlarida Turkkomissiya raisi YA.Rudzutak tomonidan Turkiston ASSRni bo‘lib tashlash va til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo‘yildi. Bu taklif bolsheviklar etakchisi V.I. Lenin tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, u Turkiston o‘lkasining “Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmaniya”ga bo‘lingan kartasini tuzish haqida ko‘rsatma berdi. Milliy respublikalar tuzish g‘oyasi tashabbuskorlari bu masalani mahalliy xalqlar hayotidagi tengsizlik, milliy mojarolarning kuchayib borayotgani haqidagi soxta omillar bilan asoslashga harakat qildilar. Bolsheviklar O‘rta Osiyo xalqlarining asrlar osha yashab kelgan hududiy-geografik birliklar doirasidagi keyingi taraqqiyotini shubha ostiga qo‘ydilar.

Turkkomissiya va Ya.Rudzutak tezislariga qarama-qarshi o‘laroq, Turar Risqulov va bir guruh milliy etakchilar 1920-yilning o‘zida turkiyzabon xalqlarning yagonaligi, ularning tarixiy ildizlari, dini, an‘analari va madaniyatining mushtarakligi, Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo‘lmasligi kabihayotiy g‘oyalarni himoya qilib chiqdilar. Biroq bu fikrlar bolsheviklar tasarrufidagi Markaz tomonidan inkor etilib, T. Risqulov “o‘ng og‘machilik” (pravotsentrizm), millatchilik va panturkizmga ayblandi, unga bo‘htonlar yog‘dirildi.

Bolsheviklarning Turkiston mintaqasida milliy chegaralashni amalga oshirishdan bosh maqsadi, shubhasiz o‘lkani xomashyo etkazib beruvchi hududiy birliklarga aylantirish bo‘lgan. Hatto, O‘rta Osiyoda milliy chegaralanish jarayoni ketayotgan bir paytda xomashyo va xo‘jalikka qarab yirik shirkatlar tuzish loyihasi allaqachon tuzilgan edi. Bu shirkatlarning biri “rus-o‘zbek shirkati” va ikkinchisi “rus-turkman shirkati” hisoblangan. “Rus-o‘zbek shirkati” hay‘atiga O‘zbekiston jumhuriyati bilan birga qozoq, qora qirg‘iz, tojik rayonlari hamda sobiq

Buxoro bilan Xorazmning katta qismi kiritildi. Buxoro bilan Xorazmning qolgan qismi “rus-turkman shirkati”ga birlashtirildi.

Shunday qilib, Turkiston, Buxoro, Xorazm sovet respublikalari 1924-yil noyabrida bo‘lib o‘tgan maxsus sessiyalarida o‘z-o‘zini tarqatib yuborish to‘g‘risidagi qarorini qabul qildi. Arxiv hujjatlaridan birida keltirilgan ma’lumotlarda 1924-yilda Turkiston ASSRda 5.254.581 nafar, Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasida 2.236.437 nafar, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasida 640.004 nafar, uchta sovet respublikasida jami 8.131.062 nafar aholi istiqomat qilgan.

O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi qaroriga binoan O‘zbekistonga sobiq Turkiston ASSR hududining 44,2 foizi va aholisining 2.323.764 nafari, BXSrning 59 foiz er maydoni va 1.319.498 nafar aholisi, XXSRning 50 foiz maydoni hamda 320.023 nafar aholisi o‘tganligi tasdiqlangan.

O‘rta Osiyoni milliy-hududiy chegaralash paytida Xorazm sovet respublikasi hududida yuz mingdan ortiq qoraqalpoq, qirg‘iz-qozoqlar yashagan. Ularning ayrimlari o‘troq hayot kechirsa, ba’zilari ko‘chib yurgan bo‘lsa-da, urf-odatlar va rasm-rusmlari bir-birlariga juda yaqin bo‘lgan. Shuning uchun ular milliy chegaralash masalasida o‘zlariga maxsus muzofot tashkil etib, o‘zbek respublikasiga qo‘shilish istagini bildirganlar. Qirg‘iz-qozoq va qoraqalpoqlar bilan o‘zbeklar o‘rtasida munosabat juda yaxshi ekanligini ta’kidlaganlar. Turkiston ASSR hududining 1,7 foiz hududi va 91.098 nafar aholisi hamda XXSRning 20 foiz maydoni va 128.008 nafar aholisi qoraqalpoqlarga ajratilgan. Natijada qoraqalpoqlar alohida avtonom viloyat sifatida tashkil qilinib, O‘rta Osiyo byurosining 2-sonli bayonnomasiga binoan Qozog‘iston ASSR tarkibiga kiritildi.

Kommunistlar partiyasi “har millat o‘z masalasini o‘zi hal qilishi va o‘z madaniyatini o‘zi tug‘dirishi kerak” degan shiorni o‘rtaga tashlagan. Bu borada Turkmaniston respublikasining tashkil etilishida Xorazm va Buxoro turkmanlarining birlashtirilishi masalasi ham alohida ahamiyat kasb etgan. Hududiy komissiya qaroriga ko‘ra Kelif tumani, Karki viloyatining shimoliy chegarasidan Chorjo‘y viloyatining Forob tumaniga qadar bo‘lgan hududlar Turkmaniston SSR tarkibiga o‘tgan.

Turkmaniston SSRga sobiq Turkiston ASSR hududining 6,7 foizi va aholisining 350.000 nafari, BXRning 14 foiz er maydoni va 313.101 nafar aholisi, XXSRning 30 foiz maydoni hamda 192.013 nafar aholisi o'tganligi tasdiqlangan.

Bundan tashqari Inqilobiy qo'mita Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining O'zbekiston SSR tarkibiga kirishini tasdiqlagan. Ushbu masala 1927-yil qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining 4-bo'lim, 8-bob, 61–69-moddalarida o'zining qonuniy tasdig'ini topgan. SHuningdek, Tojikiston ASSR Konstitutsiyasining 1-moddasida ham respublikaning O'zbekiston SSR tarkibida ekanligi qayd etilgan. Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Tojikiston ASSRning shu paytdagi maydoni 135.620 kv.km ni va aholisining umumiy soni 739.503 nafarni tashkil etgan.

Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan vaqtida tojik hukumati Xo'jand okrugini olish da'vosi bilan chiqadi. Ushbu da'vo bo'yicha Xo'jandda mayda millatlarga, ayniqsa tojiklarga ish yuritishda ularning tilida olib borilmayotganligi va aholi tarkibining ko'pchiligini tojiklar tashkil etishi hamda o'zbek millatchiligi ba'zi joylarda mayda millatlarga nisbatan hujum tusiga kirganligi ta'kidlagan. Ushbu da'voga O'zbekiston SSR hukumati rahbari Fayzulla Xo'jaev Xo'jand okrugida ish yuritish tojik tilida olib borilayotganligi, O'zbekiston doirasida boshqa mayda millatlarga, shuningdek, tojiklarga xizmat ko'rsatishning namuna bo'la olishi, shuningdek, qoraqalpoqlarning ona tilida ish yuritiladigan qoraqalpoq rayoni, boshqa bir qancha rayonlar (uyg'ur, arab, rus va boshqa rayonlar) hamda 300 ga yaqin milliy qishloq sovetlari tashkil etilganligini ta'kidlab o'tadi.

Tojikiston ASSR hukumati Xo'jand okrugini O'zbekistondan olish orqali quyidagi masalalar hal bo'lishini aytadi: "Birinchidan, Tojikistonning xo'jalik kuchi o'sadi, ikkinchidan, o'zbeklar bilan tojiklar o'rtasidagi nizoli munosabatlar tuzaladi, uchinchidan, Xo'jand okrugidagi mehnatkashlarning Tojikiston respublikasining qurilishiga hissa qo'shishi ko'riladi".

1929-yil oxirida, beshinchi chaqiriq Markaziy Ijroiya Komiteti ikkinchi sessiyasini ochish chogʻida Fayzulla Xoʻjaev xalqlar doʻstligi va qardoshligining lenincha tantanasi haqida gapirib, shunday degan edi: “Sessiyamizning kun tartibiga Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasini Ittifoq respublikasiga aylantirish toʻgʻrisidagi masala qoʻyilgan. Bu ittifoqimizning eng yosh respublikalaridan biridir. Tojik xalqining asosiy qismi yaqindagina eng mazlum va qoloq xalq ommasi edi. Besh yil muqaddam Oʻrta Osiyo milliy chegaralanishi munosabati bilan Tojikiston davlat jihatdan rasmiylashtirildi va qandaydir besh yil mobaynida tinch-totuv yashash sharoitida sovet hokimiyatining gʻamxoʻrligi natijasida tojiklar respublikasi ancha siyosiy va xoʻjalik jihatdan ulgʻaydi”. SHu asnoda Tojikiston ASSR Oʻzbekiston SSR tarkibidan ajralib chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, yangidan tashkil qilingan respublika va viloyatlar iqtisodiy-ijtimoiy tomondan bir-biriga bogʻlangan edi. Shu nuqtai nazardan Oʻrta Osiyo respublikalari federatsiyasini tashkil qilish masalasi ham ilgari surilgan. Biroq bolsheviklar tomonidan turli vajlar bilan federatsiya tuzish gʻoyasi inkor etilgan. Sovet respublikalari tuzilgandan soʻng, milliy kadrlar va ziyolilar davlat boshqaruvi tizimida hamda kommunistik partiya saflarida ishlab turgan boʻlsalar-da, ular Turkiston mustaqilligi va birligi gʻoyasi atrofida birlashgan edilar. Bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati va mafkurasiga qarama-qarshi turishning hal qiluvchi omili, Turkiston mintaqasi miqyosida shiddat bilan koʻtarilgan jadidchilik, muxtoriyatchilik va istiqloлчаilik harakatlarining yagona birlashtiruvchi kuchi boʻlib maydonga chiqqan ziyolilar edi.

3.Markaziy Osiyo respublikalarida istiqomat qilgan oʻzbeklar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi. Qozogʻiston va Qirgʻiziston hududlarida istiqomat qilgan oʻzbeklar ijtimoiy hayoti ham oʻziga xos hisoblanadi. Qozogʻiston Respublikasi oʻzbeklari asosan ushbu mamlakatning azaldan Janubiy-Gʻarbiy viloyatlarida, Sirdaryoning oʻrta oqimi boʻylab joylashgan hududlarda istiqomat qilishadi. Aniqrogʻi, Janubiy Qozogʻiston yaʼni eski Turkiston viloyatining Chimkent, Sayram, Turkiston shaharlarida, shuningdek, Jambil

viloyatining Tarozi shahriga tutash bo'lgan dehqonchilik vohalarida zich bo'lib yashashardi. Bu hududlarda o'zbeklar salmog'i yuqoriligining asosiy omili, azaldan bu joylarda o'zbeklarga aloqador etnik guruhlarning yashashi va o'zbeklar kasb-korining asosini dehqonchilik tashkil etishi bilan izohlanadi. Qolaversa 1897 yildagi aholini ro'yxatga olishga oid hujjatlarda Qozog'istonda 4 mln 333 ming aholi yashab, shundan 3.882.350 kishining qishloqlarda yashashi to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan.

Qozog'iston o'zbeklari sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik sohasida juda katta tajribaga ega bo'lib, ular xo'jalikning paxtachilik va donli (boshqoli) ekinlar etishtirishda ustasi farang bo'lishgan. Ayniqsa, ularning xo'jaliklarida dehqonchilikning bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohasidagi yutuqlari ham alohida e'tiborga loyiq. Qozog'iston o'zbeklari orasida hunarmandchilik va chorvachilik xo'jaligi bilan qo'shimcha mashg'ulot sifatida shug'ullanuvchilar ham bor edi. Shuningdek, o'zbeklar maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchi sifatida ham faoliyat yuritishgan. Sovet hokimiyati yillarida Qozog'iston o'zbeklari orasida ma'muriy boshqaruv tizimida, mahalliy hukumatlar tarkibida ham bir qator shaxslar faoliyat yuritishgani ma'lum.

Ammo ayrim manbalarda Qozog'istonda 1897 yilda o'zbeklarning soni 29,6 ming nafarni tashkil etganligi, umumiy aholiga nisbatan o'zbeklar 0,7 foiz ulushga ega ekanligi, ba'zi manbalarda esa o'zbeklarning soni 29,5 ming nafarni, umumiy aholiga nisbatan 0,75 foiz ulushga ega ekanligi qayd etilgan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlaricha, Qozog'istondagi o'zbeklar soni 129.407 nafarligi ma'lum qilingan. Shu o'rinda bu ma'lumotlar 1897-1926-yillar oralig'ida (salkam o'ttiz yil ichida) Qozog'istondagi o'zbeklar soni to'rt barobarga ko'payganligidan dalolat beradi. Bizningcha, 1897-yilgi ro'yxatga olish jaryonida milliy guruhlarning sonini aniqlashda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Chunki bir millatning chorak asr davomida to'rt barobarga ko'payishiga faqat demografik omil bilan erishib bo'lmaydi. Zeroki, bu davrdagi statistik ma'lumotlarda va hisobotlarda har ming kishi tug'ilishidan 381 tasi vafot etganligi

to'g'risida xabardor bo'lish mumkin. Qolaversa 1-6 yoshgacha bolalarning o'limi ham yuqori ko'rsatgichda edi. Bundan tashqari Qozog'iston hududiga 1897-1926-yillar oralig'ida o'zbeklarning ko'chirish tadbirlari amalga oshirilmaganligi ham tarixiy haqiqat ekanligini nazardan qochirmaslik kerak. Bizningcha, 1897-yildagi aholini ro'yxatga olish jarayonlarida hozirgi Qozog'iston hududiy chegarasini hisobga olish kerak emas. Ushbu asoslar o'zbeklar soni 1897-yil aholi ro'yxatida ko'rsatilganidan ko'p bo'lganligi haqidagi fikrni kelib chiqishiga asos bo'ladi. Jumladan, 1897-yilgi aholini ro'yxatga olishning yakuniy statistik ma'lumotlarida Verniy uezdida 5.896 nafar, Avliyoota uezdida 8.474 nafar, Perovski uezdida 1450 nafar, Chimkent uezdida 52.752 nafar o'zbek millati vakillarining istiqomat qilganligi to'g'risida hisobot keltirilgan. Bu jihat hozirgi Qozog'iston hududida o'zbeklar Qozog'iston SSR tashkil topishidan oldinroq yashaganligini ko'rsatadi.

1897 yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarida Qozog'istonda 60 ta millat vakillari istiqomat qilib, o'zbeklar 64.261 kishini yoxud umumiy aholining 1,4 foizini tashkil etgan. Janubiy Qozog'istondagi o'zbeklar 33,3 foizni, boshqa hududlarda 0,6 foizni tashkil etishi bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud. Qozog'iston o'zbeklarining 1897-1920-yillar oralig'ida savodxonlik darajasi 5,2 foizni tashkil etganligi ma'lumotlarda qayd etib o'tilgan.

1917-yil noyabr voqealaridan so'ng, qozoqlar o'zlarining Alash O'rda muxtoriyatlarini tashkil etishdi. RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining 1919-yil 10-iyundagi farmoni bilan Qozog'iston hududida Qirg'iziston ASSR tashkil etildi va 1920-yilning 26-avgustida RSFSR tarkibiga Qirg'iziston Muxtor SSR sifatida kiritildi. 1925-yil iyun oyida Qirg'iziston ASSR Qozog'iston ASSR deb qayta nomlandi va 1936-yilning 5-dekabrida Qozog'iston SSR sifatida sobiq Ittifoqning to'laqonli a'zosi bo'ldi. Bu jarayonlar o'zbeklar hayotidagi yangi tarixiy voqeliklar va bosqichlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Sirdaryo bo'ylarida yashagan o'zbeklar an'anaviy hayot tarziga ega bo'lib, ular asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan, ammo chorvachilik sohasi ham ular xo'jalik hayotining bir qismi hisoblangan.

O'zbeklarning faoliyati shaharlarda istiqomat qiluvchi vakillari ta'lim, ilm-fan, savdo-sotiq, shuningdek, hunarmandchilikning turli tarmoqlari bilan shug'ullanishgan.

1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda SSSRda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari asosida Qozog'iston SSRda asosan qozoqlar, ruslar, nemislar, ukrainlar va o'zbeklar ko'p sonli bo'lib yashagan degan xulosaga kelindi.

Qozog'iston ASSR aholisi 106 ta millat, elat, etnik guruh vakillaridan iborat ekanligi qayd etilgan bo'lib, statistik hisobotlarda o'zbeklar soni 129407 nafarni tashkil etganligi va umumiy aholiga nisbatan 2,1 foiz ulushga ega bo'lganligi ma'lum bo'ladi. O'zbeklarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta oqimlari bo'ylab joylashgan hududlarda ekanligi ko'rsatib o'tilgan va Ettisuv viloyatining ayrim hududlarida o'zbeklarning istiqomat qilishi to'g'risida ham aniq ma'lumotlar qayd etilgan. Ammo, bu hududlardagi o'zbeklarning ulushi ushbu mintaqada bir foizni ham tashkil etmagan.

1939-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida Qozog'iston SSR ning aholisi 6.151.102 nafar bo'lib, o'zbeklar 120.655 kishi bilan qozoqlar, ruslar va ukrainlardan keyingi to'rtinchi o'rinni egallagan va ja'mi aholining 2 foiz ulushiga ega bo'lgan. Ammo raqamlarga e'tibor qartadigan bo'lsak, o'zbeklar soni 13 yillik oraliqda (1926-1939-yillarda) o'sish o'rniga 8752 nafarga kamaygan. Buning asosiy omili sifatida 1930-1932-yillarda Qozog'istonda yuz bergan dahshatli ocharchilikni keltirish o'rinlidir. Zero, bu yillardagi ocharchilik tufayli Qozog'istonda bir yarim million aholi qirilib, bu holat umumiy aholi sonining to'rtinchi qismi kamayishiga olib kelgan. Natijada mamlakat hududida istiqomat qiladigan barcha millat vakillari (ruslardan tashqari) sonining keskin kamayishi kuzatilgan. Bu o'rinda ruslar va Evropa millati vakillari sonining oshishiga XX asrning 30-yillarida Qozog'istonda o'tkazilgan sanoatlashtirish tadbirlari tufayli Rossiya va Ukrainaning markaziy hududlaridan sanoatchilar oqimining kirib kelishi o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan 1959-yilgi ro'yxatga olish tadbirlari shuni qo'rsatdiki, 20 yillik (1939-1959-yillar) davrda aholining o'sishida

biroz turg'unlik yuz berib, bu Ikkinchi jahon urushiga aholini safarbar etilishi bilan izohlanadi. 1939-1959-yillar oralig'ida o'zbeklarning soni 15915 kishiga ko'payib, yuqoridagi yillar orlig'ida 13 foiz, o'rta hisobda yiliga 0,6-0,7 foizdan ko'payib borganligini ko'rish mumkin.

1959-1970-yillarda demografik o'sish Qozog'istonda istiqomat qiladigan o'zbeklar sonining 1926-yilga nisbatan 1,6 barobarga ko'payishiga olib keldi. Demografik o'sish asosan o'zbeklar ko'p sonli bo'lib istiqomat qiladigan Janubiy Qozog'istonning Chimkent, Sayram, Turkiston, Tarozi shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu o'zgarishlar tarixning keyingi davrlarida Qozog'istonning boshqa hududlarida ham o'zbek millati vakillari taraqqiylashishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Qozog'istonda 1970-1979 yillar oralig'ida ham aholining o'sish sur'atlari pasaymadi, aholi yiliga 5-6 foizdan ko'payib bordi va bunda o'zbeklarning ulushi esa 8-9 foiz atrofida kechdi. 1979-1989 yillar oralig'ida o'zbeklar 68.722 kishiga ko'paydi. Bu omillar esa XX asrning 90-yillarga kelganda Qozog'istonda istiqomat qiladigan o'zbeklar sonining 332.017 nafarga etishiga olib keldi.

Xullas, Qozog'iston o'zbeklari 1926-1939-yillar oralig'ida 8752 nafarga kamaygan bo'lsada, 1939-1959-yillar oralig'ida 15.915 nafarga, 1959-1970 yillar oralig'ida 70.944 nafarga, 1970-1979-yillar oralig'ida 55.781, 1979-1989 yillar davomida 68.722 nafarga, umuman olganda 1939-1989 yillar oralig'ida 211.362 nafarga oshib, 63 yillik davrda (1926-1989 yy) 2,8 barobarga ko'paygan va bu respublikadagi milliy ozchilik orasida beshinchi o'rinni egallagan. Ta'kidlash joizki, Qozog'iston Respublikasi mustaqilligi arafasida o'zbek millati vakillari ushbu mamlakatning barcha shahar va qishloqlari bo'ylab tarqalgan edilar. Janubiy-G'arbiy Qozog'iston viloyati o'zbek milliy ozchiligi zich yashayotgan hudud bo'lib qoldi, hozirda ham ushbu hududlarda o'zbeklarning asosiy qismi istiqomat qilmoqda.

Qirg'iziston Respublikasining vujudga kelishi va shakllanishi tarixi qo'yidagi bosqichlarda kechdi. 1924-yil yanvar oyida sovetlarning Butunturkiston XII qurultoyi "Turkiston respublikalarini rayonlashtirish uchun barcha tayyorgarlik ishlarini, iqtisodiy va tabiiy-tarixiy xususiyatlar asosida tugatish va shunga muvofiq ma'muriy-xo'jalik

boshqaruvini qayta tashkil etishga kirishish haqida qaror qabul qildi”. 1924 yilning may oyida Turkiston kompartiyasining sakkizinchi qurultoyi, so‘ngra Buxoro va Xorazm kompartiyalarining Markaziy Komiteti va RKP (b) Markaziy Komitetining O‘rta Osiyo byurosi milliy bo‘linishini o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq deb, tan olish fonida boshladi. O‘rta Osiyo partiya tashkilotlarining bu qarori 1924-yil iyulida RKP(B) Markaziy Komiteti tomonidan ma’qullanib, milliy demarkatsiyaga tayyorgarlik ishlari 1924-yil sentyabr oyiga kelib tugallanishi rejalashtirildi. 1924-yil 16-sentabrda Turkiston ASSR MQning navbatdan tashqari sessiyasi milliy chegaralanish to‘g‘risida qaror qabul qildi. XI-chaqiriq Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining ikkinchi sessiyasi 1924-yil 14-oktabrda ushbu rezolyusiyanı tasdiqladi va shunday qilib, RSFSR tarkibida Qora-Qirg‘iz Muxtor viloyati tashkil etildi. 1925-yil may oyida Qirg‘iz muxtor viloyati deb qayta nomlandi.

Turmaniston o‘zbeklari sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik sohasida juda katta tajribaga ega bo‘lib, ular xo‘jalikning paxtachilik va donli ekinlar etishtirishda ustasi farang bo‘lishgan. Ta’kidlash joizki ularning xo‘jaliklarida dehqonchilikning sholichilik bilan birga polizchilik, sabzavotchilik sohasidagi yutuqlari ham alohida e’tiborga loyiq. Turkmaniston o‘zbeklari orasida savdo-sotiq, hunarmandchilik va chorvachilik xo‘jaligi bilan qo‘shimcha mashg‘ulot sifatida shug‘ullanuvchilar ham bor edi. SHuningdek, o‘zbeklar maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida, sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchi sifatida ham faoliyat yuritishgan. Sovet hokimiyati yillarida Turkmaniston o‘zbeklari orasida ma’muriy boshqaruv tizimida, mahalliy hukumatlar tarkibida ham bir qator shaxslar foliyat yuritishgani ma’lum.

1924-yilning may oyida Turkiston kompartiyasining sakkizinchi qurultoyi, so‘ngra Buxoro va Xorazm kompartiyalarining Markaziy Komiteti va RKP (b) Markaziy Komitetining O‘rta Osiyo byurosi milliy bo‘linishni o‘z vaqtida va maqsadga muvofiq deb, tan olish fonida boshladi. O‘rta Osiyo partiya tashkilotlarining bu qarori 1924-yilning iyulida RKP(B) Markaziy Komiteti tomonidan ma’qullanib, milliy demarkatsiyaga tayyorgarlik ishlari 1924-yilning sentyabr oyiga kelib

tugallanishi rejalashtirildi. 1924-yil 16-sentyabrda Turkiston ASSR MQning navbatdan tashqari sessiyasi milliy chegaralanish to'g'risida qaror qabul qildi. 1924-yil 27-oktyabrda Turkmaniston SSR tashkil topdi va SSSR tarkibiga kiritildi.

1926-yilgi aholini ro'yxatga olishga oid ma'lumotlarda Turkmanistonning aholisi 991,9 ming kishi ekanligi, shundan shaharlarda 136,8 ming kishi, qishloqlarda 855,1 ming kishi istiqomat qilishi qayd etib o'tilgan. Xuddi shu davrda Turkmanistondagi o'zbeklarning soni 104.791 nafarni tashkil etib, umumiy aholiga nisbatan 10,5 foiz ekanligi, shuningdek, turkmanlardan keyingi ko'p sonli ikkinchi xalq sifatida qayd etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Xullas, ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki Turkmaniston Respublikasida istiqomat qilayotgan o'zbeklar uzoq tarixiy davr mobaynida o'zlari yashab turgan hududlarda shakllanishgan va shu hududlarning tubjoy aholisi hisoblanadi.

1939-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbirlarida Turkmaniston SSR aholisining soni 1.251.883 nafar bo'lib, Ashxobod viloyatida 367.550 nafar, Krasnovodsk viloyatida 85.846 nafar, Marv viloyatida 290.341 nafar, Toshovuz viloyatida 255.199 nafar, Chorjo'y viloyatida 252.947 nafar kishi ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu yilda Turkmanistonda o'zbeklar soni 107.451 kishi bo'lib, turkmanlar (741.488 nafar) va ruslar (232.924 nafar)dan keyingi uchinchi o'rinni egallagan va ja'mi aholining 8,6 foiz ulushini tashkil etgan. Ammo raqamlarga e'tibor qartadigan bo'lsak, o'zbeklar sonining 13 yillik oraliqdagi (1926-1939 yy.) o'sish sur'ati past bo'lib, atigi 2660 nafarlik ko'payish ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Buning asosiy omili sifatida 1926-1939-yillar oralig'ida og'ir ijtimoiy turmush tarzi, kollektivlashtirish va qatag'on siyosatining oqibati natijasida ko'rishimiz mumkin. Bu davr oralig'ida Turkmanistonda o'zbeklar son jihatdan ruslardan ortda qolgan va uchinchi pag'onada turgan.

Bu o'rinda rus millati vakillari sonining oshishiga XX asrning 30-yillarida Turkmanistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish tadbirlari tufayli Rossiyaning markaziy hududlaridan yuz mingdan ortiqroq sanoatchi-

ishchilar oqimining kirib kelishi demografik jarayonlarga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan 1959-yilgi ro'yxatga olish tadbirlari shuni qo'rsatdiki, 20 yillik davrda (1939-1959-yillar) Turkmaniston aholisining o'sishida biroz turg'unlik yuz berib, aholi 270 ming kishiga ko'paydi va 1.520 ming nafarga etdi. Ushbu yillar oralig'ida Turkmaniston aholisi yiliga bir foizdan o'sib bordi va ja'mi: 20 yillik oraliqda 20 foiz o'sishga erishildi. Bu Ikkinchi jahon urushiga aholini safarbar etilishi bilan izohlanadi. 1939-1959 yillar oralig'ida ushbu respublikada o'zbeklarning soni 17.779 kishiga ko'payib, 125.203 kishiga etdi hamda ushbu davr orlig'ida 13 foiz, o'rta hisobda yiliga 0,6-0,7 foizdan ko'payib borganligini ko'rish mumkin.

1959-1970-yillarda demografik o'sish Turkmanistonda istiqomat qiladigan o'zbeklar sonining 1926-yilga nisbatan 1,7 barobarga ko'payishiga olib keldi va o'zbeklarning ushbu mamlakatdagi soni 179.517 kishiga etdi. 1959-yildagiga nisbatan o'zbeklar soni 54.314 nafarga ko'payib, 11 yillik davrda 43,3 foiz o'sishga erishdi. Demografik o'sish asosan o'zbeklar ko'p sonli bo'lib istiqomat qiladigan Shimoliy va Shimoliy-Sharqiy Turkmanistonning Chorjo'y, Karki, Toshovuz, Ko'hna Urganch hududlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu o'zgarishlar tarixning keyingi davrlarida Turkmanistonning boshqa hududlarida ham o'zbek millati vakillari taraqqalishi uchun asos bo'lib hizmat qildi.

Turkmanistonda 1970-1979-yillar oralig'ida ham aholining o'sish sur'atlari yuqorilab bordi. Aholi yiliga 5-6 foizdan ko'payib borib, bunda o'zbeklarning ulushi esa 8-9 foiz o'sib borish atrofida kechdi. Natijada 1979-yilga kelganda Turkmanistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklarning soni 233730 nafarga etib, 1926-yilga nisbatan 2,2 barobarga ko'paydi. O'zbek millati vakillari Ashxobod shahrida 2567 nafarni, Ashxobod viloyatida 1057 nafarni, Krasnavodsk viloyatida 1957 nafarni, Marv viloyatida 4221 nafarni, Toshovuz viloyatida 161798 nafarni, Chorjo'yda 64440 nafarni tashkil etdi. Ushbu davr oralig'ida Turkmanistondagi o'zbeklar soni 54213 nafarga ko'payib, Turkmaniston hududlari bo'ylab tarqalib borish geografiyasi kengaydi.

XX asrning 80-yillariga kelganda Turkmanistonda o'zbeklarning demografik o'sishi o'zining eng yuqori ko'rsatkichiga erishdi va 1979-1989-yillar oralig'ida 83.603 kishiga ko'paydi. Demografik o'sish XX asrning 90-yillarga kelganda Turkmanistonda istiqomat qiladigan o'zbeklar sonining 317.332 nafarga etishiga olib kelib, 1939 yil bilan solishtirganda 2,95 barobarga o'sishga erishdi va bu ko'rsatkich bilan Turkmaniston o'zbeklari Markaziy Osiyo davlatlari orasida 80-yillar etakchisiga aylandi.

Xullas, Turkmaniston o'zbeklari soni 1926-1939-yillar oralig'ida demografik o'sish past bo'lgan bo'lsada 2660 nafarga ko'paydi, 1939-1959-yillar oralig'ida 17.779 nafarga, 1959-1970 yillar oralig'ida 54.314 nafarga, 1970-1979-yillar oralig'ida 54.213 nafarga, 1979-1989 yillar davomida 83.603 nafarga, umuman olganda 1926-1989 yillar oralig'ida 212.541 nafarga oshib, 63 yillik davrda (1926-1989-yy) uch barobarga ko'paygan va bu omillar esa o'zbeklarning respublikadagi milliy ozchilik orasida ruslardan keyin ikkinchi o'rinni egallashiga asosiy turtki bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Turkmaniston Respublikasi mustaqilligi arafasida o'zbek millati vakillari ushbu mamlakatning barcha shahar va qishloqlari bo'ylab tarqalgan edilar va ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarida faoliyat yuritayotgandi. Shimoliy va Shimoliy-Sharqiy Turkmanistonda joylashgan Toshovuz va Lebop viloyatlari o'zbek milliy ozchiligi zich yashayotgan hudud bo'lib qoldi, hozirda ham ushbu hududlarda o'zbeklarning asosiy qismi istiqomat qilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar: Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komiteti, O'rta Osiyo byurosi, Qora-qirg'iz muxtor viloyati, Ettisuv, Chimkent, Sayram, Turkiston, Tarozi, Chorjo'y, Karki, Buxoro, Toshovuz, Ashxobod, Lebop, Krasnavodsk, Ko'hna Urganch, Xiva, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, tojiklar.

9-Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“5 daqiqa” usuli**
orqali mustahkamlash

Talabalarni shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'qituvchi vazifa beradi, masalan: mavzuga

doir sanalarni yozish. Talabalaryozishni bir vaqtda tugatishi shart. Ko'p sanalarni yozgan va to'g'ri izohlab bergan talabalarg'olib hisoblanadi.

- Misol : 1897-yil
- 1926-yil
- 1937-yil
- 1959-yil
- 1970-yil
- 1989-yil

Savol va topshiriqlar:

1. 1926 yili O'zbekiston SSRda o'tkazilgan aholi ro'yxati natijalari haqida nima bilasiz?
2. Markaziy Osiyoda soni jihat katta ulushga ega bo'lgan o'zbeklar O'zbekistondan tashqari yana qaysi hududlarda zij joylashgan edilar.?
3. Bolsheviklar tomonidan o'tkazilgan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning salbiy oqibatlar haqida fikr yuriting?
4. Sobiq Ittifoqda o'tkazilgan 1959 yilgi ro'yxatga olish tadbirlari haqida fikr yuriting?
5. XX asrning 80-yillariga kelganda Turkmanistonda o'zbeklarning demografik o'sishi qanday bo'ldi?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аскарлов А. История происхождения узбекского народа. – Ташкент: Узбекистан, 2018. – 274 с.
2. Джабаров И. Узбеки (этнокультурные традиции, быт и образ жизни). Ташкент: Шарк. 2007. – 296 с.
3. Мирзаев Г.Р. Азалий кардошлик ришталари тараққиёт йўлида (ўзбек ва туркман халқлари ҳамкорлиги). –Тошкент: Наврўз, 2016. – 124б.
4. Муллажаонов И. Ўзбекистон аҳолиси. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 1974. 7-48-бетлар.
5. Население СССР. (численность, состав и движения) 1973. Статистический сборник. Статистика. Москва – 1975. – 208с.
6. Йўлдошев А. Марказий Осиё давлатларидаги ўзбеклар: тарихий таҳлил (1991-2020 йиллар) мавзусида Тарих фанлари

бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилаган диссертация. —Бухоро, 2022. — 155 б.

Internet saytlari:

1. URL: <https://articlekz.com/article/18448> // Казахская и Узбекская диаспора: роль национально-культурных центров в их исторической судьбе.
2. URL: <https://www.joshuaproject.net/countries/TX>. Страна: Туркменистан.
3. URL: https://www.bbc.com/uzbek/central_asia/2010/11/101124_kyrgyz_land_seizure. Қирғизистон жанубида ўзбекларга тегишли ерларни тортиб олишга уринишлар бўлмоқда.
4. URL: https://www.bbc.com/uzbek/central_asia/2011/06/110617_cyosh_regional_impact. Июнь қирғини: Ўш ва Жалол-Обод қимдан ёрдам кутганди?
5. URL: <https://poistine.org/uzbeki-kyrgyzstana-v-modeli-primireniya>. Узбеки Кыргызстана в модели примирения.

**10-MAVZU: IKKINCHI JAHON URUSHINING O‘ZBEKISTON
UCHUN DEMOGRAFIK OQIBATLARI. DEPORTATSIYA
QILINGAN MILLATLAR VA O‘ZBEK XALQINING
BAG‘RIKENGLIGI**

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushining O‘zbekiston uchun demografik oqibatlari va o‘zbek xalqining bag‘rikengligi.
2. Urush yillarida sovet hokimiyatining deportatsiya siyosati va xalqlarning zo‘rlilik bilan ko‘chirilishi.

1. Ikkinchi jahon urushining O‘zbekiston uchun demografik oqibatlari va o‘zbek xalqining bag‘rikengligi. 1941-yilning 22-iyun kuni tongida fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga hujum qildi. Mamlakat va partiya rahbari I.V.Stalin 1941-yil 16-avgustda 270-sonli

buyruqni e'lon qildi. Unga binoan urushda asir tushganlar o'ta ketgan dizetirlar (harbiy xizmatni tashlab ketgan qochoqlar) deb e'lon qilindi, ularning oila a'zolari esa "qasamyodni buzganlar va Vatanni sotganlarning oilasi sifatida qamash"ga mahkum etildi.

Urushning birinchi kunlaridan boshlab to oxirigacha o'zbekistonlik jangchilar unda juda faol qatnashdilar. Tarix ularning mardligi, qat'iyati va fidokorligi haqidagi xotiralarini o'tmish, bugungi va kelajak avlodlar uchun mangu saqlanib qolgan.

Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining asosiy ma'naviy-axloqiy xususiyatlari, uning insonarvarligi yorqin namoyon bo'ldi. O'zbek xalqi Sharq ma'naviyatining eng yaxshi an'alariga amal qilib, urushning ayanchli yillarida ittifoqning dushman vaqtincha bosib olgan hududlaridagi aholiga do'stona bag'rikenglik qilib, o'z yurtidan ajralgan quvg'inlarga g'amxo'rlik va mehmondo'stlik bilan ko'nglini ko'tardi. Qardosh xalqlarga iqtisodiyotni tiklashda va madaniy qurilishni yo'lga qo'yishda yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi aholisi urush yillarida nohoyatda nochor yashashiga qaramasdan shunday yordam qo'lini cho'zdi.

Urush odatdagi hayot tarzini tubdan o'zgartirib yubordi. Urushning dastlabki kunlaridanoq butun mamlakatda bo'lgani kabi o'zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari keskin kamayib ketdi. Ko'chirib keltirilgan aholi oqimining ortishi munosabati bilan uy-joy muammosi haddan tashqarikeskin tus oldi. Elektr quvvati, yoqilg'i bilan ta'minlashdagi uzilishlar transport va kommunal xizmat ko'rsatish muassasalari ishiga salbiy ta'sir qildi. Urush har bir xonadonga, har bir oilaga yopirilib kirdi, odamlarni og'ir sinovlarga mahrumliklar va azob-uqubatlarga mubtalo qildi.

Mamlakatning dushman vaqtincha bosib olgan hududlarini va front yaqinidagi tumanlarni tashlab chiqqan dastlabki o'n minglab kishilar respublikaga 1941 yilning yozidayoq kela boshlagan edi. O'zbekiston urush yillari Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan – Ukrainadan, Belorusiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi.

O'zbek xalqi bu erga kelgan fuqarolarni mehmondo'stlik bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar-joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi. Ular uchun poyafzal, kiyim-bosh to'pladi. Ko'chirib keltirganlarga yordam berish maqsadida Farg'ona viloyatidagi "Birinchi may" qishloq xo'jalik arteli mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, sabzavot. Krtoshka, go'sht maxsulotlari ortilgan karvonlar etib kelgan.

Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'ziga 1941-yil 24-noyabrdan 31-dekabrgacha 37,6 mingdan ortiq kishi, 1941-1942-yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan a'minlandi.

O'zbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajralgan turli millatga mansub bolalarni g'amxo'rlik bilan qabul qildi. "Sen – etim emassan!" – o'zbek shoirining qalb qa'ridan otilib chiqqan bu samimiy so'zlar butun o'zbek xalqining hayajonli his-tuyg'ularini ifodalar edi. O'zbekistonliklar baxtsiz bolalarni o'z quchog'iga olish, ularning ko'nglini ko'tarish. Ularga qulay shart-sharoitlar yaratib berish uchun qo'llaridan kelgan barcha ishlarni qildilar.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil qilingan. O'sha yilning dekabrda evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar kecha-kunduz ishlab turdi. Faqat 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola qabul qilib olindi. Etib kelgan bolalar onalarcha mehribonlik bilan qarshi olindi. Ular Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va Namanganda tashkil etilgan oshxonalarda bepul ovqat olishardi. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilgan. Ko'pgiga oilalar ikkita va uchdan ortiq bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik temirchi SHoahmad SHomahmudov (1890-1970) va uning turmush o'rtog'i Bahri aya Akramova (1903-1987) lar 14 nafar bolani o'z oilalariga tarbiyalariga

oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 nafar turli millatga mansub bolani asrab oldi. Yangiyo'lda 9 ta kolxoz jamoasi ko'chirilib keltirilgan 169 nafar bolani o'z tarbiyasiga oldi. Buxorolik Muazzam Jo'raeva va Ashurxo'jaevalar o'z bag'rilariga 8 nafar bolani oladilar. 1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 nafar bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiya qilish uchun olingan edi. Ayniqsa, Shomahmudovlar oilasining vatanparvarlik faoliyati butun mamlakatda mashhur bo'ldi.

O'zbekistonda asta-sekin bolalar uylari. Maktab-internatlari, bolalar bog'chalari va yasilari tarmog'i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko'chirilib keltirilgan bolalarni va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar. 1945-yilda O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31 300 nafar bolani tashkil etdi. Holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi.

O'zbekistonliklar frontchilarning oilalariga ommaviy g'amxo'rlik qildilar. Bu g'amxo'rlik davlat byurokratik mashinasining illatlarini ko'p jihatdan yopib ketardi. 1941-yilda harbiy xizmatchilar va urush nogironlari oilalari uchun jamoatchilik yordamida 40 000 xonadon ta'mirlandi, 280 000 pud g'alla, 1250 bosh chorva mollari, 22 000 klmplekt kiyim-bosh etkazib berildi. 1942 yilda haddan tashqari muhtoj bo'lganlarga 5920 ta kvartira berildi, 81 000 ta kvartira ta'mirlandi. Harbiy xizmatchilarning oilalariga qariyb 330 tonna g'alla, sabzavot va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari berildi, 313 bosh chorva mollari tarqatildi.

Urushdan avvalgi yillarda O'zbekiston qishloq aholisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning tarkibi birmuncha sezilarli darajada edi. Chunonchi, 1939-yilda O'zbekistonning qishloq aholisi tarkibida ruslarning ulushi 4,4%ni, ukrainlar ulushi 0,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1959 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra ruslarning ulushi 3,3%, ukrainlarning ulushi 0,4%ga teng bo'ldi, ya'ni 1939-1959-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq aholisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning, avvalo evropalik aholining ulushi keskin qisqardi.

Mamlakatning asosiy millati – o‘zbeklarning soni va salmog‘i doimiy ko‘payib borishi, O‘zbekiston aholisi milliy tarkibi shakllanishi keyingi bosqichlarning o‘ziga xos asosiy xususiyati bo‘ldi. 1959-1970 yillarda o‘zbeklarning soni salkam 2,7 million kishiga ko‘payib, respublika aholisining umumiy tarkibida ularning ulushi 65,5%ni tashkil qildi. O‘zbekiston demografiya tarixining ko‘rilib chiqilayotgan bosqichida slavyan aholisi (ruslar va ukrainlar), shuningdek Markaziy Osiyoning qo‘shni xalqlari soni ham o‘sganligi ko‘rinib turibdi. Ayni vaqtda Markaziy Osiyo tub joy aholisining salmog‘i asosan avvalgi darajada qolayotgan bo‘lsa, mamlakat aholisining umumiy sonida ruslar va ukrainlarning ulushi qisqara boshladi.

Urushdan keyingi yillarda respublikada demografik jarayon urushdan avvalgi izga tushib oldi. Lekin urush tufayli kechiktirilgan nikohlarning amalga oshishi, erkaklar jangohlardan o‘z oilalariga qaytib kelishi, iqtisodiy sharoit va moddiy-maishiy hayot tarzi yaxshilanishi, tug‘ilish ko‘payib, o‘lim kamayishi tufayli aholining tabiiy ko‘payishi sur‘ati urushdan avvalgi darajaga nisbatan ancha tezlashdi. Natijada O‘zbekiston aholisi 1939 va 1959-yillarda o‘tkazilgan Butunittifoq aholi ro‘yxati orasida 1 mln 772 ming kishiga yoki 27,9 foizga ko‘paydi, anashu 20 yil mobaynida o‘rtachi yillik o‘sinh sur‘ati 1,25 faizni tashkil etdi. 1959 – 1970 yillar mobaynida O‘zbekiston SSR aholisi 3 mln. 681 ming kishiga yoki 11 yil ichida 45,3 foizga ko‘paydi, shu davr ichida o‘rtacha yillik o‘sinh sur‘ati 3,45 foizni tashkil etdi.

O‘zbekiston aholisining o‘sinh sur‘ati keyingi ikki aholi ro‘yxati o‘rtasida yanada tezlashdi: bu ko‘rsatgich bo‘yicha respublikamiz Tojikiston SSRdan so‘ng ikkinchi o‘ringa chiqdi. 1959 – 1970 yillarda mamlakatimiz va qardosh respublikalarning aholisi umuman quyidagi miqdorda ko‘paydi: SSSR aholisi – qariyb 16, RSFSR aholisi – 10,6, Ukraina SSR aholisi – 12,5, Belorusiya SSR aholisi – 11,7, O‘zbekiston SSR aholisi – 45, Qohog‘iston SSR aholisi – 41, Gruziya SSR aholisi – 15,4, Ozarbayjon SSR aholisi – 38,4, Litva SSR aholisi – 15,4, Moldaviya SSR aholisi – 23,7, Latviya SSR aholisi – 12,9, Qirg‘iziston SSR aholisi – 41,9, Tojikiston SSR aholisi – 46,4, Armaniston SSR

aholisi 41,3, Turkmaniston SSR aholisi – 42,4, Estoniya SSR aholisi – 13,3 foiz.

2.Urush yillarida sovet hokimiyatining deportatsiya siyosati va xalqlarning zo‘rluk bilan ko‘chirilishi. Urushdan ilgarigi va urush yillarida sovet davlati milliy siyosatining fojiali oqibatlaridan biri xalqlarning yashab turgan joylaridan zo‘rluk bilan ko‘chirilishi hisoblanadi. XX asrning 30-40-yillarida SSSR aholisining 60 dan ortiq milliy guruhlar deportatsiyaga duchor bo‘ldi. SHu jumladan 10 dan ortiq xalqlar va elatlar o‘zlarining yashab turgan joylaridan ommaviy ravishda mamlaktning boshqa hududlariga zo‘rluk bilan ko‘chirildi. SHu yillarda zo‘rluk bilan ko‘chirilgan xalqlarning soni 3,5 mln. Kishini tashkil etdi. Deportatsiyalar mamlakatning deyarli hamma hududlaridan, asosan, Rossiyaning shimoliy hududlari hamda Ural, G‘arbiy Sibir, Qozog‘iston va O‘rta Osiyoga ko‘chirish bilan amalga oshirildi. Deportatsiya qilingan xalqlarning katta qismi Ikkinchi jahon urushining yakuniga qadar Qozog‘iston va O‘zbekistonga joylashtirildi. Ommaviy ravishda ko‘chirilgan koreyslar, qrim-tatarlari, mesxeti turklari va boshqa xalqlar uchun O‘zbekiston asosiy joylashuv hududiga aylantirildi.

1937-yilda Rossiyaning Uzoq Sharqidan koreyslar birinchi bo‘lib ommaviy ravishda majburiy ko‘chirildi. 1937-yil 21-avgustda SSSR XKS va VKP (b) MKning “Uzoq SHarq o‘lkasining chegara rayonidagi koreys aholisini ko‘chirish to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, “Uzoq Sharq o‘lkasida yapon josuslarining tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida” shu hududning 23 ta chegara rayonlaridagi barcha koreys aholisini ko‘chirish va ularni Janubiy Qozog‘iston viloyati, Orol dengizi. Balxash atrofidagi tumanlar hamda O‘zbekistonga joylashtirish taklif etildi. Arxiv ma’lumotlariga keltirilishicha 1937-yilning 13-noyabriga qadar O‘zbekistonga Uzoq Sharqdan 16307 ta koreys oilasi (74500 nafar kishi) ko‘chirib keltirildi.

Urush yillarida O‘zbekistonga xalqlarning zo‘rluk bilan ko‘chirilishi davom etdi. “Jazolangan xalqlar”bunga eng xarakterli misol bo‘la oladi. Fashist bosqinchilari egallagan hududlardagi xalqlar ayrim vakillarining mavjud sharoitda bosqinchilar bilan hamkorlik qilganligi

holatlari kuzatildi va bu holat natijasida ayrim xalqlar asossiz ravishda “xoinlik”da ayblandilar.

Deportatsiyalarning birinchi zarbasi sovet nemislariga qarshi qaratildi. Mamlakatdagi nemis aholisini ko‘chirish sovet nemislarining okkupant va diversantlar bilan hamkorligining oldini olish choralari sifatida amalga oshirildi. Mazkur xalqlar orasida “o‘n minglab diversantlar va josuslar bor bo‘lib, Germaniyaning ishorasi bilan Volgabo‘yi rayonlarida qo‘poruvchilik ishlarini olib borishi mumkinligi” to‘g‘risida qayt etilgan edi. Mamlakatdagi nemislarning 1,2 mln. Ga yaqini ko‘chishga majbur qilindi. SSSR XKS va VKP (b) MK ning 1941 yil 12 avgustdagi “Volgabo‘yi nemislarini Qozog‘istonga joylashtirish” to‘g‘risidagi mutlaqo maxfiy qaroriga ko‘ra, 1941 yil avgust oyi oxiridan boshlab nemis aholisi ko‘chirila boshlandi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941 yil 28 avgustdagi “Volgabo‘yi rayonlarida istiqomat qiluvchi nemislarni ko‘chirish to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra boshqa hududlardagi nemis aholisi ham deportatsiya qilindi va ular Qozog‘iston, Sibir va Oltoy o‘lkasi hududlariga ko‘chirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida, asosan, Perm viloyati va Mari avtonom respublikasidan 35 000 nafar polyak fuqarolari ko‘chirilib, O‘zbekistonga joylashtirildi. O‘zbekiston hududida general V.Anders boshchiligida polyak armiyasi tashkil qilindi, armiyaning soni 1941-yil 25-oktyabrga kelib 42 000 nafar kishiga etdi.

1943–1944-yillarda ko‘plab xalqlar, jumladan, qalmiqlar, chechenlar, ingushlar, qorachoylar, qrim-tatarlari va boshqalar dushman bilan hamkorlik qilganligi bahonasida deportatsiya qilindi. Nohaqlik shundaki, jazo choralari alohida shaxslarga emas, balki butun bir xalqlarga nisbatan qo‘llanildi. Xoinlar va dushman bilan hamkorlik qilganlar o‘rtasida boshqa xalqlarning ham vakillari bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ukrainlar va ruslar tashkil etardi. Ma’lumki, bu xalqlarga nisbatan umuman olganda hech qanday ommaviy jazo choralari qo‘llanilmadi. Xalqlarning asosiy qismi o‘z hayoti, oilasi va Vatanini Germaniya agressiyasidan jonbozlik bilan himoya qildi. Fashistlar ustidan qozonilgan g‘alabaga SSSR xalqlarining bilashgan hatti-

harakatlari tufayli erishildi. Masalan, urush yillarida 60 ta millatga mansub 11 000 nafardan ko‘proq kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi (ular orasida 8 nafar qalmiq, 6 adigey, 5 abxaz, 2 nafar moldavan va boshqalar bor edi).

1943–1944-yillarga O‘zbekistonga qalmiqlar, qrim-tatarlari, greklar, armanlar, bolgarlar, Shimoliy Kavkazdan chechenlar, ingushlar, balqarlar, qorachoylar, Gruziyadan mesxeti turklari, kurdlar, hamshalar ko‘chirilib keltirildi. 1944-yil 13-apreldan boshlab, Qrim ozod etilganidan so‘ng, NKVD (Ichki ishlar xalq komissarligi) va NKGB (Davlat xavfsizligi xalq komissarligi) bu hududni sovetlarga qarshi unsurlardan tozalashga kirishdi. Bu esa qrim-tatarlarning yoppasiga ko‘chirilishini anglatar edi. Qrim tatarlar ko‘chirilganidan so‘ng, Davlat Mudofaa Komitetining 1944-yil 2-iyundagi “Qrim ASSR hududidan bolgarlar, greklar va armanlarni ko‘chirish to‘g‘risida”gi qarori hamda 1944-yil 24-iyundagi “Qrimdan muddati o‘tgan milliy pasportga ega bo‘lgan Turkiya, Gretsiya va Eron fuqarolariga mansub aholini O‘zbekistonga ko‘chirish to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra Qrimdan 41 854 nafar kishidan iborat greklar, bolgarlar, armanlar, nemislar, italiyaliklar, ruminiyaliklar, shuningdek, chet el fuqaroligiga mansub aholi ko‘chirildi. Ularning katta bo‘lmagan qismi, ya’ni 3652 kishidan iborat chet el fuqarolari, shu jumladan 3531 nafar Gretsiya, 105 nafar Turkiya va 16 nafar Eron fuqarolari (qo‘llarida muddati o‘tgan milliy pasportga ega bo‘lgan Turkiya, Gretsiya va Eron fuqaroligiga mansub mahalliy aholi) O‘zbekistonning Farg‘ona viloyatiga ko‘chirildi. Shunday qilib Qrimdan jami 225 009 nafar kishi ko‘chirilib, ulardan 155 256 nafari O‘zbekistonga joylashtirildi.

Keyingi navbatda Gruziya SSRdan mesxeti xalqlari ko‘chirildi. Davlat Mudofaa Komitetining 1944-yil 31-iyuldagi “Gruziya SSRning chegara hududlaridan mesxeti-turklari, kurdlar va hamshalarni ko‘chirish to‘g‘risida”gi mutlaqo maxfiy qarorga ko‘ra “Gruziya SSRning davlat chegaralarini himoya qilish shart-sharoitlari yaxshilash maqsadida” Gruziya SSRning chegara hududlaridagi 5 ta rayondan va Ajariya ASSRdan jami 92307 kishidan iborat mesxeti-turklari, kurdlar va hamshalar ko‘chirildi. Bu xalqlarning deportatsiyasi 1944-yilning 15-

noyabrida boshlandi. 1944-yil 25-noyabrdan 13-dekabrgacha O'zbekistonga Gruziyadan ko'chirilganlar bilan to'la 29 eshelon olib kelib tushirildi. Ular respublikamizning 7 ta viloyatidagi 43 ta rayonga joylashtirilgan. 1945-yil boshida Gruziyadan ko'chirilgan 53 827 nafar kishi O'zbekistonga joylashtirildi.

Urush mobaynida mamlakat bo'ylab maxsus manzilgohlardagi va surgan joylaridagi kishilar soni ortib bordi. Masalan, 1945-yil 1-aprelga qadar SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining Maxsus manzilgohlari bo'limlari hisobida 2 212 126 kishidan iborat maxsus ko'chirilganlar va surgan qilinganlar mavjud edi. 1952-yil 1-iyulgacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston SSR da maxsus ko'chirilganlar soni 186 310 nafar kishini tashkil etdi, ular respublikamizning viloyatlariga quyidagicha joylashtirildi: Andijon viloyatida – 21 395, Buxoro viloyatida – 7307, Samarqand viloyatida – 45 246, Qashqadaryo viloyatida – 6800, Namangan viloyatida – 11960, Surxandaryo viloyatida – 142, Toshkent viloyatida – 62 356, Farg'ona viloyatida – 29 967, Xorazm viloyatida – 82, va Qoraqalpoq ASSRda – 1046 nafar kishi joylashtirildi. Maxsus ko'chirilganlar orasida chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlar soni 2743 nafar kishini tashkil qildi.

Shunday qilib, xalqlarning zo'rlik bilan ko'chirilishi natijasida O'zbekistonda mamlakatning boshqa hududlarida bo'lgani singari, etnik ozchilikning joylashuv hududi ham ham kengaytirildi. Biroq o'sha davrda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bunday katta miqdorda ko'chirilganlarni qabul qilishga tayyor emas edi. Respublikamiz oldida bir qator murakkab masalalarni hal qilish vazifasi turardi. Respublikada nafaqat ko'chirib keltirilgan aholi uchun. Balki o'z aholisi uchun ham normal turmush sharoitlari mavjud emas edi. Turarjoy, oziq-ovqat etishmas, non va go'sht mahsulotlari O'zbekistonga boshqa respublikalardan keltirilardi. Ammo mudhish ko'chirish oqibatlari fojiali edi. Xalqlarning zo'rlik bilan ko'chirilishi ko'pgina oilalarning tarqalib ketishiga. Ko'plab qurbonlarga sabab bo'ldi. Ko'chirilganlar orasida hamda ular joylashtirilgan hududlarda demografik o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, Uzoq Sharqdan O'zbekistonga 74 500 nafar koreys ko'chirilgan bo'lsa, 1939-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxatiga ko'ra,

ularning soni 72 944 nafar deb qayd etilgan, ya'ni ularning soni 2 556 kishiga kamaygan. 1944-yil may-iyun oylarida O'zbekiston SSRga Qrimdan ko'chirib keltirilgan 151 609 kishidan ular kelgan vaqtdan boshlab to 1944 yil oxiriga qadar 16 052 nafar (10,6 foiz), 1945-yil davomida 13 183 nafar kishi (9,8 foiz) vafot etgan.

Shunday qilib, sovet davlati milliy siyosatining fojiali oqibatlaridan biri, xalqlarning yashab turgan joylaridan zo'rlik bilan ko'chirilishi bo'ldi. Deportatsiya siyosatini o'rganish mustabid tuzum siyosati va insoniy huquqlari paymol etilganligini ko'rsatadi. Deportatsiya siyosati shavqatsiz va noqonuniy ravishda o'tkazildi. Xalqlarning doimiy istiqomat joylaridan zo'rlik bilan ko'chirilishi natijasida ular muhtojlik va qiyinchiliklarga giriftor etildi. Majburiy ko'chirish katta qurbonlarga sabab bo'ldi, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy yo'qotishlarga ham olib keldi. Ko'chirilgan xalqlarning aksariyati ular uchun etnik va diniy jihatdan begona bo'lgan muhitda yashashga majbur qilindi. Bunday holat ularning yashash tarzi, madaniyati va ma'naviy darajasiga ta'sir etmasdan qolmadi. Mazkur xalqlarga nisbatan olib borilgan adolatsizliklarga qaramasdan, o'zbek xalqining bag'rikengligi, og'ir sinov yillarida ko'chirib keltirilgan xalqlarga do'stona munosabati natijasida yurtimiz ko'plab xalqlarning vataniga aylandi va ularning vakillari hozir mustaqil O'zbekistonimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqdalar.

Tayanch so'z va iboralar: tolerantlik, deportatsiya, majburiy ko'chirish, evakuatsiya qilingan, ikkinchi jahon urushi, agressiya, do'stona munosabatlar, greklar, bolgarlar, armanlar, nemislar, italiyaliklar, ruminiyaliklar, mesxeti-turklari, kurdlar, hamshalar.

10-Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Tarixiy shaxslar sharhi”** uslubi orqali mustahkamlash.

t.r.	Shaxslar	Kim bo'lgan	Tarixda qanday iz qoldirgan
1	I.V.Stalin		

2	A.Gitler		
3	SHoahmad SHomahmudov		
4	Bahri aya Akramova		
5	Hamid Samadov		
6	Muazzam Jo'raeva		

Mavzuni “*Tarixiy shaxslar sharhi*” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Mazkur jadval talabalarga taqdim etiladi.
2. Mazkur jadval talabalar to‘ldirishi uchun 6 daqiqa vaqt beriladi.
3. Mazkur jadval asosida talabalarga mustaqil fikr yuritishlariga imkon yaratiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘zbek xalqining hissasi haqida fikr bildiring?
2. Ikkinchi jahon urushi yillarida urush o‘choqlaridan qancha bolalar O‘zbekistonga ko‘chirildi.?
3. Uzoq Sharqdan O‘zbekistonga ko‘chirilgan koreyslar haqida nima bilasiz?
4. O‘zbekistonga Gruziyadan ko‘chirilgan mesxeti turklari haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
5. O‘zbekistonga deportatsiya qilingan xalqlar qanday qiyinchiliklarni boshidan kechirgan?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

6. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — 592 б.
7. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фалиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2018. — 508 б.

8. Мирзиёев Ш. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2019. — 400 б.
9. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари. 4-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2020. — 455 б.

Asosiy adabiyotlar:

10. Ўзбекистон тарихи (1917 — 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. — Тошкент: “O’zbekiston”, 2019. — 560 б.
11. Ўзбекистон тарихи (1917 — 1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. — Тошкент: “O’zbekiston”, 2019. — 576 б.
12. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир М.Жўраев. — Тошкент: “Шарқ”, 2000. — 688 б.
13. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. — Тошкент: Университет, 2007. — 183 б.
8. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане.-Ташкент: Узбекистан, 2010.-151с.
9. Муртазаева Р. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX — в начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. Учебное пособие для магистров. — Германия: Lambert, 2015.
10. Муртазаева Р.Х. Маҳалла — миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. — Тошкент: Mumto’z so’z, 2016.
11. Муртазаева Р. Маҳалла — фуқаролар ўзини ўзи бошқаруви институтининг ноёб намунаси. Илмий тўплам. — Тошкент: Mumto’z so’z, 2016.
12. Хайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи. (1917 — 1991 йиллар). — Тошкент: Abu matbuot konsalt, 2008. —Б.78-93.

Internet saytlari:

13. www.edu.uz.

14. www.ziyo.net.uz.

15. www.ec.edu.uz.

11-MAVZU: XX ASR 80-YILLAR OXIRIDAGI MILLATLARARO MOJAROLAR -TOTALITAR MILLIY SIYOSAT NATIJASI

Reja:

1. Qayta qurish va uning O‘zbekistondagi yangi siyosiy mafkuraviy vaziyatning shakllanishiga ta’siri.
2. O‘zbekiston SSR da “paxta ishi” va uning oqibatlari.
3. O‘zbekistonda 1989-yildagi millatlararo mojarolar va Farg‘ona voqealari.

1.Qayta qurish va uning O‘zbekistondagi yangi siyosiy mafkuraviy vaziyatning shakllanishiga ta’siri. XX asrning 80-yillari o‘rtalarida sovet jamiyatida “qayta qurish” tushunchasi iste’molga kirib keldi. 1985-yil arafasiga kelganda SSSR ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan chuqur tushkunlikni boshidan kechirayotgan edi. Sovet jamiyatida turmush darajasi va sifati, uning davomiyligi, kishilarning o‘rtacha umr kechirish darajasi, xususan, bolalar o‘limi, aholining keng iste’mol mollari va xizmatlari bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha SSSR nafaqat rivojlangan davlatlardan, balki taraqqiyoti o‘rtacha darajadagi kapitalistik mamlakatlardan ham ancha orqada qolib ketdi.

KPSS etakchisi va SSSR rahbari K.U.Chernenko vafotidan so‘ng KPSS Markaziy Komiteti Bosh kotibi lavozimiga saylangan M.S.Gorbachyov 1985-yil 11-iyunda “Partiya iqtisodiy siyosatining tub masalasi” nomli ma’ruzasida birinchi marta qayta qurish siyosatining ayrim jihatlarini to‘g‘ri ko‘rsatishga harakat qildi. Sovet jamiyatini qamrab olgan qayta qurish davrini quyidagi ikki bosqichga ajratish mumkin.

Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985–1986 yillar) – ma’muriy-tashkiliy tadbirlarning an’anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini

ishlab chiqarishga joriy etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asosida inson omilini faollashtirish mo'ljallangan edi. Bu paytda SSSR tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham mamlakatdagi qayta qurish jarayonlariga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987–1989-yillar) – jamiyatning barcha jabhalarini kompleks isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkoniyat yaratdi. Ammo mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga etkazish mumkin bo'lmadi. Zo'rayib borayotgan iqtisodiy tanglik, siyosiy boshboshdoqlik ijtimoiy adolatga siyosiy yo'l bilan erishish mumkinligiga ishonchsizlik uyg'otdi.

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan "qayta qurish" siyosati natijasida sobiq Ittifoq xalqlari o'z manfaatlari uchun kurash yo'lini tutib, kuchayib borayotgan milliy manfaatlarini himoya qilish sari harakat qila boshladilar. Sovetlar hukmronligi davrining so'ngi yillarida milatlararo munosabatlarning keskinlashuvi ko'p jihatdan markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida to'planib qolgan o'tkir milliy muammolar, ziddiyatlar hal etilmaganligi bilan bog'liq edi. Sobiq Ittifoqning bir qator mintaqalarida milatlararo munosabatlardagi tanglikni bartaraf etish yo'lini har bir hududdagi aholining milliy tarkibini bilmay va shu aholini tashkil etgan har bir millat va elatning manfaatlariga mos bo'lib tushadigan izchil siyosatni ishlab chiqmay turib topish mumkin emas edi.

Bu paytga kelib O'zbekistonda SHarof Rashidov siyosiy faoliyati va xotirasiga qarshi ommaviy kampaniya boshlandi. Bu kampaniyaning boshida 1985-yilda Toshkentga qaytgan hamda 1986-yil dekabrda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimini egallagan Rafiq Nishonov turdi. Xususan, u 1987-yil aprelda Toshkentda V.I.Lenin tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda qilgan ma'ruzasida o'zbek xalqining otashin farzandi bo'lgan Sharof Rashidov uchun tahqirli bo'lgan "sharof rashidovchilik" atamasini o'ylab topdi

hamda keyinchalik yozgan xotiralarida ham Sh.Rashidov siyosiy faoliyatini asossiz tarzda qoralash bilan shug'ullandi.

Qayta qurish borasidagi dastlabki tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakatning siyosiy rahbariyati birinchi kundanoq qayta qurish mafkurasini ishlab chiqishda nihoyatda ibtidoiy nuqtai nazar bilan yondashdi. Qayta qurish konsepsiyasi qardosh ittifoqdosh respublikalarning hayotiy manfaatlari va muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ularni o'rganishga asoslanmagan edi. Bu respublikalarning milliy manfaatlari to'g'risida esa dastlab mutlaqo fikr bildirilmadi. KPSS etakchisi va SSSR rahbari M.S.Gorbachyov 1987-yilda ruscha, 1988-yilda o'zbek tilida nashr etilgan "Qayta qurish va yangicha fikrlash mamlakatimiz va butun dunyo uchun" kitobida "Sotsialistik millatlar ittifoqi – noyob hodisa" deb nomlangan dabdabali shiorini o'rta tashlagani bilan aslida SSSR mustaqil respublikalar ittifoqidan iborat emas edi. Rus tili amalda SSSRda davlat tili bo'lib, barcha rasmiy uchrashuvlar va hujjatlar shu tilda olib borildi. Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab mamlakat hayotining barcha sohalarida buhronlar kuchayib ketdi. Bunga shu davrda turli respublikalarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar, mustaqillik uchun kurash, milliy nizolarning ayrim joylarda ixtilofli tus olishi ham misol bo'ladi. Haqiqiy o'zgarishlar jarayoni turli respublikalarda turlicha kechdi. Ayrimlar, shu jumladan O'zbekistonda ham, ona tili huquqlarini kengaytirishdan iborat kamtarona istaklar bilan qanoatlangan bo'lsa, boshqalar to'la davlat mustaqilligiga erishish rejalarini tuza boshlagan edi.

Sovetlar davrining so'ngi yillarida millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi milliy muammolarga e'tiborning kamayib ketganligi oqibatida yuzaga keldi. O'z navbatida demografik jarayonlar ham millatlararo munosabatlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'satdi. Aholi migratsiyasining, asosan, bir tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi, respublikadagi millatlarning tabiiy, o'sish darajasidagi farqlar, bir qator ijtimoiy muammolarning hal etilmaganligi kabi masalalar shular jumlasidandir.

Bu davrda bir tomondan, o'ta markazlashtirilgan ma'muriy – buyruqbozlik tizimidagi salbiy oqibatlar, ikkinchi tomondan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning to'planib qolganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muammolar jamiyat hayotining barcha sohalari qatorida millatlararo munosabatlarni ham og'irlashtirdi. Ammo millatlararo munosabatlar taranglashuvining sababini faqatgina iqtisodiy yoki ijtimoiy sohalardan izlash noto'g'ri bo'lardi.

Mustabid tuzumning milliy siyosati kommunistik partiyaning milliy masalani to'liq hal qilishi, kommunistik jamiyat qurulishi jarayonida mamlakatdagi barcha millatlarning qo'shib ketishi asosiy qoidalari negizida yuritildi. Bunday siyosatning aniq ko'rinishlardan biri ko'p millatlilikning sun'iy ravishda rivojlantirishga qaratilgan edi. Zero respublikalar qanchalik ko'p millatli bo'lsa, millatlarning birlashib ketishiga shunchalik sharoit yaratiladi degan, fikr bor edi. Lekin ko'p millatlilikning o'sishi faqatgina tabiiy-tarixiy jarayon chegaralarida ro'y bergan holdagina ijobiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. U ham bo'lsa ma'lum bir doiragacha, keyin esa salbiy rol o'ynay boshlaydi. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu xalqning yakkalanib yashashi hech qachon uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin ko'p millatlilikning sun'iy aholi migratsiyasi hisobiga amalga oshirilishi natijasida respublikalarda milliy madaniyat til va urf-odatlarining o'ziga xosligiga putur etdi.

Bu jarayon O'zbekistonda yaqqol ko'zga tashlandi. O'zbekistonda 1926-yilda 91 ta millat vakillari yashashi qayd etilgan edi, bu ko'rsatkich 1959-yilda 113 tani 1979-yilda 123 tani 1989-yilda esa 127 tani tashkil etgan. Milliy masalaga bo'lgan e'tiborning kamayishi keyinchalik o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 80-yillarning oxiriga kelib, "qayta qurish" siyosatining jamiyat hayotiga so'z erkinligi, oshkoralik, demokratiya kabi tamoyillarni olib kirishi millatlararo munosabatlar qanday ahvolda ekanligini aniq namoyon etdi. Ko'pgina mintaqalar (Tog'li Qorabo'g', Checheniston, Farg'ona, Abxazia) da millatlararo nizolar va mojarolar avj oldi.

2.O'zbekiston SSR da "paxta ishi" va uning oqibatlari.
O'zbekistonda sovet rejimi tomonidan amalga oshirilgan

kampaniyalarning eng oxirgisi “paxta ishi” sifatida tarixga kirgan. Paxta ishi – sovet rejimi tomonidan O‘zbekistonda 1983–1990-yillarda keng miqyosda olib borilgan sud-tergov jarayonlarining rasmiy nomi. SSSR rahbari Yu.V.Andropov tashabbusi bilan 1983-yil fevralda KPSS MK Siyosiy byurosi O‘zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko‘zbo‘yamachilik bo‘yicha tekshirishlar o‘tkazish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qilib, bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov kamissiyasini tuzishni topshirdi. 1983-yil aprelda T.X. Gdlyan va N.V.Ivanov rahbarligida ana shunday maxsus tergov guruhi tuzildi. SSSR Bosh prokuraturasining tergov qismi boshlig‘i G.P.Karakazov bu guruh faoliyatini boshqarib turishi kerak edi.

SSSR Bosh prokurori huzurida alohida muhim ishlar bo‘yicha maxsus tergovchilar guruhlarini tuzilib, 1983-yil boshlaridayoq O‘zbekistonga yuborildi. Bu guruhlariga T.Gdlyan, N.Ivanov, V.Kalinichenko, Lyubimov, Sviderskiy, Korolyov, Maydanyuk, Mavrin va boshqalar rahbarlik qilishgan. T.Gdlyan va N.Ivanov guruhi qo‘lga olgan birinchi ish 1983-yil 27-aprelda qamoqqa olingan Buxoro oblast ijroiya komiteti ichki ishlar boshqarmasi xodimlari (A.Muzaffarov va boshqalar) hamda Buxoro shahar sanoat mollari savdosi direktori SH.Qudratovni ayblashdan boshlangan edi. Bu tergovchilar keyinchalik Markazdan respublikaga kelgan “desantchilar” partiya, sovet va xo‘jalik rahbarlariga tayanib, O‘zbekistonda keng miqyosli sud-tergovni amalga oshirdilar.

Sovet Ittifoqining barpo etilishi eng buyuk yutuqlaridan biri, xuddi vaqt sinovlarida chiqqan teng huquqli millat va xalqlarning ittifoqi sifatida ko‘rsatilardi. Respublikalarda rivojlanib borayotgan milliy-demokratik harakatlarga Markaz “jiddiy xudbinlik va mahalliychilik” ning ko‘rinishi deb qaradi. O‘zbekistonda bunday katta jinoyat deb yuritilayotgan masala “paxta ishi” va keyinchalik “o‘zbek ishi” deb nomlandi.

SSSR Fanlar akademiyasi olimlari o‘tkazgan hisob kitoblarga ko‘ra, qo‘shib yozish butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning 3 foiziga teng bo‘lgan. Hamashyo etkazish sohasida esa qo‘shib yozish 5-25 foiz atrofida bo‘lgan. Bu holat O‘zbekistonga

nisbatan boshqa ittifoqdosh sovet respublikalarida ham avval boshlangan, ham uning ko'lamida katta bo'lgan. Masalan, 1977-yilda Belarussiya SSRda qo'shib yozishga yo'l qo'yilganligi 1075 nafar kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. S.F. Medunov boshqargan RSFSR ning Krasnodar ahvoli undan ham battar bo'lgan. SSSR ning o'sha paytdagi siyosiy rahbari Mixail Sergeyvich Garbachev 1970-1978-yillarda KPSS Stavropol o'lkasi birinchi sekretari lavozimida ishlagan davrda bu erda korrupsiya, poraxo'rlik va qo'shib yozish avj olgan. 1983-yili O'zbekiston SSRda qatag'onning yangi bosqichi boshlanib, go'yoki Sovet Ittifoqidagi barcha jinoyatlar faqat O'zbekistonda sodir qilindi. Uni faqat o'zbeklar amalga oshirdi degan fikr jamoatchilik ongiga singdirildi.

O'zbekistonda paxta tayyorlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi qo'shib yozish, o'g'irlik, ko'zbo'yamachilik, poraxo'rlik va shu kabi jinoyatlarni tergov qiluvchi maxsus guruxlar [aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qing'irliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib ketganligi yuqorida ko'rsatildi] ning talabi bilan respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va savxoz direktorlarining 60 foizi qishloq xo'jaligi etakchi mutaxassislarining 45 foizi, paxtachilik brigada boshliqlarining 35 foizi, shuningdek O'zbekiston paxta tozalash sanoati vazirligi tizimidagi ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosdagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi. Ayrim sobiq rahbarlar qamoqqa tushmaslik uchun o'z jonlariga qasd qilishdi.

Aslini olganda Gdlyan guruhidagi tergovchilarning miqdori ba'zi yillarda 500-600 kishiga etgan. Qamoqqa olinganlar orasida O'zbekistonning sobiq rahbarlaridan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari Inomjon Usmonxo'jaev O'zbekiston Kompartiyasining ikkinchi sekretari Timofey Osetrov O'zbekiston Kompartiyasi MK ideologiya sekretari Ra'no Abdullaeva, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi G'ayrat Qodirov, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Oqil Salimov, Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti raisi Erejep Aytmuratov, Qoraqalpog'iston

oblast partiya komiteti birinchi sekretari Qallibek Kamolov, shuningdek, Buxoro (Abduvohid Karimov va Ismoil Jabborov), Samarqand (Nazir Rajabov), Surxondaryo (Abduxoliq Karimov) Toshkent (Mirzamahmud Musaxanov), Fargʻona (Hamdam Umarov), Navoiy (Vasiliy Esin) oblastlari partiya komitetlarining birinchi sekretarlari bor edi. Shuningdek, Oʻzbekiston SSR ichki ishlar ministri Xaydar Yaxyoev, generallardan Toshtemir Qahramonov (u sud zalidan ozod qilindi), M.Norov, X.Norboʻtaev, D.Jamolov, I.Sattorov, S.Sobirov va Namangan oblasti Lenin nomidagi agrosanoat birlashmasi raisi Ahmadjon Odilov va boshqalar bor edi. Oʻzbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri Vaxob Usmonov SSSR Oliy sudi tomonidan 1986-yilda oʻlim jazosiga hukm qilindi, hukm 1987-yil ijro qilingan. Namangan va Samarqand oblastlari partiya komitetining birinchi sekretari lavozimida ishlagan Nazir Rajabov 9 oy hibsda yotgach, 1989-yil 19-iyulda tergov olib borilayotgan paytda Moskvadagi qamoqxonadan aybsizligi uchun qoʻyib yuborildi. Raʼno Abdullaeva esa Moskvadagi Matrosskaya tishina qamoqxonasida aybsiz 2,5 yil oʻtirgach, SSSR Oliy sudining 1990-yil 15-yanvarda boʻlgan sud majlisining oʻzida ozodlikka chiqdi. Ahmadjon Odilov ham Moskvadagi Butirka qamoqxonasida 7,5 yilga yaqin tergovda oʻtirgach, 1991-yil dekabrda Oʻzbekistonga etap qilindi. U 1991-yil 24-dekabrda Toshkentda boʻlgan sud majlisida ozod etildi. Oʻzbekiston SSR ichki ishlar sobiq ministri Qudrat Ergashev 1984-yil 15-avgustda va uning oʻrinbosari Davidov 1985-yil 17-mayda oʻzlarini otib oʻldirdilar.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, “paxta ishi” ning haqiqiy mohiyati yana ham teran ochib tashlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov 1991-yil 25-dekabrda “Paxta ishi” bilan sudlanib, respublika hududidagi axloq-tuzatish muassasalarida jazo muddatini oʻtayotgan mahkumlarni avf etish toʻgʻrisi”dagi Farmonga imzo chekdi. Shunga koʻra juda koʻpchilik mahbuslar qolgan jazo muddatini oʻtashdan ozod etildilar.

Xullas, sovet hokimiyati tomonidan tashkil etilgan paxta ishi natijasida Oʻzbekistonda minglab kishilar jazolandi. Xalq xoʻjaligi sohasida qoʻshib yozish, poraxoʻrlik va korrupsiyaga aloqador

jinoyatlar SSSRning deyarli barcha hududlarida yuz bergan bo'lsa ham "tajriba maydoni" sifatida O'zbekiston tanlandi hamda jinoiy ishga aloqador gunohkorlardan tashqari ko'plab odamlar aniq va etarli dalillarsiz jinoiy javobgarlikka tortildi. Kommunistik mafkura bu bilan cheklanmasdan "paxta ishi" ni "o'zbeklar ishi" ga aylantirishga urindi. Sud-tergov jarayonida Markaz rahbariyati vakillaridan tashqari O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati xalqimiz orasidan chiqqan hamda tergovchilar bilan hamkorlik qilgan va ularning g'arazli ishlariga ko'maklashgan ayrim kishilar ham ishtirok etdi.

3.O'zbekistonda 1989-yildagi millatlararo mojarolar va Farg'ona voqealari. Tarixiy voqelik ittifoq o'z umrini yashab bo'lmayotganligi, uning parchalanishi muqarar ekanligini ko'rsatib turardi. Biroq, 1989-yilgacha bu muammo amalda muhokama qilinmasdi, aksincha, kuchli davlat targ'ibot mashinasi xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayonini so'ndirishga qaratilgan edi. O'zbekistonda Boltiqbo'yi respublikalarning siyosati va Tog'li Qorabog'dagi voqealar qattiq qoralanardi.

Farg'ona vodiysida XX asr 80-90-yillarida o'ziga xos murakkab demografik vaziyat hukm surgan. Tarixan yuzaga kelgan aholi tabiiy o'sish darajasining tezlashuvi natijasida mintaqada siyosiy-iqtisodiy va etnodemografik muammolar keskinlashuvi sodir bo'lgan va bu ma'lum darajada o'ziga xos chigal ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik sharoitni yuzaga keltirgan. Ma'lumki, Ikkinchi jahon urushi davrida SSSR Davlat Mudofaa Komiteti rahbari I.V. Stalinning 1944-yil 14-noyabrdagi qaroriga ko'ra, 120 000 nafar mesxeti turklari Gruziyaning janubi-g'arbiy hududidagi tarixiy Mecxetiya va Javaxetiya viloyatlaridan O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalariga ko'chirildi. O'rta Osiyoga deportatsiya kilingan mesxeti turklarining eng ko'p qismi O'zbekistonga joylashtirilgan edi. Ba'zi ma'lumotlarga karaganda, 1989-yilda mesxeti turklarining O'zbekistondagi umumiy miqdori 106 700 nafar bo'lib, ulardan Toshkent viloyatida 43200 kishi, Samarkand viloyatida 18500 kishi, Sirdaryo viloyatida 18700 kishi, Farg'ona viloyatida 13600 kishi (aslida Farg'ona viloyatida ular 17000 kishi bo'lgan), Andijon viloyatida 5000 kishi, Namangan viloyatida 3000 kishi, Buxoro viloyatida 1500

kishi istiqomat qilgan. Mesxeti turklarining katta guruhlaridan biri Farg‘ona vodiysiga joylashtirilgan edi. Ular, asosan, viloyatning Kuvasoy shahrida, shuningdek, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlarida, Toshloq, Komsomolsk (hozirgi Yangi Marg‘ilon) posyolkalarida, Oxunboboev, Quva, Rishton, Farg‘ona, Kirov (hozirgi Beshariq) rayonlarida yashar edilar. Ularni qishlok joylarida joylashtirishga buyruq berilgan bo‘lsa ham, biroq mesxeti turklari ko‘prok viloyatning shaharga yaqin va rayon markazlarida joylashtirildi. Quvasoy shahri Farg‘ona viloyatining sharqiy qismida, Qirg‘izistonning O‘sh viloyati chegarasiga yaqin joyda joylashgan edi. 1989-yil 1-iyunda shahar aholisi 58400 kishi bo‘lib, uning milliy tarkibi xilma-xilligi bilan ajralib turar edi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti uchun tayyorlangan maxsus ma’lumotnomada keltirilishicha, Quvasoyda 47 ta turli millat va elat vakillari, jumladan, 29100 nafar o‘zbeklar, 15000 nafar tojiklar, 7200 nafar qirg‘izlar bilan birgalikda 4340 nafar mesxeti turklari, 1400 nafar qrim-tatarlari, 6600 nafar ruslar istiqomat qilgan. Farg‘ona voqealari etnik va maishiy asosda (turli millat vakillarining restorandagi o‘zaro mushtlashuvi) bilan boshlangan bo‘lishiga karamasdan, fojiaoning chuqur ildizlari Farg‘ona vodiysida yashaётgan aholining, eng avvalo, o‘zbeklarning og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog‘liq edi.

Quvasoyda 1989-yil may oyida bo‘lgan bir qancha bezoriliklar, ayniqsa, mesxeti turk ёshlarining tartibsizliklarni keltirib chikishlari Farg‘ona boshlanishiga bir turtki vazifasini o‘tadi. Bu holatdan mesxeti turklari vaziyatni keskinlashtirib, o‘z tarixiy vatanlariga qaytishni tezlatish yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lishadi. Quvasoyda yashovchi mesxeti turklarining aksariyati savdo muassasalarida, maishiy xizmat va boshqa shu kabi sohalarda faoliyat olib borishar, shahardagi ko‘pgina daromadli jabhalarda ham ushbu xalq vakillari xizmat qilar, natijada bu erdagi juda ko‘p er uchastkalari va qurilish ob‘ektlari ularning hissasiga to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun bu davrda Quvasoydagi boshqa millatlarga nisbatan mesxeti turklarining iqtisodiy ahvoli nisbatan yaxshi edi. Xullas, “tadbirkor va uddaburon” bo‘lgan mesxeti turklari mahalliy hokimiyat organlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lib, iqtisodiy jihatdan

ularni “ta’minlab” turishgan. Quvasoy shaxrida hukm surgan ijtimoiy tanglik natijasida unda yashovchi turli millatlar, jumladan o‘zbeklar va mesxeti turklari orasida janjal chiqadi. Natijada, ular o‘rtasida jiddiy qonli to‘qnashuvlar yuz beradi.

Quvasoyda bo‘lgan to‘qnashuv va mojarolarning oldini olish komissiyasi tarkibida Toshkentdan maxsus jo‘natilgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti bo‘lim mudiri Sh. Ziyomov va mas’ul xodim P. Abdurahmonov 26 mayda “Farg‘ona viloyatining Quvasoy shaxrida milliy asoslarda yuzaga kelgan salbiy voqealar haqida” maxsus axborot tayyorlaydilar. Unda mualliflar sodir bo‘lgan voqealarning asl mohiyatini aholiga to‘g‘ri tushuntirish lozimligi, Farg‘ona viloyatidagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni zudlik bilan hal etish chora-tadbirlarini, bu voqealarning boshka xududlarda yuz berishi oldini olish uchun harakat qilishni taklif etganlar. Biroq, O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti ideologiya sekretari M. Xolmuhamedov tomonidan zaruriy chora-tadbirlar ko‘rilmaydi, aksincha, O‘zbekistonda millatlararo to‘qnashuvlar haqidagi barcha ma’lumotlar sir saqlandi hamda dastlab matbuotda xech kanday ma’lumot e’lon kilinmaydi. Natijada O‘zbekistondagi turli boshqaruv organlari, respublika aholisi o‘z vaqtida Farg‘ona fojialarining mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga xavfli ta’sirini etarlicha anglamaganlar, o‘sha paytdagi siësiy rahbariyat tomonidan o‘z vaqtida bu fojialarga to‘g‘ri va haqqoniy baho berilmagan. Yuz bergan to‘qnashuvlarga sovuqqonlik va loqaydlik bilan yondashish keyinchalik fojining Farg‘ona vodiysi va respublikaning boshqa xududlariga tarqalishiga, vaziyatning o‘ta qaltis va murakkab bo‘lishiga olib keladi.

O‘sha paytdagi O‘zbekiston SSR rahbari R.Nishonov o‘z chiqishlarida “bizning respublikamiz millatlararo munosabatlar borasida eng xotirjami” deb ta’kidlardi. Hatto Farg‘ona fojealari avj olib turgan paytda ham, ya’ni 1989-yil yozida R.Nishonov “Xammasi yaxshi, hammasi joyida. Farg‘onada tinchlik. U erda ikki bezorining bir chelak qulupnay ustidagi janjali bo‘lgan xolos”, deb bamaylixotir o‘tirardi.

Farg‘ona viloyatidagi birinchi katta qonli to‘qnashuv Marg‘ilon shahrining shimoli-sharqida joylashgan Toshloq rayonida yuz beradi.

Toshloqda bu davrda 20 ga yaqin turli millat vakillari istiqomat qilar, mesxeti turklariga mansub aholi 2300 nafardan ortiq kishini tashkil etgan. Bundan tashqari Farg‘ona viloyatining boshqa hududlarida bo‘lgani kabi Toshloq rayonida ham bu davrda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar to‘planib qolgan edi. Shu yilning 3 iyunida Toshloqda fojiali voqealar boshlangan. Toshloq shaharchasidagi “Avrora” nomli kinoteatr oldida bir guruh mahalliy yoshlar to‘planib, rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, Internatsional ko‘chasi bo‘ylab yurishgan va yo‘llarida uchragan mesxeti turklarini ura boshlashgan, uylarining deraza va eshiklarini sindirishgan. Ularga qarshi Farg‘onadan viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i general-mayor S.YU.Burxonov rahbarligida ichki ishlar bo‘limining maxsus bo‘linmasi kelib, faol harakatlar boshlagan hamda namoyishchilarni Navoiy ko‘chasiga surib chiqargan hamda ulardan 12 nafar kishini ushlab xibsga olishgan. Biroq 3000 ga yaqin yoshlar tarqalmagan Farg‘ona viloyati prokurori A. Otajonov va Toshloq rayon partiya komitetining ikkinchi kotibi V. Danilov namoyishchi yoshlarga murojaat etib, militsiya xodimlari bilan birgalikda beboshlikni to‘xtatishga harakat qiladi, ammo natija bo‘lmaydi. Namoyishchilar va militsiya xodimlari o‘rtasida yuz bergan to‘qnashuvdan so‘ng namoyishchilarni Marg‘ilon shahri tomonga surib chikarilgan.

Marg‘ilon shahrida 3-iyun kuni peshindan keyin ommaviy tartibbuzarliklar sodir bo‘lgan. Uylar yondirilgan, trolleybus va avtobuslarga hujum qilingan, ayrim kishilar kaltaklangan. Namoyishchilar Kirov, K.Marks ko‘chalaridan o‘tib, Komsomolsk posyolkasi tomon yo‘l olishgan. Bu erda ko‘plab mesxeti turklari oilalari yashar edi. Militsiya xodimlari esa ularning yo‘lini to‘sa olmaydi. Bu paytda yoshlar Toshloq shaharchasida yana to‘plana boshlaydi. Toshloq rayon partiya komitetining birinchi kotibi O. Sobirov rahbarligida mesxeti turklarni rayon binosiga evakuatsiya kilingan. Kechga yaqin yoshlar oqimi yana Marg‘ilon shahri tomon yurib, bir necha uylar yondirilgan va bir necha kishi kaltaklangan. Toshloq rayonida bo‘lib o‘tgan fojiali voqealarning bevosita guvoxlaridan biri Toshloq rayon partiya komitetining birinchi sekretari O. Sobirov keyinchalik ro‘y

bergan voqealarning sabablariga to'xtalib shunday dedi: "Hozir ayrim kishilar bu voqealarni o'zbeklarning mesxeti turklariga qarshi harakati deb atayapti. Aslida, bu voqealarning guvohi sifatida shuni aytmoqchimanki, rayonda bo'lib o'tgan qonli voqealarga bunday baho berish butunlay noto'g'ri bo'lar edi. Chunki rayonimizda yashab kelgan mesxeti turklarining hayotini saqlab qolishda va ularning xavfsizligini ta'minlab, evakuatsiya qilishga yordam berganlar ham o'zbeklar bo'ldi. Ko'plab mesxeti turklarini ko'zida yosh bilan kuzatgan o'zbeklar hali ham ko'z o'ngimda turibdi".

1989-yilning 3-iyunida Marg'ilon yaqinidagi Komsomolsk posyolkasida bo'lgan to'qnashuvda 10 kishi (ulardan 4 nafari mesxeti turklari) o'ldirilgan. Oxunboboev rayonidagi Surxtepa qishloq fuqarolar yig'ini hududida 3 iyun kuni bo'lgan xunrezliklar natijasida jami 20 kishi halok bo'ladi. Mesxeti turklarining uylari, shuningdek, 5 nafar o'zbeklarning ham hovlisi yokib yuborilgan. Ichki ishlar Toshloqda ro'y bergan bu beboshlikni to'xtatish maqsadida rayonlar boshqarmasi xodimlari va Ichki ishlar ministrligining maxsus militsiya polki bu erga etib kelgan, partiya-xo'jalik faollaridan ko'ngilli drujinachi otryadlar tuzilgan.

Nizolarning oldini olish va tegishli choralar ko'rish uchun 3-iyunda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi G'.H. Qodirov raisligida respublika hukumat komissiyasi tuzilgan. G'. Kodirov o'sha kuni Moskvadan etib keladi. Biroq, 16 kishidan iborat hukumat komissiyasining to'liq tarkibi faqat 6 iyunda shakllantiriladi. Bu vaqtga kelib fojiali voqealar Farg'ona viloyatining boshqa rayonlariga ham tarqalib ulgurgan edi. 4-iyun ertalab Qo'qon shahridan militsiya xodimlari Toshloqqa tashlanadi. Bu paytda rayonda vaziyat boshqarib bo'lmaydigan darajada izdan chiqib ketadi. Olamon orasida tayoq va temirlar, pichoq va boltalar, turli xil narsalar bilan qurollangan bezorilar faollik ko'rsatishar edi. Mesxeti turklari hujumga tayyorlanayapti deb o'ylagan mahalliy aholi ham raykom binosi oldiga to'plana boshlaydi. To'planganlar soni 1000 nafardan oshgach, ular ikki qismdan iborat kuyidagi talabnomani raykomga topshirishadi:

1. Ushlanganlar ozod qilinsin. 2. Mesxeti turklari Farg‘onadan zudlik bilan ko‘chirilsin. Talabnomaga rad javobi olingandan keyin olomon raykom binosiga hujum qiladi. Militsionerlardan biri olomonga karata avtomatdan o‘q uzganidan keyin 2 kishi halok bo‘ladi va olomon chekinadi. Keyinchalik ichki ishlar bo‘limi va raykom binosiga yana hujum 5-6 kishi yaralanadi. Natijada militsiya xodimlaridan 15 kishi yaralanadi, 1 nafari esa halok bo‘ladi. Farg‘ona shahri atrofida, Toshloq va Oxunboboev rayonlarida, Marg‘ilon shahrida og‘ir ahvol yuzaga keladi. Farg‘ona fojialari to‘g‘risidagi dastlabki rasmiy xabarlar respublika matbuotida faqat 6-iyunda e‘lon qilinadi. Biroq bu ma‘lumotlarda fojيانing ko‘lami noto‘g‘ri talqin qilinadi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi G‘. Qodirov, SSSR Ichki ishlar ministri V. Bakatin, O‘zbekiston SSR Ichki ishlar ministri U.Raximov, Farg‘ona oblast partiya komiteti birinchi sekretari Sh.Yo‘ldoshev ishtirokida viloyat partiya faollarining yig‘ini bo‘lib o‘tadi. Vaziyat og‘irlashgach Farg‘ona viloyatidan 3000 nafar mesxeti turklari evakuatsiya qilingan. Viloyat partiya faollari yig‘ilishida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari Rafik Nishonov kuyidagi ma‘lumotlarni keltiradi: “Aniqlanishicha, fojiali voqealar natijasida 93 kishi halok bo‘ldi. SHundan 64 kishi mesxeti turklari, 17 nafari o‘zbeklar, qolganlarining millati aniqlanmoqda. Halok bo‘lganlar orasida bolalar yo‘q. Ichki ishlar ministrligi ichki qo‘shinlarining 178 nafar harbiy xizmatchisi, 57 nafar militsiya xodimi yarador bo‘ldi, shu militsiya xodimlaridan biri vafot etdi. Viloyatda 700 dan ko‘proq uy va boshqa imoratlarga, 168 ta transport vositasiga o‘t ko‘yildi”.

Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, 5-iyunda Toshloq tumanida vaziyat osoyishta bo‘layotgan edi. Bu erga SSSR Ichki ishlar ministrligining ichki qo‘shin askarlari kiritilgan. Ular uch kun davomida mahalliy aholi erdami bilan 1000 nafar mesxeti turklarini maxsus tashkil qilingan qochoqlar lageriga yuborishga ko‘maklashgan.

Sovet rahbarlari o‘z jinoyatlarini yashirish uchun tinch namoyishchilarni (ular, asosan, o‘zbek yoshlari edi) “ekstremistlar”, “ko‘zi qonga to‘lgan banditlar”, nashavandlar, “millatchilar”,

“bosmachilar” kabi soxta yorliqlar bilan atab, xalqqa qarshi qaratilgan zo‘ravonlik qilmishlarini oqlashga urindilar. Natijada sovet askarlari va ularning rahbarlari hech qanday jazosiz qoldirildi. Markaziy, respublika va mahalliy matbuotda Farg‘ona fojialari bir tomonlama yoritildi.

Mamlakatdagi millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi hukumatni bu masalaga ko‘proq diqqat-e‘tibor bilan yondashishga majbur etdi. 1989-yil 20-sentyabrda KPSS MQning maxsus milliy muammolarga bag‘ishlangan Plenumi bo‘lib o‘tdi. Tez orada KPSS MQ ning partiyaning XXVIII s‘ezdida qator talablar ilgari surildi. Unda milliy muammolar asosiy o‘rinni egallagan edi. Sovet ittifoqi ko‘pgina muammolarni, jumladan, millatlararo munosabatlar muammosini ham o‘zidan “meros” qilib qoldirdi. Mustaqil O‘zbekiston oldida millatlararo munosabatlarni yaxshilash va barqarorlikni saqlash kabi muhim vazifalar ko‘ndalang turar edi. Bunday vaziyatda millatlararo totuvlikni saqlash respublikaning asosiy, titul millati bo‘lgan o‘zbeklar zimmasiga tushdi. O‘zbekistonda o‘tmish davrida millatlararo munosabatlarda barqarorlik saqlanib turishi o‘zbek xalqida boshqa millatlarga nisbatan boshqa millatlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lish, tarixan shakllangan do‘stlik va kengfellik fazilatlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: Sotsialistik millatlar ittifoqi, “Qayta qurish”, ma’muriy-buyruqbozlik, “paxta ishi”, “o‘zbek ishi”, mesxeti turklari, qrim tatarlari, Mecxetiya, Javaxetiya, diniy adovat, “ekstremistlar”, “ko‘zi qonga to‘lgan banditlar”, nashavandlar, “millatchilar”, “bosmachilar”.

11-Mavzu mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -“Aqliy hujum” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Sovet Ittifoqi qanday davlat edi?
2. Qayta qurish siyosati – bu...
3. K.U.Chernenko kim?
4. M.S.Gorbachyov kim?

5. Iqtisodiy tanglik nima?
6. Sotsializm bu- ...
7. “Desantchilar” kimlar edi?
8. “Paxta ishi” bu- ...
9. Mesxeti turklari bu -...
10. Farg‘ona foje’asi bu -...

Topshiriqni bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

-“Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalaridan muhimi-tezlik bilan masala mohiyatini ochib berishdan iborat.

- Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.

- Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi

-Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. XX asrning 80-yillari o‘rtalarida sovet jamiyatidagi “qayta qurish” tushunchasi haqida nima bilasiz?
2. O‘zbekistonda paxta ishi bilan bog‘liq jinoyatlar tergov to‘g‘ri amalga oshirildimi?
3. “Paxti ishi” uydirmalarida respublikamizda qancha rahbar xodimlar jazoga totildi?
4. Farg‘ona fojealarini keltirib chiqargan omillar haqida nima bilasiz?
5. Mesxeti turklarining tarixiy vatanlari qaerda va ular nima sababdan O‘zbekistonga ko‘chirilgan edi?

Asosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев,

- М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – 560 б.
2. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. –576 б.
 3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: “Шарқ”,2000. –688 б.
 4. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко – демографический аспект. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.
 5. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2007. – 183 б.
 6. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. –Ташкент: Узбекистан, 2010. –151с.
 7. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu Matbuot-konsart, 2009. – 176.
 8. www.edu.uz.
 9. www.ziyo.net.uz.
 10. www.ec.edu.uz.

12-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BAYNALMINAL MARKAZINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

Reja:

- 1.O‘zbekistonda baynalmilal madaniy markazning tashkil etilishi va uning millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o‘rni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Respublika Baynalminal madaniyati markazining tashkil etilgannining 25 yilligiga bag‘ishlangan nutqi xususida.

1.O‘zbekistonda baynalmilal madaniy markazining tashkil etilishi. 1992-yil 13-yanvarda Vazirlar Mahkamasining 180-qaroriga ko‘ra “Respublika Baynalmilal Markazi” tashkil topdi. Hozirgi kunda 137 ta “Milliy-madaniy markaz”, faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu milliy madaniy markazlarning asosiy vazifasi o‘ziga xos milliy an‘analari, urf odatlar, marosimlarni tiklagan holda keyingi avlodlarga etkazib berish va o‘zaro ahil inoqlikda bir-birini madaniyatini boyitib, umumiy uy bo‘lgan O‘zbekistonda ulkan oila bo‘lib yashashdir. Ayniqsa, Respublika Baynalmilal markazining millatlar o‘zaro totuvligini ustahkamlashda katta ishlarni amalga oshirayotgani fikrimizning dalilidir. Masalan, ushbu madaniy markazlar har yili milliy bayramlarimiz - mustakillik va Navro‘z tantanalarida o‘zlarining milliy, amaliy san‘ati va kuy-ko‘shiqlari bilan katnashib, barcha millatlarning dillarini xushnud etmokedalar. Bu esa ularni bir-birlari bilan yanada yaqinlashish va har sohada hamkorlik tuyg‘ularini shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmokda. Bundan tashqari har uch yilda bir marta “O‘zbekiston umumiy uyimiz” deb nomlangan festival, har yili “Kudratimiz birlik va xamjixatlikda”, “Vatan yagonadir va bittadir”, “Shu aziz Vatan barchamizniki” deb nomlanib o‘tkazilayotgan festivallar, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining birligini ta‘minlashda, yosh avlodni Vatanga muhabbat, baynalmilalchilik va milliy mustaqillikka sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga katta hissa ko‘shmokda. Davlatimiz tomonidan millatlar o‘rtasida totuvlikni ishlardan biri, asosiy qonunimizning 8-moddasida “O‘zbekiston xalqini, millatidan kat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqorolari tashkil etadi”, deb aniq belgilab ko‘yilganligidir. Bu modda mamlakatimizda yashayotgan munosabatlarning barqaror bo‘lishida katta ahamiyatga barcha millatlar shuningdek, bu erda ta‘kidlangan “O‘zbekiston xalqi” mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlik uchun ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizning 4-moddasida esa, – “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-

odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deb ta'kidlangan. SHuning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, respublikamizda 1992-yil milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Baynalmilal madaniyat markazi" tashkil etilgan edi. Ularning urf-odat va an'analarini hurmat qilish maqsadida esa, bugungi kunda barcha millatlarni o'z ona tilida o'qishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Respublikamizning ko'p joylarida maktablar, o'rta va oliy o'quv yurtlari bunga amal ilib, turli tillarda aniqrog'i, 10 dan ortik tillarda darslar olib borilmokda. Konstitutsiyamizning 18-moddasida millatlar o'rtasidagi totuvlikni xukukiy asosi sifatida – "jinsi, irki, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar konun oldida tengdir" - deyilgan bo'lsa, 31-moddada "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tikod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deb belgilab qo'yilganligi millatlar o'rtasidagi har qanday ziddiyatlarni oldini olishga, hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgandir. Ayniqsa, 1998-yilda qabul qilingan "Diniy tashkilotlar" to'g'risida qabul qiligan qonun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mana shunday chora tadbirlarning barchasi, barcha millat va elatlarning ahil-inoq, tinch totuv yashashlari uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyat va sharoitlardir.

Mamlakatimizdagi milliy-madaniy markazlar respublikamizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida, millatidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimiz qatnashishlari mumkin. Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish. Bu borada respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak. Bular

orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogik institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojiq turkman, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda. O'zbekiston televideniyesi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Zero, 12 (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

Shu o'rinda O'zbekistondagi millatlararo munosabatlardagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar xakida to'xtalib o'tmoq o'rinlidir. Bu masala, eng muhim masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun avvalo ob'ektiv va sub'ektiv omillarni aniqlab olish zarur bo'ladi. Millatlararo munosabatlardagi ob'ektiv omillarga – tarixan shakllangan, har bir millatning mentalitetiga xos bo'lgan, xech kimning irodasiga bog'liq bo'lmay o'z-o'zidan yuzaga kelgan shart-sharoitlar, urf-odatlar, udumlar va hokazolar kiradi. Sub'ektiv omillarga esa munosabatlarga kuchli ta'sir etuvchi, tub o'zgarishlar yasovchi – davlat rahbarlari, siyosiy kuchlar, ijtimoiy guruxlar, siyosiy qatlamlar kiradi. Sub'ektiv omillar millatlararo munosabatlarga ta'sir etishi va o'z moxiyatiga ko'ra ijobiy va salbiy bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, avvallari kirgiz, qozok, tojik, turkman xalqlari bir oila xisoblanib, Turon zaminida yashashgan. Bu haqida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “Turkiston umumiy uyimiz” nomli asarida – “Bizlar Buyuk Turon diyorida unib-o'sgan og'a-ini xalqlarmiz, tilimiz ham, dinimiz ham, mushtarakdir. Qadim-qadim zamondan Turon

zamin deb kengliklarda qozog‘u-o‘zbek, qirg‘izu-turkman barchamizning ota-bobolarimiz ot surib o‘tganlar. YAm-yashil serxosil dalalarda chorva boqqanlar, dexqonchilik qilganlar, ne-ne bosqinlarni, qirg‘inlarni ko‘rganlar, bu tuproqni bobolarimiz yonma-yon turib himoya qilganlar, binobarin bizning tariximiz ham birlashib ketgan” deb millatlararo munosabatlardagi ob‘ektiv omillarni ko‘rsatib bergan. Haqiqatan ham turkiy xalklar deb tarixda nom olgan o‘zbek, qozok, qirgiz, turkman, tojik, xalklari axil inoq yashab, quda-andachiliklarni ham yaxshi yo‘lga qo‘yganlar. Bu esa azaldan mavjud bo‘lgan O‘zbekistonda millatlararo munosabatlardagi ob‘ektiv omillar bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirgan.

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ob‘ektiv omillar bilan bir qatorda sub‘ektiv omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunga misol tariqasida MDH davlat rahbarlarining uchrashuvlari va ularning har tomonlama hamkorliklarini aytish mumkin. Ayniksa, bugungi kunda global muammoga aylangan Orol muammosi, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash masalalaridagi hamkorliklar millatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlamoqda va hamma uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga asos bo‘lmokda. Lekin shuni ham alohida ta’kidlash o‘rinliki, millatlararo munosabatlarda ijobiy ta’sir etuvchi omillar bilan bir qatorda salbiy xarakterga ega bo‘lgan sub‘ektiv omillar - ham mavjud bo‘lib, ular millatlar o‘rtasiga adovat urug‘ini sochib, kelishmovchiliklar, ziddiyatlarni keltirib chikarishi mumkin. Ushbu mazmundan kelib chiqib, xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi – millatlararo munosabatlardagi ob‘ektiv omillar rolini kuchaytirib, salbiy xarakterdagi sub‘ektiv omillarga nisbatan murosasiz bo‘lishdir. Bu o‘ta muhim masala bo‘lib, barcha ijobiy xarakterdagi sub‘ektiv omillar mas’uliyatini va rolini kuchaytirish maksadga muvofiqdir. Ijobiy va ijodiy mazmunga ega bo‘lgan subektiv omillarning jamiyat tarakkiyoti va millatlararo munosabatlarda totuvlikni ta’minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Bu esa O‘zbekistonda kuchli fukarolik jamiyatini barpo etishda millatlararo munosabatlarni yanada takomillashuvining asosiy omili bo‘lib xizmat kiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Respublika Baynalminal madaniyat markazining tashkil etilgannining 25 yilligiga bag‘ishlangan nutqi xususida. Milliy madaniy markazlar millatlararo totuvlikni mustahkamlash tayanchi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 24-yanvar kuni Respublika Baynalminal madaniyat markazining tashkil etilgannining 25 yilligiga bag‘ishlangan nutqi “Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – halqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai” deb nomlanadi.

“Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjixatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotga o‘zining to‘liq ifodasini topdi”, deb ta’kidladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqida.

O‘zbekistonda barcha millatlarga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta’lim muassaslarida o‘qitish 7 tilda olib borilmoqda. O‘zbekiston teleradilkompaniyasi o‘z ko‘rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o‘ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘zlarining o‘ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishga, har birimizda ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Barchangizga ma’lumki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni

emirib, jamiyatni parchalab. Radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osiyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning yuzdan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi. Turli millatlar vakili bo'lgan 14 nafar fuqaromiz O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlanganligi va 20 nafardan ziyod tashabbuskor va fidoyi yurtdoshlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan.


Ularning orasida Navoiy viloyati Konimex tumanidagi qoraqalpoq milliy madaniy markazi faoli Nurkul Bazarbaeva, Respublika Baynalminal madaniyat markazi direktorining o'rinbosari Sergey Mironov, Toshkent viloyat Yangiyo'l tumani tatar milliy madaniy markazi raisi Anisya Gataullina, Sirdaryo viloyatirus milliy madaniy markazi raisi Faina Golubsova, Xorazm viloyati qozoq milliy madaniy markazi raisi Po'latbek Izyumov, Jizzat viloyati koreys milliy madaniy markazi raisi Oleg Kim, Farg'ona viloyati yahudiy milliy madaniy markazi raisi Semyon Abdurahmonov, Toshkent shahridagi litva milliy milliy madaniy markazi raisi Lidiya Dovidaytis, Samarqand viloyatidagi nemis milliy madaniy markazi raisi Natalya Kayzer, Nukus shahridagi "Slavutich" ukrain milliy madaniy markazi raisi Olga Mironets, Qashqadaryo viloyatidagi tojik milliy madaniy markazi raisi Abdurasul Ergashev kabi yurtdoshlarimiz bor.

Shuningdek, Toshkent shahridagi "Svitanak" belorus milliy madaniy markazi raisining o'rinbosari Nina SHubnikova, Qashqadaryo viloyatidagi arab milliy madaniy markazi raisining o'rinbosari Niyozmuhammad Panjiev, Buxoro viloyatidagi turk milliy madaniy markazi raisi o'rinbosari Juma Shukurov, respublika ozarbayjon milliy

madaniy markazining “Ozarbayjon qizlari” ansambli badiy rahbari Kaykep Alieva, Qaraqalpog‘iston Respublikasi turkman milliy madaniy markazi faoli Arazmuxammed Abaev, Andijn viloyatidagi qirg‘iz milliy madaniy markazi faoli Umutxon Mamatalieva, respublika arman milliy madaniy markazi faoli Georgiy Saakov va boshqalar ham davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Tayanch so‘z va iboralar: tolerantlik, baynalmilalchilik, baynalmilal markaz, millatlararo do‘stlik, “Ozarbayjon qizlari” ansambli, “Slavutich” ukrain milliy madaniy markazi, “Svitanak” belorus milliy madaniy markazi.

12- Maruza mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“T - chizma”** interfaol usulidan foydalaniladi.



Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Orol muammosini oldini olish masalalaridagi hamkorliklar: +ijobiy, -salbiy
2. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash: +ijobiy, -salbiy
3. “Milliy - madaniy markaz”lar faoliyati: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

“T – sxema” o‘tkazish bosqichlarini qo‘yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri **“T – sxema”** interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- **“T – sxema”** interfaol usuli masala mohiyatini to‘liq tushunib olishga asoslangan bo‘lib, bunda mavzu oid bo‘lgan tushuncha, ma’lumot,

tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi ob'ektiv omillarni sanang?
2. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi sub'ektiv omillar qaysilar?
3. O'zbekistonda necha tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda?
4. Mamlakatimizda nechta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda?
5. Turli millatlar vakili bo'lgan necha nafar fuqaromiz O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlangan?

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 80 b.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
3. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
4. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
5. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил

этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. // Халқ сўзи, 2017 йил 25 январь.

7. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — 295-304 бетлар.
8. Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Фармони. 2017 йил 19 май. ПФ — 5046 сон.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида “Аждодларимизнинг донишмандлик анъаналарига амал қилиб; қатъий ислохотларни амалга оширилмоқдамиз” нутқи. 2017 йил 19 сентябрь.
10. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
11. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз кеажак йўқ. — Тошкент: Шарқ, 1998.

Asosiy adabiyotlar:

12. Ўтанова З. Ўзбекистонда кучли фуқаролик жамитни барпо этишда миллатлараро муносабатлардаги объектив ва субъектив омилларнинг роли. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. — Тошкент, 2010.—Б.133-136.
13. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. — Тошкент: Университет, 2007. — 183 б.
14. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. —Ташкент: Узбекистан, 2010.- 151с.
15. Муртазаева Р.Х. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX — в начале ХХІ веков: исторические события и новые

- тенденции. Учебное пособие для магистров. – Германия: Lambert, 2015.
16. Муртазаева Р.Х. Маҳалла – миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик маскани. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
17. Муртазаева Р.Х. Маҳалла – фуқаролар ўзини ўзи бошқаруви институтининг ноёб намунаси. Илмий тўплам. – Тошкент: Mumto'z so'z, 2016.
18. Муртазаева Р.Х. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича. Илмий-услубий рисола. Ҳаммуалифликда. – Тошкент: Маънавият, 2017. –Б.15-25.

GLOSSARIY

Anneksiya (lot. annexio – birlashtirish, qo‘shilish) – bir davlat hududini butunlay yoki qisman zo‘ravonlik bilan egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosati bo‘lib, agressiyaning bir turi hisoblanadi.

Agressiya (lot. aggressio – hujum qilish, tajovuz) bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki xalqning (millatning) suverineteti, hududiy dahlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustavi nuqtai nazaridan g‘ayriqonuniy bo‘lgan har qanday kuch ishlatish.

Ateizm – (yunonchada A – inkor, teos – xudo, ya’ni xudoni inkor etish) xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Baynalmilalchilik (arab. Maynalmilal. Millatlararo) – jahondagi turli millat va irq'larga mansub kishilarning xalqaro birdamligi.

Birdamlik – bag‘rikenglikka oid eng muhim kategoriyalardan biri bo‘lib, u turli mamlakat, millat, madaniyat, guruh, individlar o‘rtasidagi hamjihatlik va uzviy yaqinlikni ifodalaydi.

Demogogiya (yunon. demos - xalq va ago – boshlayman) - keng jamoatchilik va xalq ommasiga ehtirosli, jozibador, biroq yolg‘on va soxta siyosiy vadalar berish.

Demokratiya (yunon. demos - xalq va kratos – hokimiya) – xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e‘lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli.

Diplomatiya (fransuz tilidan olingan diplomatie) – davlatlar o‘rtasida tinch munosabatlar o‘rnatish va qo‘llab quvvatlash maqsadida o‘zaro munosabatlar, muloqot va tinch vositalar yordamida olib boriladigan xalqaro aloqalar.

Fanatizm (lot.fanaticus – ibodat) – muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekanligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, o‘zgacha g‘oyalarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va hatti-harakatlar tizimi.

Fashizm - (lotincha fascis so‘zidan olingan bo‘lib, bog‘lam, birlashma) – totalitar tipdagi siyosiy diktaturaga asoslangan hokimiyatning siyosiy konsepsiyasi.

Genotsid – genos – nasl, zod, avlod va side – o‘ldirmoq so‘zidan olingan. Muayyan xalqni yoki millatni, irqiy yoxud diniy jamoalarni butunlay yoki qisman qirib tashlashni anglatadi.

Insonparvarlik – odamzod qadri, erkinlik va qobiliyatlarning har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, kishilarning baxt-saodati, teng huquqliligi, adaolatli hayotini ta‘min etishga intilishini ifodalaydigan g‘oya va qarashlar tizimi.

Integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo‘lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-biriga o‘zaro ta‘sir etishi jarayoni.

Irqchilik – muayyan irq vakillarining boshqa irq vakillaridan ko‘ra ustun deb bilish.

Jadidchilik (arab.jadid – yangi) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy harakat. XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gasparali rahbarligida qrim tatarlari o‘rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan.

Kapitalizm (lot.kapital boylik, nematlar) – xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik institutlarga asolangan jamiyat turi.

Konservatizm – (lot. sonservatisme) 1) taraqqiyotga, yangilikka, ilg‘or g‘oyalarga dushmanlik; 2) eskilikni, eski tartib qoida va tamoyillarni saqlab qolish; 3) mavjud tartibot muassasalari va ijtimoiy-ma‘naviy qadriyatlarni himoya qiluvchi ijtimoiy-siyosiy ta‘limot va siyosiy qarashlar tizimini anglatadi.

Ksenofobiya (yunon.xenox-begona, chetdan kelgan, qo‘rquv) – qo‘rquv va begonalarga nafrat ma‘nosini anglatadigan tushuncha.

Liberalizm (lot. kiberalis-erkinlik) – XVII-XVIII asrlarda Evropa davlatlarida yuzaga kelgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustivor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e‘tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim.

Marginallik – o‘z guruhi, uyushmasidan tashqarida bo‘lish, umum qabul etilgan me‘yorlar, tushunchalar chegarasidan chiqish.

Mafkura (arab.fikrlar majmui) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat. Davlat manfaatlari, orzu istak va maqsad-muddaolari ifodalangantg‘oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

Mahalliychilik – kishilarda o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg‘usining salbiy shaklda namoyon bo‘lishi.

Mentalitet (lot.mens-ichki tuyg‘u, aql-idrok) – gumanitar yo‘nalishdagi umumlashtiruvchi, xususan turli psixologik va boshqa sifatlardan iborat alohidaliklar, o‘ziga xoslik majmuasini va ularning ifodalanish holatlarini anglatuvchi ijtimoiy-siyosiy tushuncha.

Millatlararo totuvlik – milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha.

Millatparastlik – millatlar tengligini inkor etib, o‘z millatini boshqa millatlardan yuqori qo‘yish, unga imtiyoz yaratishga intilish, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal ko‘rish.

Millatparavarlik – insoniyat taraqqiyotida millatlarning o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, Er yuzining har bir burchagida mavjud millatlarning tili, turmush tarzi, irqi, tashqi qiyofasi, urf-odatlar, dini, madaniyatining o‘ziga xos tomonlaridan qat‘iy nazar, hurmat qilish, ularning ozodligi, tengligi, gullab-yashnashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish tarafdori bo‘lish.

Millatchilik – o‘z millatini boshqa millatlardan alohida ajratib ko‘rsatish, uning “o‘ziga xosligini” ulug‘lash va maqtash, boshqa millat kishilarini manfaatlari, ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarash, xudbinlarcha munosabatlarni ifodolovchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti.

Natsizm – nemis fashizmi siyosati va mafkurasining umumiy nomlanishidir. U irqchilik, antisemitizm, totalitarizm, tajovuz kabi salbiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi.

Salib yurishlari – 1096–1270 yillarda G‘arbiy Evropa va katolik cherkovi hokimligi ostida YAqin SHarqqa qilingan bosqinchilik urushlari.

Senzura (lot.censura-jiddiy muhokama, shavqatsiz tanqid) – bosmadan chiqadigan maxsulotlar, ularning chop etilishi, tarqalishini ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radioeshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlar, ba’zida esa shaxsiy yozishmalarning mazmuni va ijrosi ustidan hokimiyat organlarining nazorat o‘rnatishi.

Siyosiy bag‘rikenglik – siyosiy hayotda hukmron partiya bilan birga muxolifat partiyasining ham mavjud bo‘lishini, hukmron partiya va muxolif partiya bir-birlariga nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishlari lozimligini anglatadi.

Sovetlar – Sovet Ittifoqida davlat hokimiyatining saylanuvchi vakolatli organlari. To‘liq nomi – 1905-1917 yillarda Ishchi deputatlari Sovetlari, 1917 – 1918 yillarda Ishchi va soldat deputatlari Soveti hamda Dehqon deputatlari Sovetlari, 1918 – 1936 yillarda Ishchi, dehqon va soldat deputatlari Sovetlari, 1936-1977 yillarda Mehnatkashlar deputatlari Sovetlari; 1977 yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasiga ko‘ra, Xalq deputatlari Sovetlari nomi bilan atalgan.

Tajribachilar – O‘zbekiston SSRda 1923-1933 yillarda Mahalliyalashtirish komissiyasi tomonidan davlat boshqaruv ishlariga jalb etilgan mahalliy millatga mansub xizmatchilar. Bular davlat boshqaruvining turli bo‘g‘inlarida amaliyot o‘tab, mahalliyalashtirish komissiyasi tomonidan shtatga loyiq deb topilgach, amaliyot o‘tagan muassasasaga ishga joylashtirilgan. Tajribachilarga amaliyot o‘tagan davri mobaynida belgilangan muassasaning ba’zilari maosh to‘lagan. Daromadsiz hukumat idoralaridagi tajribachilarning maoshi esa Turkiston XKS tomonidan berilgan. Ba’zida mahalliyalashtirish komissiyasi tomonidan ham tajribachilarning xarajatlari qisman qoplangan.

Tinchlik – bu so‘zning ma’nosi xilma-xil bo‘lib, u eng avvalo urush va terrorning yo‘qligi, osoyishtalik, hamjihatlik va xotirjamlikni bildiradi. Tinchlik jamiyatning barcha a’zolari o‘rtasida. Ularning

millati, dini, jinsi, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, o'zaro ahillik va totuvlik mavjudligini anglatadi.

Tolerantlik (lot. tolerantia- chidamlilik, sabr-toqat) bag'rikenglik – o'zgalarning turmush tarzi, xulq atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish.

Totalitarizm (lot.totalitare – yaxlit, butun, mutlaq, yoppasiga) – ijtimoiy hayotning barcha sohalarini zo'ravonlik bilan mutlaq nazorat ostiga olinishiga asoslangan davlat tizimi.

SHovinizm (fran. shauvinism) – millatchilikning o'ziga xos shakli bo'lib, millatlarni mensimaslik va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti.

MUNDARIJA

1-Mavzu: O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik fanining maqsad va vazifalari.....	5 – 20
2-Mavzu: Davlat milliy siyosatining huquqiy asoslari.....	21 – 32
3-Mavzu: Bag‘rikenglik – fuqarolik jamiyatining darajasi va qadriyati.....	32 – 48
4-Mavzu: O‘zbek mentalitetida etnotolerantlik xususiyati – millatlararo totuvlikning garovi.....	49 – 59
5-Mavzu: Sharq va G‘arb mutafakkirlari asarlarida bag‘rikenglik masalasi.....	60 – 72
6-mavzu: O‘lka milliy taraqqiyparvar ziyolilarning diniy va milliy bag‘rikengligi.....	72 – 87
7-Mavzu: O‘zbekistonda ko‘pmillatlikning shakllanishi va bag‘rikenglik (XIX asrning 2-yarmi – XX asr misolida).....	87 – 111
8-Mavzu: Milliy masalaga oid sovet nazariyasi va amaliyoti....	112 – 134
9-Mavzu: Aholi ro‘yxatga olish kampaniyalari. Markaziy Osiyo respublikalarida istiqomat qilgan o‘zbeklarning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi.....	134–153
10-mavzu: Ikkinchi jahon urushining O‘zbekiston uchun demografik oqibatlari. Deportatsiya qilingan millatlar va o‘zbek xalqining bag‘rikengligi.....	153–165
11-Mavzu: XX asr 80-yillar oxiridagi millatlararo mojarolar-totalitar milliy siyosat natijasi.....	165–180
12-Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Baynalminal markazining tashkil etilishi va faoliyati.....	180–190
GLOSSARIY.....	191 – 195

СОДЕРЖАНИЕ

1-Тема: Цели и задачи учебного пособия по международным отношениям и толерантности в Узбекистане.....	5 – 20
2-Тема: Правовые основы национальной политики государства.....	21 – 32
3-Тема: Толерантность – уровень и ценности гражданского общества.....	32 – 48
4-Тема: Этнотолерантные черты узбекского менталитета – залог межэтнического согласия.....	49 – 59
5-Тема: Проблема толерантности в трактатах восточных и западных ученых.....	60 – 72
6-Тема: Религиозная и национальная терпимость прогрессивной национальной интеллигенции региона.....	72 – 87
7-Тема: Формирование полиэтничности и толерантности в Узбекистане (на примере второй половины XIX-XX века).....	87 – 111
8-Тема: Советская теория и практика, связанные с национальными проблемами.....	112 – 134
9-Тема: Кампании по переписей населения. Кампании по переписей населения. Общественно-политический образ жизни узбеков, проживающих в странах Центральной Азии.....	134–153
10-Тема: Демографические последствия 2-й мировой войны для Узбекистана, депортированные этнические группы и толерантность узбекской нации.....	153–165
11-Тема: Межэтнические конфликты в конце 80-х годов XX века - результат тоталитарной этнической политики.....	165–180
12-Тема: Создание центра Байналмилал Республики Узбекистан и его деятельность.....	180–190
ГЛОССАРИЙ	191 – 195

CONTENTS

1-Theme: The aims and tasks of the handbook of international relations and tolerance in Uzbekistan	5 – 20
2-Theme: The legal basics of national politics of the state.....	21 – 32
3-Theme: Tolerance –level and values of the civil society.....	32 – 48
4-Theme: The ethnotolerant features in the Uzbek mentality – guarantee of the interethnic harmony.....	49 – 59
5-Theme:: The issue of tolerance as per treatises of Eastern and Western scholars.....	60 – 72
6-Theme:: The religious and national tolerance of the progressive national intelligentsia of the region.....	72 – 87
7-Theme: The formation of polyethnicity and tolerance in Uzbekistan (in the example of second half of the 19 th and 20 th century).....	87 – 111
8-Theme: The Soviet theory and practice related with the national problems.....	112 – 134
9-Theme: The campaigns of censuses of population. Аҳоли рўйхатга олиш кампаниялари. The socio-political lifestyle of the Uzbeks living in the countries of Central Asian Republics.....	134–153
10-Theme: The demographical consequences of the 2 ND World War for Uzbekistan The deported ethnicities and the tolerance of the Uzbek nation.....	153–165
11-Theme: The interethnic conflicts in the end of the 80s of the 20 th century –result of the totalitarian ethnic policy.....	165–180
12-Theme: The establishment of the Baynalmilal center of the Republic of Uzbekistan and its activities.....	180–190
GLOSSARIY	191–195

OYBEK RASHIDOV

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA BAG‘RIKENGLIK

Техник муҳаррир:

Г. Самиева

Мусахҳиҳ:

М. Рахимов

Саҳифаловчи:

М. Арслонов

«Muharrir nashriyoti»

Оригинал – макетдан босишга рухсат
этилди: 28.12.2022. Бичими 60x84. Кегли 16 shponli.
Офсет босма усулида. Офсет босма қоғозида.
Босма табағи 12,5. Адади 100. Буюртма № 350.



«Шарқ – Бухоро» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Бухоро шаҳар Ўзбекистон Мустақиллиги кўчаси, 70/2 уй.
Тел: 0(365) 222-46-46